

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
MINTAQAVIY BO‘LIMI
XORAZM MA‘MUN AKADEMIYASI**

**XORAZM MA‘MUN
AKADEMIYASI
AXBOROTNOMASI**

Axborotnoma OAK Rayosatining 2016-yil 29-dekabrdagi 223/4-son qarori bilan biologiya, qishloq xo‘jaligi, tarix, iqtisodiyot, filologiya va arxitektura fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan

**2024-8/3
Xorazm Ma‘mun akademiyasi axborotnomasi
2006 yildan boshlab chop qilinadi**

Xiva-2024

Bosh muharrir:

Abdullayev Ikram Iskandarovich, b.f.d., prof.

Bosh muharrir o‘rinbosari:

Hasanov Shodlik Bekpo‘latovich, k.f.n., k.i.x.

Tahrir hayati:

Abdullayev Ikram Iskandarovich, b.f.d., prof.
Abdullayeva Muborak Maxmusovna, b.f.d., prof.
Abduhalimov Bahrom Abduraximovich, t.f.d., prof.
Agzamova Gulchexra Azizovna, t.f.d., prof.
Aimbetov Nagmet Kalliyevich, i.f.d., akad.
Ametov Yakub Idrisovich, b.f.d., prof.
Babadjanov Xushnut, f.f.n., prof.
Bobojonova Sayyora Xushnudovna, b.f.n., dos.
Bekchanov Davron Jumanazarovich, k.f.d.
Buriyev Xasan Chutbayevich, b.f.d., prof.
Gandjayeva Lola Atanazarovna, b.f.d., k.i.x.
Davletov Sanjar Rajabovich, tar.f.d.
Durdiyeva Gavhar Salayevna, arx.f.d.
Ibragimov Baxtiyor To‘laganovich, k.f.d., akad.
Izzatullayev Zuvayd, b.f.d., prof.
Ismailov Is‘haqjon Otabayevich, f.f.n., dos.
Jumaniyozov Zoxid Otaboyevich, f.f.n., dos.
Jumanov Murat Arepbayevich, b.f.d., prof.
Kadirova Shaxnoza Abdaxalilovna, k.f.d., prof.
Qalandarov Nazimxon Nazirovich, b.f.f.d., k.i.x.
Karabayev Ikramjan Turayevich, q/x.f.d., prof.
Karimov Ulug‘bek Temirbayevich, DSc
Kurbanbayev Ilhom Jumanazarovich, b.f.d., prof.
Kurbanova Saida Bekchanovna, f.f.n., dos.
Qutliyev Uchqun Otoboyevich, f-m.f.d.
Lamers Jon, q/x.f.d., prof.
Maykl S. Enjel, b.f.d., prof.
Maxmudov Raufjon Baxodirovich, f.f.d., k.i.x.
Mirzayev Sirojiddin Zayniyevich, f-m.f.d., prof.
Mirzayeva Gulnara Saidarifovna, b.f.d.

Pazilov Abduvayeit, b.f.d., prof.
Razzaqova Surayyo Razzoqovna, k.f.f.d., dos.
Ramatov Bakmat Zaripovich, q/x.f.n., dos.
Raximov Raxim Atajanovich, t.f.d., prof.
Raximov Matnazar Shomurotovich, b.f.d., prof.
Raximova Go‘zal Yuldashovna, f.f.f.d., dos.
Ro‘zmetov Baxtiyar, i.f.d., prof.
Ro‘zmetov Dilshod Ro‘zimboyevich, g.f.n., k.i.x.
Sadullayev Azimboy, f-m.f.d., akad.
Salayev San‘atbek Komilovich, i.f.d., prof.
Saparbayeva Gulandam Masharipovna, f.f.f.d.
Saparov Kalandar Abdullayevich, b.f.d., prof.
Safarov Alisher Karimjanovich, b.f.d., dos.
Sirojov Oybek Ochilovich, s.f.d., prof.
Sobitov O‘lmasboy Tojxmedovich, b.f.f.d., k.i.x.
Sotipov Goyipnazar, q/x.f.d., prof.
Tojibayev Komiljon Sharobitdinovich, b.f.d., akad.
Xolliyev Askar Ergashevich, b.f.d., prof.
Xolmatov Baxtiyor Rustamovich, b.f.d.
Cho‘ponov Otanazar Otojonovich, f.f.d., dos.
Shakarboyev Erkin Berdikulovich, b.f.d., prof.
Ermatova Jamila Ismailovna, f.f.n., dos.
Eshchanov Ruzumboy Abdullayevich, b.f.d., prof.
O‘razboyev G‘ayrat O‘razaliyevich, f-m.f.d.
O‘rozboyev Abdulla Durdiyevich, f.f.d.
Hajiyeva Maqsuda Sultonovna, fal.f.d.
Hasanov Shodlik Bekpo‘latovich, k.f.n., k.i.x.
Xudayberganova Durдона Sidiqovna, f.f.d.
Xudoyberganov Oybek Ikromovich, PhD, k.i.x.

Xorazm Ma‘mun akademiyasi axborotnomasi: ilmiy jurnal.-№8/3 (117), Xorazm Ma‘mun akademiyasi, 2024 y. – 124 b. – Bosma nashrning elektron varianti - <http://mamun.uz/uz/page/56>

ISSN 2091-573 X

Muassis: O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi mintaqaviy bo‘limi – Xorazm Ma‘mun akademiyasi

MUNDARIJA TARIX FANLARI

Abdig‘apparov O.A. Zarafshon qoraqalpoqlarining moddiy madaniyatidagi o‘zgarishlar xususida	5
Abdulloev Sh.A. Yangi O‘zbekistonda oliy ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan ijtimoiy himoyaga muhtoj hamda iqtidorli talabalarni rag‘batlantirish borasida amalga oshirilgan tadbirlar	7
Abduvohidov D.N. Samarqand viloyatidagi pravoslav cherkovlari qurilishi tarixi	11
Amirkulov J.B. Turkiston havaskor arxeologlar to‘garagining o‘lka tarixiy va arxeologik yodgorliklarini o‘rganish va saqlash borasidagi sayi harakatlari	14
Bekmirzayev R.B. Farg‘ona vodiysi zamonaviy millatlararo munosabatlariga yangicha etno-antropologik yondashuv	17
Danabekov A.S., Toshturov Sh. “Alash” partiyasining yaratilishi va xalq ziyolilari	22
G‘aniyev A.A. Diskriminatsiya va uning shaxs psixologiyasiga ta’siri: o‘zbek immigrantlari misolida	25
Matkarimova N.M. “Alpomish” dostonida beshik to‘yi va sunnat to‘yi bilan bog‘liq marosim va urf-odatlarining ifodalanishi	27
Matkarimova N.M. Xorazm vohasi beshik to‘ylaridagi an‘ana va urf-odatlar ma’naviy qadriyat sifatida	30
Norbo‘tayeva G.A. Maktabgacha ta’lim muassasalarining mustaqillikning dastlabki yillaridagi ahvoli	34
Ochildiyev L.N. 2017-2021-yillarda Qashqadaryo vohasida ziyorat turizmining rivojlantirilishi	36
Razzaqov J.N. Xiva xonligining Britaniya imperiyasi bilan siyosiy–iqtisodiy aloqalari manbashunosligi	39
Rustamov I. “O‘zbekistonning eng yangi tarixi” fanini o‘qitishning ayrim jihatlarini haqida	42
Tillayev D.O. Xonlikda toshbosmada chop qilingan ilk asarlar	44
Tillayev D.O. Xiva xonligida matbaachilik tarixidan	47
Tugalov B.B., Ummatov S.Q. Yozma manbalarda baqtriya arixining aks etishi xususida	50
Tursunova D.B. Milliy hunarmandchilik sohalarida xotin-qizlar ishtiroki	52
Xamraqulova Sh.Sh., Temirov Sh.M. XX asr boshlarida Germaniyadagi o‘zbek muhojirlarining kasbiy faoliyatlari tarixidan	55
Xudayberdiyeva N.A. Jismoniy tarbiya va sport sohasida ayollar o‘rtasida ommaviy sportni rivojlantirish	58
Адилов Ф.А. Ўзбек кино санъатининг ривожланишида грузия киноижодкорларининг ўрни	62
Алланазаров М.М. Бутунбухоро марказий инқилобий кўмитаси ва жойларда ревкомларнинг тузилиши	65
Канатова А.К. Степные племена и народы Приаралья в XI - начале XIII вв	68
Канатова А.К. Концепция академика С.К.Камалова об этногенезе каракалпаков	71
Кудайбергенов С. Ш. Марказий Осиё коммуникация тизимида Жанубий Оролбўйининг тутган ўрни	73
Мадаминов О.З. Ўзбекистоннинг ижтимоий-иқтисодий соҳаларида амалга оширилаётган кенг миқёсли ислоҳотлар ҳамда мамлакатимизнинг янгиланган, очиқ ва прагматик ташқи сиёсати	78
Маткаримова Н.М. Халфачилик санъатининг ўзига хослиги ва маънавий асослари	82
Маткаримова Н.М. Халфачиликнинг ўзига хос хусусиятлари: ижро ва ижод жараёнларининг ўзаро муносабати	85
Сулайманова С.Б., Жумаева И. Фарбий Турк хоқонлиги даврида самарканд тангалари	88
Шоназаров А.А. “Сахиул Бухорий”нинг замонлар оша сақланиши ва тарқалишида насафлик ровийларнинг хизматлари	92

PEDAGOGIKA FANLARI

Abdurakhimova N.B. Refining methodologies to foster communicative competence in 8 th and 9 th grade (non-native) students	95
Gafforova I. The importance of correct pronunciation in the formation of pronunciation skills	99

Mambetkarimov B. Enhancing learner autonomy through digital resources	102
Mengliyev Sh.A., Jo'rayeva Z.Q. Masofali ta'limdan foydalanishda elektron darslikning o'rni	104
Muhitdinova D.A., Egamberdiyeva N.M. Oilada bolalarga nisbatan zo'ravonlikning sabablari	107
Po'latova N.B. Ingliz tilini maxsus maqsadlarda o'qitishning mazmuni va mohiyati	109
Rakhmatullaeva N.N. The importance of communication skills in english language education	112
Rakhmatullaeva N.N. Enhancing communication and speaking skills through english pronunciation practice	115
Suvankulova M.B. Improving the method of forming information and communication competence in future English language teachers' professional preparation	117
Шавилова Н.С. Принцип ситуативности в отборе и организации языкового материала на уроках русского языка	120

TARIX FANLARI

UO'K 93/94

**ZARAFSHON QORAQALPOQLARINING MODDIY MADANIYATIDAGI
O'ZGARISHLAR XUSUSIDA***O.A. Abdig'apparov, o'qituvchi, Jizzax davlat universiteti, Jizzax*

Annotatsiya. Mazkur maqolada muallifning Zarafshon hududi qoraqalpoqlarining moddiy madaniyatidagi o'zgarishlar haqidagi fikr-mulohazalari bayon qilingan.

Kalit so'zlar: etnos, Zarafshon hududi qoraqalpoqlari, urf-odat, beshik, marosimlar

Аннотация. В данной статье изложено мнение автора об изменениях материальной культуры каракалпаков Зарафшанского региона.

Ключевые слова: этнос, каракалпаки Зарафшанского региона, традиция, колыбель, обряды

Abstract. This article describes the author's opinion about the changes in the material culture of Karakalpaks of the Zarafshan region.

Keywords: ethnos, Karakalpaks of Zarafshan region, tradition, cradle, rituals

Hozirgi Markaziy Osiyo hududlarida bo'lib o'tgan tarixiy-madaniy jarayonlar, ijtimoiy-iqtisodiy yuksalishlar, turli davrlarda xalq farovonligi va taraqqiyotini ko'zlab o'tkazilgan ko'plab islohotlar, shuningdek, yuksalish va inqiroz holatlari mintaqaning serqirra va rang-barang tarixidan dalolat beradi. Zero, haqqoniy yozilgan tarixni o'rganish va o'qitish shuning uchun ham kerakki, u soxta tarixiy tushuncha va tarixiy xotirasizlikka barham beradi. Tarixni mukammal bilish, uning mazmun va mohiyati, falsafasini teran anglash millat uchun yuksak fazilat hisoblanadi.

Bizga ma'lumki, XIX-asrning oxirlariga kelib Zarafshon hududi qoraqalpoqlarining ijtimoiy-maishiy hayotida ham o'zgarishlar sodir bo'ldi. O'rganilayotgan davrda qoraqalpoqlarning an'anaviy turar joylari, taomlari va kiyim-kechaklarida an'anaviylik saqlanib qolishi bilan birga, ushbu sohada transformatsiya jarayonlarining jadallashganligi ko'zga tashlanadi. Zarafshon hududi qoraqalpoqlarining an'anaviy uy-joylari boshqa chorvador etnoslar kabi asosan vaqtinchalik turdagi o'tovlardan iborat bo'lgan. Qoraqalpoqlarning an'anaviy uylari, xususan, vaqtinchalik turar joy – o'tov ("qora uy"), kapalari o'zining tuzilishi hamda qurilishidagi materiallar, tashqi va ichki jihozlanishi bilan qo'shni yarimo'troq elatlarning o'tovlari ("qora uy")dan bir qator jihatlari bilan farq qilganligi tadqiqotlarda o'z aksini topgan[1]. Zarafshon hududi qoraqalpoqlarining boshqa chorvador xalqlarda bo'lgani kabi vaqtinchalik uy-joylardan doimiy turdagi uy-joylarga o'tishi bir necha o'n yillarni o'z ichiga olib, evolyutsion tarzda "o'tov" – "kapa" – "yerto'la" – "paxsa devorli uy" tizimida yuz bergan. Bunday jarayon eng avvalo, aholi ijtimoiy-iqtisodiy holati hamda tabiiy shart-sharoit omillari bilan bog'liq holda kechgan. Ularning doimiy uy-joylari o'troq o'zbeklar va boshqa xalqlar ta'sirida shakllangan bo'lib, vaqt o'tishi bilan tashqi ko'rinishi va ichki tuzilishi (interyeri) o'zgarib bordi. Bunda o'troq aholi manzilgohlari bilan birxillashuv, ya'ni unifikatsiyalashuv yuz bera boshladi. Etnointegratsiya namoyon bo'lgan moddiy madaniyatning yana bir sohasi– an'anaviy taomlar bo'lib, voha qoraqalpoqlarining an'anaviy taomlari etnolokal va etnohududiy xususiyatlarning yig'indisidan tashkil topgan.. Ularning an'anaviy oziq-ovqatlari xo'jalik yo'nalishidan kelib chiqib, asosan, sutli va go'shtli taomlardan iborat bo'lgan. Qoraqalpoq xalq naqlarida: "Uch oy sut, uch oy qovun, uch oy oshqovoq, uch oy baliq" ("Ush ay, sauyym, ush ay кауым, ush ay kabagym, ush ay shabagym") bo'lsa, och qolmaymiz, deb hisoblaydilar. Shuning uchun ham ularning taomnomasida sut, oshqovoq, qovun va baliq mahsulotlari asosiy o'rinni egallaydi.

Voha qoraqalpoqlari an'anaviy taomnomasini baliq sho'rva, qozon non, xamir osh, kulchatoy, go'ja, bo'g'irsoq, qatlama, beshbarmoq, zog'ora kulcha, norin, jo'xori osh, jo'xori kulcha, qotirma non, sholg'omli ovqat, o'rama, shilpildoq, xasip kabilar tashkil etadi. Zarafshon hududi qoraqalpoqlarini an'anaviy taomlari ham bir qator etnomadaniy omillar ta'sirida o'zgarishlarga uchradi. Ushbu o'zgarishlar ularning turmush tarzi va xo'jaligidagi o'zgarishlar bilan bog'liq holda

kechdi. Etnoslararo xo'jalik-madaniy aloqalar qoraqalpoqlarning milliy kiyimlarida ham o'z aksini topgan. Ma'lumki, qoraqalpoqlarning kiyimlari XIX asr oxirlarida voha hududidagi barcha etnoslar kabi umumiy o'xshashlik asosida yagona bichim va shaklga kira boshladi[2]

Elshunos U.Abdullayev bu xususda quyidagilarni ta'kidlab o'tgan: "O'rta Osiyo xalqlarining milliy kiyimlari shu darajada bir-biriga qorishib ketganki, ayrim kiyimlar va kiyim elementlarini kimdan-kimga o'tganligini aniqlash juda mushkul"[3]. Ayni vaqtda, qoraqalpoqlarning an'anaviy kiyimlari mahalliy etnik jihatdan ko'pchilikni tashkil etuvchi o'zbek va tojiklardan farqli o'laroq, ba'zi bir milliy va etnik xususiyatlarini saqlab qolgan edi. Ushbu etnik xususiyatlar asosan, ularning bosh kiyimlari, kiyim bezaklarida, mato to'qishdagi xom-ashyoga, ishlab chiqarish qurollariga, ustalarning mahoratiga va qaysidir ma'noda u yoki bu kiyimlarini afzal ko'rishlarida ko'proq namoyon bo'lar edi. Har bir xalqning boshqa bir xalqdan ajratib turuvchi muhim etnografik belgilaridan biri uning marosimlaridir[4]. Qoraqalpoqlarning farzand tug'ilishi bilan bog'liq urf-odat va marosimlari O'rta Osiyo xalqlari bilan umumiylikka ega. Ayni vaqtda, voha muhitida qator o'ziga xoslik va lokal jihatlarni ham saqlab qolgan. Zarafshon hududi qoraqalpoqlarida ham bolani birinchi marta beshikka belashda odatda kekxa, serfarzand va uvali-juvali momolar tomonidan amalga oshirilgan. Beshik ostiga maxsus yopilgan kulcha non va qalampir qo'yanlar. Beshikka belash vaqtida "alashlash" marosimini o'tkazilgan. Unda beshikning latta qiyqimlari tutatilib, "olas-olas dardi baloingdan xalos" deb chaqaloqqa ziyon keltirishi mumkin bo'lgan xastalik va dardu balolarni haydaganlar. Bizga ma'lumki, qoraqalpoqlarda ham o'ziga xos oila, uning tuzilishi, oiladagi o'zaro munosabatlar, an'anaviy nikoh turlari: "ekzogam", "endogam"[5], "levirat" [6], "sororat" [7] kabi nikoh turlari asrlar davomida saqlanib qolgan.

Zarafshon hududi qoraqalpoqlarida "beshikdan unashtiruv"[8] udumi mavjud bo'lgan. Bu udum Zarafshon qoraqalpoqlarda "aqalay quda tusu" [9] deb atalgan. Bundan tashqari voha qoraqalpoq to'y marosimlarida yuz ochdi ("bet ashar"), yo'l to'suv ("jol tosuv"), "kuyeuuleu", sog'im ("sog'im"), idish qaytdi ("idish qaytti"), kelin tushdi ("kelin tushdi") kabi bir necha urf-odatlari bo'lgan. Mahalliy o'zbeklar bilan quda-andachilik XX- asrning 70-80- yillaridan avj ola boshlagan. Zarafshon hududi qoraqalpoqlarida ham boshqa xalqlardagi kabi islomgacha bo'lgan diniy e'tiqodlar bilan bog'liq ishonch va tasavvurlar an'anaviy turmush tarzida sezilarli o'rin tutgan. Chunonchi, "jin", "farishta", "avliyo", "alvasti" kabi g'ayridunyoviy narsalarga ishonish keng ommalashgan.

Zarafshon hududi qoraqalpoqlari etnik guruhlarining dehqonchilikka o'tish jarayoni ular joylashgan hududlardagi chorva uchun yaylov va o'tloq maydonlarining keskin qisqarishi bilan bevosita bog'liq holda kechgan.[10] Boz ustiga vodiydagi tig'iz etnomadaniy aloqalar, etnoslararo faol integratsiya va assimilyatsiya jarayonlari barcha azaliy chorvador xalqlarning o'troqlashuviga va dehqonchilikning yanada rivojlanishiga olib keldi. Qoraqalpoqlar dastlab, daryo va ko'llar bo'yidagi botqoq yerlarni qamish va butalardan tozalab, dehqonchilik qila boshlaganlar. Vohadagi yirik ko'llardan qoraqalpoqlar ariq chiqarib, o'zegin maydonlarini sug'organliklari haqida manba va tadqiqotlarda ko'plab ma'lumotlar uchraydi.[11]

XIX asrning oxirlaridan Zarafshon hududi qoraqalpoqlari dehqonchilik yetakchi xo'jalik tarmog'iga aylana boshlaganligini statistik ma'lumotlar tasdiqlaydi.

Qoraqalpoqlar o'z yashash joylarining tabiiy iqlim sharoitidan, ekin maydonlarining tabiiy tanlanish holatidan hamda tuproqning tarkibiy tuzilishidan kelib chiqib, dehqonchilikning ayrim turlari bo'yicha ixtisoslasha borganlar. Chunonchi, Zarafshon hududi qoraqalpoqlari hududi tuprog'ining tarkibi xalq orasida "qattiq kesakli" deb atalib, yeri qattiq bo'lganligi bois asosan, poliz ekinlari yetishtirish bilan shug'ullanganlar. Albatta, Zarafshon hududi qoraqalpoqlarining dehqonchilikda ekin maydonlari va turlari kengayib, yillar davomida rivojlanib borgan.

Asta – sekin qoraqalpoqlar ham poliz ekinlaridan tashqari boshqa turdagi ekinlarni yetishtira boshlaganlar. Masalan, XX asrning 60-70 yillarida ayrim qoraqalpoq qishloqlarida sholi hamda qovun-tarvuz ekilgan.

Xulosa qilib aytganda, qoraqalpoqlarining vaqtinchalik uy-joylardan doimiy turdagi uy-joylarga o'tishi bir necha o'n yillarni o'z ichiga olib, evolyutsion tarzda yuz bergan. Bu holat eng avvalo, aholining ijtimoiy-iqtisodiy holati hamda tabiiy shart-sharoit omillari bilan bog'liq. Bundan ko'rinadiki, qoraqalpoqlarning doimiy uy-joylari o'troq o'zbeklar va boshqa xalqlar ta'sirida

shakllangan bo'lib, vaqt o'tishi bilan tashqi ko'rinishi va ichki tuzilishi (interyeri) o'zgarib borgan, o'troq aholi manzilgohlari bilan birxillashuv, ya'ni unifikatsiyalashuv yuz bera boshlagan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Жданлц Т.А., Камалов С.К. Этнография каракалпаков XIX – начало XX века (материалы исследования). Ташкент: “Фан”, 1980.
2. <https://cubeleninka.ru> > article>traditsion... Kurbonova Z. I. Tradisionnyy mujskoy kostyum karakalpakov. Statya 2016 y.
3. Abdullayev A. S. Farg'ona vohasida etnoslararo jarayonlar (XIX – XX- boshlari).
4. Ashirov A.A. O'zbek xalqining qadimiy e'tiqod va marosimlari. Toshkent . 2007
5. “Ekzogam” — (bir urug' yoki jamoaga mansub a'zolar orasida nikohning ta'qiqlanishi. Tashqi, aralash nikoh). “Endogam” — (qarindosh- urug'lar o'rtasidagi nikoh. Bir urug' ichidagi nikoh, ichki nikoh). Ushbu terminlar ibtidoiy jamoa, oila-nikoh munosabatlari bo'yicha shotland tadqiqotchisi Jon Fergyson Mak-Lennan tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan.
6. Levirat – Beva qolgan ayolni vafot etgan erining aka yoki ukasiga turmushga chiqishi (lot. “levir” – erining ukasi), (qozoqlarda emengerlik). <https://ru.m.wikipedia.org>
7. Sororat – vafot etgan ayolining singlisiga uylanish (lot. “soror” — singil) <https://ru.m.wikipedia.org>
8. Наливкин В.П., Наливкина В.М. Очерк быт женщины
9. Толстова Л.С. Каракалпаки Ферганской долины.
10. Назаров Ф.Записки о некоторых народах и землях Средней части Азии, – С..72;
11. Кушелевский В.Н. Материалы для медицинской географии...– С. 77-78; Толстова Л.С. Каракалпаки Ферганской долины... – С. 32-33.

UO'K 94

YANGI O'ZBEKISTONDA OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA TAHSIL OLAYOTGAN IJTIMOY HIMOYAGA MUHTOJ HAMDA IQTIDORLI TALABALARNI RAG'BATLANTIRISH BORASIDA AMALGA OSHIRILGAN TADBIRLAR *Sh.A.Abdulloev, tayanch doktorant, Samarqand Davlat Universiteti, Samarqand*

Annotatsiya. Yurtimizda 2016 yildan e'tiboran barcha sohalar qatori oliy ta'lim tizimini rivojlantirish borasida bir qator ishlar amalga oshirildi va salmoqli yutuqlar qo'lga kiritildi. Bu borada, ayniqsa oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan ijtimoiy himoyaga muhtoj hamda iqtidorli talabalarni rag'batlantirishga doir huquqiy asoslarining takomillashtirilishi muhim ahamiyatga ega. Keng ko'lamlari yaratilgan ushbu imkoniyatlarni tahlil qilish va uning natijalari haqida jamoatchilikka ma'lumot berish bugungi kunning dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Kalit so'zlar: “Ta'lim to'g'risida”gi yangi tahrirdagi qonun, oliy ta'lim bilan qamrab olish ko'rsatkichi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentyabrdagi 585-sonli qarori, iqtidorli talabalar, ijtimoiy himoya, Yoshlar siyosati, imtiyozli ta'lim krediti, Prezident granti

Аннотация. Начиная с 2016 года в нашей стране была проведена широкомасштабная работа по развитию системы высшего образования во всех сферах и достигнуты значительные успехи. Важное значение в этом плане имеет совершенствование правовых основ стимулирования социально незащищенных и одаренных студентов, особенно обучающихся в высших учебных заведениях. Анализ этих возможностей, созданных в широком масштабе, и информирование общественности о его результатах – одна из актуальных задач на сегодняшний день.

Ключевые слова: Новая редакция Закона «Об образовании», индекс охвата высшим образованием, Постановление Кабинета Министров Республики Узбекистан от 17 сентября 2021 года №585, одаренные студенты, социальная защита, Молодежная политика, льготный образовательный кредит, Президентский грант

Abstract. Since 2016, large-scale work has been carried out on the development of the higher education system, among all areas, and significant achievements have been made in our country. In this regard, it is important to improve the legal framework for the promotion of students in need of social protection, especially those studying in higher education institutions, as well as gifted students. The analysis of these opportunities, which have been created in a wide range, and the provision of information to the public about its results, is one of the pressing issues of today.

Key words: *New version of the Law "On Education", higher education coverage index, Resolution No. 585 of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan dated September 17, 2021, gifted students, social protection, Youth Policy, preferential education loan, Presidential grant.*

Kirish. O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng yoshlarga e'tibor va g'amxo'rlik ko'rsatish, ularni jamiyat ijtimoiy-siyosiy hayotidagi faolligini oshirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. "O'zbekiston aholisining qariyb yarmini yoshlar tashkil etganligi bois ularning o'z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratish, ijodiy faoliyatga keng jalb etish, jamiyat taraqqiyotidagi ishtirokini ta'minlash – davlat strategiyasini asosini tashkil etadi". Shu boisdan hozirda yoshlarning kundalik hayotidagi muammolarni o'rganish va bartaraf etishga doir chora-tadbirlarni yanada takomillashtirish, qobiliyatlarini tadbirkorlik, innovatsiya va ilg'or texnologiyalarga yo'naltirish, bandlikni ta'minlash, bo'sh vaqtdan samarali foydalanishi uchun qulay sharoitlar yaratishga oid choralarni kuchaytirish, globallashtirish sharoitida milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik ruhida tarbiyalash yoshlarga oid milliy siyosatga aylandi. O'zbekiston Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi ma'lumotlariga ko'ra, 2016-yildan buyon mamlakatdagi oliy o'quv yurtlari soni 77 tadan 212 taga ko'paygan. Xorij oliy ta'lim muassasalari filiallari ochilishi bilan qamrov 9 foizdan 47 foizga yetkazildi, talabalar soni esa 1 mln. 300 nafardan oshdi. "QS Osiyo universitetlari reytingi 2024" ro'yxatida 14 ta oliygoh "TOP-1000" universitetlar ro'yxatiga kiritildi. Biz oliy ta'lim tizimini yangi sifat bosqichiga ko'tarish, oliy o'quv yurtlari tizimini yanada rivojlantirish, sohadagi mavjud muammolarni bartaraf etish, pirovardida ilmfanning yirik o'choqlariga aylantirishga alohida e'tibor qaratamiz. Aholining oliy ta'lim bilan qamrab olinganlik darajasi muttasil oshirib boriladi. Ma'lumki, yaqin yaqinlargacha OTMLlarda tahsil olayotgan talabalar ta'lim muassasasining ilmiy, ma'naviy-ma'rifiy hamda jamoat ishlaridagi har qanday faolligi yoki ijtimoiy holatidan qat'iy nazar faqatgina o'zlariga ajratilgan ma'lum miqdordagi har oylik stipendiya bilan ta'minlanar edi, xolos. Ularni qo'shimcha rag'batlantirish mexanizmining mavjud emasligi ko'pgina iqtidorli talabalarni ta'lim muassasasi hayotida yanada faol bo'lish imkoniyatini cheklab qo'ygan edi. O'zbekiston taraqqiyotining yangi davrida ta'lim oluvchilarni ijtimoiy himoya qilish borasida 2020-yilda qabul qilingan yangi tahrirdagi "Ta'lim to'g'risida"gi qonunning ahamiyatini e'tirof etish lozim. E'tiborli tomoni shundaki, mazkur qonunning 52-moddasi asosida respublika ta'lim tashkilotlarida tahsil oluvchilarning turli qo'shimcha imtiyozlardan foydalanishlari huquqiy jihatdan kafolatlandi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan 2020-yil 31-yanvarda "Oliy ta'lim muassasalari talabalariga to'lanadigan stipendiyalar miqdorlarini belgilash hamda stipendiyalar tayinlash va to'lash tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 59-son qarorining qabul qilinishi natijasida iqtidorli va ijtimoiy himoyaga muhtoj talabalarni moddiy rag'batlantirish borasida muhim ahamiyatga ega bo'lgan huquqiy asos yaratildi. Ushbu qarorga ko'ra tegishli moliya yilida oliy ta'lim muassasalarida stipendiya to'lovlari uchun rejalashtirilgan byudjet mablag'lariga nisbatan 10 foiz hamda to'lov-kontrakt bo'yicha rejalashtirilgan tushumlarning 2 foiz miqdoridagi mablag'lar hisobiga Talabalarni rag'batlantirish jamg'armasi tashkil etildi (keyingi o'rinlarda Jamg'arma deb yuritiladi) hamda ushbu Jamg'arma mablag'lari hisobiga oliy ta'lim muassasasida davlat granti va to'lov-kontrakt asosida ta'lim olayotgan alohida iqtidorga ega, xalqaro, respublika va oliy ta'lim miqyosida o'tkazilgan fan olimpiadalari va sport musobaqalari g'oliblari, shuningdek, oliy ta'lim muassasasi kengashi tomonidan belgilangan mezonlarga muvofiq alohida hollarda (kasalligi yoki oila a'zolarining vafoti kabi) talabalarga bazaviy stipendiyaga nisbatan 10 baravargacha miqdorda bo'lgan bir martalik rag'batlantirish yoki moddiy yordam to'lovini joriy etish tizimi yo'lga qo'yildi. Soddaroq qilib aytadigan bo'lsak, 2020-yil 1-fevraldan boshlab alohida iqtidorga ega, xalqaro, respublika va oliy ta'lim miqyosida o'tkazilgan fan olimpiadalari va sport musobaqalari g'oliblari va jamoat ishlarida alohida faollik ko'rsatgan talabalar ham xuddi tashkilot yoki muassasa xodimi kabi bir martalik moddiy rag'batlantirish puli olish imkoniyatiga ega bo'ldi. Shuningdek, ushbu qarorga 1-ilova sifatida tasdiqlangan "Oliy ta'lim muassasalari talabalariga stipendiyalar tayinlash va to'lash tartibi to'g'risida Nizom"ning 5-6-boblarida keltirilgan qoidaga asosan, 1 va 2-guruh nogironligi bo'lgan hamda to'liq davlat ta'minotida bo'lgan yetim bolalar, yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan

mahrum bo'lgan bolalar sirasiga kiruvchi talabalarga Jamg'arma mablag'lari hisobidan stipendiyaning bazaviy miqdoriga nisbatan 50 foiz yuqori (oshirilgan) miqdorlarda stipendiya to'lanishi tartibi joriy etildi. Respublika miqyosida 2022-yilda 799 nafar iqtidorli, jamoat ishlarida faol bo'lgan, ijtimoiy himoyaga muhtoj, oilaviy sharoiti og'ir, imkoniyati cheklanganligini inobatga olgan holda moddiy qo'llab-quvvatlash maqsadida 633 174 422 million so'm rag'batlantirish va moddiy yordam berildi. 2023-yilda 615 nafar iqtidorli, jamoat ishlarida faol bo'lgan, ijtimoiy himoyaga muhtoj, oilaviy sharoiti og'ir, imkoniyati cheklanganligini inobatga olgan holda moddiy qo'llab-quvvatlash maqsadida 361 176 552 million so'm rag'batlantirish va moddiy yordam berildi. Xuddi shu maqsadda 2023-2024-o'quv yilida Samarqand davlat universitetining 5 sonli talabalar turar joyida istiqomat qiluvchi bir qator faol yoshlariga universitet rektori, professor, Oliy Majlis Senati a'zosi Rustam Xolmurodovning moddiy rag'batlantirish to'g'risidagi sertifikatlari topshirildi. O'tgan davr mobaynida ota-onalar farzandlarini oliy ta'lim muassasasida o'qitish uchun banklardan ta'lim kreditini 1 yil muddatga o'rta hisobda 22-28 foizda olardi. Ushbu ta'lim kreditini barcha banklar ham resurs yo'qligi bois ajrata olmasdi. Bu holat ko'pchilik ota-onalar va talabalar uchun moliyaviy jihatdan og'irlik qilardi. 2021/2022-o'quv yilidan boshlab esa respublikada faoliyat ko'rsatayotgan barcha oliy, o'rta maxsus va professional ta'lim muassasalari (davlat, nodavlat, xorijiy oliy ta'lim tashkilotlari va ularning filiallari)da va qo'shma ta'lim dasturlari bo'yicha bakalavriatning kunduzgi, sirtqi va kechki ta'lim shaklida hamda magistratura bosqichida to'lov-kontrakt asosida tahsil olish uchun O'zbekiston fuqarolariga tijorat banklari tomonidan imtiyozli ta'lim kreditlari ajratishning yangi tizimi yo'lga qo'yildi. Buning uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-iyulda "Yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash va ularning ijtimoiy faolligini yanada oshirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-6260-sonli farmoni qabul qilindi hamda ushbu hujjatda 2021 yil 1 sentyabrdan boshlab respublikadagi oliy ta'lim muassasalarida to'lov-kontrakt asosida o'qiyotgan talabalar uchun Markaziy bankning asosiy foiz stavkasi miqdorida va o'qish muddati tugagandan keyin yettinchi oydan boshlab 7 yil muddatda qaytarish shartlari asosida ta'lim kreditlari beriladigan yangi tartib joriy etilishi vazifa sifatida belgilandi. Shundan so'ng, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 18-avgustdagi 527-son qarori qabul qilindi hamda ushbu hujjat asosida "O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Ta'lim kreditini moliyalashtirish jamg'armasi hisobidan tijorat banklari orqali oliy, o'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlarida to'lov-kontrakt asosida o'qish uchun ta'lim kreditlarini ajratish tartibi to'g'risida Nizom" tasdiqlandi. Ushbu nizom qoidalariga ko'ra ta'lim kreditlari uchun foizlarni hisoblash va to'lash ta'lim tashkilotiga mablag'lar o'tkazilgan sanadan boshlab, asosiy qarzni qaytarish esa kredit oluvchi tomonidan ta'lim tashkilotida ta'limning ushbu turi bo'yicha o'qishning rasmiy belgilangan muddati tugallangandan so'ng yettinchi oydan boshlab amalga oshirilishi qayd etildi. Iqtisodiyot va moliya vazirligi taqdim etgan ma'lumotga ko'ra, 2023-yilda tijorat banklari tomonidan jami 2,7 trln so'mlik ta'lim kreditlari ajratilib, 241 425 talaba qamrab olindi. Ushbu kreditlarning katta qismi, ya'ni 80 foiz xotin-qizlarga berildi — 192 825 talaba bu imkoniyatdan foydalandi. Mamlakatimizda xotin-qizlarning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy faolligini oshirish, jamiyatda ularning rolini mustahkamlash hamda gender tenglikni ta'minlash borasida samarali choralar ko'rilmogda. Shu bilan birga, O'zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida xotin-qizlarning ta'lim olishlari uchun keng shart-sharoitlarni yaratish hamda ularni ilm-fanga faol jalb etish dolzarb ahamiyat kasb etmogda. Ayni shu sohada faoliyatni tashkil etish maqsadida 2022-yil 15-avgustda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 447-son qarori qabul qilindi hamda ushbu qarorga ilova sifatida "Davlat oliy ta'lim muassasalarining magistratura bosqichiga to'lov-kontrakt asosida qabul qilingan va ta'lim olayotgan xotin-qizlarning to'lov-kontrakt summasini O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti mablag'lari hisobidan qoplab berish tartibi to'g'risidagi Nizom" tasdiqlandi. Ushbu nizom qoidalari asosida 2022/2023 o'quv yilidan boshlab davlat oliy ta'lim muassasalarining magistratura bosqichiga to'lov-kontrakt asosida qabul qilingan va ta'lim olayotgan xotin-qizlarning o'quv yili uchun to'lov-kontraktning to'liq summasini O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti mablag'lari hisobidan qoplab berish tartibi joriy etildi. Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligidan olingan ma'lumotlarga ko'ra ayni shu maqsadda, ya'ni 2023-yilda magistratura bosqichida tahsil olayotgan xotin-qizlarning 122,6 mlrd so'mlik to'lov-kontrakt

mablag'lari Davlat byudjeti hisobidan to'lab berildi. Yangi O'zbekistonda talaba-yoshlarni ijtimoiy jihatdan qo'llab-quvvatlash borasidagi amalga oshirilgan chora-tadbirlar qatorida Prezidentimizning "Yoshlarning tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash va bandligiga ko'maklashish, ularni ijtimoiy himoya qilish hamda bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2021-yil 20-apreldagi PF-6208-son Farmonining qabul qilinishi alohida ahamiyatga ega. Farmonda belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida 2021-yil 24-sentyabrda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan "Ijara huquqi asosida yashayotgan talabalar tomonidan to'lanadigan ijara to'lovlarini qoplab berish tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 605-sonli qarori qabul qilindi. Ushbu hujjatlar asosida 2021-yil 1-maydan boshlab yotoqxonalar bilan qamrab olinmagan va o'ziga, shu jumladan ota-onasi (qonuniy vakillari)ga tegishli bo'lmagan uyda ijara huquqi asosida yashaydigan davlat oliy ta'lim muassasalari talabalarining 60 foiziga ular tomonidan to'lanadigan oylik ijara to'lovining 50 foizi O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti hisobidan qoplab berilishi, bunda: ijara to'lovining qoplab beriladigan qismi Toshkent shahrida — bazaviy hisoblash miqdorining bir baravari, qolgan hududlarda — bazaviy hisoblash miqdorining yarim baravaridan oshmasligi tartibi joriy etildi. Yuqoridagi qaror ijrosini ta'minlash maqsadida Termiz davlat universitetida 2021-2022-yillarda ijara huquqi asosida yashovchi talabalarining 2 milliard 263 million 710 ming so'm miqdoridagi ijara to'lovlari qoplab berilgan. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan berilgan ma'lumotlarga ko'ra 2023-yilda 97 180 nafardan ziyod talabalarga Davlat byudjeti hisobidan ijara to'lovlari uchun jami 187,2 mlrd so'm mablag' ajratildi. Bugungi kunda oliy ta'lim muassasalarida 1000 nafarga yaqin yetim hamda ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan talabalar tahsil olmoqdalar. Ta'lim-tarbiya jarayonida ushbu talabalarining huquq va erkinliklarini ro'yobga chiqarish, ijtimoiy himoyasini kuchaytirish, ularni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini yanada takomillashtirish, shuningdek, yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash masalalari bo'yicha keng jamoatchilik bilan o'tkazilgan muhokama natijalari ijrosini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 9-avgustdagi PQ-5216-sonli qarori qabul qilindi. Unga ko'ra yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarga ular texnikum, kollej, akademik litsey yoki oliy ta'lim muassasasida o'qiyotgan davrida har o'quv yilida bir marotaba o'quv, ilmiy va badiiy adabiyotlar (kitoblar) xarid qilish xarajatlari uchun Davlat byudjeti mablag'lari hisobidan bazaviy hisoblash miqdorining 5 baravari miqdorida subsidiyalar ajratilishi tartibi joriy etildi. Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi ma'lumotlariga ko'ra birgina 2023-yilning o'zida davlat ta'minotidagi yetim va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan 445 nafar talabalarga ularning ijtimoiy ta'minoti uchun 6,0 mlrd so'm, 875 nafar yetim bolalarga o'quv, ilmiy va badiiy adabiyotlar xarid qilish uchun 1,44 mlrd. so'm mablag' Davlat byudjeti hisobidan to'lab berildi. Ijtimoiy himoyaga muhtoj hamda iqtidorli talaba-yoshlarni tizimli ravishda qo'llab-quvvatlashga doir hukumat faoliyatida ayniqsa, xotin-qizlarga alohida g'amxo'rlik ko'rsatilayotganini e'tirof etish lozim. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentyabrdagi 585-sonli qarori bilan "Ota-onasi yoki ularning biridan ayrilgan muhtoj qizlar, boquvchisi yo'q yolg'iz ayollar oliy ta'lim olishlarini moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlash tartibi to'g'risidagi nizom" tasdiqlandi. Nizomga ko'ra, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari 2022/2023 o'quv yilidan boshlab har yili o'zlarining hududlaridan o'qishga kirgan 40 nafardan, ikkinchi va undan yuqori bosqichlarda tahsil olayotgan 110 nafar, jami 150 nafar xotin-qizlar uchun mahalliy byudjetning qo'shimcha manbalari hisobidan bazaviy to'lov-kontrakt summasini to'rt o'quv yilining yakunlanishiga qadar to'lab berishi belgilandi. Ushbu nizom qoidalari ta'lim shaklidan qat'i nazar faqat bakalavriat ta'lim yo'nalishida tahsil olayotgan ehtiyojmand oila vakillari, yetim yoki ota-onasining qaramog'idan mahrum bo'lgan talaba xotin-qizlarga tatbiq etiladi. Shuningdek, ushbu nizom qoidalari asosida moliyaviy barqaror davlat OTM tomonidan ularning kengashlari qaroriga muvofiq, 50 nafargacha xotin-qizlar birinchi o'quv yilida bepul o'qitilishi belgilab qo'yildi. Iqtidorli yoshlarni o'z ustida muntazam ishlashga undash hamda bilimli yoshlarni yanada qo'llab-quvvatlash maqsadida 2021-yil 6-iyul kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Respublika oliy ta'lim muassasalariga talabalikka qabul qilingan iqtidorli yoshlarni yanada qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5172 sonli

qarori qabul qilindi. Unga ko'ra 2021/2022 o'quv yilidan boshlab davlat oliy ta'lim muassasalari bakalavriatining kunduzgi ta'lim shakliga kirish imtihonlarida (test sinovlari, kasbiy (ijodiy) imtihon, yozma imtihon) eng yuqori ball to'plagan 200 nafar yoshlar uchun Davlat byudjeti mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladigan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti granti joriy qilinadi. Qaror asosida davlat oliy ta'lim muassasalari bakalavriatining kunduzgi ta'lim shakliga kirish imtihonlari natijalariga ko'ra, ta'lim sohalari kesimida, ta'lim olish tilidan qat'i nazar, respublika bo'yicha eng yuqori ball to'plagan abituriyentlarning 200 nafari Prezident grantiga da'vogar bo'ladi va muayyan ta'lim sohasi uchun ajratilgan Prezident granti kvotasi bo'yicha so'nggi o'rindagi abituriyent va u bilan bir xil ball to'plagan barcha fuqarolar Prezident grantiga da'vogar bo'lishi belgilandi. Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan 2023-yilda amalga oshirilgan ishlar to'g'risidagi hisobotda qayd etilishicha, respublika bo'yicha kirish imtihonida eng yuqori ball to'plagan 25 nafar talaba Prezident granti sohibi bo'ldi.

Xulosa. Yangi O'zbekistonda so'nggi yillarda oliy ta'lim tizimida tahsil olayotgan talabalarni ijtimoiy himoya qilish va rag'batlantirishga qaratilgan ushbu chora-tadbirlarning barchasi oliy ta'lim tizimidagi islohotlar chuqur o'ylangan reja va aniq maqsadlar bilan amalga oshirilayotganligi hamda yaxshi samara berayotganligidan dalolat beradi. Shu bilan birga, bu tizimda yutuqlar qatorida hali yechimini kutayotgan muammolar ham mavjudligini qayd etish lozim. Jumladan, poytaxtdan tashqaridagi viloyatlarda haligacha oylik yo'l chiptalarining joriy qilinmaganligi sababli ta'lim muassasasiga marshrut almashtirib boradigan ayrim talabalarga yo'l kira narxining qimmatga tushishini aytish joiz. Qolaversa, islohotlarning asosiy tashabbuskori respublika markaziy hukumati ekanligi, oliy ta'lim muassasalari joylashgan mahalliy hokimliklar yoki aynan universitetlarning o'zlari tomonidan ham talabalar uchun turli ko'rinishdagi yengilliklar (arzon tushlik, iqtidorli talabalar uchun bepul yotoqxona, turli sayohatlar) yaratish tizimi yo'lga qo'yilmaganligini kuzatishimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son
2. Sh.Mirziyoyev. "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi". Toshkent: "O'zbekiston", 2022-y. 217-b
3. "Халқ сўзи". газетаси. 2018 йил 29 декабрь.
4. "Ўзбекистонда олий таълим" журнали. 2024 йил 1-сон.
5. <https://edu.uz/media/2333aa44-421f-04a9-ec04-97ab33dd96ba.pdf>
6. <https://lex.uz/docs/-4725554>
7. https://dtpi.uz/?page_id=3923
8. <https://www.samdu.uz/uz/news/17002>
9. <https://edu.uz/media/dd9158e0-7910-8720-2f13-a4892de5f222.pdf>
10. <https://lex.uz/docs/5512119>
11. <https://lex.uz/docs/5586538>
12. <https://daryo.uz/2024/02/01/ozbekistonda-2023-yilda-qancha-talim-krediti-ajratilgani-ochiqlandi>
13. <https://lex.uz/ru/docs/-6156799>
14. <https://surxontongi.uz/2023/02/09/iqtidorli-talabalarni-ragbatlantirishga-yildan-yilga-e%CA%BCtibor-kuchaymoqda/>
15. <https://uza.uz/uz/posts/etim-bolalar-va-ota-ona-qaramogidan-mahrum-bolalarni>
16. <https://lex.uz/docs/5640194?ONDATE2=09.06.2022&action=compare>
17. <https://zarnews.uz/7oz>

UO'K 726.54.036

SAMARQAND VILOYATIDAGI PRAVOSLAV CHERKOVLARI QURILISHI TARIXI

D.N.Abduvohidov, tayanch doktorant, Samarqand davlat universiteti, Samarqand

Annotatsiya. Bugungi kunda, xristianlikning pravoslav oqimiga taalluqli bo'lgan cherkovlarni Samarqand shahri hamda viloyatning bir nechta hududlarida uchratish mumkin. Ushbu maqolada qadimgi Samarqand hududlariga xristianlikning kirib kelishi, XIX asr oxiri – XX asr boshlarida qurilgan pravoslav cherkovlari qurilishi tarixi, ularga sobiq Ittifoq davridagi munosabat hamda mustaqillik yillaridagi faoliyati to'g'risida ma'lumotlar aks ettirilgan.

Kalit so'zlar: Samarqand, Georgiy G'olib, Avliyo Aleksiy, Xristianlik, So'g'd, Rossiya imperiyasi, pravoslav, Pokrovskiy, A.Tolvinskiy, Kattaqo'rg'on, Payariq, Bulung'ur, Aleksandr Nevskiy.

Аннотация. *Сегодня храмы, принадлежащие к православному течению христианства, можно встретить в городе Самарканде и ряде районов области. В данной статье представлены сведения о внедрении христианства на территории древнего Самарканда, истории строительства православных храмов, построенных в конце 19 - начале 20 веков, отношении к ним во времена бывшего Союза, их деятельности в годы независимости.*

Ключевые слова: *Самарканд, Георгия Победоносца, Святителя Алексия Московского, Христианство, Согд, Российская империя, Православный, Покровский, А. Толвинский, Каттакурган, Паярик, Булунгур, Александр Невский.*

Abstract. *Today, churches belonging to the Orthodox stream of Christianity can be found in the city of Samarkand and several regions of the region. This article presents information about the introduction of Christianity to the ancient Samarkand territories, the history of the construction of Orthodox churches built in the late 19th - early 20th centuries, the attitude to them during the former Union, and their activities during the years of independence.*

Key words: *Samarkand, Georgy Winner, Saint Alexy, Christianity, Sogd, Russian Empire, Orthodox, Pokrovsky, A. Tolvinsky, Kattakurgan, Payarik, Bulungur, Alexander Nevsky.*

Samarqand, xususan So'g'd vohasida qadimdan nasroniylik mavjudligini ko'plab arxeologik ashyolar, shuningdek, mahalliy tillarda bitilgan, xristian mazmunidagi yozma yodgorliklar tasdiqlaydi. Xristianlik bu yerlarda XIII asrda, mo'g'ullar bosqiniga qadar mavjud bo'lgan [1:2]. Ilk o'rta asrlarda So'g'dda xristian jamoalari mavjud bo'lib, misol uchun, tarixchi Narshaxiy Buxoroda nasroniylar ibodatxonasi mavjudligi to'grisida o'z asarlarida ma'mumot beradi. O'zimizda, 1995-yilda Samarqand viloyati, Urgut shahrining janubiy chekkasida xristian cherkovi xarobalari topilgan. Tarixchi Ibn Havqalning yozishicha, X asrda ushbu joyda nasroniylar jamoasi istiqomat qilgan: "Savadarada ular yig'iladigan xristian cherkovi bor. Men ularni xristianlar, Iroqdan kelgan muhojirlar deb izlab topdim. Ular bu yerga (Iroqdan) qulay geografik joylashuv, toza iqlim va o'zlarining turmush tarzi tufayli kelishgan..." Bu hudud So'g'dning ko'p qismida hukmronlik qiladi va Vazkerd (hozirgi Sulaymontepa) deb ataladi [Gritsina A.A., 2018: 123]. X-XIII asrlar oralig'ida Turkistonda nasroniylarning hayoti va ahvoli haqida deyarli hech qanday ma'lumot yoki manba yo'q.

O'rta Osiyoni Podsho Rossiyasi tomonidan bosib olinishi bilan mintaqada xristianlikni xususan, uning pravoslav tarmog'ining rivojlanishi kuzatiladi, yangi cherkovlar barpo etiladi. Xususan, 1868-yilda Samarqand Rossiya imperiyasi tomonidan egallangach, bosqinchilar talab va istaklari bilan shaharda hamda uning turli hududlarida cherkovlar qurishga ahamiyat bera boshlaydi. XIX asr o'rtalarida rus me'morchiligida "rus-vizantiya" deb ataladigan uslub afzal bo'lib keng tarqalgan edi. Diniy inshootlar qurilishi to'g'risidagi Nizomda "Pravoslav cherkovlarini qurish loyihalarini tuzishda qadimgi Vizantiya arxitekturasi asoslarini birinchi navbatda va iloji boricha saqlab qolish lozim" deyilgan [Карпович В.С., 1909, № 4/13]. Samarqand xristian cherkovlari me'morchiligida ushbu uslubning o'rni katta hisoblanadi.

Bugungi kunda ko'pchilik uchun Samarqandda uchta pravoslav cherkovi faoliyat olib borayotgandek ko'rinadi. Bular – Xudoning muqaddas onasi (Покрова Пресвятой Богородицы) sharafiga qurilgan cherkov, muqaddas Georgiy G'olib (Георгия Победоносца) sharafiga va Moskva metropoliti bo'lgan avliyo Aleksey (Собор Святителя Алексия Московского) sharafiga qurilgan cherkovlar. Aslida Samarqand viloyatida nafaqat pravoslav balki xristianlikni boshqa oqimlarining ham o'z cherkovlari mavjud hamda ular faoliyat ko'rsatmoqda. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, bugungi kunda Samarqandda pravoslav cherkovlari 3 ta emas balki undan ham ko'proq. Lekin ularning barchasi ham diniy muassasa sifatida faoliyat olib bormaydi.

Samarqandda birinchi xristian (pravoslav) cherkovi – Avliyo Georgiy 1868-yilda qurilgan [Жукова Л.И., 1998: 114]. U doimiy bo'lmay balki vaqtinchalik cherkov sifatida o'z faoliyatini boshlagan. Ushbu cherkov bir qavatdan iborat bo'lib, uning g'arbiy qismida qo'ng'iroq minorasi joylashgan edi. Cherkovni loyihalashda mahalliy ustalar ham ishtirok etishgan. 1879-yilda Avliyo Georgiy cherkovi buzila boshlaydi va umuman olganda, bu vaqtga kelib uni yanada kengaytirish zarurati paydo bo'ldi. Yangi cherkovning loyihasi samarqandlik arxitektori V.A.Lemke tuzgan. 1882-yilda Samarqand shahridagi harbiy maydon qarshisida yangi Avliyo Georgiy cherkovi quriladi.

Uch gumbazli cherkov umumiy ko'rinishning yaqinligi, me'moriy shakllarning qat'iyligi va ravshanligi bilan ajralib turardi. Hozirgacha ushbu cherkov juda yaxshi saqlanib qolgan.

Cherkov bir vaqtning o'zida 600 kishini sig'dira olgan. 1903-yilgacha cherkov va uning ruhoniylari Turkiston yeparxiyasi boshqarmasi tasarrufida edi. Uning nomi 1910-yilgacha "Samarqand harbiy qo'mondonligi boshqarmasi tasarrufidagi cherkov" deb yuritilgan. 1910 yilda 5-Turkiston polkida muqaddas buyuk Georgiy G'olib nomiga qayta tashkil etildi. Sobiq Ittiqfoq davridagi ateizm siyosati ushbu katta cherkov faoliyatiga ham ta'sir etmay qolmagan. 1960-yilda cherkov yopildi va uning binosi OSOAVIAXIM klubiga aylantirilgan [5:1]. Qo'ng'iroq minorasi buzilib uning o'rniga samolyotning maketi o'rgatilgan.

Bugungi kunda ushbu cherkov binosi saqlanib qolgan, ammo diniy muassasa sifatida faoliyat olib borgani yo'q. Samarqand shahrida shuningdek, xuddi shu nomdagi kichikroq shaklda, qabriston hududida qurilgan cherkov ham mavjud. 2010-yilda ushbu joyda katta ta'mirlash ishlari olib borildi. Ushbu cherkov turar-joy binosida joylashgan bo'lib "L" harfi shaklida pishiq g'isht bilan qurilgan [9:1].

Samarqanddagi eng katta pravoslav cherkovi 1912-yilda qurilgan Avliyo Aleksiy sobori hisoblanadi [Жукова Л.И., 1998: 119]. 1902-yilda arxitektor F.Smirnov Termiz shahrida quriladigan sobor loyihasini ishlab chiqadi. Lekin ushbu loyiha, ya'ni Aleksiy sobori Samarqandda quriladi. Cherkovning umumiy ko'rinishi to'rtburchak shaklda bo'lib, unda bitta gumbaz mavjud. Cherkov harbiy parad bo'ladigan maydonga qaragan. Cherkovdagi qo'ng'iroq minorasi barabanining bezaklari, qadimgi rus me'morchiligiga xos bo'lgan g'ishtlar va nafis bezatilgan ustunlar uning ulug'vorligini oshirib turadi. Lekin shu bilan birga, Aleksiy soborining ichki qismi unchalik e'tiborga loyiq emas. Faqat rangli sayqallangan, marmar plitalardan yasalgan pastki qism qiziqishni uyg'otadi.

Avliyo Aleksiy sobori birvaqtning o'zida ham darsxona, ham ibodat marosimlarini o'tkazishi bilan ajralib turadi. Samarqand shahrida Pokrovskiy sobori qurilgunicha, u shahardagi birinchi va yagona harbiylashtirilmagan cherkov bo'lgan. Ushbu cherkovning qurilishiga mahalliy musulmon savdogarlari, xususan Alimbekovlar oilasi katta miqdorda pul mablag'larini ehson qilishgan [Владимир (Иким), 2011: с.296].

Sovet davrida, 1920-yillarda ushbu sobor ham yopildi, uning gumbazi va qo'ng'iroq minorasi demontaj qilingan. Cherkov binosi harbiy qism balansiga o'tkazildi. Keyinchalik esa davlat muzey-qo'riqxonasi hisobiga kirgizildi. Davlat mustaqilligidan keyin, 1996-yilda Avliyo Aleksiy sobori pravoslav dindorlari ixtiyoriga berildi. 1996-yil 13-noyabrda sobor yana Moskva va Butun Rus Patriarxi Aleksiy II tomonidan muqaddas qilindi. Bugungi kunda cherkov ruhoniysi sifatida Igor (Babakov) cherkovda xizmat qiladi [6:1].

Xudoning muqaddas onasi (Pokrovskiy) sharafiga qurilgan cherkov 1903-yilda qurilgan. Lekin 1907-yil 8-oktabrda Samarqandda zilzila ro'y beradi va oqibatda cherkovning qo'ng'iroq minorasidan temir xoch qulab tushadi. Natijada ushbu cherkov boshqatdan rejalashtirilib qurila boshlanadi. Yangi cherkovning rejasiga ko'ra u to'rtburchak shaklda bo'lib, ikki qismga bo'lingan: birida - o'quv xonalari, ikkinchisida esa ibodatxona joylashgan. 1912-yildan Pokrovskiy sobori "II Turkiston o'qotar brigadasining ibodatxonasi" deb atala boshlandi. Pishiq g'ishtdan qurilgan ushbu cherkovning ulkan qo'ng'iroq minorasi mavjud. Cherkov binosi pishiq g'ishtdan qurilgan bo'lib, uning ichida ibodatxonadan tashqari yana bir nechta xonalar mavjud. Uning o'ziga xos xususiyati - bu katta hajmdagi qo'ng'iroq va yorug'lik dizayni bilan jihozlangan minorasidir. Cherkov 1930-yilda O'zbekistondagi ko'plab cherkovlar singari yopiladi. Uning faoliyati 1998-yil boshlariga kelib qayta tiklandi[7:1].

Shu o'rinda aytib o'tish lozimki, Samarqandda o'z davrida qurilishi rejalashtirilgan lekin amalga oshmay qolgan xristianlik ibodatxonalari ham mavjud bo'lgan. Misol uchun, 1888-yildan boshlab, Samarqandda shaharning bosh soborini qurish haqida harakatlar paydo bo'ladi. Dastlab, 700 kishilik ibodatxona qurilishi rejalashtirilgan bo'lsa, keyinchalik esa uning sig'imi 1500 kishiga ko'tarildi. Shu maqsadda, 1890-yilda Odessadan arxitektura akademigi S. Tolvinskiy tomonidan tuzilgan reja yuborilgan. Loyihaga ko'ra yangi sobor Avliyo Georgiy yaqinida qurilishi lozim bo'lgan. Lekin ushbu loyiha rad etiladi. 1911-yilda maxsus yig'ilishda muhandis M.A.Tumanov soborni g'ishtdan emas, balki temir-betondan qurishni taklif qiladi. Shundan so'ng Moskva va Sankt-

Peterburgdagi qurilish kompaniyalari bilan kelishuvlar boshlanadi [Жукова Л.И., 1998: 145]. 1913-yilda Turkiston general-gubernatorligi tomonidan smeta va loyiha tasdiqlanib muhandislik tadqiqoti ham o'tkaziladi. 1914-yildan zarur qurilish materiallari tayyorlanib cherkov qurilishi boshlanadi. Lekin 1917-yildan cherkov qurilishi to'xtaydi, barcha qurilish materiallari esa sotib yuboriladi.

Yuqoridagilardan tashqari, Samarqand shahri va viloyatning turli hududlarida yana bir nechta pravoslav cherkovlarini uchratish mumkin. Misol uchun, Kattaqo'rg'on shahrida joylashgan, binosi katta bo'lmagan buyuk knyaz Vladimir nomidagi cherkov hozirda faoliyat ko'rsatmoqda. Payariq va Bulung'ur tumani markazlarida hamda Samarqand shahrining temiryo'l vokzali atrofida ham 2 ta eski cherkov binolari mavjud. Lekin hozirda ular cherkov sifatida faoliyat yuritgani yo'q.

Shuningdek, Samarqand hududida bir vaqtlar qurilgan lekin keyinchalik buzib tashlangan pravoslav cherkovlari ham bo'lgan. Misol uchun, 1899-yilda podsho qo'shinlarining Samarqand viloyati sobiq qo'mondoni graf M. Rostovsev tomonidan hozirgi Samarqand shahrining temiryo'l vokzali hududida qurilgan Aleksandr Nevskiy cherkovi [Владимир (Иким), 2011: с.404]. O'z vaqtida ushbu cherkov bag'riga 500 kishini sig'dira olgan. 1951-yildan temiryo'l stansiyasi hududini kengaytirish maqsadida Aleksandr Nevskiy cherkovini buzish to'g'risida qaror qabul qilinadi va 1954-yilda u buzib tashlanadi [Голенберг В.А., 2011: 114].

Xulosa sifatida aytish lozimki, mustaqillik yillarida ushbu cherkovlarning faoliyat olib borishi va davlat tomonidan muhofaza qilishini borasida katta ishlar qilinmoqda. Bu esa ko'p konfessiyali, bag'rikenglik tamoyillari davlat darajasida turadigan O'zbekistonda har bir din va dindorlarga e'tibor juda yuqori ekanligini ko'rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. https://pravoslavie.uz/news/7851/?sphrase_id=44554
2. Gritsina A.A., Markaziy Osiyo va Ozarbayjon dinlari. IV jild. Xristianlik. - Samarqand: MOTXI, 2018.– 296 b.
3. Карпович В.С. / Строительные уставы и обязательные постановления в области зодчества у нас и в Западной Европе – Зодчий, 1909, № 4.
4. Жукова Л.И.и др. / К истории христианства в Средней Азии – “Узбекистан”, Ташкент, 1998. с.272
5. [https://ru.wikipedia.org/wiki/Храм_Святого_Георгия_Победоносца_\(Самарканд,_недействующий\)](https://ru.wikipedia.org/wiki/Храм_Святого_Георгия_Победоносца_(Самарканд,_недействующий))
6. [https://ru.wikipedia.org/wiki/Собор_Святителя_Алексия_Московского_\(Самарканд\)](https://ru.wikipedia.org/wiki/Собор_Святителя_Алексия_Московского_(Самарканд))
7. https://ru.wikipedia.org/wiki/храм_покрова_пресвятой_богородицы
8. Голенберг В.А. / “Старинные храмы туркестанского края” – Ташкент, 2011.
9. <https://www.orexca.com/rus/uzbekistan/samarkand/churches.htm>
10. Владимир (Иким), По стопам апостола Фомы: Христианство в Центральной Азии. М.: “Сканрус”, 2011. с.752

UO'K 94.5

TURKISTON HAVASKOR ARXEOLOGLAR TO'GARAGINING O'LKA TARIXIY VA ARXEOLOGIK YODGORLIKLARINI O'RGANISH VA SAQLASH BORASIDAGI SAYI HARAKATLARI

J.B.Amirkulov, tayanch doktorant, Samarqand davlat universiteti, Samarqand

Annotatsiya. Ushbu maqolada Turkiston havaskor arxeologlar to'garagining tashkil topishi, faoliyati hamda Samarqand me'moriy obidalarini saqlash va qayta ta'mirlash borasida olib borgan sayi-harakatlari O'zbekiston Milliy arxiv I-fondi xujjatlari asosida qisqacha yoritilgan.

Kalit so'zlar: Turkiston havaskor arxeologlar to'garagi, V.V.Bartold, N.P.Ostroumov, arxeologiya, tarixiy yodgorliklar, Bibixonim masjidi.

Аннотация. В данной статье на основе документов И-фонда Национального архива Узбекистана кратко освещены создание, деятельность Туркестанского кружка любителей археологии, а также усилия по сохранению и восстановлению архитектурных памятников Самарканда.

Ключевые слова: Туркестанский кружок любителей археологии, В.В. Бартольд, Н.П. Остроумов, археология, исторические памятники, мечеть Бибиханым.

Abstract. In this article, the establishment, activities of the amateur archaeologists' circle of Turkestan, as well as the efforts made in preserving and renovating the architectural monuments of Samarkand, are briefly covered based on the documents of the I-fund of the National Archives of Uzbekistan.

Key words: Turkistan amateur archaeologists circle, V.V. Bartold, N.P. Ostroumov, archeology, historical monuments, Bibikhanim mosque.

Turkiston general gubernatorligi hamda unga yaqin bo'lgan hududlarning arxeologik va tarixiy yodgorliklarini bir qancha ilmiy jamiyatlar o'rgangan bo'lsada ular orasida Turkiston havaskor arxeologlar to'garagi alohida o'rin tutadi.

Sharqshunos olim, akademik V.V. Bartold Turkiston hududlarida 1893 yilda xizmat safari vaqtida Rossiya imperiyasi "Tabiatshunoslik, antropologiya va etnografiya jamiyatining Turkiston bo'limi yig'ilishida havaskor arxeologlar to'garagini ta'sis etish masalasi ko'tarilgan [1;487-b]. To'garakni tashkil etish borasidagi V.V. Bartold va N.P. Ostroumovning fikrlari qizg'in muhokamaga sabab bo'lgan [4;37-38-b]. Mazkur yig'ilishdan so'ng, tezlik bilan, Toshkentda tashkil etilishiga qaror qilingan havaskor arxeologlar to'garagining loyihasi tayyorlanadi hamda uni tasdiqlash ishlari boshlanadi [2;44-b].

Imperator Nikolay II ning farmoniga binoan Turkiston general gubernatorligida tarixiy yodgarliklar va arxeologiyaga oid ilmiy jamiyat – Turkiston havaskor arxeologlar to'garagi tashkil etilgan [11;2-v] va Rossiya imperiyasi Maorif vaziri tomonidan to'garak Nizomi tasdiqlangan [7;97-102-b].

Turkiston general-gubernatorligi hududlarida vujudga kelgan ilmiy jamiyatlarning tashkil etilishining asosiy sababi, Rossiya imperiyasi manfaatlarini ta'minlash va davlatchiligini mustahkamlash edi. O'rta Osiyo hududlariga uyushtirilgan ilmiy ekspeditsiyalar, ilmiy jamiyatlar faoliyatidan ko'zlangan asosiy maqsad ham hududdagi yer osti va yer usti boyliklari joylashgan manzillar haqida batafsil ma'lumotga ega bo'lish va u yerlarga egalikk qilish bo'lgan [5;95-b]. Ammo bunday ilmiy jamiyatlar faoliyati natijasida O'rta Osiyo turli jabhalarda o'rganildi hamda ko'plab ilmiy asarlar yaratildi. B.V. Luninning "Turkiston o'lkasining, ayniqsa jamiyatning tuzilishi, mahalliy aholining an'ana va urf-odatlari, o'lka geografiyasi, aloqa yo'llari, qazilma boyliklar va boshqa tabiiy boyliklarining kam o'rganilganligi mustamlaka ma'muriyatining xatti-harakatlarini qiyinlashtirar hamda yangi egallangan o'lkani xo'jalik jihatdan ekspluatatsiya qilishga to'sqinlik qilgan" [2;20-b], degan fikrlari bunga misol bo'la oladi.

Yuqorida qayd etganimizdek, O'rta Osiyo hududlarini tarixiy va arxeologik jihatdan o'rganilishida Turkiston havaskor arxeologlar to'garagi o'z davri uchun ulkan ishlarni amalga oshirgan.

V.V.Bartold Turkiston havaskor arxeologlar to'garagining tashkil etilishi va faoliyatini "Toshkentdagi yangi ilmiy jamiyat" degan maqolasida yoritadi. Maqolada to'garakga mahalliy kuchlarni ham jalb etish lozimligi, buni imperator arxeologiya komissiyasi ham qo'llab-quvatlashini bildirgan [1;486-b].

Turkiston havaskor arxeologlar to'garagi 1895 yilda tashkil etiladi, uning faxriy raisi Turkiston general-gubernatori baron A.B. Vrevskiy bo'lgan. To'garak ta'sisчилari va uning a'zolari orasida Turkistonda faoliyat yuritgan olimlar, maorif sohasi vakillari, amaldorlar, harbiylar, shuningdek, nafaqat o'lkadagi balki Rossiya imperiya markaziy guberniyalarida faoliyat yurituvchi tadqiqotchilar ham a'zo bo'lishgan [12;38-v].

Turkiston havaskor arxeologlar to'garagi nizomi 21 banddan iborat bo'lib, nizomga ko'ra to'garak faoliyati Turkiston o'lkasi hududida joylashgan qadimiy yodgorliklarni o'rganish, ularni tasvirlash va arxeologik xarita yaratish, qazish ishlarini olib borish bilan bog'liq edi [3;44-b]. O'z faoliyatlari davomida to'garak a'zolari etnografik, epigrafik, lingvistik, geneologik hamda numizmatik tadqiqotlar ham olib borishgan [11;2-orqa v].

Turkiston havaskor arxeologlar to'garagi faoliyatiga oid manbalarning asosiy qismi, O'zbekiston Respublikasi Milliy arxivi I-71-fondida saqlanadi. Z.I. Agafanova va N.A. Xalfin tomonidan 1948-yilda tuzilgan yo'l ko'rsatkichda I-71 fondga quyidagicha ta'rif berib o'tilgan: I-71-fondi – Turkiston arxeologiya havaskorlari to'garagi. Fondda 1895 yili 19 oktabrdagi qonun asosida tashkil etilgan va Maorif vaziri tomonidan 1895 yil 31 oktabrda Nizomi tasdiqlangan to'garak va uning faoliyati bilan bog'liq asosiy hujjatlar yig'ilgan. O'z ichiga 1895-1917 yillar oralig'idagi hujjatlarni qamrab olgan. Fondda to'garak yig'ilishi bayonnomalari va ularda qilingan ma'ruzalar,

o'lkada olib borilgan arxeologik tadqiqotlar, restavratsiya ishlari, to'garak faoliyati haqida hisobotlar, turli yozishmalar va tarixiy tadqiqotlarga doir ma'lumotlar mavjud[6;143-b].

Tuzilganiga chorak kam bir asr bo'layotgan bu yo'lko'rsatkich moddiy va ilmiy jihatdan eskirgan bo'lib, ko'p jihatlari bilan bugungi davr talablariga javob bermaydi[8;202-b].

I-71-fondda jami 30 ta yig'majild mavjud bo'lib, ular 1 dan 27 gacha raqamlangan. 3 ta yig'majild literli raqamga ega (7^a-To'garak a'zolari xatlari; 20^a-chiquvchi xujjatlar jurnali; 22^a-Marhum Poslavskiyga bag'ishlangan maqolalar va yozishmalar)[10].

Fondagi yig'majildlarda to'garakning shakllanishi, uning faoliyatiga oid hujjatlar, to'garak tomonidan tashkil etilgan arxeologik qazishmalar natijalari, obidalarni saqlash va restavratsiya qilish ishlari, epigrafik va numizmatik tadqiqotlar, tarixiy afsonalar, genealogik tadqiqotlar, Buxoro amirligi hududidagi arxeologik qidiruv ishlari haqida ma'lumotlar mavjud.

Turkiston xavaskor arxeologlar to'garagi nafaqat O'rta Osiyo osori atiqalari haqida ma'lumot to'plash ularni o'rganish bilan shug'ullanishgan, balki hududdagi me'moriy yodgorliklarni saqlash va ta'mirlash borasida ham bir qancha ishlarni amalga oshirishgan.

Jumladan, to'garakning 1899 yilgi 1-son yig'ilish bayonnomasida Samarqand harbiy gubernatori Fyodorovning Samarqand masjidlarini vayronagarchilikdan saqlash uchun Turkiston general-gubernatoriga yozgan maktubi hamda professor N.I.Veselovskiyning shu mavzudagi xatlari o'qib eshittiriladi [15;1-v]. Samarqand me'moriy yodgorliklarini asrash va qayta ta'mirlash borasidagi muhandis, polkovnik Poslavskiyning takliflari, ta'mirlash jarayonini to'garak o'z zimmasiga olishi lozimligi muhokama qilinib, to'garak a'zosi muhandis Geyselmanga bu masalani o'rganib chiqib Samarqand yodgorliklarini ta'mirlash borasidagi o'z hulosasini berish vazifasi qo'yiladi [15;2-v]. Geyselman Samarqand yodgorliklarini ta'mirlash uchun to'garakda mutaxassisning yo'qligi va bu ta'mirlash ishlari juda katta mablag' talab etadi degan hulosaga beradi. Natijada to'garak imperator arxeologiya komissiyasidan yordam olishga qaror qiladi.

Shu masalada to'garak vitse-raisi Ostroumovning Imperator arxeologiya komissiyasiga 1989 yil 5 aprelda yordam so'rab yo'llagan № 100/434 raqamli maktubi ham mavjud. [15;5-6-v].

1897 yil sentyabr oyida bo'lib o'tgan zilzila natijasida Samarqand tarixiy yodgorliklarining ko'pchiligi zarar ko'radi. Bu zarar ko'lamini aniqlash, yodgorliklarni ekspertizadan o'tkazish to'garak zimmasiga yuklatilgan. Zilzilada eng ko'p talofat ko'rgan obida bu Bibixonim masjidi bo'ladi. Bibixonim masjidini o'rganish va ta'mirlash borasida to'garak bir qancha amaliy ishlarni olib borgan.

Turkiston xavaskor arxeologlari to'garagining a'zosi S.Lidskiy 1898 yil yanvar oyida Samarqandga qilgan sayohati hisoboti sifatida N.P.Ostroumovga yozgan maktubida Bibixonim masjidi axvoli haqida ma'lumot beradi. Lidskiy maktubida quyidagicha jumalar yozilgan: – “Bibixonim masjidi hovlisida 5-sentabrda bo'lib o'tgan zilziladan keyin g'isht uyumlari to'planib qolgan, hovlida kichik omborxonaga qurilgan bo'lib, to'kilgan g'isht qoldiqlarining bir qismi o'sha yerga taxlangan. Hovlining o'zi iflos, tozalanmagan, chidab bo'lmas hid bilan qoplangan. Panjaralar atrofiga chirigan qovoq, tarvuz po'stloqlari va shunga o'xshash chiqindilar tashlab ketiladigan chiqindixonaga aylangan”[14;43-44 v].

Lidskiy yodgorlik juda zaif nazorat qilinishi, xoxlagan odam kelib rangli koshinlardan xoxlaganicha olib ketishi mumkinligini ta'kidlagan.

1897 yil 5 sentyabrda bo'lib o'tgan zilzila natijasida Bibixonim masjidi anchagina talofot ko'radi. Rossiya imperatorlik arxeologiya komissiyasi topshirig'iga ko'ra General Gubernatorlik tomonidan 1897 yil 27 noyabrda N.P.Ostroumovga yo'naltirilgan №8859 raqamli xatda Bibixonim masjidining qulab tushgan bo'laklarini talon-taroj etilishiga yo'l qo'ymaslik topshiriladi[9;129-v].

Samarqand harbiy gubernatorining Turkiston general-gubernatoriga 1898 yil 16 fevralda №1848 raqamli raportida qulab tushgan Bibixonim masjidi qoldiqlarini saqlash uchun chora ko'rilganligi va unga 103 rubl 92 koopeyk harajat qilingani aytiladi[9;129a-v].

To'garak faoliyati davomida nafaqat Turkiston general-gubernatorligi hududlari, balkim Buxoro amirligi va Xiva xonligi hududlaridagi me'moriy obidalarni saqlash borasida ham bir qancha harakatlarni amalga oshirishgan. [13].

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, Turkiston havaskor arxeologlar to'garagi o'z faoliyati davomida Turkiston general-gubernatorligi va uning atrofidagi hududlarda ko'plab arxeologik tadqiqotlar olib boradi hamda yodgorliklarni o'rganadi, bir qancha yangi topilmalar ilmiy muomalaga kiritiladi. To'garak o'zining asosiy faoliyatini havaskor a'zolari tomonidan ilmiy jihatdan mukammal tarzda olib bormagan bo'lsada, ammo keyinchalik to'garak faoliyati natijalari O'rta Osiyo arxeologiyasi hamda tarix fani tarixshunosligi rivoji uchun zamin yaratgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Бартольд В.В. Новое научное общество в Ташкенте. Сочинения. — Т.IX. Работы по истории востоковедения. М.: Наука. 1977. С.486.
2. Лунин Б.В. Научные общества и их прогрессивная деятельность. Конец XIX–начало XX в. – Ташкент: АН УзССР, 1962. – С. 20.
3. Лунин Б. В. Из истории русского востоковедения и археологии в Туркестане. Туркестанский кружок любителей археологии (1895 – 1917). Ташкент: Изд-во АН Узбекской ССР, 1958. Лунин 1958: 44
4. Лыкошин Н.С. Очерк археологических изысканий в Туркестанском крае до учреждения Туркестанского Кружка любителей археологии // Протоколы заседаний и сообщения членов Туркестанского Кружка любителей археологии. I. 1896. – С. 37-38.
5. Саидбобоев З. Европада Ўрта Осиёга оид тарихий-картографик маълумотлар (XVI–XIX асрлар). – Тошкент: “Фан”, 2008. – Б. 95.
6. Центральный государственный исторический архив УзССР. Путеводитель / Сост. Агафонова З.И., Халфин Н.А. – Ташкент, 1948. – С. 143.
7. Шамукарамова Ф.Ш. Случайные археологические находки в Туркестанском крае и их значение в становлении археологической науки // ЎзМУ Хабарлари. 2017. №1. – Б. 97-102.
8. Эргашев Б.Э. Делопроизводственная деятельность канцелярии Туркестанского генерал-губернаторства (историко-источниковедческий анализ). – Ташкент: Фан, 2015. – С. 202.
9. O'zMA I-1-fond, 11-ro'yxat, 817-yig'majild, 129-varaq
10. O'zMA I-71-fond, 1-ro'yxat, 1-yig'majild, 2-varaq.
11. O'zMA I-71-fond, 1-ro'yxat, 2-yig'majild, 38-varaq.
12. O'zMA I-71-fond, 1-ro'yxat, 4-yig'majild
13. O'zMA I-71-fond, 1-ro'yxat, 10-yig'majild, 43-44-varaq

UO'K: 39:316.34+316.72(575.2)

FARG'ONA VODIYISI ZAMONAVIY MILLATLARARO MUNOSABATLARIGA YANGICHA ETNO-ANTROPOLOGIK YONDASHUV

R.B. Bekmirzayev, katta o'qituvchi, Farg'ona davlat universiteti, Farg'ona

Annotatsiya. Ushbu maqolada Farg'ona vodiysidagi zamonaviy millatlararo dinamikani o'rganishda etno-antropologik yondoshuvlar qo'llanilishiga oid yangi tushunchalar taqdim etilgan.

Kalit so'zlar: Farg'ona vodiysi, etno-antropologiya, millatlararo munosabatlar, mintaqaviy barqarorlik. ochiq va yopiq eshiklar.

Аннотация. В данной статье представлены новые взгляды на использование этноантропологических подходов в изучении современной межэтнической динамики в Ферганской долине.

Ключевые слова: Ферганская долина, этно-антропология, межэтнические отношения, региональная стабильность, открытые и закрытые двери.

Abstract. This article presents new perspectives on the use of ethnoanthropological approaches in the study of modern interethnic dynamics in the Fergana Valley.

Keywords: Ferghana Valley, ethno-anthropology, inter-ethnic relations, regional stability, open and closed doors.

Kirish. Farg'ona vodiysining barqaror rivojlanishida ziddiyatli vaziyatlarni tartibga solishda millatlararo munosabatlarning hudud etnosiyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy hayotidagi ahamiyati va istiqbollarni ochib berish dolzarb vazifalardan biridir. Farg'ona vodiysi — Markaziy Osiyo mintaqasining barcha muammolarini o'zida jamlangan va qarama-qarshiliklarning murakkab makonidir. Mavjud muammolar etnologik tadqiqot obykti sifatida o'rganilayotgan Farg'ona vodiysidagi millatlararo munosabatlarning umumiy vaziyatini tushunishda muhim rol o'ynaydi. Farg'ona vodiysidagi zamonaviy millatlararo munosabatlarni bugungi kunda ilmiy jihatdan keng

ko‘lamda o‘rganish va tahlil qilish bir qator fanlarning: konfliktologiya, sotsiologiya, madaniy antropologiya, siyosatshunoslik, etnografiya, etnologiya, ijtimoiy psixologiya kabilarning tadqiqot sohasiga aylanib bormoqda.

Tadqiqot uslublari. Tadqiqot ishining fanlararo bog‘liqlik xususiyatidan kelib chiqib, millatlararo munosabatlarni tahlil qilish uchun qo‘llaniladigan ayrim zamonaviy etno-antropologik yondashuvlarga oid yangi tushunchalarni kiritishga harakat qildik. Farg‘ona vodiysidagi zamonaviy millatlararo munosabatlar bo‘yicha olib borilayotgan tadqiqot kontekstida biz «ochiq eshik», «yopiq eshik» kabi o‘xshash tushunchalardan hamda ularni yopish yoki ochish harakatlaridan metafora sifatida foydalanish mumkinligiga harakat qildik. Bu bizga muammolarni hal qilishda turli yondashuv va istiqbollarni hamda va bu murakkab ijtimoiy manzara doirasidagi imkoniyatlarni tushunishimizga yordam berdi. Ushbu yondashuv jahon akademik hamjamiyatini murakkab millatlararo munosabatlarni tadqiq qilish va tahlil qilish muammosini tushunish uchun foydalanadigan usullarini boyitishga xizmat qiladi degan fikrdamiz.

Tadqiqot natijalari. *Nega ochiq eshiklarni yopish kerak?* Bu savol millatlararo munosabatlardagi mavjud muammolarni yoki keskinliklarni hal qilishni istamaslikka yoki unga qarshilikni anglatuvchi munosabatlarga qaratiladi. Bu muammolar mavjudligini e‘tiborsiz qoldiradigan yoki inkor etadigan fikrlarni va hatti-harakatlarni aks ettiradi. Ehtimol buni xotirjamlikka yoki hamma narsa allaqachon yaxshi ekanligiga ishonish bilan ham qiyoslash mumkindir. Farg‘ona vodiysi millatlararo munosabatlar kontekstidagi bu nuqtai nazarda millatlararo ziddiyatlarga e‘tibor bermaslik yoki asosiy muammolarni tan olish va hal qilishdan ko‘ra, mavjud vaziyatni saqlab qolishni afzal ko‘radigan shaxslar yoki guruhlar ifodalanishi mumkin.

O‘zbekiston, Qirg‘iziston va Tojikiston kabi davlatlarning ayrim hududlarini qamrab olgan Farg‘ona vodiysida murakkab tarixiy, madaniy va geosiyosiy omillardan kelib chiqqan millatlararo qarama-qarshiliklar va ziddiyatlari azaldan muammo bo‘lib kelgan. Ushbu keskinliklarni bartaraf etishni istamaslik yoki qarshilik ko‘rsatish hukumat darajasida ham, jamoalar ichida ham turli yo‘llar bilan kuzatilishi mumkin.

Millatlararo ziddiyatlarni hal qilishni istamaslikning muhim jihatlaridan biri bu mintaqadagi siyosiy muhitdir. Hukumatlar ko‘pincha barqarorlik va milliy birlikni birinchi o‘ringa qo‘yadi, ba‘zan esa ijtimoiy va etnik ziddiyatlarni tan olish va hal qilish hisobiga. Bu yondashuv Farg‘ona vodiysidek tarixda etnik nizolar va siyosiy beqarorlik mavjud bo‘lgan hududlarda ba‘zan nazoratni qo‘llab-quvvatlash va tartibsizliklarning oldini olish uchun zarur deb qaraladi. Qolaversa, millatlararo ziddiyatlarni bartaraf etishni istamaslikning davom etishida jamiyatdagi munosabat va tasavvurlar ham o‘z rolini o‘ynaydi.

Etnik jihatdan xilma-xil bunday mintaqalarda ayrim guruhlar o‘rtasida millatlararo ziddiyatlarni e‘tiborsiz qoldirish yoki ahamiyat bermaslik, buning o‘rniga umumiylik yoki umumiy o‘ziga xosliklarga e‘tibor berishni afzal ko‘rish kayfiyatini kuzatish mumkin. Bunday munosabatlar nizolardan qochish yoki ijtimoiy birdamlikni saqlash istagidan kelib chiqishi mumkin, lekin u ozchilikdagi etnik guruhlarining huquqlarini cheklash yoki bostirishga ham hissa qo‘shishi mumkin.

Millatlararo munosabatlar dinamikasi haqida tushuncha beradigan tadqiqotlardan biri Ashutosh Varshneyning “Ethnic Conflict and Civic Life: Hindus and Muslims in India” asarida Markaziy Osiyodagi millatlararo ziddiyatlarga emas, balki Hindistondagi dinlararo ziddiyatlarga qaratilgan bo‘lsa-da, mojarolarni yumshatishda fuqarolik ishtiroki va ijtimoiy kapitalning roli haqida qimmatli fikrlarni taqdim etadi. U iqtisodiy o‘zaro bog‘liqlik va o‘zaro ijtimoiy aloqalar kabi omillar zo‘ravonlik ehtimolini kamaytirishga hamda turli etnik yoki diniy guruhlar o‘rtasida barqarorlikni ta‘minlashga yordam berishiga urg‘u beradi [1].

Ted Gurr tadqiqotlarida [2] esa e‘tibor birinchi navbatda etnik mojarolarning global dinamikasiga qaratilgan bo‘lsa-da, Farg‘ona vodiysi kabi mintaqalarda millatlararo ziddiyatlarning davom etayotganini tushunish uchun qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan nazariy asoslarni taqdim etadi. Gurr o‘z tahlillarida siyosiy institutlarni, iqtisodiy jihatdan nomutanosibliklarni va tashqi ishtirokchilarning etnik nizolarni kuchaytirish yoki yumshatishdagi tutgan o‘rnini alohida ta‘kidlab otadi. Bu esa Markaziy Osiyodagi shunga o‘xshash dinamikani o‘rganayotgan tadqiqotchilar uchun qimmatli ilmiy ma‘lumotlarni aniq bashorat qila olish imkoniyatini beradi.

Millatlararo munosabatlar va nizolarni hal etish bo'yicha ushbu va boshqa ilmiy ishlarni o'rganish orqali tadqiqotchilar Farg'ona vodiysida millatlararo ziddiyatlarni bartaraf etishni istamaslik omillarini chuqurroq tushinishlari va mintaqada muloqot, yarashuv va ijtimoiy hamjihatlikka ko'maklashish bo'yicha potensial strategiyalarni aniqlashlari mumkin.

Nega yopiq eshiklarni yopish kerak? Bu savol mavjud muammolar yoki mojarolarni tan olish va ularni yanada kuchaytirmaslik istagini bildiradi. Bu sa'y-harakatlar tinchlik va barqaror vaziyatni saqlash, shuningdek turli etnik guruhlar o'rtasida keraksiz ziddiyatlarning oldini olishga qaratilgan ehtiyotkor yondashuvni taklif qiladi. Farg'ona vodiysidagi millatlararo munosabatlar kontekstida bu istiqbol tinchlikni saqlash va mojarolarning avj olishiga yo'l qo'ymaslikka qaratilgan tashabbuslar yoki siyosatlarda, hattoki muayyan o'zaro aloqalar yoki munozaralarni cheklashni nazarda tutsa ham o'z ifodasini topishi mumkin.

Farg'ona vodiysida «yopiq eshikni yopish» yondashuvini barqarorlikni saqlash va mavjud millatlararo ziddiyatlarning avj olishining oldini olishga qaratilgan ehtiyotkor va konservativ strategiya sifatida tushunish mumkin. Ushbu yondashuv ko'pincha tinchlikni saqlashni birinchi o'ringa qo'yadigan siyosat yoki hukumat tashabbuslarni amalga oshirishni o'z ichiga oladi.

Zamonaviy millatlararo va madaniyatlararo muloqotning murakkab landshaftida, xususan, Farg'ona vodiysi kabi turli hududlarda o'zaro munosabatlar va munozaralarni boshqarish hal qiluvchi rol o'ynaydi. Mumkin bo'lgan ziddiyat nuqtalarini hisobga olgan holda konstruktiv muloqot uchun qulay muhitni yaratish juda muhimdir. Ushbu yondashuv nozik muvozanatni talab qiladi, bunda o'zaro tushunish va hurmatni kuchaytirish bahsli masalalarni keskinlashuvga olib kelishi mumkin bo'lgan usullar bilan hal qilishdan ustun turadi.

Bunga erishish uchun bir qator strategiyalarni amalga oshirish mumkin: Vositachilik orqali muloqotga ko'maklashish: munozaralarga vositachilik qilish uchun neytral uchinchi tomonlarni joriy etish orqali muammolarga samarali yechim topishiga va uni mojaroga aylanib qolmasdan avval umumiy maqsadlarga yo'naltirish uchun xizmat qiladi.

Madaniy sezgirlikni o'rgatish: Madaniy sezgirlik bo'yicha treninglar va resurslarni taqdim etish odamlarni millatlararo o'zaro munosabatlarni ko'proq hamdardlik va hurmat bilan boshqarish uchun zarur bo'lgan ko'nikmalar bilan jihozlashi mumkin. Bu ta'lim Farg'ona vodiysida mavjud bo'lgan turli madaniy kelib chiqishi va istiqbollarni tanib olishga va baholashga yordam beradi.

Hukumatning mintaqadagi millatlararo ziddiyatlarga munosabati misolida bu yondashuvning bir tarafini ko'rish mumkin. O'zbekiston, Qirg'iziston va Tojikiston kabi davlatlar hukumatlari tarixan barqarorlik va milliy birlikni demokratik tamoyillar yoki etnik xilma-xillikdan ustun qo'yadigan avtoritar boshqaruv tuzilmalarini qabul qilgan. Natijada, ular ko'pincha siyosiy norozilik va ijtimoiy faollik ustidan qattiq nazoratni o'rnatadilar. Shuningdek muhokamalar yoki millatlararo ziddiyatni kuchaytirishi mumkin bo'lgan faoliyatni bostirish choralarini amalga oshiradilar.

Markaziy Osiyoda avtoritar boshqaruv sharoitida millatlararo munosabatlar dinamikasiga oydinlik kirituvchi tadqiqotlar sifatida A.Kuli [3], J.Xezershou [4] va R.M.Desai, A.Olofsgard, T.M.Youseflarning "The logic of authoritarian bargains" [5, 93-125] asarlariga murojaat qilish mumkin. Ushbu tadqiqotda mintaqadagi avtoritarizmning kengroq dinamikasiga e'tibor qaratilgan bo'lsa-da, shu bilan Markaziy Osiyo avtoritar rejim sharoitidagi barqarorlik va nazoratni saqlab qolish uchun etnik jihatdan xilma-xillikni va millatlararo ziddiyatlarni qanday boshqarish haqida aniq tasavvurlarni beradi. Shuningdek, mojarolarni yumshatishda fuqarolarning faolligi va ijtimoiy kapitalning roli haqida tushuncha beradi. Bu esa bizga Farg'ona vodiysidek polietnik mintaqalardagi tinchlik va barqarorlikni saqlashga qaratilgan sa'y-harakatlarni tushunishimizga yordam beradi.

Bundan tashqari, etnik nizolarni hal qilish, barqarorlik va tinchlik o'rnatish strategiyalari bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar millatlararo ziddiyatlarni boshqarishda turli yondashuvlarning samaradorligi haqida qimmatli tushunchalar beradi. Jumladan, Morton Deutsch, Piter Coleman va Erik Markus tomonidan tahrirlangan "The handbook of conflict resolution: Theory and practice" kitobida turli jamiyatlarda zo'ravonlikning kuchayishi, mojarolarni hal qilishning turli nazariy asoslari va amaliy usullarini, jumladan, tinchlikni saqlash va oldini olish strategiyalarini o'z ichiga olgan keng qamrovli manbadir [6].

Ushbu va boshqa ilmiy ishlarni o'rganish orqali tadqiqotchilar Farg'ona vodiysidagi millatlararo ziddiyatlarni boshqarishning murakkabliklarini chuqurroq tushunishlari va hatto avtoritar boshqaruv tuzilmalari sharoitida ham mintaqada tinchlik, barqarorlik va ijtimoiy hamjihatlikni qo'llab-quvvatlash bo'yicha potensial strategiyalarni hamda boshqa qiyinchiliklarni aniqlashlari mumkin.

Tadqiqot mobaynida ushbu ilmiy asarlardan olingan fikrlarni umumlashtirish orqali Farg'ona vodiysidagi millatlararo ziddiyatlarni hal qilishda «yopiq eshikni yopish» yondashuvini har tomonlama tushunish imkonini berdi. Demak ushbu yondashuvda demokratik tamoyillardan va etnik xilma-xillikdan ko'ra siyosiy barqarorlikni birinchi o'ringa qo'yishda avtoritar davlat boshqaruv tuzilmalarining o'rni ta'kidlab o'tilgan. Siyosiy norozilik va ijtimoiy faollik ustidan qattiq nazoratning amalga oshirilishi, shuningdek, keskinlikni kuchaytirishi mumkin bo'lgan muhokamalarni bostirish tinchlikni saqlashga qaratilgan ehtiyotkor strategiyani aks ettiradi.

Nega yopiq eshiklarni ochish kerak? Bu savol asosiy muammolar yoki keskinliklarni hal qilish uchun faol va transformativ yondashuvni taklif qiladi. Bu qiyin haqiqatlarga qarshi turish, muloqotga kirishish va yechim yoki yarashuvga intilish istagini bildiradi. Farg'ona vodiysi sharoitida bu istiqbolni millatlararo anglashuv, muloqot va hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan tashabbuslar ifodalashi mumkin. Bu to'siqlar yoki bo'linishlar mavjudligini tan olishni va muloqot, hamdardlik va o'zaro hurmatni kuchaytirish orqali ularni yo'q qilish uchun faol ishlashni o'z ichiga oladi.

Farg'ona vodiysidagi millatlararo munosabatlar kontekstida «yopiq eshiklarni ochish» tushunchasi asosiy tarangliklarni bartaraf etishda faol va transformativ yondashuvni bildiradi. Ushbu yondashuv mavjud to'siqlar yoki bo'linishlarning mavjud ekanligini tan olish, ularni muloqot, o'zaro tushunish, hamkorlik orqali hal qilish va yarashuv yo'lida faol ishlash muhim ekanligini ta'kidlaydi.

Bunday yondashuvning yorqin namunasi sifatida mintaqadagi millatlararo o'zaro tushunish va hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan fuqarolik jamiyati tashkilotlari va boshlang'ich tashabbuslarni ko'rsatib o'tish mumkin. Ushbu tashabbuslarda ko'pincha turli etnik guruhga mansub jamoalar a'zolarining o'zaro muloqot, madaniy almashinuv, hurmat, hamdardliklarini rivojlantirishga qaratilgan hamkorlik loyihalarida ishtirok etish uchun birlashtirish nazarda tutiladi.

Millatlararo hamkorlikni rivojlantirishda fuqarolik jamiyatining rolini yoritib beruvchi Devid Lyuisning tadqiqotlarida [7] Qirg'iziston Respublikasidagi fuqarolik jamiyati tashkilotlarining millatlararo konfliktlarni bartaraf etish hamda tinchlik o'rnatish tashabbuslarini ilgari surish bo'yicha sa'y-harakatlari o'rganib chiqilgan va mintaqadagi mojarolarni hal qilishga hissa qo'shish uchun asosiy yondashuvlarning imkoniyatlari haqida tushuncha bergan.

Bundan tashqari, millatlararo muloqot va nizolarni hal qilish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar Farg'ona vodiysida yopiq eshiklarni ochishning samarali strategiyalarini ishlab chiqish bo'yicha qimmatli tushunchalar berishi mumkin. Anna Triandafyllidou [8], Tariq Modudning [9] ilmiy ishlari turli kontekstlarda millatlararo muloqot nazariyasi va amaliyotini o'rganuvchi keng qamrovli to'plamlardir. Tadqiqotchilar ushbu ilmiy amaliy tadqiqotlarning nazariy asoslarni o'rganish orqali o'zaro dialog jarayonlari turli etnik guruhlar o'rtasidagi tushunish, yarashuv va hamkorlikni qanday osonlashtirishi mumkinligi haqida tushunchalarga ega bo'lishlari mumkin.

Bundan tashqari, ayrim tadqiqotchilar tomonidan tinchlikni saqlab qolishga qaratilgan ta'lim loyihalarida va mojarolarni o'zgartirish bo'yicha tadqiqotlarda turli jamoalar o'rtasida hamdardlik, bag'rikenglik va o'zaro hurmatni rivojlantirish strategiyalari haqida qimmatli fikrlar taklif etiladi. Gavriel Salomon va Ed Cairns tomonidan tahrir qilingan "Handbook on Peace Education" kitobida butun dunyo bo'ylab tinchlik ta'limi tashabbuslari haqida to'liq ma'lumot beriladi hamda tinchlikda, hamkorlikda, birgalikda yashashga yordam beradigan munosabat va ko'nikmalarni rivojlantirishda ta'limning muhimligini ta'kidlaydilar [10].

Xulosa. Tadqiqot doirasida ushbu ilmiy ishlardan olingan fikrlarga tayanib, Farg'ona vodiysida zamonaviy millatlararo munosabatlardagi anglashuv va hamkorlikni rivojlantirishdagi muammolar va imkoniyatlar to'g'risida nozik tushunchalarga ega bo'ldik.

Shuningdek, bu yondashuvlar bizga yopiq eshiklarni ochish va turli etnik jamoalar o'rtasida ko'priklar o'rnatish bo'yicha samarali strategiyalar va ilg'or tajribalarni aniqlash imkoniyatini berish mumkin.

Ushbu g'oyalarni Farg'ona vodiysidagi zamonaviy millatlararo munosabatlar bo'yicha tadqiqotlar bilan bog'lash uchun tadqiqotchilar turli manfaatdor tomonlar mavjud keskinliklarni, mojarolarni qay tarzda qabul qilishlari hamda ularga qanday munosabat bildirishlarini o'rganib chiqishlari mumkin. Ular shaxslar yoki guruhlar status-kvoni saqlab qolish, mojarolardan qochish yoki asosiy muammolarni hal qilishga faol intilish darajasini targ'ib qilishlari mumkin. Ushbu turli nuqtai nazarlarni tushunish orqali tadqiqotchilar mintaqadagi turli etnik jamoalar o'rtasida tinchlik, totuvlik va hamkorlikni rivojlantirishning samarali strategiyalari haqida tushuncha berishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Varshney, A. (2002). *Ethnic Conflict and Civic Life: Hindus and Muslims in India*. Yale University Press. <http://www.jstor.org/stable/j.ctt1nq5hn>
2. Gurr, Ted Robert, ed. 1980. *Handbook of Political Conflict: Theory and Research*. New York: Free Press; Gurr, Ted Robert. 1990. "Ethnic Warfare and the Changing Priorities of Global Security." *Mediterranean Quarterly* 1: 82–98; Gurr, Ted Robert. 1992. "The Internationalization of Protracted Communal Conflicts Since 1945: Which Groups, Where and How." In *The Internationalization of Communal Strife*, ed. Manus I. Midlarsky. London: Routledge; Gurr, Ted Robert ed., 1993. *Minorities at Risk: A Global View of Ethnopolitical Conflicts* Washington, D.C.: United States Institute of Peace Press; Gurr, Ted Robert. 1994. "Peoples Against the State: Ethnopolitical Conflict and the Changing World System." *International Studies Quarterly* 38: 347–77; Gurr, Ted Robert, 2000. *People Versus States: Minorities at Risk in the New Century*. Washington, D.C.: United States Institute of Peace Press; Gurr, Ted Robert. 2001. "Minorities and Nationalists: Managing Ethnopolitical Conflict in the New Century." In *Turbulent Peace: The Challenges of Managing International Conflict* ed. Chester A. Crocker, Fen Osler Hampson, and Pamela Aall. Washington, D.C.: United States Institute of Peace Press.
3. Cooley A., (2012). *Great games, local rules: the new power contest in Central Asia* Oxford: Oxford University Press.; Cooley, A. (2015a). "Authoritarianism Goes Global: Countering Democratic norms". *Journal of Democracy*, 26(3). National Endowment for Democracy and Johns Hopkins University Press.; Cooley A. (2015b). "The emerging politics of international rankings and ratings: A framework for analysis". In Cooley A. and Snyder J (eds). *Ranking the World: Grading States as a Tool of Global Governance*. Cambridge University Press. UK, pp. 1-38.
4. Heathershaw, J. (2009). *Post-Conflict Tajikistan: the politics of peace building and the emergence of legitimate order*. Oxon: Routledge.; Heathershaw, J. & Cooley, A. (2015). "Offshore Central Asia: an introduction" *Central Asian Survey*, 34(1), pp.1-10.; Heathershaw J., (2011) *Tajikistan amidst globalization: state failure or state transformation?* *Central Asian Survey*, 30:1, 147-168.; Heathershaw, J. (2009). "Rethinking the International Diffusion of Coloured Revolutions: The Power of Representation in Kyrgyzstan". *Journal of Communist Studies and Transition Politics*, 25(2-3), pp. 297–323.; Heathershaw, J. (2010). "Post-colonial perspectives on Central Asian statehood", in Kavalski E (ed.) *Stable Outside, Fragile Inside*, Surrey: Ashgate.; Heathershaw, J. (2013). "The global performance state: a reconsideration of the Central Asian weak state", in Reeves M., Rasanayagam J., Beyer J. (eds) *Performing Politics in Central Asia: Ethnographies of the State*, Bloomington: Indiana University Press, pp. 39-61.
5. Desai, R. M., Olofsgard, A., & Yousef, T. M. (2009). The logic of authoritarian bargains. *Economics & Politics*, 21(1), 93-125.
6. Deutsch, M., Coleman, P. T., & Marcus, E. C. (Eds.). (2006). *The handbook of conflict resolution: Theory and practice* (2nd ed.). Wiley Publishing.
7. Lewis, D (2008). *The Temptations of Tyranny in Central Asia*. Hurst: University of Columbia Press.; Lewis, D. (2012a). "Who's Socialising Whom? Regional Organisations and Contested Norms in Central Asia". *Europe-Asia Studies*, 64(7), pp. 1219–1237.; Lewis, D. (2012b). "Understanding the Authoritarian State: Neopatrimonialism in Central Asia". *Brown Journal of World Affairs*. Volume 19(1), pp. 1-12.; Lewis, D. (2013). "Civil Society and the Authoritarian State: Cooperation, Contestation and Discourse". *Journal of Civil Society*, 9(3), pp. 325-340.
8. TRIANDAFYLLIDOU, A., & VEIKOU, M. (2002). The hierarchy of Greekness: Ethnic and national identity considerations in Greek immigration policy. *Ethnicities*, 2(2), 189–208. <http://www.jstor.org/stable/23890525>.; Triandafyllidou, A. (2015). *European Muslims: Caught between Local Integration Challenges and Global Terrorism Discourses*. In L. Kamel (Ed.), *Changing Migration Patterns in the Mediterranean* (pp. 41–58). Istituto Affari Internazionali (IAI). <http://www.jstor.org/stable/resrep09850.7>
9. Modood, T. (2008). Multiculturalism and groups. *Social & legal studies*, 17(4), 549-553.; Modood, T., Berthoud, R., Lakey, J., Nazroo, J., Smith, P., Virdee, S., & Beishon, S. (1997). *Ethnic minorities in Britain: Diversity and disadvantage* (No. 843). Policy Studies Institute.; Meer, N., & Modood, T. (2012). How does interculturalism contrast with multiculturalism?. *Journal of intercultural studies*, 33(2), 175-196.; Modood, T., & Werbner, P. (Eds.). (1997). *The politics of multiculturalism in the new Europe: Racism, identity and community*. Palgrave Macmillan.; Modood, T. (1998). *Changing Ethnic Identities*. In *Sociology: Introductory readings* (pp. 211-218). Polity Press.
10. Salomon, G., & Cairns, E. (Eds.). (2009). *Handbook on Peace Education* (1st ed.). Psychology Press. <https://doi.org/10.4324/9780203837993>

“ALASH” PARTIYASINING YARATILISHI VA XALQ ZIYOLILARI**A. S. Danabekov, talaba, Navoiy davlat pedagogika instituti, Navoiy****Sh. Toshturov, dots., Navoiy davlat pedagogika instituti, Navoiy**

Annotatsiya. Ushbu maqolada XX asr boshlarida qozoq ziyolilari tomonidan tashkil etilgan Alash partiyasining bugungi Qozog'iston davlatining hududiy yaxlitligi va qozoq xalqining til birligining saqlab qolinishiga oid sa'y-ʻharakatlari, Alash harakati vakillarining chor Rossiyasi va sho'ra hukumati davrida xalqning ongini yuksaltirish, milliy ozodlik g'oyasini ilgari surish va milliy manfaatlarini himoya qilish borasida faoliyati yoritilgan.

Kalit so'zlar: Alash atamasi, Alash partiyasi, Ayqap, “Qozoq” gazetasi To'rg'ay viloyati, Orinbor, Birinchi Umumqozoq qurultoyi, M.Seralin, 1917 yil aprel.

Аннотация. В этой статье рассказывается об усилиях партия “Алаш”, основанной казахскими интеллектуалами в начале 20-го века, о территориальной целостности современного Казахстана и представлении языковой единицы казахских народов, о развитии самосознания народа во времена Царской России и представительного правления Советское проведения движения “Алаш”, пропагандирующего идеи национальной свободы.

Ключевые слова: Термин “Алаш”, партия “Алаш”, Айқап, газета “Казак”, Тургайская область, Оринбор, Первый Всекукасовский съезд, М.Сералин, апрель 1917 г.

Abstract. This article includes the efforts of the Alash party, which is founded by Kazakh intellectuals at the beginning of the 20th century, on the territorial integrity today's Kazakhstan and the presentation of the language unit of the Kazakh nations, on the developing the consciousness of the people during The Tsaris Tsaris and soviet government of representative of The Alash Movement, promoting the national freedom ideas.

Key words: The Term Alash, Alash party, Ayqap, Newspaper “Kazakh”, Turgay region, Orinbor, First All-Caucasus Congress, M.Seralin, April 1917

XX asr boshida Markaziy Osiyo xalqlari orasida milliy ozodlik g'oyalari keng yoyilib, shu o'rinda qozoq xalqi ziyolilari tomonidan istiqloq mafkurasini o'zida mujassamlashtirgan va eng muhim progressiv harakatlardan biri bo'lgan “Alash” partiyasining tashkil topishi, uning tarixiy asoslari, siyosiy-ijtimoiy xarakteri va axamiyatini o'rganish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir.

Qozoq xalqi ziyolilari tomonidan davlat boshqaruvida ishtirok etishga qodir siyosiy partiya tuzish tashabbusi 1905 yilda bo'lib o'tgan birinchi rus inqilobi yillarida boshlandi va natijada tashkil etilgan ilk qozoq milliy partiyasiga taniqli ma'rifatparvar Alixon Bukeyxonov raislik qildi. Shu tariqa XX asr boshlarida qozoq ziyolilari tomonidan tashkil etilgan Alash harakati mamlakatdagi notinch va og'ir davrda xalq g'amxo'riligini o'z zimmasiga olgan ta'sirli siyosiy kuchga aylandi. Bu harakatning boshida yuksak siyosiy madaniyatli, axloqiy va ma'naviy fazilatlariga zamon bilan hamnafas bo'lgan Alixon Bokeyxonov (1866-1937 y.), Axmet Baytursinuli (1872-1937 y.), Mirjaqip Dulatuli (1885-1935 y.), Muxametjon Tinishbayuli (1879-1937 y.), Baxitjon Qaratayev (1863-1934 y.) kabi qozoq ziyolilari ularning ma'naviy, siyosiy qarashlarini yanada rivojlantirdi.

Qozoq ziyolilari tomonidan tashkil etilgan Alash partiyasi Rossiya imperiyasining so'ngi davrlarida va Sotsialistik Rossiyaning dastlabki davrlarida faoliyat ko'rsatgan qozoq partiyasi edi. Rossiya imperiyasining Birinchi jahon urushi davridagi inqirozli holatidan unumli foydalangan qozoq ziyolilari 1917 yil aprel oyida chaqirgan Qozoq qurultoyida yangi milliy partiyaning nizomini qabul qildi va shu yilning iyul oyida Alash partiyasi tashkil topdi. Mazkur partiyaning eng muhim arboblari qozoq ziyolilari bo'lib, ular Rossiya tarkibida milliy manfaatlariga yo'naltirilgan demokratik g'oyalar asosida muxtoriyat tuzishni maqsad qildi va keyinchalik RSFSR hukumati tomonidan partiya ishi taqiqlandi va 1920 yilda tarqatib yuborildi.

“Alash” so'zi etimologiyasiga to'xtaladigan bo'lsak, turkiy tillarda “qarindosh-urug’”, “qardosh” ma'nosida, ba'zi ma'lumotlarda esa bu atama “qozoq” so'zining sinonimi sifatida ham keltiriladi. Ya'ni, qozoq va Alash so'zlari bir xil ma'noda erkin, ozod odam degan ma'noni bildirgan.

Taniqli qozoq tarixchisi Qodirg'ali Jaloyir o'z asarlarida qozoq xalqi nomi bilan bir vaqtda Alash so'zini ham ishlatgan [2].

1913 yil M.Seralin tomonidan nashr etilishi yo'lga qo'yilgan "Ayyaq" jurnalida R.Masekov, J.Seydalin., B.Qarataev kabi qozoq ziyolilari jamiyatdagi mavjud dolzarb ijtimoiy masalalarni muhokama qilib, muayyan dasturiy xulosalarga kelish uchun Butunqozoq qurultoyini chaqirish tashabbusini ilgari so'radi. Ammo 1905-1907 yillardagi Rossiya imperiyasida boshlangan qo'zg'olonidan keyin butun mamlakatda o'rnatilgan kuchli harbiy-ma'muriy tartib sababli bu davrda qurultoyini o'tkazish mumkin emasligini yaxshi tushungan A.Baytursinov bilan A.Bukeyxanov boshchiligidagi bir guruh qozoq ziyolilari Butunqozoq qurultoyini chaqirishga qarshi chiqadi [1].

1917 yil aprelda "Alash" partiyasining To'rg'ay viloyatida bo'lib o'tgan yig'ilishida Birinchi Umumqozoq qurultoyini chaqirishga qaror qiladi.

Birinchi Umumqozoq qurultoyi ishida qatnashgan taniqli qozoq ziyolisi Mustafo Shokay o'z xotiralarida bu yig'ilishda o'zbek va tatar millati ziyolilari ham qatnashib, o'zlarining qiziqishlarini bildirishganini keltirib o'tadi [1]. "Qozoq" gazetasining 1917-yil 24-iyun kuni chiqqan sonida Birinchi Umumqozoq qurultoyini tashkil etish byurosi tomonidan qurultoyini o'tkazish va kun tartibiga doir masalalari bo'yicha umumxalq muhokamasiga o'z xulosalarini taqdim etdi. Tezislari shaklida taqdim etilgan bu masalalarning deyarli barchasi 1917-yil 21-26 iyul kunlari Orinbor shahrida bo'lib o'tgan I Umumqozoq qurultoyi kun tartibiga kiritiladi va mazkur qurultoyda "Alash" partiyasining dasturi e'lon qilindi [3].

I Umumqozoq qurultoyida Aqmola, Semipalatinsk, To'rg'ay, Ural, Jetisu, Sirdaryo viloyatlari va Bo'key o'rdasi hamda Farg'ona viloyatining qozoqlar yashaydigan tumanlaridan vakillar qatnashdi. Qurultoy ishtirokchilari soni unchalik ko'p bo'lmaganiga (20 kishidan ortiq) qaramay, uning kun tartibiga Qozog'istonning o'sha davrdagi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayotiga bevosita taalluqli 14 ta o'ta muhim masala kiritilgan edi. Ular quyidagilardan iborat: 1) Davlat boshqaruvi turi. 2) Qozoq viloyatlarida muxtoriyat. 3) Yer masalasi. 4) Xalq militsiyasi. 5) Zemstvo. 6) Ta'lim masalasi. 7) Sud masalasi. 8) Din masalasi. 9) Ayollar masalasi. 10) Ta'sis majlisi va qozoq viloyatlaridan deputatlar sayloviga tayyorgarlik ko'rish. 11) Butun Rossiya musulmonlar kengashi (Sho'ra Islam). 12) Qozoq siyosiy partiyasi. 13) Jetisu viloyati voqeasi. 14) Kiyevdagi Butun Rossiya federalistlar qurultoyiga va Petrograddagi Maorif komissiyasiga qozoq vakilini yuborish [4]. Ushbu qurultoyda "Alash" partiyasi o'z dasturida Rossiya davlatining demokratik shakldagi federativ tengdosh respublikalar ittifoqi bo'lishi zarurligini, undagi har bir davlatning poydevori bir xil va har biri o'z rulin olib yurishi kerakligini ta'kidlashgan. "Demokratiya", — deb tushuntirilgan dasturda bu — davlatning xalq tomonidan boshqarilishi ekanligi ta'kidlanib, hukumat boshlig'i Ta'sis Majlis va Davlat Dumasi qarori bilan muayyan muddatga saylanadigan Prezident bo'lishi, ushbu lavozimga o'tirgan shaxs davlat va jamoat ishlarini tayinlangan vazirlar tomonidan amalga oshirishi, vazirlar esa Qurultoy Majlisi va Davlat Dumasi oldida javobgar bo'lishi, Davlat Dumasi deputatlari teng va yashirin saylovlar orqali saylanishi kabi bir qator ilg'or g'oyalarni ilgari suradi. Mazkur dastur doirasida tarqoq qozoq viloyatlari va juzlarini yagona davlatga birlashishi va muxtoriyat asosida Rossiya Federatsiyasi tarkibiga kirish kerakligi haqidagi siyosiy tashabbuslarni ilgari suradi [3]. Quyidagi holat dasturni tezda nashr qilish va ommalashtirishga sabab bo'ldi. "Qozoq" boshqarmasi 1917 yil 14 noyabrda Alashning Ombidagi viloyat qo'mitasidan quyidagi mazmundagi telegramma oladi: "Alash dushmanlari "Alash" partiyasini xalqqa noto'g'ri ko'rsatib, yolg'on xabarlar tarqatmoqda," Qozoq" gazetida "Alash" partiyasining loyihasi chop etilishiga umid qilamiz" [1]. Davomidan, "Omsklik qozoqlar "Uch yuz" degan sotsialistik yo'nalishdagi partiya ochdilar. Partiyaning maqsadi federatsiyani qo'llab-quvvatlash va turk-tatar jamoalarini birlashtirish, Ta'sis majlisiga alohida ro'yxatga kirishdir" [1]. Ana shunday vaziyatdan so'ng "Qozoq" gazetasining 21 noyabr kuni sonida "Alash" partiyasining dastur loyihasi nashrdan chiqadi [2].

"Alash" partiyasining vujudga kelishi katta siyosiy voqea bo'lib, 1917 yil 21 noyabrda nashr qilingan "Qozoq" gazetasining navbatdagi sonida "Alash" partiyasi dasturi loyihasi va qurultoy materiallari e'lon qilindi. "Alash" partiyasi dasturi loyihasi 10 bobdan iborat bo'lib, unda jamiyatning barcha sohalarini qamrab olishni ko'zda tutgan. Zero, uning to'qqizinchi bobida "Ilm va bilim

o'rgatish" haqida so'z boradi: ta'lim muassasalarining eshiklari har kim uchun bepul va ochiq bo'lishi; — boshlang'ich maktablarda ona tilida o'qitish; — qozoq tilida o'qitiladigan o'rta maktab va universitetlarni ochish; — ta'lim sohasi avtonomiya shaklida bo'lishi; — hukumatning ta'lim ishiga aralashmasligi; — professor-o'qituvchilarni o'zaro saylash yo'li bilan tayinlash; — mamlakatda kutubxonalar ochish; — gazeta va kitoblarni nashr qilish erkinligi. Ko'rinib turibdiki, o'sha davr ziyolilarining qozoq tilida ilk marotaba ma'naviy-ma'rifiy ishlarni yoritishni yo'lga qo'yadi va qozoq milliy adabiyotining sara asarlarini nashr ettirish bilan shug'ullangan. Nashrda milliy ta'limni zamonaviylashtirish, millat dardini aks ettiruvchi adabiyot va san'at yaratish, millat ongini yuksaltirishga xizmat qiluvchi matbuotni rivojlantirish, ayollarni ijtimoiy hayotga jalb qilish, axloqiy tarbiyani kuchaytirish va boshqa davr uchun dolzarb muammolar keng yoritilgan.

Alash harakati va Alasho'rda yetakchilarining buyuk tarixiy ishlari qozoq zaminini saqlab qolish bilan bog'liq edi. Ularning Sovet hukumati rahbarlari bilan olib borgan muzokaralari, ayniqsa, Axmet Baytursinulining bu yo'nalishdagi mashaqqatli mehnatidan so'ng, Qozog'iston Avtonom Sovet Sotsialistik Respublikasi tashkil etilishi davrida bu muxtoriyat hududini belgilashda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ldi. Zero, Axmet Baytursinuli ta'biri bilan aytganda: “boshqalardan kam bo'lmaslik uchun bilimli, boy va kuchli bo'lishimiz kerak. Bilimli bo'lish uchun — o'qish kerak! Boy bo'lish uchun sizga biznes kerak! Kuchli bo'lish uchun birdamlik kerak! Bu ehtiyojlar yo'lida ishlash kerak!” [5]. Alixon Bukeyxonov ilgari surgan g'oyaga ko'ra, qozoq zaminida yetishtirilgan bir hovuch jun o'sha davlat fuqarolariga kiyilishi kerak. Ya'ni, davlat to'liq iqtisodiy mustaqillikka erishishi zarur. Alash arboblardan yana biri Mirjaqip Dulatuli “Uyg'on, qozoq” deya da'vat qilgan bo'lsa, yana bir Alash arbobi Xalel Do'smuhamedov “O'z tilini bilmagan davlat yurt bo'lolmaydi. Tilini yo'qotgan xalq bu halokatga uchragan xalqdir” degan g'oyalarni ilgari suradi. Mustaqillik arafasida Qozog'iston Respublikasining yaxlitligini asrab-avaylanishida Alash g'oyalarining yangi kuch bilan qozoq ziyolilari orasida qayta jonlandi. 1937-1938-yillarda bolsheviklar tomonidan amalga oshirilgan “katta qirg'in” davrida afsuski barcha xalqlarda bo'lgani kabi qozoq xalqining ham o'qimishli, dunyoqarashi keng bo'lgan ziyolilarini “yod burjua g'oyalari” uchun ularga turli bo'htonlarni yopishtiradi va qatag'on qiladi. Natijada birgina 1937-38-yillar oralig'ida 25 ming nafardan ortiq qozoqlar jazolandi va ularning ko'pchiligi otib tashlandi [6]. Qatag'on qilinganlarning orasida Alash partiyasi arboblari ham bor edi.

Zamonaviy Qozog'iston davlatchilik tarixidagi taraqqiyparvarlik g'oyalardan biri bu so'zsiz Alash harakati bo'lib, bugungi Qozog'iston mustaqilligi negizi ham mana shu g'oyalardan ilhomlanadi. Alash harakati 1905-yildan 1937 yilgacha bo'lgan qisqa davrda faoliyat yuritgan bo'lsa-da, ular amalga oshirgan ishlar asrlarga tatigulik bo'ldi. Alash arboblarning qozoq davlatchiligi tarixida alohida o'rni bo'lib, Alixon Bukeyxonov, Mustafo Shokay, Axmet Baytursinuli, Mirjaqip Dulatuli, Muhammadjon Tinishboyuli kabi vatanparvar ziyolilar Alash harakatining haqiqiy sherlari bo'lgan. Alash harakatining chin ma'nodagi otalari bo'lgan bu shaxslar har biri davlatni boshqarishga qodir edi. Ular qozoq xalqining ko'p asrlik tarixi mobaynida taraqqiyotga erishishda inqilobiy usul bilan jamiyatni tubdan o'zgartirishni emas, balki rivojlangan mamlakatlarning tajribalarini hisobga olgan holda evolyutsion yo'l bilan taraqqiy etish, ilm-fan va ta'limning qudratli kuchi orqali yuksalishni maqsad qilgan. Alash ziyolilari mamlakatga demokratiya va maorif olib kirish jarayonining boshida turdi. Zero, “Alash” partiyasi dasturida qayd etilgan mamlakat boshqaruvi, yosh avlod tarbiyasi, barcha xalqlar tengligi, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta'minlash tamoyillari bugungi mustaqil Qozog'iston davlati siyosati bilan hamohangdir. Ular Vatanga sadoqat bilan xizmat qilish g'oyalarini ilgari surdi va bu borada boshqalarga o'rnak bo'lishi orqali vatanparvarlik timsoli sifatida bugungi kunda yoshlar qalbi va ongida yashamoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Qozoq" gazetasi, 1913 y., 18-251 sonlar.
2. <https://eskeldi-eli.kz/?p=15165>
3. Qo'ygeldiyev.M. Alash qo'zg'oloni. Olma-ota. San'at nashriyoti. 1995 y. — B.265
4. Nurpeyisov.K. Alash ham Alasho'rda. Olma-ota. Atatek nashriyoti. 1995 y. —B.116
5. <http://centre-tur.kz/>
6. <https://ult.kz/>

DISKRIMINATSIYA VA UNING SHAXS PSIXOLOGIYASIGA TA'SIRI: O'ZBEK IMMIGRANTLARI MISOLIDA

A.A.G'aniyev, mustaqil tadqiqotchi, Kangwon National University, Kanvondo, Koreya

Annotatsiya. Bugungi globallashtirilgan dunyoda immigratsiya jarayonlari tobora kuchayib bormoqda. Har yili millionlab odamlar yangi imkoniyatlar izlab, yaxshiroq hayot qurish umidida o'z vatanlarini tark etishadi. Ammo afsuski, ko'plab immigrantlar mezbon davlatda turli xil qiyinchiliklar va to'siqlarga duch kelishadi. Ularning eng og'irlaridan biri - diskriminatsiya muammosi. Ushbu maqolada biz immigrantlarga nisbatan keng tarqalgan diskriminatsiya shakllari, uning sabablari va oqibatlarini, hamda bu muammoni hal qilish yo'llari haqida batafsil to'xtalib o'tamiz.

Kalit so'zlar: immigratsiya, diskriminatsiya, adaptatsiya, akkulturatatsiya, akkulturatativ stress, ijtimoiy identifikatsiya

Аннотация. В современном глобализированном мире иммиграционные процессы становятся все более интенсивными. Ежегодно миллионы людей покидают родину в поисках новых возможностей и надежде построить лучшую жизнь. Но, к сожалению, многие иммигранты сталкиваются с различными проблемами и препятствиями в принимающей стране. Одной из наиболее серьезных из них является проблема дискриминации. В этой статье мы подробно обсудим распространенные формы дискриминации иммигрантов, ее причины и последствия, а также пути решения этой проблемы.

Ключевые слова: иммиграция, дискриминация, адаптация, аккультурация, аккультурационный стресс, социальная идентификация.

Abstract. In today's globalized world, immigration processes are becoming more and more intense. Every year, millions of people leave their homeland in search of new opportunities and hope to build a better life. But unfortunately, many immigrants face various challenges and obstacles in the host country. One of the most serious of them is the problem of discrimination. In this article, we will discuss in detail the common forms of discrimination against immigrants, its causes and consequences, and ways to solve this problem.

Key words: immigration, discrimination, adaptation, acculturation, acculturative stress, social identification

Immigrantlarga nisbatan diskriminatsiya nima?

Diskriminatsiya - bu insonlarni irqi, millati, dini, jinsi yoki boshqa belgilari asosida kamsitish va nohaq munosabatda bo'lishdir. Immigrantlarga nisbatan diskriminatsiya esa, odamlarni ularning kelib chiqishi, fuqaroligi yoki immigrant maqomi tufayli kamsitish va cheklashlarga duchor qilishni anglatadi. Bu holat turli ko'rinishlarda namoyon bo'lishi mumkin: ish joyida, ta'lim muassasalarida, uy-joy masalasida, sog'liqni saqlash xizmatlarida va jamiyatning boshqa sohalarida.

Immigrantlarga nisbatan diskriminatsiyaning asosiy turlari quyidagilardan iborat:

➤ Ish joyidagi diskriminatsiya: Bu eng keng tarqalgan shakllardan biri hisoblanadi. Ko'plab ish beruvchilar immigrant ishchilarni yollashdan bosh tortadilar yoki ularga mahalliy ishchilardan pastroq ish haqi to'laydilar. Bundan tashqari, immigrant xodimlar ko'pincha lavozim ko'tarilishi imkoniyatlaridan mahrum qilinadi.

➤ Ta'lim sohasidagi diskriminatsiya: Ba'zi ta'lim muassasalari immigrant bolalar va talabalarni qabul qilishni istamaydilar yoki ularga sifatli ta'lim berishga e'tibor qaratmaydilar. Bu esa immigrant yoshlarning kelajakdagi imkoniyatlarini jiddiy ravishda cheklab qo'yadi.

➤ Uy-joy masalasidagi diskriminatsiya: Ko'plab uy egalari va ko'chmas mulk agentliklari immigrant oilalarga uy-joy ijaraga berishni rad etadilar yoki ulardan yuqori narxlar talab qiladilar.

➤ Sog'liqni saqlash xizmatlaridagi diskriminatsiya: Ba'zi tibbiyot muassasalari immigrant bemorlarga sifatli xizmat ko'rsatishdan bosh tortadilar yoki ularga nisbatan e'tiborsiz munosabatda bo'ladilar.

➤ Ijtimoiy diskriminatsiya: Jamiyatning ba'zi a'zolari immigrantlarga nisbatan ochiqdan-

ochiq dushmanlik va nafrat bildiradilar, ularni jamiyatdan chetlatishga harakat qiladilar.

Diskriminatsiyaning sabablari esa quyidagilardan iborat:

A. Stereotiplar va noto'g'ri tasavvurlar: Ko'pchilik odamlar immigrantlar haqida salbiy stereotiplarga ega bo'lib, ularni jinoyatchilik va ijtimoiy muammolar bilan bog'laydilar.

B. Iqtisodiy raqobat: Mahalliy aholi immigrantlarni ish o'rinlari va resurslar uchun raqobatchi sifatida ko'radi va bu holat diskriminatsiyaga olib keladi.

C. Madaniy farqlar: Turli madaniyat va an'analarga ega bo'lgan immigrantlar mahalliy aholi tomonidan tushunilmaslik va qabul qilinmaslikka duch kelishi mumkin.

D. Siyosiy omillar: Ba'zi siyosatchilar va ommaviy axborot vositalari immigratsiyani muammo sifatida ko'rsatib, jamiyatda ksenofobik kayfiyatlarni kuchaytiradilar.

E. Qonunchilikdagi kamchiliklar: Ba'zi mamlakatlarda immigrantlarning huquqlarini to'liq himoya qiladigan qonunlar mavjud emas yoki samarali ishlamaydi.

O'z vaqtida oldi olinmagan yoki uzoq muddat davom etgan diskriminatsiya quyidagi og'ir ruhiy, ijtimoiy va iqtisodiy oqibatlariga olib keladi:

■ Ruhiy va jismoniy salomatlikka salbiy ta'sir: Doimiy ravishda diskriminatsiyaga uchrash stress, depressiya va boshqa ruhiy muammolarga olib kelishi mumkin. Bu o'z navbatida jismoniy salomatlikka ham ta'sir ko'rsatadi.

■ Iqtisodiy qiyinchiliklar: Ish joyidagi diskriminatsiya tufayli ko'plab immigrantlar kambag'allik va moliyaviy qiyinchiliklarga duch keladilar.

■ Ta'lim va kasbiy rivojlanish imkoniyatlarining cheklanishi: Diskriminatsiya tufayli immigrantlar va ularning farzandlari sifatli ta'lim olish va kasbiy rivojlanish imkoniyatlaridan mahrum bo'ladilar.

■ Ijtimoiy izolyatsiya: Jamiyatdagi diskriminatsiya immigrantlarning mahalliy aholi bilan aloqalarini cheklaydi va ularning integratsiyasini qiyinlashtiradi.

■ Madaniy identifikatsiya muammolari: Doimiy diskriminatsiyaga uchrash natijasida ba'zi immigrantlar o'z madaniy identifikatsiyasini yo'qotadilar yoki aksincha, o'z madaniyatlariga yanada qattiqroq yopishib oladilar.

Diskriminatsiyaga qarshi kurashish yo'llari:

1. Qonunchilikni takomillashtirish: Immigrantlarning huquqlarini to'liq himoya qiladigan qonunlarni qabul qilish va ularning samarali ijrosini ta'minlash zarur.

2. Ta'lim va ma'rifat: Jamiyatda immigrantlar haqidagi stereotiplarni yo'q qilish va madaniy xilma-xillikni targ'ib qilish uchun keng ko'lamli ta'lim dasturlarini amalga oshirish kerak.

3. Ish beruvchilar va tashkilotlar uchun treninglar: Korxonalar va tashkilotlarda xilma-xillik va inklyuzivlikni rag'batlantirish, diskriminatsiyaga qarshi kurashish bo'yicha maxsus treninglar o'tkazish lozim.

4. Immigrantlar huquqlarini himoya qiluvchi tashkilotlarni qo'llab-quvvatlash: Bunday tashkilotlar immigrantlarga huquqiy yordam ko'rsatish va jamiyatda ularning manfaatlarini himoya qilishda muhim rol o'ynaydi.

5. Ommaviy axborot vositalarining roli: OAV immigrantlar haqida ijobiy hikoyalarni yoritish va jamiyatda tolerantlikni targ'ib qilishda faol ishtirok etishi kerak.

6. Ijtimoiy integratsiya dasturlari: Mahalliy hokimiyat organlari immigrantlarning jamiyatga muvaffaqiyatli integratsiyalashuviga yordam beradigan maxsus dasturlarni ishlab chiqishi va amalga oshirishi lozim.

7. Madaniyatlararo muloqotni rag'batlantirish: Turli madaniyat vakillari o'rtasida muloqot va hamkorlikni kuchaytirish uchun madaniy tadbirlar, festivallar va boshqa ijtimoiy loyihalarni tashkil etish muhim.

8. Diskriminatsiya holatlarini monitoring qilish va hisobotlar tayyorlash: Muntazam ravishda diskriminatsiya holatlari bo'yicha statistik ma'lumotlarni to'plash va tahlil qilish, shuningdek, bu borada hisobotlar tayyorlash zarur.

9. Xalqaro hamkorlikni kuchaytirish: Immigratsiya va diskriminatsiya masalalarini hal qilishda xalqaro hamkorlikni kuchaytirish, ilg'or tajribalarni o'rganish va amalga oshirish muhim ahamiyatga ega.

10. Immigrantlarning o'zlarini qo'llab-quvvatlash: Immigrantlarga o'z huquqlarini bilish, himoya qilish va jamiyatda faol ishtirok etish uchun ko'nikmalar va imkoniyatlar berish lozim.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash mumkinki, immigrantlarga nisbatan diskriminatsiya murakkab va ko'p qirrali muammo bo'lib, uning oqibatlarini nafaqat immigrantlar, balki butun jamiyat uchun ham jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bu muammoni hal qilish uchun davlat organlari, nodavlat tashkilotlar, biznes, ta'lim muassasalari va fuqarolik jamiyatining birgalikdagi sa'y-harakatlari talab etiladi.

Biz hammamiz insoniylik nuqtai nazaridan kelib chiqib, har bir insonning qadr-qimmatini hurmat qilishimiz va teng imkoniyatlar yaratishga intilishimiz kerak. Faqat shundagina biz haqiqatan ham adolatli, xilma-xil va barqaror jamiyat qura olamiz.

Immigrantlar o'zlari bilan birga yangi g'oyalar, ko'nikmalar va madaniy boyliklarni olib keladilar. Ularning qo'shgan hissasi jamiyatimizni yanada boyitadi va rivojlantiradi. Shu sababli, diskriminatsiyaga qarshi kurashish va immigrantlarning jamiyatga to'liq integratsiyalashuviga yordam berish nafaqat axloqiy, balki iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan ham oqilona qarordir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Berry, J. W. (2017). *Acculturation: A Personal Journey across Cultures*. Cambridge University Press.
2. Cobb, C. L., Xie, D., & Sanders, G. L. (2016). Coping styles and depression among undocumented Hispanic immigrants. *Journal of Immigrant and Minority Health*, 18(4), 864-870.
3. Dekeyser, L., Raes, F., Leijssen, M., Leysen, S., & Dewulf, D. (2008). Mindfulness skills and interpersonal behaviour. *Personality and Individual Differences*, 44(5), 1235-1245.
4. Ellis, B. H., MacDonald, H. Z., Lincoln, A. K., & Cabral, H. J. (2008). Mental health of Somali adolescent refugees: The role of trauma, stress, and perceived discrimination. *Journal of Consulting and Clinical Psychology*, 76(2), 184-193.
5. Garcini, L. M., Peña, J. M., Galvan, T., Fagundes, C. P., & Klonoff, E. A. (2017). Mental disorders among undocumented Mexican immigrants in high-risk neighborhoods: Prevalence, comorbidity, and vulnerabilities. *Journal of Consulting and Clinical Psychology*, 85(10), 927-936.
6. Jasinskaja-Lahti, I., Liebkind, K., & Solheim, E. (2009). To identify or not to identify? National disidentification as an alternative reaction to perceived ethnic discrimination. *Applied Psychology*, 58(1), 105-128.
7. Kirmayer, L. J., Narasiah, L., Munoz, M., Rashid, M., Ryder, A. G., Guzder, J., ... & Pottie, K. (2011). Common mental health problems in immigrants and refugees: general approach in primary care. *Canadian Medical Association Journal*, 183(12), E959-E967.
8. Moleiro, C., Silva, A., Rodrigues, R., & Borges, V. (2009). Health and mental health needs and experiences of minority clients in Portugal. *International Journal of Migration, Health and Social Care*, 5(1), 15-24.

UO'K 81-13

“ALPOMISH” DOSTONIDA BESHIK TO'YI VA SUNNAT TO'YI BILAN BOG'LIQ MAROSIM VA URF-ODATLARNING IFODALANISHI

*N.M.Matkarimova, bo'lim metodisti, Xorazm viloyat Maktabgacha va maktab ta'limi
boshqarmasi, Urganch*

Annotatsiya. Mazkur maqolada xalq og'zaki ijodi, xalq yaratgan dostonlar, sharq xalqlarining badiiy ijodi, ma'naviyat va ma'rifat bilan birgalikda san'atning o'rnini, xalq og'zaki ijodining qadimiy an'analarini tiklash va milliy qadriyatlar, “Alpomish” dostonida tasvirlangan marosim, an'ana va urf-odatlarining bugungi kundagi ko'rinishi va o'zaro bog'liq tomonlari, nomoddiy madaniy meros, xalq og'zaki ijodi yodgorliklarini yig'ish va to'plash, ularni nashr etish yuzasidan ko'pgina chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq ekanligi haqida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: Xalq og'zaki ijodi, doston, sharq xalqlarining badiiy ijodi, folklor san'ati, nomoddiy madaniy meros.

Аннотация. В данной статье рассматриваются фольклор, эпосы, созданные народом, художественное творчество народов Востока, место искусства вместе с духовностью и просветительством, восстановление древних традиций фольклора и народных песнопений «Алпомыш». внешний вид и взаимосвязанные аспекты обряда, традиций и обычаев, описанные в эпосе, собрание и коллекционирование памятников нематериального культурного наследия, фольклора и публикация о них информации при условии целесообразности проведения мероприятий.

Ключевые слова: Народное устное творчество, эпос, художественное творчество народов Востока, фольклорное искусство, нематериальное культурное наследие.

Abstract. In this article, folklore, epics created by the people, artistic creation of the peoples of the East, the place of art together with spirituality and enlightenment, restoration of ancient traditions of folklore and national chants, "Alpomish" are discussed in this article. the appearance and interrelated aspects of the ceremony, traditions and customs described in the epic, collecting and collecting monuments of intangible cultural heritage, folklore, and publishing them information is provided that the implementation of measures is appropriate.

Keywords: Folk oral creativity, epic, artistic creativity of the peoples of the East, folklore art, intangible cultural heritage.

Kirish va dolzarbligi. O'zbek xalqi o'zining asrlar osha davom qilib avloddan avlodga o'tib kelayotgan an'analari bilan, qadriyatlari va rang-barang urf-odat va udumlarining ko'pligi, serqirraligi, umrboqiyligi hamda ularni asrlar osha kelgusi avlod vakillariga yetkazib e'zozlashi jihatidan dunyo xalqlari orasida oldingi o'rinlarda turishi mubolag'a emas. Zardushtiylik davri bilan bog'liq ravishda shakllangan eng qadimiy milliy udumlarimiz shu qadar rang-barang va xilma-xil bo'lib, xalqimizning o'troq, hayotining dastlabki paytlariga to'g'ri kelsa, Markaziy Osiyoda islom dini, madaniyati va taraqqiyoti kirib kelishi bilan ayrim urf-odatlarimiz, aksariyat marosimlarimiz hozirgacha davom ettirilib, ezgu qadriyat sifatida ardoqlanib kelinmoqda. Bir qator omillar tarixan tarkib topgan milliy an'ana, urf-odat, rasm-rusm, taomil, marosimlarning vujudga kelishi va rivojlanishiga bevosita va bilvosita ta'sir ko'rsatadi. Insonlarning turmush tarzi shunday omillardan biri hisoblanadi.

Metodlar va o'rganilish darajasi. Xalq og'zaki ijodi asrlar osha avloddan avlodga o'tib kelayotgan an'analarni, qadriyatlarni va rang-barang urf-odat va udumlarini, shuningdek jamiyat tarixining, insonlar orzu-umidlarining badiiy ko'zgusi bo'lib, u yozma adabiyotning taraqqiyotiga doimo samarali ta'sir etib kelgan. Xalq yaratgan dostonlar kitob holiga keltirilib, shoirlar va adiblar tomonidan ijodiy ishlangan va shu tariqa og'zaki adabiyot bilan yozma adabiyotni bir-biriga chambarchas bog'lovchi "xalq kitoblari" deb atalgan badiiy asarlar turkumi vujudga kelgan. Har qaysi xalqning tarixi va madaniyati, eng avvalo, og'zaki ijodi folklor san'atida, doston va eposlarida mujassam bo'lib, ular millatning o'zligini anglash, uning o'ziga xos milliy qadriyatlari va an'analarni saqlash va rivojlantirishda bebaho manba hisoblanadi. O'zbeklarning farzandlariga bo'lgan mehr-oqibati, ularga turli-tuman yaxshi, ezgulikka yo'g'rilgan urf-odatlar, rasm-rusmlari, an'ana, taomil va udumlarining bisyorligidan, ularning ajdodlardan avlodlarga singdirilib kelinayotganligidan hayratga tushgan sayyoh German Vamberi, "O'rta Osiyo xalqlarining urf-odatlarini yuksak darajada maqtovg'a sazovor bo'ladigan tomonlari shuki, ular o'z milliy xarakteriga ega bo'lgan ajoyib fazilatlarini qat'iyat bilan saqlaydilar", — deb yozgan edi[1].

Tadqiqot natijalari. Xalq urf-odatlar, an'ana va marosimlari muayyan tarixiy davrning mahsuli bo'lib, u moddiy turmush sharoitining ta'siri natijasida paydo bo'lgan. Vaqt o'tgan sari ular tobora mustahkamlanib, ajdodlardan avlodlarga meros bo'lib o'tib kelgan. Xalqning "to'y" atamasi bilan yuritiladigan barcha an'analari, urf-odat va udumlari shahar va qishloq aholisining kundalik turmushiga singib ketgan bo'lib, xalqning ezgu istaklari hamda intilishlarini o'zida aks ettiradi[2. 3-38]. O'zbeklarning an'ana va marosimlari, uning barcha turdagi yo'sinlari muqaddas sanalgan, shu bois ularning kishilar tomonidan o'zgartirilishi mumkin emas, deb tushuntirilgan. Bu marosimlar asrlar osha ajdodlardan avlodlarga asosan o'zgarmasdan o'tib kelgan.

O'zbeklarning azaliy taomiliga ko'ra farzand ko'rgan xonadon atrofida xursandchilik, shodiyonalik barq urib turadi. Bolalar, kattalar bir-birlariga "suyunchi" in'om etadilar. Ushbu sevinchli xabarni kimda-kim, u xoh katta yoshda bo'lsin, xoh kichik, bolaning otasiga, buvasi, buvisiga, tog'asi va boshqa qarindosh-urug'lariga yetkazsa, qadimiy udumga ko'ra, unday kishilarga qo'y, mol, nortuya, to'n, sarpo, pul va boshqa narsalarni "suyunchi" deb tortiq qilganlar. Uzoq vaqt orziqib kutilayotgan biron kishining kirib kelishi, farzand tug'ilishi va boshqa shu kabi xushxabarni yetkazgan kishilar hamisha suyunchi bilan taqdirlanganlar. "Alpomish" dostonida bugungi kungacha saqlanib qolgan, xalqimiz tomonidan amal qilinib kelayotgan bir qator urf-odatlarining, amallarning,

an'analarning guvohi bo'lamiz. Misol tariqasida "Alpomish" dostonida keltirilgan va hozirgi kunda ham xalqimiz tomonidan keng qo'llaniladigan ayrim urf-odat va marosimlarga to'xtalib o'tamiz:

Farzand tug'ilishi munosabati bilan "suyunchi" in'om etish udumi: ("Oydan oy, kundan kun o'tib, to'qqiz oy, to'qqiz kun, to'qqiz soat oradan o'tib qoldi. Boybichalarning oyi-kuni yaqin yetdi, biylar ikkovi aytdi: "Bizlar ham bir shohlik shavkatini qilsak, ovga chiqib ketsak, farzandlar yer yuziga tushsa, suyunchi, deb bir nechalar oldimizga yo'lga chiqib, bizlardan tilla-tanga in'om olsa", — deb o'ylarni o'ylab, biylar ovga jo'nab ketdi. Boybichalarga shunda to'lg'oq vaqti yaqin yetdi; ne kampirlar kelib, boybichani aylanib, tulkini inlatgan toziday bo'lib, boybichalarni angnib, o'rta olib turibdi. Biylar shul vaqtda ovdan qaytdi; bu yoqdan shul vaqtda farzandlar yer yuziga tushdi. Bir nechalar biylarning oldiga chiqib, suyunchi oldi" [3]);

"Maslahat oshi. – Kengash to'yi". – Sunnat to'yi qilishdan bir necha kun avval to'y qiluvchi kishining uyida erkak qarindoshlar, yaqin kishilar va mahalla-qishloq oqsoqollari ishtirokida maslahat oshi – kengash to'yi o'tkaziladi. Shuningdek, to'yga qayerdan kimlarni taklif etish, to'yga kimlarni chaqirish kabi qator masalalar atroflicha hal etiladi[2,39-79]. Shu jumladan, "Maslahat oshi – kengash to'yi" – beshik to'y va shu kabi boshqa to'y va marosimlarda ham o'tkaziladi.

("Biylar ziyoda vaqti xush bo'lib, mazgiliga kelib joy olib, vaqti xushligidan har tarafga xabar yuborib, xaloyiqlarni chaqirib, to'y-tomoshga qilmoqchi bo'lib, chog'lanib, sozlanib, o'n olti urug' Qo'ng'iro't elining katta-kichik biylarini, oqsoqol, arboblarni yig'dirib, to'y qilamiz, deb maslahat qildi") [3].

"To'yona". – To'yga, to'y egasiga sovg'a-salom berish. O'zbek xalqi qadimdan to'yga to'yona bilan borgan. To'yona qilish qadim zamonlarda tuya, ho'kiz, sigir, qo'y keltirish misolida bo'lgan. Uning miqdori ham to'y egasining va to'yonachining moddiy imkoniyatlari, iqtisodiy-ijtimoiy mavqeyi, darajasiga va albatta, zamoniga qarab bo'lgan. To'yona nafaqat, o'zbeklarga, balki barcha turkiy xalqlarga, tojik, qozoq, qirg'iz xalqlari ruhiyatiga ham xos bo'lgan qadimiy odatlardan biridir. Biz atrofimizda yashab kelayotgan qrim tatarlari, turklar, koreyslar ham bu odatni o'z an'analari qilib olganliklarini yaxshi bilamiz[4].

("Hamma mamlakatga ovoza bo'lib, elining, yurtining katta-kichiklari qulluq bo'lsinga kelib, do'stlar shodmon bo'lib, dushmanlar g'amgin bo'lib, g'amgin bo'lsa ham, ilojini topolmay, hech kimga (yuragini) yorolmay, bular ham qulluq bo'lsinga kela berdi" [3])

"So'qim so'yish". – An'anaga ko'ra to'ydan bir kun oldin to'y uchun boqilgan mol, qo'y, goho ot va tuyani so'yishga bag'ishlangan marosimni o'tkazadilar.

"O'n olti urug' Qo'ng'iro't urug'ining odamlari, eshitgan xaloyiqlar guros-guros bo'lib kela berdi. Shunda katta-kichiklar kelib, biylarning og'zidan to'y qilamiz, deganini eshitib, to'yning asboblarini tuzatib, qancha so'qim mollar so'yib, osh-palovlarni damlab, fuqaro, beva-bechoralar to'yib, shu ajnosda o'n olti urug' Qo'ng'iro'tning odambori to'yni qilib, hammalari jam bo'lib, qirg' kechayu kunduz to'y berib yotdi" [3].

Ism qo'yish marosimi. — Ko'pchilik viloyatlarda mazkur to'ydan oldin "Ism to'yi" degan tadbir o'tkazilib kelingan ekan. Xorazm viloyatining bir qator joylarida ushbu marosim "Ot to'yi" nomi bilan atalgan[2. 39-79].

"Qirg' kechayu qirg' kunduz bo'lgandan kay[6] to'y tarqaydigan kuni bo'ldi. Bir vaqt shunda biylar qarasa, uzoqdan bir qalandar ko'rinib kela berdi. Biylarning esiga (tushdi): Ravzada "Qalandar bo'lib borib, o'zim otini qo'yib kelaman", degan ovozni eshitgan edi. Shunday qarasa, yaxshi nurli bir qalandar mast bo'lib, qalandarday bo'lib, shul majlisga qarab kela berdi. Xaloyiqlar ham ko'r'di: tarzi gul yuzli, shirin so'zli, bir siyosatli kishi qalandar bo'lib kelayotir, o'zga kishilarga bu qalandarning holi-ahvoli ma'lum emas. Ravzadagi so'zlagan ovozni eshitgan sababli Shohimardon pirim shul kishi bo'lmasa, deb biylar o'rnidan turib, oldiga peshvoz chiqib, salom berib, ziyorat qilib, majlisxonaga boshlab olib keldi. Shunda farzandlarning uchovini ham olib kelib, Shohimardon piring etagiga soldi. Shohimardon piri Boybo'rining o'g'lining otini Hakimbek qo'ydi, o'ng kiftiga besh qo'lini urdi. Besh qo'lining o'rni dog' bo'lib, besh panjaning o'rni bilinib qoldi. Qizining otini Qaldirg'ochoyim qo'ydi. Boysarini qizining otini oy Barchin qo'ydi[3]".

"Beshkiktdi" odati. – Quloqtishlatar odati, hozirgi kunda ham ayrim joylarda uchrab turadi. Bu taomilga ko'ra yangi tug'ilgan qizaloq, o'g'il farzandi bor bo'lgan yaqin qarindoshi yoki do'sti

o'zining o'g'ilchasiga chaqaloq qizchani tilaydi, so'ratadi[4]. Bu odat "Alpomish" dostonida quyidagicha tasvirlangan.

"Ana shunda Shohimardon piri Hakimbekka oy Barchinni atashtirib, beshkirti qilib: "Bu ikkovi er-xotin bo'lsin, Xakimbek bilan hech bir kishi barobar bo'lolmasin, omin ollohu akbar", deb fotihani betiga tortdi. Shohimardon piri turib jo'nab ketdi, odamlarning ko'zidan g'oyib bo'lib ketdi. Shu yerda o'tirgan xaloyiqlar: "Biylarga xudo bergan ekan, pirning duosin olgan ekan", - deb gaplashib qoldi. Balki shu yerda o'tirgan katta-kichiklarning ham mehri qadimgidan ziyoda bo'ldi. Ana shuytib, biylarning to'ylari ham tarqab ketdi"[3].

"Xatna to'yi". — Odatini xalq orasida farzand qo'lini halollash, "sunnat to'yi" deb yuritiladi. "Chukkiburron" atamasi bu odatning asl mohiyatini ifodalaydi[4]. Sharq xalqlari orasida eng keng tarqalgan udumlardan biri xatnadir. O'rta Osiyo mintaqasida islomdan oldin ham bu odat mavjud bo'lgan. "Alpomish" dostonida quyidagicha tasvirlangan.

"Burungi o'tgan zamonda, o'n olti urug' Qo'ng'irot elida Dobonbiy degan o'tdi. Dobonbiydan Alpinbiy degan o'g'il farzand paydo bo'ldi. Alpinbiydan tag'i ikki o'g'il paydo bo'ldi: kattakonining otini Boybo'ri qo'ydi, kichkinasining otini Boysari qo'ydi. Boybo'ri bilan Boysari — ikkovi katta bo'ldi. Boysari boy edi, Boybo'ri esa shoy edi, bul ikkovi ham farzandsiz bo'ldi. Ana endi o'n olti urug' Qo'ng'irot elida bir chufuron[5] to'y bo'ldi" [3].

Xulosa. Dostonlar xalqimizning uzoq o'tmishidan xabar beruvchi noyob manbadir. Xalqimizning yuksak badiiy ijodiyoti asosida yaratilgan nomoddiy madaniy meros va milliy qadriyatlarni izchil rivojlantirish, ijodiy uyushmalar hamkorligida baxshi va dostonchilar ijodining eng yaxshi namunalarini targ'ib qilish borasida mamlakatimizda keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. O'zbek xalqining o'z an'analarini, qadriyatlarini, urf-odat va udumlarini ko'pligi, serqirraligi, umrboqiyiligi hamda ularni avloddan avlodga yetkazib e'zozlashi bilan ham alohida ajralib turadi va shu jihatdan dunyo xalqlari orasida oldingi o'rinlarda turishi tan olingan. Xalq og'zaki ijodi yodgorliklarini yig'ish va to'plash, ularni nashr etish yuzasidan ko'pgina chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Вамбери Г. Очерки Средней Азии, М., 1868. С. 296.
2. Хаёт Исмоилов "Ўзбек тўйлари. Т.: "Ўзбекистон" 1992.
3. "Алпомиш" ўзбек халқ қахрамонлик дostonи. Т.: Шарқ нашриёти, 1998.
4. Махмуд Саттор "Ўзбек удумлари". Т.: "Фан" нашриёти 1993 йил
5. Chukburon — xatna to'y.

UO'K 78.07

XORAZM VOHASI BESHİK TO'YLARIDAGI AN'ANA VA URF-ODATLAR MA'NAVİY QADRIYAT SIFATIDA

N.M.Matkarimova, bo'lim metodisti, Xorazm viloyat Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi, Urganch

Annotatsiya. Mazkur maqolada Xorazmda beshik to'yida o'tkaziladigan marosimlardagi o'ziga xos urf-odatlar, an'analar, qadriyatlar haqida, ularning serqirraligi, umrboqiyiligi, ular ayrim yoki yakka shaxslar tomonidan emas, balki ko'pchilik tomonidan ro'yobga chiqarilganligi, xalqning boy madaniy va ma'naviy merosi o'z aksini topganligi, etnohududiy va etnomadaniy jihatdan o'ziga xosligi, an'anaviy marosimlar, ma'naviy-ahloqiy qadriyatlar, qarindosh-urug'chilik munosabatlari kabi tushunchalar haqida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: Urf-odatlar, ijtimoiy madaniyat, an'analar, qadriyatlar, urf-odat, udum, beshik to'yi, madaniy meros, ma'naviy meros, etnohudud, etnomadaniy jihatdan o'ziga xoslik, e'tiqod, hayotiy tajriba, otashparastlik, qadimiy diniy e'tiqod, mahalla, maslahat oshi, oqsoqol, qarindosh-urug'chilik munosabatlari.

Аннотация. В данной статье речь идет об уникальных обычаях, традициях и значениях обрядов, проводимых на колыбельных свадьбах Хорезме, об их универсальности, долговечности, а также о том, что их проводят не несколько человек, а многие, о таких понятиях, как богатое культурное и духовное наследие нации, ее этнотерриториальная и

этнокультурная уникальность, обряды, традиционные обряды, духовно-нравственные ценности, родственные отношения.

Ключевые слова: *Обычаи, социальная культура, традиции, ценности, обычай, традиция, колыбельная свадьба, культурное наследие, духовное наследие, этнорегион, этнокультурная идентичность, вера, тайна, жизненный опыт, поклонение огню, древнее религиозное верование, соседство, совет, старейшина, родственные отношения.*

Abstract. *This article is about the unique customs, traditions, and values of the ceremonies held and circumcision weddings in Khorezm, their versatility, longevity, and the fact that they are not carried out by a few individuals, but by many. , about concepts such as the rich cultural and spiritual heritage of the nation, its ethno-territorial and ethno-cultural uniqueness, rituals, traditional ceremonies, spiritual and moral values, kinship relations information provided.*

Keywords: *Customs, social culture, traditions, values, custom, tradition, cradle wedding, circumcision wedding, cultural heritage, spiritual heritage, ethno-region, ethno-cultural identity, belief, mystery, life experience, worship of fire, ancient religious belief, neighborhood, advice, elder, kinship relations.*

Kirish va dolzarbli. Marosim inson hayotida moddiy va ma'naviy talab va ehtiyoj orqali yuzaga keladigan ijtimoiy hodisa bo'lib, har bir xalqning boshqasidan ajratib turuvchi muhim etnografik belgisi hisoblanadi. Har qanday marosim u yoki bu xalqning ma'lum bir tarixiy taraqqiyoti bosqichidagi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy hamda madaniy rivojlanish darajasini ko'rsatuvchi asosiy belgilarni o'zida mujassamlashtirgan holda vujudga keladi va yashaydi[1]. Boshqacha қилиб айтганда, marosim umum tomonidan qabul qilingan ramziy harakatlarga ega bo'lgan hayotiy tadbir.

Xalqni ma'naviy-ruhiy tomondan tarbiyalovchi vosita milliy urf-odat va an'analar bo'lib, jahon xalqlari va millatlarining o'z mentaliteti, milliyligi, qadriyatlari, milliy urf-odat va an'alarini saqlab qolishida globalizatsion jarayonlar kuchayib borayotgan bir davrda dolzarb masalalardan biri sifatida e'tirof etiladi.

Metodlar va o'rganilish darajasi. Xorazm vohasi o'zbeklarining beshik to'yi kabi oilaviy marosimi va u bilan bog'liq urf-odatlar, shuningdek beshik to'yi haqidagi ma'lumotlar tarixiy va yozma manbalarda to'liq aks etmagan. Faqatgina ba'zi manbalar orqali uzuk-yuluq ma'lumotlarga ega bo'lishimiz mumkin. Bizga ma'lumki, o'zbek xalqining ma'naviy turmushi, oilaviy masalalari elchilar, sayyohlar tomonidan yozib qoldirilgan esdaliklar, kundaliklarda, shuningdek, O'rta Osiyoning Rossiya tomonidan mustamlaka qilinishi davrida zobitlar tomonidan yozilgan hisobotlarda aks etgan bo'lsa-da, ularda marosimlarga e'tibor kamroq qaratilgan. Oilaviy marosimlar va u bilan bog'liq jarayonlar sovet davrida olib borilgan ilmiy ekspeditsiya materiallari va tadqiqotlarda birmuncha tahlil etilgan, ammo, ushbu nashrlar o'sha davrning sotsialistik mafkurasini targ'ib qilishga ham yo'naltirilgan. Oilaviy marosimlar va u bilan bog'liq jarayonlar haqida bir qancha ilmiy va etnografik tadqiqotlar amalga oshirilgan, biroq ushbu masalalar muayyan hududlar misolida tadqiq etilgan. O'rta Osiyoning urf-odatlarini, marosimlari haqida xorij tadqiqotchilari tomonidan yozilgan etnologik asarlar, risola va ilmiy maqolalarda umumiy yondashilgan. Xorazm vohasi o'zbeklarining oilaviy marosimlari, ayniqsa beshik to'ylari alohida o'rganilmagan, oilaviy marosimlar tarixshunosligi mavzusi tadqiqot obyekti sifatida kompleks tadqiq etilmagan va etnolokal xususiyatlari tizimli tarzda ochib berilmagan.

Xorazm vohasi o'zbeklarining oilaviy marosimlari, xususan beshik to'yi marosimini asosan tarixiy va etnologik materiallarni o'rganish orqali yoritib berish maqsadga muvofiq. Bu borada oilaviy marosimlar tarkibiga kiruvchi bola tug'ilishi va uning tarbiyasi bilan bog'liq marosimlar: beshik to'yi va boshqa tadbirlar, an'ana va odatlar aks etgan manbalar, adabiyotlar tahlili va tarixshunosligini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot natijalari. Urf-odatlar ijtimoiy madaniyatning o'ziga xos amaliy tomoni bo'lib, o'zbek xalqi o'z an'analari, qadriyatlari, udumlarining ko'pligi, serqirraligi, umrboqiyiligi hamda ularni avloddan avlodga yetkazib e'zozlashi jihatidan dunyo xalqlari orasida oldingi o'rinlarda turishi tan olingan. Shuningdek, ular ayrim yoki yakka shaxslar tomonidan emas, balki ko'pchilik tomonidan

ro'yobga chiqarilgan bo'lib, turg'un va barqarordir. Ana shunday urf-odat va marosimlardan biri tarixi uzoq o'tmishga borib taqaladigan beshik to'yidir. Beshik to'yi marosimida xalqning boy madaniy va ma'naviy merosi o'z aksini topgan.

Xorazm vohasi aholisining an'anaviy beshik to'ylari rang-barang, etnohududiy va etnomadaniy jihatdan o'ziga xos bo'lib, go'zal urf-odatlar va an'analar bilan birgalikda qadimiy inonch [2] e'tiqodlarga bog'liq turli xil udumlar va rasm-rusumlarga ham boy. Xalq tilida bu odatlar irim-sirimlar nomi bilan yuritiladi va u beshik to'yi bilan bog'liq jarayonlarni ham qamrab olgan. Irimlar insoniyatning ko'p asrlik hayotiy tajribasidan kelib chiqib, muayyan sinovlardan o'tib bizgacha yetib kelgan. Odatda qonun-qoidalarda biror-bir ish-harakatni bajarish ko'zda tutilsa, irimlarda aksincha, muayyan ish-harakatlarni bajarmaslik talab qilinadi[3]. Kishilar har xil balo-qazolardan, har turli yomon ko'zlardan o'zlarining oila a'zolarini va boshqa yaqin insonlarini asrash uchun irim qilishadi. Ba'zilar irim-sirimlarga ishonib, amal qilishsa, unga e'tibor bermaydiganlar ham topiladi. Beshik to'yi bilan bog'liq irim-sirimlar ham anchagina bo'lib, ko'pincha kundalik hayotimizda odamlar unga beixtiyor amal qilishadi. To'ylardagi irimlar urf-odat va marosimlar tarkibiga singib ketgan va an'ana tarzida avlodlar orasida takrorlanaveradi.

Xorazm o'zining qishda qattiq sovuq iqlimi bilan boshqa hududlardan farq qiladi. Bu vohada yana bir chiroyli udum bor. Xonadonga kelin kelganida uning oyog'i hech qachon taqir yerga qo'yilmagan. Kelin ilgari zamonlarda ot-ulovda keladimi, hozirgi kunda yengil avtomobilda keladimi, nimada kelishidan qat'iy nazar oyog'i ostiga shu xonadon sohiblarining po'stini, yoki gilam tashlanadi. Faqat qish oyida emas, yil davomida shu an'anaga amal qilinadi. Ya'ni, yangi mehmonning, shu xonadonga kelgan yangi bekaning poyiga poyonoz solinadi. Bunda ham ramziy ma'no bor. Birinchidan, bu o'zbek xonadonida kelinga, kelajakda sog'lom farzandlarni dunyoga keltiradigan bo'lg'usi onalarga ko'rsatilayotgan yuksak ehtirom bo'lsa, ikkinchidan kelinning sog'lig'i uchun qilinayotgan g'amxo'rlikning xonadon ostonasiga qo'yilayotgan birinchi qadamdan oq boshlanayotganligini bildiradi.

Xorazmda boshqa to'ylarda bo'lganidek, beshik to'yida ham "Ko'rpa bichar" tadbiri o'tkaziladi. Yangi tug'ilgan chaqaloqning ona tarafidan yoshi ulug' momolar va qarindosh-urug'dagi ayollar yig'ilishadi, farzandlari uchun bolaligidan niyatlab olib qo'ygan matolardan yangi tug'ilgan chaqaloqqa ko'rpa-to'shaklar, ko'rpacha, taka va yaymalar, "beshik o'rtik", ya'ni beshikka yopinchiq tikishadi. G.P.Snesaryevning bergan ma'lumotiga ko'ra, nikoh to'yidan so'ng chimildiqdan ko'rpa tikiladi va birinchi farzandning beshigi ustiga yopiladi [8]. Marosim ichida yana ko'plab marosimlar amalga oshiriladi. Ya'ni, "Ko'rpa bichar"da tikilayotgan ko'rpa-to'shaklar ustidan "sochqi" sochiladi. Sochqi turli xil shirinliklar, qand-qurs, mayiz, quruq mevalar, o'rik, jiyda, pista-bodom kabilarni sochadilar. Bularni sochishni "Bismillohir rahmonir rohim" deb boshlaydilar. Ushbu mevalarni ham qatnashchilar terib olishib, o'z farzandlariga yaxshi niyat qilib, ulashib beradilar. Yosh bolalar va shu yerga jam bo'lganlar sochqilarni va shirinliklarni yaxshi niyatda "shunday to'ylarga yetkazsin, bizlarni ham farzandimiz, nevarimiz bo'lsin, to'ylariga yetkazsin", – deb niyat qilinadi. Bu marosim o'ziga yarasha chiroyli tadbir bo'lib, bunda qarindosh — urug'lar yig'ilib, yangi tug'ilgan chaqaloqqa, onasiga, shu xonadonga yaxshi niyatlar qilishgan. Hozirgi kunda ham bu odat saqlanib qolgan. Ba'zi joylarda esa maxsus tikilgan ko'rpa-to'shaklar, beshik yopinchiqlari tayyor holda sotib olinadi [13].

Har bir o'zbek dasturxonining ko'rki bo'lgan nonlar yaqin-yaqinlargacha to'y xonadonining o'zida yopilgan. Har qanday to'y, shu jumladan beshik to'ylari marosimlarining ham boshi non yopishdan boshlangan. "Non yopar" tadbiri bugungi kungacha davom qilib kelmoqda. Bu tadbir amma, xolalar boshchiligida, qo'ni-qo'shni va qarindosh-urug'lar yordamida asosiy to'ydan bir kun oldin o'tkaziladi. Shu kuni jam bo'lgan qarindoshlarning biri xamir qorsa, biri zuvala qiladi, yana biri non yopadi. Uy egasi shirin ovqatlar qiladi va barcha hamjihatlikda ushbu taomni tanovvul qilishadi [14]. G.P.Snesaryevning yozishicha, non to'y va tantanalarda ramziy, yashiringan kuchga, sirli kuchga ega bo'lgan, kimki ushbu nonni olsa, uning kelajakda rizq-ro'zi butun bo'lgan [7]. Bugungi kunda nonni buyurtma orqali sotib oluvchi xonadonlar ham ko'pchilikni tashkil qiladi. Ammo, qo'l kuchi yetarli bo'lgan katta urug'li oilalarda hozir ham to'y nonlari uyda tayyorlanadi.

Xalqimizda maslahatli osh tarqamas, degan ibora bor. Har qanday to'y maslahat bilan, kengashish bilan o'rtaga keladi. Shuning uchun ota-bobolarimiz har qanday ishni boshlashdan avval o'ziga yaqin bo'lgan, yoshi ulug' kishilarni, mahalla oqsoqollari, oilaning yaqin qarindosh-urug'lari, eng yaqindagi qo'ni-qo'shnilarini to'plab, ularning fohishasini va maslahatlarini olib keyin to'y tayyorgarligini ko'rishgan. Bu tadbir respublikamizning boshqa hududlarida "maslahat oshi" nomi bilan yuritiladi va bunday maslahat-kengashlarda mahalla oqsoqollari to'y qiluvchining rejasi, fikr-mulohazalarini tinglaydilar va o'zlarining maslahatlarini beradilar. Xalq tilida bu tadbir "Gengash" [9] deb yuritiladi. Xorazmda har bir to'y qilayotgan xonadon o'z imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda beshik to'yi o'tkazadigan vaqtini, joyini, pishiradigan taomni, chaqiriladigan mehmonlar sonini o'zi, oila va qarindosh-urug'lar bilan bamaslahat kelishgan holda o'tkazadi. Kimdir tushlik paytida, kimdir kechki payt, yana kimdir uyida o'tkazishi mumkin [15]. Uyida osh pishirib, qarindosh-urug', qo'ni-qo'shnilariga sadaqa qilish ham mumkin. Masalan, nikoh to'yi marosimiga shu xonadonda yangi chaqaloq tug'ilgan bo'lsa ikkala to'yni qo'shib o'tkazishlari ham mumkin. Bu to'y qilayotgan xonadonning iqtisodidan, oilaviy sharoitidan, eng muhimi vaqtdan kelib chiqqan holda o'tkaziladi. Chunki hozirgi kunda hamma uchun eng qadrlil va qimmatli narsa bu – vaqtdir.

An'anaviy to'ylar va marosimlar oilalarda ma'naviy-ahloqiy qadriyatlarni, do'stlik, hamjihatlik, qarindosh-urug'chilik munosabatlarini shakllantiradi hamda bir-birovni qo'llab-quvvatlash, moddiy va ma'naviy ko'mak berish kabi tushunchalar uning davomiyligini ta'minlaydi. To'y marosimi qarindosh-urug'lar, qo'ni-qo'shnilar, hamkasblar qatnashishi uchun ijtimoiy-madaniy ahamiyatga ega bo'lib, to'ylarda mehr-oqibat, odob-axloq, ahillik, inoqlik, bahamjihatlik, izzat-ikrom, mehmonnavozlik kabi fazilatlar o'z ifodasini topadi. O'zi aslida qanday to'y yoki marosim bo'lishidan qat'iy nazar, hayotning eng baxtli, quvonchli damlarini, oilaning baxt-saodatini hamda farovon turmushning go'zal ramzi hisoblanadi.

Ushbu maqolada Xorazmda o'tkaziladigan beshik to'yidagi "Ko'rpa bichar", "Non yopar", "Maslahat oshi" ya'ni xorazmchada "Gengash" kabi bir necha urf-odat, udum va marosimlarga to'xtalib o'tdik. Shuningdek, kelajakda sog'lom farzandlarni dunyoga keltiradigan bo'lg'usi onalarga xonadonga kelin bo'lib kelgan ilk daqiqalardan boshlab ko'rsatiladigan g'amxo'rlik haqida, bolalarni ilk tug'ilgan kunlaridan boshlab asrab-avaylash uchun qilinadigan tadbirlarga qisqacha to'xtalib o'tdik.

Xulosa. Xalq urf-odatlarini va an'analardagi ma'naviy boylik o'tgan hayotdan saboq beradi. Yoshlarda o'zaro hurmat, mehr-oqibat, Vatanga va oilaga muhabbatni shakllantiradi. Kelajakda jamiyatga qo'shilib, hayotda o'z o'rnini topishga tayyorlaydi. An'analarda har doim milliy xarakter va xalqning demokratik elementlari bo'ladi. Xalq an'analari asrlar osha o'zida nafaqat buyuk donishmandlikni, balki ajdodlarning hayotiy tajribasini saqlab keladi. An'ana va urf-odatlar qadriyat sifatida to'g'ri yashashga, xalq va Vatanga fidoyi farzand bo'lishga da'vat etishi bilan katta ahamiyatga ega. Yoshlar asrlar osha yashab kelgan xalqona qadriyatlardan qanchalik saboq olsa, barkamol inson sifatida takomillashib boraveradi. Chunki an'anaviy xalq madaniyatiga asoslangan qadriyatlar insonning iymon-e'tiqodli, ma'naviyatli va ma'rifatli bo'lishiga qaratilgan [10].

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Махмуд Кошғарий. Туркий сўзлар девони (Девону луғотит турк). Уч томлик. Т. III. – Т.: ЎзФА, 1963. – Б. 452.
2. Махмуд Саттор. Ўзбек удумлари. – Т.: Фан, 1993. – Б. 166.
3. Мадраҳимов О. Ўзбек тили ўғуз лаҳжасининг Хива шеvasи. – Урганч, 1999. – Б. 157.
4. Matkarimova N.M. Хоразм воҳаси ўзбекларининг никоҳ тўйи маросимлари. Монография. Тошкент. "Фан зиёси нашриёти". 2022.
5. Matkarimova N.M. Ўлдошбоев А. Wedding rituals related to 'fire cult' at the wedding party. International Journal of science and education Volume 1, Issue 3. 2022. June. ISSN-2181-342
6. Matkarimova N.M. Хоразм воҳаси никоҳ тўйи маросимларидаги кийим-кечаклар ва нарса-буюмлар билан боғлиқ инончлар. Хоразм Маъмур Академияси Ахборотномаси. Хива, 2020 йил, № 9-сон.
7. Снесарев Г.П. Хоразмликларнинг мусулмонликдан аввалги маросимлари ва урф-одатлари. – Урганч, УрДУ ноширлик бўлими, 2018. – Б. 35.
8. Снесарев Г.П. Реликты домусульманских верований и обрядов у узбеков Хорезма. – М.: Наука, 1969. – С. 82.
9. Саримсоқов Б. Ўзбек халқ маросим фольклори. – Т., 1968. – Б. 182.
10. U.Qoraboev "O'zbekiston bayramlari" Toshkent "O'qituvchi" nashriyoti, 1991 y

11. Dala yozuvlari. Ibragimova Anorgul. Ko'shko'pir tumani Qatag'on qishlog'i, 2024-yil.
12. Рузиева Р. Урф-одат ва анъаналар-миллий қадриятларни шакллантирадиган мезон сифатида. <https://cyberleninka.ru/article/n/urf-odat-va-ananalar-milliy-adriyatlarini-shakllantiradigan-mezon-sifatida>
13. Dala yozuvlari. Ibragimova Anorgul. Ko'shko'pir tumani. 2024-yil.
14. Dala yozuvlari. Sadullaeva Guli. Xiva shahar. 2024-yil.
15. Dala yozuvlari. Jumonova Go'zal. Yangibozor tuman. 2024-yil.
16. Dala yozuvlari. Siddiqova Ro'za. Xiva shahar. 2024-yil.
17. Dala yozuvlari. Allaberganova Zulfiya. Urganch tuman Chakkasholikor qishlog'i, 2024-yil.
18. Dala yozuvlari. Аллаберганова Садоқат. Урганч тумани Қоровул қишлоқ, Мевазор маҳалла, 2024-йил.

UO'K 908

MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASALARINING MUSTAQILLIKNING DASTLABKI YILLARIDAGI AHVOLI

G.A.Norbo'tayeva, tadqiqotchi, Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti, Qarshi

Annotatsiya. Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim muassasalarining mustaqillikning dastlabki yillaridagi ahvoli haqida so'z boradi. Muallif ilmiy ma'lumotlarga tayanib, mavjud adabiyotlar asosida maktabgacha ta'lim muassasalarining mustaqillikning dastlabki yillaridagi ahvoli bo'yicha o'ziga xos jihatlarini o'rganagan va tahlil qilgan.

Kalit so'zlar: O'zbekiston, maktabgacha ta'lim, muassasa, huquqiy asoslar, moddiy-texnik baza.

Аннотация. В данной статье говорится о состоянии школьных образовательных учреждений в первые годы независимости. На основе научных данных автор на основе существующей литературы изучил и проанализировал особенности деятельности школьных образовательных учреждений в первые годы независимости.

Ключевые слова: Узбекистан, дошкольное образование, учреждение, правовая основа, материально-техническая база.

Abstract. This article talks about the condition of school-based educational institutions in the first years of independence. Based on scientific data, the author studied and analyzed the specific aspects of school educational institutions in the early years of independence based on existing literature.

Key words: Uzbekistan, preschool education, institution, legal basis, material and technical base.

Kirish. O'zbekiston mustaqillikni qo'lga kiritishi arafasida ham maktabgacha ta'lim tizimi sezilarli yutuqlarga erisha olmaganligini qayd etib o'tish lozim. Ta'limning bu sohasiga oid muassasalar sovet ittifoqida o'zining vujudga kelgan vaqtlaridan boshlab bosqichma-bosqich ko'payib borgan bo'lsa, oxirgi 5 yillikda uning ko'payishi bir joyda to'xtab qoldi. Bu mamlakatda yillar davomida yig'ilib kelayotgan muammolarning yig'indisi sifatida yuzaga chiqqan edi. Bu nafaqat maktabgacha ta'lim sohasida, balki ijtimoiy-iqtisodiy sohalarning barchasi uchun xos bo'lgan voqelik edi. Imkoniyatdan yuqori reja qo'yilishi va korrupsiyaning yuqori darajasi tufayli qo'shib yozish, marra uchun ishlash kabi salbiy holatlar kuzatila boshlandi. Natijada ta'lim muassasalarining qurilishi faqat qog'ozlarda, qurilganlari esa sifat jihatidan talabga javob bermaydigan qilib qurildi.

Aytish mumkinki, mustaqillikning dastlabki yillarida barcha sohalarda bo'lgani kabi ta'lim sohasida ham yig'ilib qolgan ko'plab muammolar qurshovida edi. Yangi hukumat esa ta'lim tizimini isloh qilishni eng oldingi vazifa sifatida ko'rdi. Chunki, Sovet davlati davrida ta'lim tizimi to'liq hukmron mafkura g'oyalari asosida olib borilar va mustaqillikka endigina erishgan hamda iqtisodiy jihatdan tang ahvolda qolgan davlat uchun bu ancha havfli edi. Shularni inobatga olgan, O'zbekistonning birinchi prezidenti I.Karimov tashabbusi bilan 1991-yil 17-sentyabrda "Respublika davlat hokimiyati va boshqaruv idoralarini hamda xalq ta'limi sistemasini partiyadan holi etish to'g'risida"gi prezident farmoni imzolanadi[1]. Shuningdek, I.Karimov kadrlar tayyorlashni o'ziga xos uslubini ishlab chiqish, milliy kadrlar siyosatini ishlab chiqish bo'yicha say'-harakatlarni mustaqillikning ilk damlaridayoq boshlab yubordi. "Ta'lim berishning, ma'naviy, axloqiy va kasb

malakasi bo'yicha tarbiyalashning mutlaqo yangi tizimi ishlab chiqilishi zarur. Sifat jihatdan butunlay yangi o'quv dasturlari yaratilishi darkor" deb ta'kidladi[2].

Adabiyotlar tahlili. Dastlabki yillarda bir muncha oldinga siljish kuzatilgan deyish mumkin. Yangi rahbariyat har tomonlama mas'uliyat bilan har bir ishga qarashi va o'z siyosatini yuritishi tarixdan isbotlangan. Lekin mavjud iqtisodiy ahvol va biri-biriga bog'liq bo'lgan ko'plab iqtisodiy sabablar bunga imkon bermas edi. Bog'chalarning ta'minoti va mulkiylik shakli davlatga qarashli bo'lganligi bois, yosh va hali iqtisodiy barqarorlikka erishmagan mamlakat uchun katta yuk bo'lib tushar edi. Shularni inobatga olib bolalar bog'chalarning turli ko'rinishlari sinovdan o'tkazildi. Uy bog'cha tipidagi muassasalar soni ortib bordi.

Bu davr uchun maktabgacha ta'lim muassasalari faoliyatiga me'yoriy-huquqiy asos bo'lib bir qator hujjatlar xizmat qildi. Xususan, 1992 va 1997-yillardagi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun[3], 1997-yildagi Kadrlar tayyorlash milliy dasturi[4], 2007-yildagi "Maktabgacha ta'lim muassasalari to'g'risida"gi Nizom, 2008 va 2011-yillardagi Maktabgacha ta'lim Konsepsiyasi, 2010-yildagi "Bolajon" dasturi va boshqa o'nlab me'yoriy-huquqiy hujjatlarlar shular jumlasidandir.

Tadqiqot metodologiyasi. ilmiy adabiyotlar tahlili, ilg'or xorijiy va maxalliy tajribalar, qiyoslash metodlaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Maktabgacha ta'lim tizimida olib borilgan islohotlarni mustaqillik yillaridagi holatini shartli ravishda ikkiga bo'lib o'rganish mumkin. Birinchi bosqich 1991-yildan 2016-yilgacha davlatni boshqargan I.Karimov davri va ikkinchi bosqich rasmiy ravishda 2017-yildan prezidentlikka saylangan Sh.Mirziyoyev davri.

Mustaqillik arafasida respublikada 10 mingga yaqin maktabgacha ta'lim muassasalari faoliyat olib borgan. Mustaqillikning dastlabki yillaridan 2016-yilga qadar ularning soni muttasil kamayib bordi. 2016-yilga kelib ularning soni teng yarmiga qisqarib ketdi. Bu yillar davomida hukumat o'ziga xos o'tish davrini boshidan kechirdi deyish mumkin. Chunki ish o'rinlarining kamligi va iqtisodiy beqarorlik bu soha rivojiga halaqit qilar edi. Hukumat tomonidan olib borilgan chora-tadbirlarga qaramay obyektiv va subyektiv sabablarga ko'ra maktabgacha ta'lim sohasi rivoji ortga keta boshladi. Shu boisdan ham Sh.Mirziyoyev prezidentlikka saylanganligining ilk davrlaridayoq bolalar bog'chalari faoliyatini tubdan yaxshilashga e'tibor qaratdi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev: "Birinchi vazifa — maktabgacha ta'lim sohasida, ochiq tan olishimiz kerak, biz bu muhim sohadagi ishlarni e'tibordan chetda qoldirdik", deb ta'kidladi[5].

Haqiqatda, bu sohada kamchiliklar anchagina to'planib qolgan edi. Biron bir soha isloh etilar ekan, avvalombor huquqiy bazani shakllantirilishini talab etadi. Shu sabadan ham Sh.Mirziyoyev davlat boshqaruviga kelgan ilk damlardayoq bunga e'tibor qaratdi. So'nggi yillarda bu sohada yig'ilib qolgan muammolarni bartaraf etish va dunyo standartlariga moslashtirish uchun 100 ga yaqin yuqori darajadagi normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Bu sohadagi ilk hujjatlardan biri O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 29-dekabrda "2017 — 2021-yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2707-son Qarori bo'ldi[6]. Bu qarordan ko'zlangan maqsad maktabgacha ta'lim tizimini yanada kuchaytirish, moddiy-texnika vositalari bilan ta'minlash, ularni malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash, bolalar qamrovini oshirish va intellektual jihatdan yuksaltirish edi. Mazkur qaror bilan maktabgacha ta'lim tizimini 2021-yilgacha rivojlantirish bo'yicha dastur ham tasdiqlandi. Ma'lumki, bola maktabga chiqish oldidan dastlabki ta'limni puxta egallagan taqdirda, keyingi bosqich ta'limini o'zlashtirishi ancha oson va samarali bo'ladi. Bolalar bog'chalari bilan qamrov daorajasi past va zudlik bilan uni uddalash ham imkonsiz edi. Shu sababdan bu qarorda qisqa muddatli tayyorlov guruhlarini tashkil etish bo'yicha ham ko'rsatmalar berildi. Unga binoan 6100 ta qisqa muddatli tayyorlov guruhlari tashkil etilishi belgilandi. Dasturni amalga oshirish bo'yicha mablag'lar manbai belgilab berildi. Mazkur hujjat maktabgacha ta'lim sohasini tubdan takomillashtirish uchun debocha bo'lib xizmat qildi.

Xulosa. Tarixiy rivojlanish bosqichlari mobaynida turli islohotlarga uchragan ta'lim, xususan maktabgacha ta'lim sohasi o'z-o'zini rivojlantirib borish yo'lidan borgan. O'tish davri deb topilgan 1991-2000-yillar va turg'unlik davri bo'lgan 2000-2016-yillarda har qancha normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilingan bo'lsa-da, iqtisodiy beqarorlik, ishsizlik kabi muammolar tizimni keng ko'lamda rivojlanib ketishiga imkon bermagan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 17.09.1991 yildagi "Respublika davlat hokimiyati va boshqaruv idoralari hamda xalq ta'limi sistemasini partiyadan holi etish to'g'risida" PF-260-son farmoni. <https://lex.uz/docs/188441>
2. Karimov I. Bunyodkorlik yulidan. Asarlar, 4-jild, T., "O'zbekiston", 1996, 49-b.
3. O'zbekiston Respublikasining 02.07.1992-yildagi "Ta'lim to'g'risida"gi 636-XII-son Qonuni <https://lex.uz/docs/56418>; O'zbekiston Respublikasining 29.08.1997-yildagi "Ta'lim to'g'risida"gi 464-I-son qonuni <https://lex.uz/docs/16188>
4. O'zbekiston Respublikasining 29.08.1997 yildagi 463-I-son "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi". <https://lex.uz/docs/48401>
5. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. — T.: O'zbekiston, 2017. – B. 45.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 29-dekabrda "2017 — 2021 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2707-son qarori. <https://lex.uz/docs/3090103>

UO'K:903.63:5028(575.1)

2017-2021-YILLARDA QASHQADARYO VOHASIDA ZIYORAT TURIZMINING RIVOJLANTIRILISHI

L.N.Ochildiyev, talaba, Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti, Chirchiq

Annotatsiya. Ushbu maqolada Yangi O'zbekistonda ziyorat turizmini yanada rivojlantirish uchun qilinadigan ishlar, sohadagi kamchiliklar, ziyorat turizmining Qashqadaryodagi infratuzilmalari u yerda olib boriladigan ishlar haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: BMT, Markaziy Osiyo, Fransiya, Rossiya, Germaniya, Xitoy, Turkiya, MDH, O'zbekiston, Qashqadaryo, Shahrisabz, Kitob, Mirishkor, G'uzor.

Аннотация. В этой статье рассказывается о работе, проводимой для дальнейшего развития паломнического туризма в новом Узбекистане, о недостатках отрасли, инфраструктуре паломнического туризма в Кашкадарья.

Ключевые слова: ООН, Центральная Азия, Франция, Россия, Германия, Китай, Турция, СНГ, Узбекистан, Кашкадарья, Шахрисабз, Кутан, Миришкор, Гузар.

Abstract. this article will talk about the work to be done to further develop pilgrimage tourism in New Uzbekistan, the shortcomings of the sector, the infrastructure of the pilgrimage tourism in the country will be carried out there.

Key words: UN, Central Asia, France, Russia, Germany, China, Turkey, CIS, Uzbekistan, Kashkadarya, Shahrisabz, book, Mirishkor, Ghuzar.

Kirish. Yangi O'zbekistonda ushbu yo'nalishda olib boriladigan ilmiy tadqiqotlarni yanada jadallashtirish nuqtayi nazaridan yurtimizdagi har bir ziyoratgoh va boshqa tarixiy obyektlarni o'rganishning muhim bosqichi boshlandi. Ularni targ'ib etish bilan birgalikda mamlakat iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirish strategiyalari ishlab chiqilmoqda. Ular nafaqat ilmiy-tadqiqot, balki turizm markazlariga aylanayotgani va xorijlik sayyohlarning qiziqishi ortayotgani bilan ham izohlanadi. Bu kelajakda mamlakat iqtisodiy-ma'naviy potensialining o'sishiga, jahon sahnida o'zbek xalqi milliy-ma'naviy merosining targ'ib etilishi va shu bilan uning tarixdagi rolini ochib berishga qo'yilgan katta qadam bo'ladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Xo'jamov M, Lafasov M, Mulladjanova..R., Jo'rayeva S. Jumayeva Sh. 5.Orziqulov B. 6.Akchayev F. kabi olimlarimiz ziyorat turizmi mavzusi bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borganlar.

Muhokama va natijalar. Bugungi kunda O'zbekiston ichki va xalqaro turizmni rivojlantirish uchun keng imkoniyatlarga ega. Yurtimizda 8 ming 200 dan ziyod madaniy meros obyektlari mavjud bo'lib[1], xalqning boy ma'naviyati va madaniyati, ko'p asrlik tarixi, arxeologik obyektlar, arxitektura yodgorliklari, jozibali tabiati doimo xorijiy sayyohlarni o'ziga jalb etib kelgan. Eng muhimi – iliq, do'stona mehmonnavoz xalqi mavjud. Bularning barchasi – sayyohlarning O'zbekistonga kelishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi. O'zbekiston o'zining turistik imkoniyatlari bo'yicha Markaziy Osiyoda 1-o'rinda, dunyo bo'yicha esa 10-15 o'rinlarda turishi qayd etiladi[2].

2019-yilda Qashqadaryo viloyatida turizm sohasini rivojlantirish bo'yicha ustuvor vazifalar sifatida Shahrisabz shahrida Respublika bo'ylab faoliyat olib borayotgan san'at vakillari orasida "Maqom anjumani" hamda turli yangi zamonaviy ko'rinishdagi festivallarni tashkil etgan holda Shahrisabz shahrini Festivallar shahriga aylantirish, Kitob tumanidagi Xo'ja Imkonagiy ziyoratgohi, Mirishkor tumani Jenov qishlog'idagi Isoq Ota majmuasi, G'uzor tumani G'uzor shahridagi "Musofir Ota" ziyoratgohini va turizm obyektlariga olib boruvchi jami 83 km yo'l va yo'lbo'yi infratuzilma Investitsiya dasturiga kiritildi.

Ziyoratga kelayotgan ziyoratchilarni keng jalb qilish bo'yicha tadbirlarni jadallashtirish borasida shaharning turistik brendini yaratish va keng miqyosda targ'ib qilish bo'yicha tanlov e'lon qilindi, chet el ommaviy axborot vositalari va turistik kompaniyalari uchun infoturlar tashkil etish maqsadida yo'nalish va mehmonxonalar ro'yxati tayyorlanmoqda, videofilmlar yaratish yuzasidan ssenariy va shaharning turistik ekskursiya kartasi ishlab chiqilmoqda, shuningdek turistik ma'lumotnoma ofislari tashkil etish bo'yicha ishlar olib borilmoqda. O'tgan 2019-yilning yakunlariga ko'ra, O'zbekistonga 6,748 million kishi tashrif buyurgan bo'lib, bu 2018-yil statistikasidan 125 foizga shubhasiz ko'pdir. O'zbekistonga tashrif buyurgan turistlarning umumiy sonidan 6,260 million kishi MDH mamlakatlaridan, 488, 4 ming sayyoh esa olis xorij mamlakatlaridan kelgan.

Shahrisabz bo'ylab sayr qilar ekansiz, eski madrasalarda yoki shunchaki yo'l bo'ylab joylashgan ko'plab esdalik sovg'alar bilan savdo qiluvchi ustaxonalarni ko'rishingiz mumkin. Tarvuz qo'ltiqqlagan ko'ngli ochiq chollar, o'yib ishlangan sandiqchalar va rang-barang matolar kabi hunarmandchilik mahsulotlarini taklif etishga ustalar tayyor turishadi. Ular orasida shahar tasviri tushirilgan turli xil shakldagi magnitlar alohida ajralib turadi. Odatdagidek loy va keramikadan yasalganlardan tashqari, yog'och, qog'oz, teri va hatto marmardan yasalganlari ham bor. Bundan tashqari Shahrisabz iqlimi ham turistlar uchun mos keladi negaki, havo unchalik issiq emas va tabiat qo'ynida sayohat qilayotganda iqlim ularga xalaqit bermaydi.

Qashqadaryo va Suxondaryo viloyatlarida 2020-2022-yillarda sohani rivojlantirish yo'nalishlari va aniq vazifalar ishlab chiqilib, unga ko'ra birgina Qashqadaryo viloyati 2022-yil yakuniga qadar 125, 8 mlrd so'mlik 38 ta loyihalarni amalga oshirish ko'zda tutilgan. Ushbu mablag'larning 46, 4 mlrd so'mlik tashabbuskorlar va 79, 4 mlrd so'mi bank krediti hisobiga to'g'ri keladi. Ushbu loyihalarni amalga oshirish orqali 435 ta yangi ish o'rinlari yaratiladi. Turizm infratuzilmasida sayyohlar tashrif buyuradigan gavjum joylar, xususiyy umumiy ovqatlanish shoxobchalari, bozorlar, shohbekat, yo'l bo'yi xizmat ko'rsatish shoxobchalari, istirohat bog'lari va boshqa xizmat ko'rsatish obyektlaridagi 40 dan ortiq sanitariya-gigiyena shoxobchalari holatini tubdan yaxshilashni nazarda tutadi[3].

Ammo yutuqlar bilan birga ustozimiz Sh.Jumayevaning qayd etishicha esa, ziyorat turizmini rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar bilan bir qatorda barcha sohalarda bo'lgani kabi ziyorat turizmi yo'nalishida ham muammo va kamchiliklar yo'q emas. Jumladan,

– ziyorat turizmi obyektlarining ko'pchiligi sobiq Sovet tuzimi davrida dahriylik siyosati tufayli o'z tarixiy-me'moriy qiyofasini yo'qotganligi;

– ziyoratgohlarning geografik joylashuvi (asosan tog' va tog'oldi hududlarida joylashgani) ziyorat turizmi rivojlanishiga to'sqinlik qiluvchi omillardan biridir:

– havo qatnovlarining yuqori narxi, infratuzilmalarning rivojlanmaganligi, malakali kadrlar yetishmasligi;

– turizm va mehmonxona industriyasini huquqiy tartibga solishdagi muammolar;

– mehmonxona sanoatidagi narxlar va xizmat ko'rsatishdagi nomutanosiblikning mavjudligi;

– turli mahsulotlar sifati va narxlari o'rtasida farqlar, ziyorat turizmining mavsumiyligi, xizmatlar sohasi turlari kesimida statistik ma'lumotlarning yo'qligi kabilardir[4].

Yuqorida qayd qilinganidek, keyingi yillarda ziyorat turizmining iqtisodiy va investitsiyaviy salohiyatini oshirishdagi muhim muammolaridan biri, uni diversifikatsiyalash masalasidir. Chunki, chiptalar narxi qimmatligiga qaramasdan, dunyo mamlakatlaridan O'zbekistonga tashrif buyuruvchi turistlar sonini yanada oshirish dolzarbligicha qolmoqda. Buning uchun eng avvalambor tashkil

etilgan mehmonxonalar jahon talablariga javob berishi, ular shart sharoitlarini yanada yaxshilash zarur.

Ya'ni, ziyorat turizmi rivojlanishi uchun muhim jihat uning narx-navo tizimini hal qilishdir. Masalan, tashrif buyurayotgan mahalliy va xorijiy ziyoratchilarni mehmonxonalaridagi narx-navo qiziqtirishi shubhasiz. Mehmonxona xizmati xalqaro turizmning muhim bo'g'inlaridandir. Ularni bir-biridan ajratib qarash mumkin emas.

Qashqadaryo viloyatida ziyoratgohlarda xorijiy davlatlardan tashrif buyuruvchilar uchun audiogidlar o'rnatilmagan, tarjimon gidlar yetarli emas, ayrim turizm obyektlarida axborot markazlari yo'q, borlarida ham ma'lumotlar, tarqatma materiallar yetarli emasligi holatlari mavjud. Ayniqsa, ziyorat turizmining iqtisodiy asoslarini yanada kuchaytirish, uning investitsiyaviy jozibadorligini ta'minlash borasida biz dissertatsiyada quyidagi taklif va tavsiyalarni berib o'tishni lozim topdik:

- mavjud ziyoratgohlar hududlaridagi bog'lar, dam olish maskanlarini tadbirkorlarga ma'lum imtiyozlar asosida berish hamda daromad manbalarining bir qismini o'sha ziyoratgohlar uchun yo'naltirish;

- ziyorat turizm bo'ylab tashrif buyuruvchi sayyohlar uchun va ularning talabiga mos ravishda kichik mehmonxonalar tashkil etish;

- respublikada ziyoratlarni tashkil etish va targ'ib etishga yo'naltirilgan nodavlat notijorat tashkiloti (NNT) bo'lmish "O'zbekiston ziyoratchilar assotsiatsiyasi" ni tuzish kabilar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida ichki va ziyorat turizmini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2021-yil 9-fevraldagi PF-6165-son Farmonining 9-bandiga muvofiq Qashqadaryo viloyati hokimligi huzurida byudjetdan tashqari Qashqadaryo hududida turizmni rivojlantirish jamg'armasini (keyingi o'rinlarda — Jamg'arma) tashkil etish va unga O'zbekiston Respublikasining Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi mablag'lari hisobidan, istisno tariqasida, 200 mlrd so'm miqdoridagi mablag'lar ajratildi.

B. Orziqulovning yozishicha, turizm industriyasini isloh qilishning yana bir muhim yo'nalishi marketing sohasida ishlarni faollashtirishdan iborat. Bugungi kunda har qanday mamlakatning kuchli raqobat hukm surayotgan jahon turizm bozoriga muvaffaqiyatli integratsiyalashuvi va raqobatdosh turmahsulotlar ishlab chiqarishi marketing tadqiqotlarini maqsadga muvofiq yo'lga qo'yilishiga bog'liq. Jahonning turli tillarida O'zbekiston to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oluvchi maxsus internet-portal tashkil etish ham respublikamiz turistik imkoniyatlarini targ'ib etishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Uning muhim qismi mustaqil axborotlarni yangilab turuvchi turizm mintaqaviy boshqarish organlari sahifalari bo'lishi maqsadga muvofiqligi ilgari surilmoqda[5].

E'tibor berilishi mumkin bo'lgan yana bir jihat, bu ziyoratgohlarni xalqaro doirada reklama qilishdir. F. Akchayev xorijlik ziyoratchi tashrif buyuradigan ziyoratgoh haqida oldindan ma'lumotga ega bo'lishni, yaratilgan sharoitlar bilan tanishish va onlayn ravishda mehmonxonadan joy hamda taksi yoki avtobus xizmatiga buyurtma berishni istaydi, deya qayd etadi. Statistika e'tibor berilsa, 2018-yil mobaynida O'zbekistondagi ziyoratgohlarga tashrif buyurgan xorijiy sayyohlarning asosiy qismini Fransiya (24%), Rossiya (18%), Germaniya (10%), Xitoy (12%), Turkiya (11%), va MDH (14%) mamlakatlari fuqarolari tashkil etgan[6].

Xulosa. Qashqadaryo vohasida turizm tarmog'ini boshqarishni tubdan takomillashtirish, milliy turizm mahsulotlarini yaratish va ularni jahon bozorlarida targ'ibot qilish, turizm sohasida vohaning ijobiy qiyofasini shakllantirish bo'yicha tahliliy ma'lumotlar tayyorlandi. Xorijiy turdosh hamkor tashkilotlar bilan ziyorat turizmi sohasida manfaatli hamkorlik aloqalarini o'rnatish, yetakchi xorijiy tashkilotlar delegatsiyalarini yurtimizga tashriflarini muvofiqlashtirishmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi // Xalq so'zi gazetasi. 2020.
2. Xo'jamov M, Lafasov M, Mulladjanova..R., Tarixiy o'lkashunoslik va turizm. -T., 2014 .
3. Jo'rayeva S. O'zbekistonning janubiy hududidagi ziyoratgohlar tarixi va ularning mahalliy aholi hayotidagi o'rni. // Monografiya. T., 2021.
4. Jumayeva Sh. Investitsiya muhitini kuchaytirish-O'zbekistonda ziyorat turizmini rivojlantirishning asosiy omili sifatida. // "UzBridge" elektron jurnali. № 1-son. 2020.
5. Orziqulov B. O'zbekistonda ziyorat turizmini rivojlantirishning ijtimoiy-falsafiy asoslari. Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya., T. 2023.

6.Akchayev F. Jizzax vohasi muqaddas qadamjolari va ziyoratgohlari. (Etnosotsiologik tadqiqot). Tarix fani bo'yicha falsafa doktori dissertatsiya. -T.. 2019.

UO'K 339.9.01 (575)

XIVA XONLIGINING BRITANIYA IMPERIYASI BILAN SIYOSIY–IQTISODIY ALOQALARI MANBASHUNOSLIGI

J.N. Razzoqov, tayanch doktorant, Namangan davlat universiteti, Namangan

Annotatsiya. Ushbu maqolada Xiva xonligi va Britaniya imperiyasi o'rtasidagi siyosiy-iqtisodiy aloqalar haqida ma'lumot beruvchi mustaqillik yillarida olib borilgan ilmiy ishlar, sovet tarixshunosligi davri adabiyotlari va noyob tarixiy manbalar haqida so'z yuritiladi. Unda muallif tomonidan har bir turdagi manbaga alohida to'xtalib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Xiva xonligi, Britaniya Imperiyasi, Katta o'yin, Jeyms Yebbot, Kapitan Bernabi, siyosiy aloqalar, iqtisodiy aloqalar

Аннотация. В данной статье представлены научные работы, выполненные в годы независимости, литература периода советской историографии, а также уникальные исторические источники, дающие информацию о политических и экономических отношениях между Хивинским ханством и Британской империей. В ней автор затронул каждый вид источников отдельно.

Ключевые слова: Хивинское ханство, Британская империя, Большая игра, Джеймс Яббот, капитан Бернаби, политические отношения, экономические отношения.

Abstract. This article gives information about the scientific works carried out during the years of independence, the literature of the Soviet historiography period, and unique historical sources, which provide information about the political and economic relations between the Khanate of Khiva and the British Empire. In it, the author touched upon each type of source separately.

Key words: Khanate of Khiva, British Empire, Big Game, James Yabbot, Captain Burnaby, political relations, economic relations

Xiva xonligining Britaniya imperiyasi bilan aloqalariga oid alohida fundamental tadqiq etilmagan bo'lsa-da, Xiva xonligining tashqi aloqalari bo'yicha bir qancha xorijiy va mamlakatimiz olimlarining tadqiqotlarida bu muammoning ayrim jihatlari ochib berilgan. Bu o'rinda N.Allayeva, S.Matkarimova, Q.Masharipov, Sh.Saidov va boshqalarning tadqiqotlarini alohida ta'kidlash zarur. Lekin Xiva xonligining Britaniya imperiyasi bilan siyosiy-iqtisodiy munosabatlariga oid bir qancha ma'lumotlar berilgan yuqoridagi tadqiqotlarda Xiva xonligining XVIII-XIX asrlardagi sharq va g'arb davlatlari bilan olib borgan aloqalariga oid ayrim masalalar o'z yechimini topgan. Xiva xonligining Britaniya imperiyasi bilan siyosiy-iqtisodiy aloqalariga bag'ishlangan keng ko'lamlı monografik tadqiqot mavjud emas. Shuning uchun ham bu masala tarixini chuqur va har tomonlama o'rganilishi muhim ahamiyatga ega.

Mavzuning o'rganilishi darajasi tahlili shuni ko'rsatadiki, Xiva xonligiga yuborilgan ingliz elchilari faoliyati bo'yicha bir qator ilmiy izlanishlar olib borilgan. Ushbu tadqiqotlarning asosiy qismida e'tibor ingliz – rus raqobatining umumiy tarixi masalalariga qaratilgan bo'lib, elchilarning har biri faoliyati juda qisqa tarzda yoki ayrim ma'lumotlarga eslatib o'tilgan, xolos. Bu adabiyotlarni shartli ravishda quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:

1. Britaniyalik tarixchilar tomonidan yozilgan asarlar.
2. Rossiyada nashr etilgan yozma adabiyotlar.
3. O'zbekistonda yaratilgan tadqiqotlar.

Birinchi guruhga mansub manbalarning aksariyat qismi jumlasiga bugungi kundagi ingliz tadqiqotchilari asarlarini kiritish mumkin. Ammo adabiyotlarning ko'pchilik qismini asosan, Markaziy Osiyoda mustamlaka o'rnatish maqsadida amalga oshirilgan raqobat bo'lib o'tgan XIX asrga oid hisoblanadi.

Markaziy Osiyo hududida kechgan jarayonlar shohidi bo'lgan bu shaxslar tomonidan yozilgan asarlarda muhim tarixiy ma'lumotlar, xususan, xonlikning qal'a va shaharlari, karvon yo'llari,

siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy hayotiga oid ma'lumotlar o'z aksini topgan. Aynan shu jihatdan ushbu asarlarning ahamiyati beqiyosdir.

Rossiyalik mualliflar tomonidan yozilgan asarlarda, garchi bir tomonlama fikr va mulohazalar bildirilganligi, hamda o'sha davr Rossiyasi imperiyasi istilochilik kayfiyatini aks ettirgan bo'lishiga qaramay, mavzuni o'rganish borasidagi ahamiyati kattadir. Zero, Ingliz tadqiqotchilarining asarlarida ham Britaniya tomonining manfaati ko'zlangan bo'lib, rus manbalari ularga qarshi o'ziga xos qarshilik fikri tufayli qimmatli ma'lumotlar bera oladi.

Uchinchi guruhga, o'zbek xonliklari davrida yaratilgan asarlar va mustaqillik yillarida amalga oshirilgan tadqiqotlar kiradi. O'zbekiston mustaqillikka erishganidan keyin, O'zbekiston tarixini ilk bora chuqur va keng o'rganish, unga obyektiv – xolisona baho berish imkoniyati paydo bo'ldi. Quyidagi ushbu manbalarga to'xtalib o'tamiz

Jeyms Ebbot 1839-yil Xiva xonligiga yuborilgan ingliz elchisi bo'lib u o'z kundaligida Xiva xonligiga oid qimmatli ma'lumotlarni yozib qoldirgan[4, p. 241].

Xiva xonligi tarixchisi Ogahiy o'z asarida Abbotning xon bilan olib borgan muzokaralari ustida to'xtab, o'tmasa ham, uning shohona hadyalar olib kelganligini va xon tomonidan qabul qilinganligini eslatib o'tadi[7, 6. 160].

Shuningdek, Muhammad Yusuf Bayoniyning “Shajarayi xorazmshohiy” asarida yozilishicha Ebbot Xivaga Angliya qirolining yorlig'i bilan kelgan[7, 6. 161]. Xiva tarixchisi Muhammad Yusuf Bayoniyning “Shajarai Xorazmshohi” nomli qo'lyozma asarida bergan ma'lumoti katta ilmiy ahamiyatga ega. Bayoniyning so'zicha, Ebbot Xiva xonligiga Britaniya qirolining yorlig'i bilan kelgan.

Bayoniy Ebbotning Xiva xoni Olloqulixon bilan olib borgan muzokaralarida Rossiyaning Xivaga solib turgan “tahdidiga” ko'proq suyanganligi shuningdek, xonni qo'rqitmoqchi bo'lganligi to'g'risida quyidagi qiziq voqeani yozadi:

Bayoniy Abbotning Xiva xoni Olloqulixon bilan olib borgan muzokaralari haqida to'xtalib shunday yozadi: “Ruslar... yana ellik yildan sung sizlarning viloyatlaringizni olur. Agar xoqlasangizkim, viloyatingiz davom qulingizda turib, hech kishi anga mutaarriz bulmagay, viloyatingizni xatlashib bizga bering. Xorazm ingliz yurti bo'ldi degan so'z ishtiqr tobsun (mashhur bo'lsin), andin so'ng bu xavfdin forig' bulursiz. Bizning sizga bu suznmiz nafsoniyat yuzidan bulg'ay. Bizdan sizga foyda yetar, aslo zarar yetmasdur, xatlashgonda xoqishingizcha shartnoma yoza bering, biz sabul etarmiz[7, 6. 161].

Ebbot xonga o'z hizmatini taklif qilgan. U rus qullari bilan Sankt-Peterburgga borib, Perovskiy qo'shinini qaytarishini zimmasiga olmoqchi ekanligini aytadi. Xiva xoni Rossiya Xiva elchilarini mutlaqo hurmat qilmasligini, yuborgan elchilari hibsda yotganligini tushuntirganda, Ebbot Sankt-Peterburgni Britaniya bilan muntazam aloqasi borligini va ingliz elchisini har qanday vaziyatda ham eshitishini ta'kidlaydi[1, p. 130].

1840-yil 7-mart kuni Ebbot rus qullari va ozgina Xiva askarlari bilan Xiva xonligi nomidan elchi bo'lib, rus sarhaddari tomon jo'naydi. Ebbot Ruslarning eng yaqin qala'si Aleksandrovska borib, Kaspiy dengizi orqali Peterburgga ketish uchun yo'lga chiqadi[4, p. 241].

Bu vaqtda Ebbotdan biron daragi bo'lmagach, rus qullarini ozod qilish uchun ko'ndirish maqsadida Archi Todd Richmond Kempbell Shekspir ismli zobitni yuboradi.

R.Shekspir xon bilan muzokaralari natijasida uni rus qullarinig qolgan qismini ham ozod qilib Aleksandr fortiga olib borishga ko'ndirgan[4, p. 246]. Shuningdek Shekspir Xivada Qo'qon xoni elchisini ham uchratib qolgan[5, p. 101].

Ogahiyning yozishicha, Shekspir Xiva xoni Olloqulixon va uning vaziridan rus asirlari bilan birga Orenburgga yuborishlarini so'ragan. Xonning roziligi bilan Shekspir rus asirlari orasida Xiva xonligidan Rossiyaga yuborilgan[7, 6. 160].

1840-yil 15-avgustga qadar jami 416 ta qul yig'iladi[5, p. 42]. Ogahiyning yozishicha, rus asirlarini o'z vatanlariga kuzatish Rossiya tomonidan Aitovga, Xiva xoni tomonidan mufti Otaniyozxo'jaga topshirilgan. Shekspirga esa faqat karvon bilan birga kelishga ruxsat berilgan edi[7, 6. 161]. Shekspir yo'lga o'tlanadi. Shekspir Aleksandrovska yetib kelganda, rus qullardan ikkitasini ingliz tilida yozilgan xat bilan yuboradi. Aleksandrovskdagilar Shekspirni qabul qilishadi. Bu

hududdan u Orenburgga jo'naydi. Shekspirni general Perovskiyning o'zi qabul qilib maqtovlar aytadi. Perovskiyni buyrug'i bilan Orenburg va Astraxandagi 800 Xiva qullari ham ozod bo'ladi. Bu yerdan Shekspir Sankt-Peterburgga yuboriladi. 1840-yil 3-noyabr kuni Hirotdan yo'lga chiqqaniga olti oy bo'lganda, Sankt Peterburgga yetib keldi. Nikolay I tomonidan qabul qilinib, hukmdordan maqto'v eshitadi.

Ammo, Shekspirning faoliyatiga doir boshqa bir qarash ham bor. N.A Xalfin ma'lumotiga ko'ra, Shekspir Aleksandrovska va Orenburg orasidagi qalalarni o'rganish maqsadida yuborilib, shunchaki qullarni yetakchisi sifatida yo'lga tushgan. Shuningdek Xalfin Orenburgga Shekspir kelmasdan inglizlarning bu hududda josusi bo'lganligini aytadi. 1814-yilda Orenburgda asos solingan Britaniya bibliya jamiyati bo'lib, u xonliklar bilan yaqinligi tufayli aloqa o'rnatish imkonini berar edi. Shekspir Orenburgga kelganda ular bilan aloqa o'rnatgan bo'lishi mumkinligini bildirgan. Ammo Shekspir ham, Ebbot ham bu haqida kundaligida hech nima yozmaganlar[4, p. 248].

Xalfin Moskvadagi Markaziy Davlat Harbiy Arxividagi hujjatlariga asoslangan. Unda 6996 raqamli maxsus ajratilgan hujjat bo'lib, u "Turkmanlardan tortib olingan ingliz xatlari" deb nomlanadi. Bu hujjatlar 26 ta varaqdan iborat bo'lib, XIX asr 30-40-yillaridagi Britaniyaning ushbu hududdagi asl maqsadlari haqida hikoya qiladi[3, p. 48]. 1873-yilda Xiva xonligiga yurish vaqtida rus generali Golovachov turkmanlardan 1840-yilda Xiva xonligiga tashrif buyurgan R. Shekspirga oid hujjatlarni topib olgan[6, p. 394]. U biz aytayotgan 6996-hujjat bo'lib, asosan 1840-yil 3-fevralda va 24-martda Britaniya tashqi ishlar vaziri Lord Palmerston tomonidan Sankt-Peterburgdagi Britaniyaning Rossiyadagi elchisi Klanrikardga yozilgan ikkita xatlardir. Ushbu xatlar 1840-yil 20-aprelda Hindiston general-gubernatori Lord Oklandga yuborilgan. Hindistonadgi tashqi ishlar departamenti boshlig'i Maddok xatni Afg'onistondagi elchi Maknatenga bergan. Maknaten esa Hirotdagi konsul Archi Toddga yuborgan. Archi Todd esa xatlarni Xivadagi Shekspirning qo'lga yetib kelishini ta'minlagan. Shu orqali inglizlar o'z davlatlarining Markaziy Osiyodagi siyosatiga bog'liq hukumat qarashlarini bir-biriga yetkazganlar.

Birinchi xatda Klanrikardga Rossiyani Hindistonga kirmasligi uchun Xivada ushlab turish va xonlikni saqlab qolish yozilgan edi. Ikkinchi xatda esa, Palmerston: "Xivaning bosib olinishi Rossiyaga Amudaryoni quyi qismi ustidan nazorat imkonini beradi. Shuning uchun mudofaani kuchaytirish uchun Amudaryoni yuqori qismini egallash zarur",- deyilgan edi.

Shekspirni hujjatlariga ko'ra, Qobul va Hirotdagi Britaniya rezidensiyalari bilan O'zbek xonliklari o'rtasida qandaydir juda ham tezkor aloqa vosita yo'llari bo'lgan. Negaki, Shekspirni Xivadagi xatlari Hirotda, Qobul undan so'ng Kalkuttaga muntazam yetib borib turgan. Aynan shunday aloqa vositalarining bo'lishi tufayli ham Shekspirni qo'lida shunday muhim va o'ta maxfiy hujjatlar bo'lgan.

Shekspir Aleksandr fortidan Orenburgga tomon yo'lga tushayotganida o'zining shaxsiy xat tashuvchisiga Archi Toddga maktub yuborganligini yozadi. Shekspir Orenburgda, undan so'ng Sankt-Peterburgda bu qadar maxfiy hujjatni ko'tarib yurmaslik uchun uni Archi Toddga qaytargan bo'lishi mumkin. Xabarchi ortga qaytishda, turkmanlar tomonidan talangan va xat olib qo'yilgan bo'lishi mumkin. Yana bir taxmin esa bu hujjatlar Jeyms Ebbotga tegishli bo'lib, yuqorida aytganimizdek qaroqchilar tomonidan talangan edi. O'sha vaqtda xatlardan ayrilgan bo'lishi mumkin[3, p. 50-51].

Richmond Shekspir Jeyms Ebbotning Xiva xonligidagi harakatlari natijasida endi xonlik Britaniya bilan yaqinlasha boshladi. Shekspirning kundaligida ham Xiva xonligi bo'yicha muhim ma'lumotlar keltirilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Abbot James. Narrative of a Mission to Khiva, Moscow and St. Petersburg. – London. Smith, Elder.1867. Volume 1. – 380 p.
2. Aberigh-Mackay G.R. Notes on Western Turkistan. Calcutta. Thacker Spink.1875. – 96 p.
3. Bondarevskiy G. L. The Great Game: A Russian Perspective. PO Box 35 Hastings. East Sussex, 2002.– 103 p.
4. Hopkirk Peter. The Great Game: On Secret Service in High Asia. London. John Murray. 2006. – 590 p.
5. Kaye William. Lives of Indian Officers.London.A. Strahan and Co.,1867. – 502 p.
6. Macgahan J. A. Campaign on the Oxus and fall of the Khiva. London. Sampson low. 1876. – 438 p.
7. Муҳаммаджонов А. Р., Неъматов Т. Бухоро ва Хеванинг Россия билан муносабатлари тарихига доир баъзи манбалар.-Т.: Фан. – 224 б.

UO'K 930

“O‘ZBEKISTONNING ENG YANGI TARIXI” FANINI O‘QITISHNING AYRIM JIHATLARI HAQIDA**I.Rustamov, PhD, katta o‘qituvchi, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Farg‘ona filiali, Farg‘ona**

Annotatsiya. Tarixan qisqa, mazmunan asrlarga tatigulik mustaqillik davri O‘zbekiston va xalqimiz taqdirida o‘chmas iz qoldirdi. Turmush tarzimiz, dunyoqarashimiz tubdan o‘zgardi. Tafakkurimiz, shuurimiz tobora kengayib bormoqda. Albatta, ayni tarixiy jarayonlarni va mamlakatning ichki va tashqi hayotida ro‘y bergan tub sifat o‘zgarishlarni ilmiy tahlil qilish, tarixiy, teran xulosalar chiqarish lozim bo‘ladi. Ushbu maqolada ta‘lim samaradorligi, ta‘limda innovatsion texnologiyalarning joriy etilishi, ayniqsa O‘zbekistonning eng yangi tarixini o‘qitishning ayrim jihatlari tadqiq etilgan.

Kalit so‘zlar: tarix, O‘zbekistonning eng yangi tarixi, ma‘naviyat, qadriyat, ta‘lim samaradorligi, ta‘limda innovatsiyalar.

Аннотация. Исторически короткий, по содержанию вековой период независимости оставил неизгладимый след в судьбе Узбекистана и нашего народа. Наш образ жизни, мировоззрение кардинально изменились. Наше мышление, наше сознание расширяются. Конечно, необходимо будет провести научный анализ тех же исторических процессов и кардинальных качественных изменений, которые произошли во внутренней и внешней жизни страны, сделать исторические, глубокие выводы. В данной статье исследуются некоторые аспекты эффективности образования, внедрения инновационных технологий в образовании, особенно преподавания новейшей истории Узбекистана.

Ключевые слова: история, новейшая история Узбекистана, духовность, ценность, образовательная эффективность, инновации в образовании.

Abstract. The historically short, century-long period of independence has left an indelible mark on the fate of Uzbekistan and our people. Our way of life and worldview have changed dramatically. Our thinking, our consciousness is expanding. Of course, it will be necessary to conduct a scientific analysis of the same historical processes and cardinal qualitative changes that have occurred in the internal and external life of the country, to draw historical, profound conclusions. This article examines some aspects of the effectiveness of education, the introduction of innovative technologies in education, especially teaching the modern history of Uzbekistan.

Keywords: history, modern history of Uzbekistan, spirituality, value, educational efficiency, innovations in education.

Kirish. Jamiyat rivojlanishi jarayonining turli jabhalaridagi murakkablashuv, ijtimoiy-iqtisodiy bilimlarning kengayib borishi, inson faoliyatida, ayniqsa, ilm-fan tomonidan erishilgan yangiliklarning amaliyotga kiritilishi innovatsiyalarning amaliy ahamiyatini oshirgan. Hozirgi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot zaminini innovatsion tadbirkorlik, ta‘lim xizmatlari, boshqaruvning ilmiy asosda olib borilayotganligi, shuningdek, yangi bilimlar va ko‘nikmalar, texnologiyalar, boshqaruvning yangi usullaridan yuqori malakali mutaxassislarning samarali foydalanayotganligi kabilar tashkil etadi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2019-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmonida ijtimoiy taraqqiyotdagi, ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida, ta‘lim sohasi belgilangan[1]. O‘zbekiston Respublikasi rivojlanishiga doir hujjatlarda ham mamlakatni innovatsion rivojlantirish zaruriyati belgilab qo‘yilgan[2]. Innovatsion taraqqiyotning ob‘yektiv zarurligi, ushbu jarayonda ta‘lim muassasalari, davlat tashkilotlari, fuqarolik instituti vakillarining ishtiroki O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev asarlari, nutqlari, qarorlarida qayd etilgan[3]. Prezident asarlarining muhim tarixiy, falsafiy ahamiyati shundan iboratki, ularda innovatsiyalarning jamiyat taraqqiyotidagi alohida o‘rni, uni amalga oshirishning ob‘yektiv va sub‘yektiv jihatlari talqin etilgan.

Ta'limdagi innovatsiyalardan kutilayotgan asosiy maqsad bo'lajak mutaxassislarning o'zligini va o'zi yashab turgan dunyosini yuqori darajada anglaydigan, o'zini malakali mutaxassis sifatida his etadigan, jamiyat sohaslarini takomillashtirish jarayonida ishtirok etayotgan kishilardan iborat yangi kadrlar zamonaviy tushunchalar tizimini qayta tashkil qilish imkoniyatini qo'lga kiritadi.

Asosiy qism. Yangi pedagogik texnologiyani o'quv jarayoniga tadbiiq etish uchun uning ilmiy-amaliy mexanizmini yaratish zarur. "Bugungi globallashtirish davrida mamlakatimiz boy tarixi, milliy davlatchiligining shakllanishi va taraqqiyot etishi ro'zasidan xalqimiz, ayniqsa yoshlar ongida boy o'tmishimizga nisbatan g'urur va iftixor tuyg'ularini shakllantirish, ularni vatanga nisbatan muhabbat ruhida tarbiyalash vazifasi yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Darhaqiqat, o'zbek xalqi va uning davlatchiligi tarixi uzoq o'tmishga borib taqaladi. Biz bu bilan haqli ravishda faxrlanishimiz, ushbu boy, moddiy va ma'naviy merosni kelajak avlodlarga o'z holicha etkazmog'imiz zarur. Buning uchun tarix fanini o'qitishga yangicha talqinlar asosida yondoshmog'imiz muhim"[4].

Ma'lumki, tarix – erta, bugun va kelajakni o'zida birlashtirgan yagona kush. Tarix insoniyatning uzoq o'tmishidan to bugunigacha bo'lgan davrni o'zida jamlagan fan. Unda insoniyatning asrlar davomida rivojlanib borgan ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy, iqtisodiy, moddiy va ma'naviy, davlat qurilish sohasidagi tajribalari o'rganiladi. "Bir haqiqatni barshamiz shuqur anglab olishimiz zarur: milliy tarixni milliy ruh bilan yaratish kerak. Aks holda, uning tarbiyaviy ta'siri bo'lmaydi. Biz yoshlarimizni tarixdan saboq olish, xulosa shiqarishga o'rgatishimiz, ularni tarix ilmi, tarixiy tafakkur bilan qurollantirishimiz zarur"[5].

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interfaol metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda. Bunday bo'lishining sababalaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchi- talablarni faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rganilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganishlariga, tahlil qilishlariga, xatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga o'rgatadi. Shuning uchun ta'lim muassasalarida zamonaviy o'qitish metodlari, interfaol metodlar, innovatsion texnologiyalarning o'rni va roli benihoya kattadir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022 - 2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmonida 77-maqsadning "O'zbekiston tarixini o'rganish va targ'ib qilishni yanada rivojlantirish" vazifasi belgilanganligi va unda Tarix fanini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini amalga oshirish ko'zda tutilganligi[6] xalqimiz va uning davlatchiligi tarixini o'rganishga davlat siyosati darajasida ahamiyat qaratilayotganligini tasdiqlaydi. Har qanday texnologiya ta'limning yangi mazmunini shakllantiruvchi ta'lim tamoyillariga asoslanadi va ta'lim oluvchi shaxsini tarbiyalash, unda mehnat va muayyan yo'nalishlarda kasbiy ko'nikmalarni hosil qilishga yo'naltiradi. Ta'lim jarayonining faol sub'ektlari o'qituvchi va o'quvchilar bo'lib, ularning hamkorlikdagi faoliyatlari muayyan mavzu (yoki fanlar asoslari) bo'yicha kam kuch va vaqt sarflangan holda nazariy va amaliy bilimlarni chuqur o'zlashtirish imkonini beruvchi jarayonning umumiy mohiyatini tavsiflaydi. O'qituvchining faol, samarali faoliyat ko'rsatishiga yo'naltirilgan ta'lim jarayonining metodik ishlanmasidan farqli ravishda, ta'limning pedagogik texnologiyasi ta'lim oluvchilarga qaratiladi, shuningdek, ularning shaxsiy va o'qituvchi bilan birgalikdagi faoliyatini hisobga olgan holda o'quv materiallarini o'zlashtirishga sharoit yaratadi. Ta'lim-tarbiya jarayoni butun mashg'ulot davomida o'quvchilarning faolligi va qiziquvchanligini muntazam ravishda rivojlantirib borish maqsadini ko'zda tutadi, o'quv omillarini yaratishga asoslangan pedagogik texnologiya talabalarni o'quv yoki o'quv ishlab chiqarish faoliyatiga tezkor jalb qilish imkonini beradi. Aks holda, zaif, etarli darajada tushunarli bo'lmagan yoki aniq natijani ko'zlamagan topshiriqlar mashg'ulotning samarasiz yakunlanishiga olib keladi.

Pedagogik texnologiyaning maqsadi aniq masalalar qo'yish orqali o'quvchini o'ylashga, mustaqil fikrlashga odatlantirishga qaratilganidir.

O'zbekistonning eng yangi tarixini o'qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish ta'lim samaradorligiga sabab bo'ladi. Chunki mazkur o'qitish texnologiyalarni amalga oshirishda bir qator **passiv, faol, interfaol va treninglardan** keng foydalaniladi.

Passiv metodlar - turkumiga ma'ruza, hikoya, tushuntirish; namoyish, kitob bilan ishlash, illyustratsiya, videousul, to'rt pog'onali metod, laboratoriya, mashq, kabilar kiradi.

Faol o'qitish metodi bu – talabalarning o'quv-bilish jarayonidagi fikrlash faoliyatini, ish faoliyatini faollashtirishga qaratilgan metodlardir.

Zamonaviy ta'limni tashkil etish, ayniqsa, interfaol metodlardan foydalanish asosida dars jarayonlarini tashkil etishga qo'yiladigan talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Interfaol usullarni o'quv jarayonida liberalizatsiya qilish, demokratlashtirish, hamkorlik ham ijodkorlikni tashkil etishni taqozo etmoqda.

Xulosa. Bir so'z bilan aytganda, o'quv jarayoni markazida o'quvchi bo'lmog'i lozim va o'quv jarayoni unga qaratilgan, yo'naltirilgan bo'lishi talab etilmoqda. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim o'quvchining o'quv mehnatini tashkil etishni harakatlantiruvchi kuch bo'lib xizmat qiladi. Bunday ta'lim o'qituvchi va o'quvchiga doimiy ijodiy izlanish, uzluksiz o'z ustida ishlash imkoniyatini beradi. Darslar jarayonida interfaol usullardan foydalanish o'z mohiyatiga ko'ra sub'yektiv xususiyatiga ega, ya'ni har bir pedagog ta'lim va tarbiya jarayonini o'z imkoniyati, kasbiy mahoratidan kelib chiqqan holda ijodiy tashkil etishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2019-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 22.09.2018 y., 06/18/5544/1951-son.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 29 noyabrdagi "O'zbekiston", Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligini tashkil etish to'g'risida"gi PF-5264-son Farmoni. Qonun hujjatlari to'plami. 29.11.2017
3. Prezident Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga murojaatnomasi. 2018 yil 28 dekabr. <https://president.uz/uz/lists/view/2228>
4. Oblomurodov, N. (2022). Yangi o'zbekistonda O'zbekiston tarixi fanini o'qitishning ayrim jihatlari haqida. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(Special Issue 23), 154-159.
5. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2021. – B. 289.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022 - 2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. // Yangi O'zbekiston. 2022 yil, 1 fevral, №22 (544)

UO'K 76

XONLIKDA TOSHBOSMADA CHOP QILINGAN ILK ASARLAR

D.O.Tillayev, o'qituvchi, Urganch Davlat Universiteti akademik litseyi, Urganch

Annotatsiya. Bugungi kunda dolzarb ilmiy yo'nalishlardan biri bo'lgan XIX asrning oxiri – XX asr birinchi choragida Xorazmda bosmaxona, nashriyot va matbuot tizimi masalasi atroflicha o'rganilmagan, biroq istiqbolli mavzular qatoriga kiradi. SHu jihatdan olganda mazkur maqola Xorazm tarixining dolzarb muammolaridan biriga bag'ishlangan.

Kalit so'zlar: Muhammad Rahimxon I, Munis, Ogahiy, Bayoniy, Ibrohim Sulon, Otajon Abdolov, Abdulla Boltaev.

Аннотация. Вопрос о типографии, издательстве и системе печати в Хорезме в конце XIX — первой четверти XX века, являющийся сегодня одним из актуальных научных направлений, является одним из недостаточно изученных, но перспективных. темы. С этой точки зрения данная статья посвящена одной из актуальных проблем истории Хорезма.

Ключевые слова: Мухаммад Рахимхан I, Мунис, Огахи, Баяни, Ибрагим Султан, Отаджон Абдоллов, Абдулла Болтаев.

Abstract. The issue of printing, publishing and the printing system in Khorezm at the end of the 19th — first quarter of the 20th century, which is one of the current scientific directions today, is one of the insufficiently studied, but promising. Topics. From this point of view, this article is devoted to one of the pressing problems in the history of Khorezm.

Keywords: Muhammad Rahimkhan I, Munis, Ogahi, Bayani, Ibrahim Sultan, Otajon Abdolov, Abdulla Boltaev.

Kirish. Xivada toshbosma usulida mahalliy mualliflar, o'zbek tili va adabiyoti namoyandalarining asarlari chop etilishi, o'z davri uchun juda katta ahamiyatga ega voqea bo'lgan. Zero, bu asarlar asosan shu yo'l bilan omma o'rtasida shuhrat qozondi hamda Xorazmda yaratilgan

qo'lyozma asarlar, chop etilgan kitoblar dunyoning barcha kutubxonalarining nodir xazinasidan joy olib, kelgusida ko'plagan tillarga tarjima qilindi. Shu jihatdan olganda, Xiva xonligida toshbosma – litografiyaning ochilishi masalasini chuqur ilmiy-qiyosiy tahlil qilish dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, O'rta Osiyo miqyosida Xivada birinchi toshbosma ochilishi masalasi mahalliy manbalar orqali o'rganilmagan. Zero, mahalliy manbalar mualliflari toshbosma ochilishi voqeasining bevosita guvohlari sifatida to'liq ma'lumotga ega bo'lganlar.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. 1874 yilda Xiva xonligida O'rta Osiyo miqyosida birinchi toshbosma – litografiyaning ochilishi juda muhim ahamiyatga ega bo'lgan voqea sifatida ko'pgina manbalarda hamda tadqiqotlarda o'z aksini topgan. Ammo, mazkur toshbosma faoliyatiga doir bir qator tadqiqot ishlari olib borilgan bo'lsa-da, bu toshbosmada chop qilingan asarlar, toshbosmada ishlagan usta, hattot va noshirlar hayoti va faoliyati haqidagi, bu toshbosmada nashr qilingan ilk asarlar to'g'risidagi yozma manbalar va tarixshunoslik tadqiqotlari haligacha to'liq tahlil qilinmagan yoki bu manbalar ma'lumotlari tanqidiy tahlil qilinmagan. Ayniqsa, shu voqeaning bevosita guvohi bo'lgan mahalliy tarixchilar asarlari to'liq tadqiqotlar doirasiga tortilmagan. Bundan tashqari, Xiva toshbosmasi haqida yozgan rus sharqshunoslaridan B.B.Bartol'd, G.N.Chabrov, Ye.K.Betger, o'zbek tarixchi olimlardan T.Ernazarov, R.Mahmudova, M.Rustamov, A. Boboxonov, F.Ernazarov asarlarida ham Otajon Abdolov haqidagi ma'lumotlar aks etgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada tizimlashtirish, tarixiy-qiyosiy tahlil, tarixiy ma'lumotlarni umumlashtirish, xolislik tamoyili kabi ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Bizga ma'lumki, Xiva xoni Muhammad Rahimxon I Feruz (1806-1825) o'z atrofiga ma'rifatparvar olimlar va bu davrning ilm ahlini yig'ib saroy qoshida kutubxona tashkil etdi, bu kutubxonada dunyoning turli joylaridan keltirilgan ko'plagan nodir, bebaho adabiyotlar mavjud edi. Ammo, bu kitoblar bir nusxadan bo'lganligi uchun, undan bir vaqtning o'zida ko'plagan ilm ahli bahramand bo'la olmasdi. O'sha vaqtdagi holatga ko'ra ularni ko'paytirishning birdan-bir yo'li xattotlar tomonidan ulardan nusxa ko'chirib ko'paytirish bo'lgan. SHu jihatdan, Feruz saroyiga yig'ilgan shoirlarning asarlari oylab, yillab ko'chirilishi ko'p vaqtni talab etgan. Shu davrgacha barcha kitoblar mohir xattotlar tomonidan qo'lda ko'chirilgan. Shu sababli Feruz Islomxo'ja, Komil Xorazmiy, Xudaybergan devon kabi kishilarni markaziy shaharlarga yuborib, kitob nashr qilish ishlarini yo'lga qo'yishga harakat qiladi [1.1997.6.144]. Ana shu vaziyatda, Muhammad Rahimxon II Feruz rahbarligida qilingan yana bir xayrli ish nafaqat xonlik tarixida, balki O'rta Osiyo tarixida ham muhim voqea bo'lgan toshbosmaning tashkil etilishi bo'ldi.

Bu davrlarda, toshbosma-litografiyalar faqat Rossiya va Eronda bo'lib, butun turkiy dunyo davlatlarida tarixiy kitoblar, she'riy to'plamlar va hokazo kitoblar shu hududlardan bosmadan ko'plab chiqarilib, nafaqat SHarq dunyosiga balki, Yevropa va Amerika hududlariga ham tarqalgan. Zero, ko'pgina mashhur va nodir asarlar shu yo'l bilan Yevropaga borib qolib, turli tillarga tarjima qilingan. Ayniqsa, Rossiyadagi Sankt-Peterburg, Moskva, Qozon va Orenburg shaharlaridagi, Erondagi Tabriz va Tehrondagi toshbosmalarda nashr qilingan asarlar butun dunyoga tarqalib, nafaqat nodir asarlar sifatida kutubxonalarda saqlangan, balkim ularning ko'pchiligi shu davlatlar tillariga, masalan, ingliz, nemis, fransuz tillariga tarjima qilinib, manbashunoslik va tarixshunoslik tadqiqotlariga ham jalb qilingan. Shu jihatdan olganda, mashhur rus sharqshunosi A.A.Semyonov Xiva litografiyasiga juda yaxshi ta'rif berib, uni O'rta Osiyo miqyosidagi favqulodda nodir voqea deb ataganligi bejiz emas. Ya'ni, xonlikda toshbosmaning vujudga kelishi O'rta Osiyoda birinchi va yagona matbaa sifatida tarixga kirdi [2.1999.6.142].

Xiva toshbosmasida nashr qilingan bosmaxonaning ilk mahsuli, 1874 yilda chop etilgan SHermuhammad Munisning «Devoni Munis» asari bo'lib, ushbu asarning ikkinchi nashri 1876 yilda, uchinchi nashri esa 1879 yilda amalga oshirilgan. 1876 yilda esa Abu Nasr Farohiyning «Nisob us-Sibiyon» asari nashr etilgan [3.1996. B.263].

1880 yilda Yaqubxo'ja ibn Ibrohimxo'janing «Devoni Xolis» to'plami nashrdan chiqqan. Ushbu devonga beshariqlik mashhur tarjimon, xattot va yetuk shoir Xolisning g'azallari, ruboiylari, muxammaslari kiritilgan. Asar Komil Xorazmiyning uch sahifalik so'z bo'shisi bilan nashr etilgan. Yana shu yili ya'ni 1880 yil hazrat Alisher Navoiyning «Xamsa»sidan «Hayrat ul-abror» dostoni [4.1991.B.104] nashr etilgandan so'ng, 1882 yilda xalq orasida «CHahor devon» nomi bilan mashhur

bo'lgan Alisher Navoiyning 50 ming misradan iborat «Xazoin ul-maoniy» asari Komil Xorazmiyning so'z boshisi bilan Ibrohim Sulton tomonidan nashrga tayyorlangan. Bu asar yagona to'liq asar sifatida matbaachilik tarixiga kirdi. SHuningdek, 1882 yilda xivalik tarixnavis tarjimon, shoir va davlat arbobi Muhammadrizo Erniyozbek o'g'li Ogahiyning «Ta'viz ul-oshiqin» (Oshiqlar tumori) nomli 530 betdan iborat devoni chop etildi [4.1991.B.103]. Ushbu asarni hozirda ikkita nashriga egamiz. Birinchi nashri 1882 yilda, ikkinchi nashri esa 1905 yilda amalga oshirilgan.

1897 yil Feruzning yozgan g'azallari «Devoni Feruz» nomi bilan to'plamga kiritilib, Komil Xorazmiy so'z boshisi bilan nashr etildi. SHuningdek, Muqammad Rahimxon II Feruz noshirlik qilgan shoirlarning asarlaridan namunalar berilgan «Devonlar majmuasi» to'rt bora nashr etilgan. Barcha nashrlar o'zbek tilida bo'lib, faqat hajm va qisman mualliflar she'rlari turli tartibda berilishi jihatdan farq qiladi. Mazkur devonning birinchi nashri 1906 yil chop etilgan bo'lib, u 598 betdan, ikkinchi nashri 1907 yil chop etilgan va u 451 betdan, uchinchi nashri 1908 yili 898 betdan, to'rtinchi nashri esa 1909 yilda 1192 bet hajmda nashr etilgan [5.2007.B.26.]. Ushbu devonning barcha nashrlari hozirgi kunda O'zbekiston FA SHarqshunoslik institutida saqlanmoqda.

SHuningdek, o'rganilayotgan davrda Bayoniy, Ogahiy, Pirkomil, Mirzo, Rojiiy, Tabibiy, Komil Xorazmiy, Komil Devoniy, G'ulomiy, Sultoniy, Sa'diy Asad, G'oziiy kabi shoirlarning she'rlari nashr etilgan. Ular orasida Feruzning farmoyishiga ko'ra Ahmadjon Tabibiyning «Majmuat ush-shuaro» (SHoirlar majmuasi) asari 1909 yilda nashr etilgan. Bu ulkan majmua 1600 sahifalik bo'lib, 3099 g'azal joy olgan. Majmua Xorazm adabiy muhitida faoliyat ko'rsatgan 30 dan ortiq shoirlarning hayoti, faoliyati va ularning ijod namunalari bilan tanishtiradi. Asarga Ahmadjon Tabibiy yetti sahifalik debocha yozgan. Ahmadjon Tabibiy o'zbek va fors tillarida bir necha devonlarni ham tartibga keltirib 1909-1910 yillari «Hayrat ul-ushshoq», «Munis ul-ushshoq» va «Me'roj ul-ushshoq» kabi devonlari nashr ettirgan. Xiva adabiy muhitining yirik namoyondasi saroy shoiri Laffasiyning ma'lumot berishicha, Xiva xoni Feruz «Haft shahzoda» nomli to'plam ham tuzdirgan. Bu to'plam 1906-1909 yillar maboynida Xiva litografiyasida to'rt marta nashr qilingan. Feruz mazkur to'plamni «Haft shuaro» deb ham atab, unda o'z og'ayni va jiyanlari ijodidan namunalar bergan[4.1991.B.103]. Bu to'plamni Komil Devoni nashrga tayyorlagan. Xiva kitobatida o'sha yillari boshqa tillardan jumladan, tojik tilidan o'zbekchaga o'girilgan asarlar ham yuzaga keldi va ular ham Xiva kutubxonasi xazinasidan munosib o'rin oldi.

O'rganilayotgan yillarda Xiva matbaasida tarjima qilingan asarlar ham chop etila boshlandi. Masalan, Bag'dodiyning «Soqiynoma» yoki «Haft jom» nomli asarini Muhammadrasul Mirzo tojikchadan masnaviy janrida o'zbek tiliga tarjima qilib, bu asar 1907-1908 yillarda ikki marta «Devoni haft shuaro» asariga qo'shib nashr etilgan bo'lsa, 1909 yilda «Devoni Mirzo» asarining oxiriga qo'shib nashr etildi. XX asr boshlarida Xiva matbaasida nashr etilgan kitoblardan yana biri Muhammad Xivaqiyning «Muntaxab ul-lug'at» asaridir.

Qisqa vaqt ichida Xiva adabiy muhitida ishtirok etgan 30 nafardan ortiq shoir, tarjimonlarning asarlari Xiva toshbosmasida nashr etildi. Kotib va xattotlarning yillar davomida bajaradigan mashaqqatli ishlariga chek qo'yildi. Ammo bu bilan asarlarni qo'lda ko'chirish an'anasi to'xtab qolgani yo'q. Husnixat sohiblari – xattotlar ham nodir asarlarni yozishda davom etdilar, ya'ni toshbosma asarlar bilan qo'lyozma asarlar yaratilib, xon kutubxonalari va shaxsiy kutubxonalardan o'rin oldi.

Tadqiqotchi A.Mirzarahimov Muhammad Rahimxon II Feruz tashabbusi bilan nashr qilingan ba'zi asarlar ro'yxatini quyidagicha ko'rsatadi:

Muhammad Rahimxon II Feruz 1879 yildan 1906 yilgacha Alisher Navoiyning «Xamsa», «Devoni Feruz», Muhammad Yusuf Mahdumning «Devoni Rojiiy», «Devoni Xolis», «CHor kitob», «CHahor Devon», «Devoni Komil», Muhammad Rahim II Feruz o'z qalamiga mansub «Devon»ga, «Badoe' al-vasat», «G'aroyib us-sig'ar», «Navodir ash-shabob», «Devoni Fuzuliy», «Devoni Bedil», «Fiqhi Kaydoniy ma'a sharhuh»ning arabchadan Muhammadrasul Oxund va Muftiy ibn SHermuhammad tomonidan tarjima qilingan nusxasi, «Devoni Komil» (ikkinchi nashri), «Devoni Ogahiy», «Devoni Bayoniy», «Majmuat ush shuaro Feruzshohiy» (30 ta shoir kirgan) kabi asarlarga noshirlik qilgan [7.2007.B.42]. Biz bu ro'yxatni davom ettirib, XX asr boshlarida nashr qilingan matbaa mahsuli sifatida «Devoni Sultoniy» (1906 yil, 1907yil, 1908 yillar), «Devoni Sanoyi»

(1909yil), «Devoni Sodiq»(1906 yil, 1918 yillarda), «Devoni Tabibiy» (1909 yil,1910 yillarda), «Hayrat ul-oshiqin»(1910 yil), «Devoni Oqil» (1906 yil), «Devoni G'ujjiy» (1907yil, 1908 yil, 1909 yillarda), «Devoni Farrux»(1906 yil), «Devoni Nazir» (1907 yil,1909 yillar), «Zayn al-arab» (1911 yil), «Mazo'ar al-ishtiyoq» (1909 yil) asarlarini aytishimiz mumkin.

Xulosa va takliflar. Ushbu bo'lim xulosasi sifatida shuni e'tirof etish mumkinki, Xiva xonligida o'rganilayotgan davrda O'rta Osiyoda yagona matbaa Xiva litografiyasini tashkil etilishi xonlik madaniy hayotini rivojidan dalolat beradi. Xiva xoni Muhammad Rahimxon II tashabbusi bilan tashkil etilgan toshbosma bir qancha adabiyotlarni, tarixiy kitoblar tarjimalarini, bayoz va devonlarni nashr etib, tez fursatda ilm ahliga tortiq qilindi. Xiva toshbosmasida nashr qilingan kitoblar xalq ommasida keng tarqalib, aholining madaniy-ma'rifiy o'sishiga shu asarlardan ilhomlanib ijod ahli yangi asarlar yaratishiga olim va adiblarning yetishib chiqishiga turtki bo'ldi va bu asarlar talon-taroj qilingan xon kutubxonasini qayta to'ldirdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Абдурасулов А. Хива (тарихий-этнографик очерклар). – Тошкент: Ўзбекистон. 1997. – 144 б.
2. Ахунджанов Э.А. К истории разветвения книжного дела в Хиве // Общественного науки в Узбекистане. №7-8. – Тошкент, 1997. – С.100-103.
3. Бобохонов А. Ўзбек матбааси тарихидан. – Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1979. – 196 б.
4. Давлатёр Раҳим, Шихназар Матрасул. Феруз – шоҳ ва шоир қисмати. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1991. – 130 б.
5. Пидаев Т. Матбуот – миллат чироғи. – Тошкент: Фан, 1999. – 142 б.
6. Маҳмудова Р. Хива литографик матбаасида босилган асарлар // Ўзбекистонда ижтимоий фанлар. № 5. – Тошкент, 1967. – Б.43-45.
7. Мирзараҳимов А. Хоразмда илк нашрлар. // Мозийдан садо. 2007. – №1. – Б.26-43.
8. Самойлович А.Н. Материалы по среднеазиатско-турецкой литературы. Хивинские придворные книгохранилища и книгопечатня // Изв. АН Туркм. ССР. Сер. обществ. наук. №1. – Ашхабад, 1981. – С. 74 – 82.
9. Чабров Г. Н. У истоков узбекской полиграфии (хивинская придворная литография 1874–1910 гг.) // Книга: исследования и материалы : сб. Т. IV. Москва: Издательство всесоюзной книжной палаты, 1961. С. 317–329.
10. Язбердиев А. А.Н. Самойлович о дореволюционных Хивинских книгохранилищах и книгопечатне. // Известия АН Туркмен.ССР. Серия общ.наук. №1. – Ашхабад, 1981. – С.69-73.
11. Язбердиев А. К вопросу о начальном периоде книгоиздательской деятельности хивинской литографии (1874-1880) // Известия АН Туркм.ССР. Серия общ.наук. №4. – Ашхабад, 1971. – С.53-60.
12. Ҳасаний С. Хоразм маърифати олам кўзгуси. – Т.: Ўқитувчи, 1996. – 304 б.

UO'K 930.253

XIVA XONLIGIDA MATBAACHILIK TARIXIDAN

D.O.Tillayev, o'qituvchi, Urganch Davlat Universiteti akademik litseyi, Urganch

Annotatsiya. Bugungi kunda dolzarb ilmiy yo'nalishlardan biri bo'lgan XIX asrning oxiri – XX asr birinchi choragida Xorazmda bosmaxona, nashriyot va matbuot tizimi masalasi atroflicha o'rganilmagan, biroq istiqbolli mavzular qatoriga kiradi. SHu jihatdan olganda mazkur maqola Xorazm tarixining dolzarb muammolaridan biriga bag'ishlangan.

Kalit so'zlar: Muhammad Rahimxon I, Munis, Ogahiy, Bayoniy, Ibrohim Sulton, Otajon Abdolov, Abdulla Boltaev.

Аннотация. Вопрос о типографии, издательстве и системе печати в Хорезме в конце XIX — первой четверти XX века, являющийся сегодня одним из актуальных научных направлений, является одним из недостаточно изученных, но перспективных. темы. С этой точки зрения данная статья посвящена одной из актуальных проблем истории Хорезма.

Ключевые слова: Мухаммад Рахимхан I, Мунис, Огахи, Баяни, Ибрагим Султан, Отаджон Абдоллов, Абдулла Болтаев.

Abstract. The issue of printing, publishing and the printing system in Khorezm at the end of the 19th — first quarter of the 20th century, which is one of the current scientific directions today, is one of the insufficiently studied, but promising. Topics. From this point of view, this article is devoted to one of the pressing problems in the history of Khorezm.

Keywords: Muhammad Rahimkhan I, Munis, Ogahi, Bayani, Ibrahim Sultan, Otajon Abdolov, Abdulla Boltaev.

Kirish. O'rta Osiyo matbaachilik tarixiga nazar tashlasak, XX asr boshlariga kelib O'rta Osiyo hududida 90 ta matbaa mavjud bo'lganligini ko'rish mumkin. Bu haqda tadqiqotchi A. Boboxonov ham to'xtalib, Toshkentda 25 ta matbaa, Samarqandda 16 ta, Qo'qonda 14 ta, Namanganda 8 ta, Ashxobodda 5 ta, Andijon, Buxoro, Farg'onada 4 tadan, Kattaqo'rg'on, Qizilarvat, Petro-Aleksandrovska, CHimkent, Xo'jand, Xivada 1 tadan matbaalar ishlagan deb ma'lumot beradi [1.1979.B.96].

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. 1874 yilda Xiva xonligida O'rta Osiyo miqyosida birinchi toshbosma – litografiyaning ochilishi juda muhim ahamiyatga ega bo'lgan voqea sifatida ko'pgina manbalarda hamda tadqiqotlarda o'z aksini topgan. Ammo, mazkur toshbosma faoliyatiga doir bir qator tadqiqot ishlari olib borilgan bo'lsa-da, bu toshbosmada chop qilingan asarlar, toshbosmada ishlagan usta, hattot va noshirlar hayoti va faoliyati haqidagi, bu toshbosmada nashr qilingan ilk asarlar to'g'risidagi yozma manbalar va tarixshunoslik tadqiqotlari haligacha to'liq tahlil qilinmagan yoki bu manbalar ma'lumotlari tanqidiy tahlil qilinmagan. Ayniqsa, shu voqeaning bevosita guvohi bo'lgan mahalliy tarixchilar asarlari to'liq tadqiqotlar doirasiga tortilmagan. Bundan tashqari, Xiva toshbosmasi haqida yozgan rus sharqshunoslaridan B.B. Bartol'd, G.N. CHabrov, Ye.K. Betger, o'zbek tarixchi olimlardan T. Ernazarov, R. Mahmudova, M. Rustamov, A. Boboxonov, F. Ernazarov asarlarida ham Otajon Abdolov haqidagi ma'lumotlar aks etgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada tizimlashtirish, tarixiy-qiyosiy tahlil, tarixiy ma'lumotlarni umumlashtirish, xolislik tamoyili kabi ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Ko'rilayotgan davrda Xiva xonligidagi ikki matbaa faoliyati o'rganildi. Birinchi matbaa Muhammad Rahimxon II Feruz davrida tashkil etilgan va u «Podshohi zamon tipolitografiyasi» deb nomlangan [4. 1991. – B.103].

Tadqiqotchi F. Ernazarov ma'lumotiga qaraganda, toshbosma dastgohi Feruz tomonidan Jenevadan Xivaga olib keltirilgan ekan. Xiva shahrida toshbosmaning ishga tushirilishi bilan kitoblarni chop qilish ishlari jonlanib ketgan, mumtoz adabiyot, tarixning o'lmas namunalarini ko'p nusxada chop etish imkoniyati tug'ilgan.

Vohadagi ikkinchi bosmaxona Petro-Aleksandrovska (To'rtko'l)da S.V. Novikov matbaasidir. Bu matbaa ham o'zining tuzilishi va chop etgan mahsulotlari bilan boshqa kichik vaqtli matbuot bosmaxonalaridan farq qilmagan [3.1979.B.196]. O'rta Osiyo tarixidagi yagona matbaa Xiva xoni Muhammad Rahimxon II Feruz saroyida tashkil etilgan «Podshohi zamon tipolitografiya»sidagi nashr jarayoniga to'xtalsak, nashr uchun tayyorlangan asar matni dastlab eski o'zbek yozuvida qo'lda qog'ozga tushunarli qilib ko'chirilgan. Bu o'rinda xattotlar mehnati va hissasini aytib o'tish joiz. Toshbosma nashriga tayyorlangan qo'lyozmalarning har biri bilan hattot yaqindan tanishib, mazmunini o'qib chiqqachgina asar nashrga tavsiya etilgan. Keyin esa matn maxsus tashqolipga ko'chirilgan. Tashqolip bilan 500-600 nusxagacha kitob bosish mumkin bo'lgan. Toshbosma nashr qo'lyozmaga nisbatan bir necha barobar ko'proq qo'lyozma tarqalishini ta'minlagan [7.1997.B.33.]. SHarq adabiyoti matnshunosligidagi bosh maqsad, matnni muallif yaratgan ko'rinishiga iloji boricha yaqin holatda nashr etishdan iborat bo'lgan [7.1997. B.31].

Qo'lyozma asar kotib va xattotlar tomonidan qo'lyozma shaklida ko'paytirilib borilishi asarlarning mazmun va shaklida o'zgarish yasagan.

Tadqiqotchi A. Erkinov qo'lyozmalarni nashr qilish xususiyatiga ko'ra 4 turga ajratgan. Bular asliyat matnidan nusxa ko'chirilgan nashr, asliyat xatini saqlagan nashr, transkripsion nashr, transliteratsion nashrlardir. Qo'lyozmalar tahlil qilinganda, bizgacha yetib kelgan nashrlarning ko'pchiligi asliyat xatini saqlagan nashrligi ko'riladi.

A.N. Samoylovich shohidlik berishicha, toshbosma 1908 yilda Tozabog'ga Muhammad Rahimxonning dala hovlisiga ko'chirilgan. Unga shu davrda Xudaybergan muhrkan rahbarlik qilgan. Toshbosmada dastlab Navoiyning «Xamsa»si, Munisning «Devoni Munis», Ogahiyning «Devoni Ogahiy», Feruzning «Devoni Feruz»i, shuningdek, Komil Xorazmiy, Muhammad Yusuf Bayoniy, Ahmadjon Tabibiy, Muhammadrasul Mirzo kabi iqtidorli shoirlarning devonlari va bayozlari chop etilgan [1.1997. B.97].

Hozirgi kunda O'zbekiston FA SHarqshunoslik instituti jamg'armasida saqlanayotgan Xiva matbaasiga oid kitoblarning aksariyati devonlardan iborat bo'lib, ular Alisher Navoiy, Munis Xorazmiy, Muhammad Rojij hamda XIX asrning oxiri va XX asr boshlarida ijod qilgan Xiva shoirlarining devonlaridir. Navoiyning «Xamsa», «Xazoyin ul-maoniy» asarlari Muhammadrasul Mirzaboshi tahriri ostida nashr etilgan. Ushbu xazinada saqlanayotgan Xivada nashr etilgan asarlarning eng birinchisi, 1874 yilda nashr etilgan «Devoni Munis» kitobidir. Tadqiqot jarayonida Xivada nashr qilingan toshbosma kitoblarni o'rgangan holda birinchi bosma nashr «Devoni Munis» kitobi Xiva toshbosmasining, O'rta Osiyodagi birinchi matbaaning ilk mahsuli deb hisobladik. Ushbu asarning ikkinchi nashri 1876 yil, 1879 yilda uchinchi marta nashr qilingan. Kitob o'zbek tilida yozilgan bo'lib, 668 betdan iborat. Bu asar Xiva xoni kutubxonasida saqlangan.

Kitobat ishining takomili natijasida o'zbek tilida toshbosmada nashr qilingan birinchi asar «Munis devoni»ning dovrug'i Yevropagacha yetib bordi. Yaqin SHarq ma'lumotlarini e'lon qiluvchi Vena jurnalida yirik sharqshunos-turkshunos olim Arminiy Vamberi bu haqda shunday yozgan: «O'rta Osiyo litografiyasi mahsuloti bo'lmish «Munis devoni» nihoyatda sodda nashr bo'lib, 1874 yili Xivada nashrdan chiqarilgan edi» [8.1892. P.198.]. SHu muallifning o'zi birinchi bo'lib ushbu devondan ba'zi parchalarni o'zbek tilidan nemis tiliga o'giranini matbuotda e'lon qilgan [8.1892. P.273-291].

O'rganilayotgan davrda Xiva litografiyasida nashr qilingan asarlarning asosiy repertuarini Xiva adabiy muhiti namoyondalarining bayozlari, devonlari va muxammaslari tashkil qilgan. Bu nashr qilingan bayoz va devonlar hozirgi kunda O'zbekiston FA SHarqshunoslik instituti hamda turli kutubxonalarda saqlanmoqda. Xiva toshbosmasida nashr qilinib, ushbu xazinada saqlanayotgan asarlarni o'rganib tahlil etgan holda, ularni quyida keltirib o'tmoqchimiz.

1908 yil Xiva xonligida bo'lgan sharqshunos olim A.N.Samoylovich xon va saroyning madaniyat ishlari mutasaddi vakillari bilan uchrashganini, Arqdagi va Tozabog'dagi xonning kutubxonalardagi ajoyib kitob va qo'lyozmalar bilan yaqindan tanishib chiqqanini alohida ta'kidlaydi [2.1997.C.100-103]. A.N.Samoylovich ma'lumotiga ko'ra, xonning Tozabog'dagi kutubxonasida 200 ga yaqin qo'lyozma hamda Turkiston, Qozon, Usmonli turk, fors, hind nashrlariga oid ko'plab kitoblar mavjud bo'lgan [6.1981.C.74-79]. Bundan bilish mumkinki, xon kutubxonasida nafaqat Xiva litografiyasi nashrlari, balki boshqa xorij litografiya nashrlari ham joy olgan.

Tadqiq qilinayotgan davrda litografiya ishi rivojida, nodir, bebaho kitoblar, tarjimalar, bayoz va devonlarning nashrdan chiqarilishida serqirra ijod sohibi Muhammadrasul Mirzoning o'rni alohida ekanini ta'kidlash joizdir. Muhammad Rahimxon II Feruz nihoyatda nodir va yirik asarlarni nashrga tayyorlash va chop etishni faqat Muhammadrasul Mirzozagina ishonib topshirgan. SHuningdek, xon saroyi qoshidagi litografiyaning ish jarayoni, nashriyot ishlari, nazorati ham uning zimmasiga yuklatilgan. Mirzo nashrga topshirilgan qo'lyozmalarni sinchiklab tekshirib, o'zi saralab, ko'rikdan o'tkazgan, ayrim asarlarni qayta ko'chirgan. SHu bois ko'pgina toshbosma asarlarda Muhammad Rasul Mirzoning so'zboshisini uchratish mumkin. Zamondoshlari Mirzo haqida shunday yozadilar: «Muhammadrasul Mirzo mashhur musiqachi bo'lish bilan birga musiqiy asarlar bastakori ham edi. Ayni vaqtda tengi yo'q xattot ham bo'lib, nasx va ta'liq usullarida nihoyatda chiroyli yozgan. 400 dan ortiq odamni xattotlik san'atiga o'rgatgan. Muhammad Rahimxon va Asfandiyorxon topshirig'i bilan Mirzo bir necha o'nlab kitoblarni ko'chirgan» [4.1991. B.103].

Madaniyat homiysi ma'rifatparvar xon rahnamoligida nashr qilingan asarlarga yana bir bor e'tibor qaratsak, bu asarlarning ko'pchiligi bayoz, devon va tarjimalardan iborat edi.

Muhammad Rahimxon II Feruz tashabbusi bilan saroy kutubxonasida saqlanayotgan nodir qo'lyozma asarlarni kitob shaklida nashr qilish maqsadida 1874 yili Erondan litografiya anjomlari Xivaga olib kelindi. Eronlik maxsus matbaachi Ibrohim Sulon o'z ishining mutaxassisi sifatida litografiyada dastlabki ishlarni amalga oshirishga kirishgan va toshbosmada ilk bor matbaachilik qildi, bu sho'baning boshlig'i qilib saroy shoiri Tabibiy tayinlangan [1.1997.B.97].

Ibrohim Sulon yangi tashkil etilgan toshbosmada bitta o'zi ishlashga qiyinchilik sezgach, Otajon Abdalovni shogirdlikka oladi. Dastlab, toshbosmada ba'zi bir qog'ozlar, hujjatlar chop etila boshlanadi. Ibrohim Sulon bilan tuzilgan shartnoma muddati tugagach, u Eronga jo'nab ketdi va xonlik toshbosmasidagi barcha ishlar va bu ish mas'uliyati Otajon Abdalov zimmasiga yuklatildi.

Otajon Abdalov bu ishning davomchisi sifatida xonlik kutubxonasidagi nodir kitoblarni mustaqil ravishda nashr qilishga kirishdi [5.1967.Б.43-45].

Xulosa va takliflar. Ushbu bo'lim xulosasi sifatida shuni e'tirof etish mumkinki, Xiva xonligida o'rganilayotgan davrda O'rta Osiyoda yagona matbaa Xiva litografiyasini tashkil etilishi xonlik madaniy hayotini rivojidan dalolat beradi. Xiva xoni Muhammad Rahimxon II tashabbusi bilan tashkil etilgan toshbosma bir qancha adabiyotlarni, tarixiy kitoblar tarjimalarini, bayoz va devonlarni nashr etib, tez fursatda ilm ahliga tortiq qilindi. Xiva toshbosmasida nashr qilingan kitoblar xalq ommasida keng tarqalib, aholining madaniy-ma'rifiy o'sishiga shu asarlardan ilhomlanib ijod ahli yangi asarlar yaratishiga olim va adiblarning yetishib chiqishiga turtki bo'ldi va bu asarlar talon-taroj qilingan xon kutubxonasini qayta to'ldirdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Абдурасулов А. Хива (тарихий-этнографик очерклар). – Тошкент: Ўзбекистон. 1997. – 144 б.
2. Ахунджанов Э.А. К истории разветвля книжного дела в Хиве // Общественного науки в Узбекистане. №7-8. – Тошкент, 1997. – С.100-103.
3. Бобохонов А. Ўзбек матбааси тарихидан. – Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1979. – 196 б.
4. Давлатёр Рахим, Шихназар Матрасул. Феруз – шоҳ ва шоир қисмати. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1991. – 130 б.
5. Маҳмудова Р. Хива литографик матбаасида босилган асарлар // Ўзбекистонда ижтимоий фанлар. № 5. – Тошкент, 1967. – Б.43-45.
6. Самойлович А.Н. Материалы по среднеазиатско-турецкой литературы. Хивинские придворные книгохранилища и книгопечатня // Изв. АН Туркм. ССР. Сер. обществ. наук. №1. – Ашхабад, 1981. – С. 74 – 82.
7. Эркинов А.С. Матншуносликка кириш. – Т., 1997.– 44 б.
8. Wambery A. Zwei moderne centralasiatische Dicher, Munis und Emir. // Wiener Zeitschrift fur die kunde des Morgenlandes. -Bd VI. 1892. – P.198.

UO'K 008:[821.14:94(396.4)]

YOZMA MANBALARDA BAQTRIYA ARIXINING AKS ETISHI XUSUSIDA

B.B.Tugalov, o'qituvchi, Jizzax davlat pedagogika universiteti, Jizzax

S.Q.Ummatov, talaba, Jizzax davlat pedagogika universiteti, Jizzax

Annotatsiya. Mazkur maqolada yozma manbalar asosida Baqtriya tarixining yoritilishi xususida ma'lumotlar berishga harakat qilingan.

Kalit so'zlar: Yozma manbalar. Baqtriya, eneolit, V.M.Masson, Namozgoh IV, Avesto, Naqshi Rustam, Strabon, Diodor.

Аннотация. В данной статье предпринята попытка предоставить сведения об истории Бактрии на основе письменных источников.

Ключевые слова: Письменные источники. Бактрия, энеолит, В. М. Массон, Молитва IV, Авеста, Нахши Рустам, Страбон, Диодор.

Abstract. In this article, an attempt was made to provide information about the history of Bactria based on written sources.

Key words: Written sources. Bactria, Eneolithic, V. M. Masson, Prayer IV, Avesta, Nakhshi Rustam, Strabo, Diodorus.

Eneolitdan so'nggi davr bronza asri bo'lib, garchi bu davr xronologik jihatdan uncha katta davrni o'z ichiga olmasada ajdodlarimiz hayotida sodir bo'lgan juda ko'p yangiliklarni o'z ichiga oladi. Bronza asrida ob-havo xam nisbatan ilib, cho'l va dashtliklar kengayib, chorvachilikni keyingi taraqqiyoti uchun qulayliklar vujudga keladi. Bronza asri metallurgiya taraqqiyotini to'rtinchi bosqichiga to'g'ri kelib, mis va qalay qorishmasidan bronza xosil qilish texnikasi vujudga keladi. Misni eritish uchun ancha yuqori darajadagi sun'iy issiqlikni vujudga keltirish lozim edi.

Ammo eneolit davridagi kabi bronza asrida xam mis kamyob bo'lgani uchun ulardan juda zarur bo'lgan qurollarni va bezaklarnigina yasaganlar. Shuni aytish lozimki bronza asriga kelib, qabilalar o'rtasida iqtisodiy tengsizlik alomatlarini ko'zga shlana boshladi. Ba'zi qabilalar mis konlari serob xududlarda yashasa, boshqalari qalayga boy bo'lgan xududlarda va yana boshqalari esa unisi xam bunisi xam yo'q joylarda yashashlariga to'g'ri keldi.

Janubiy Turkmanistonda ko'p yillar davomida arxeologik qazish ishlarini olib borgan V.M. Masson ilk brnoza davrida, ya'ni Nomozgoh IV bosqichida otalar jamoada o'z ustunliklarini tikladilar. Ishlab chiqarish jamoalarini boshqarish ayollar qo'lidan erkaklar qo'lga o'tdi degan fikrni berdi. O'zbekistonni janubida ko'p yillar davomida bronza davri yodgorliklari asosida arxeologik qazish ishlarini olib borgan A. Asqarov esa yuqoridagi fikrni tarixiy haqiqatga yaqin deb tan olish bilan birga Nomozgoh IV va V qatlamlarida xamda shu davr ayollar mozorlarida ona mabudalarini ko'plab uchrashini hisobga olib ishlab chiqarish boyligini yaratish erkaklarning asosiy vazifasiga aylangan bo'lsada jamoani boshqarishda xali onalarning roli katta ekanligidan, ularni an'anaviy obro'yi saqlanib qolganligidan dalolat beradi degan fikrni aytadi. Bu fikrda xam tarixiy haqiqat mavjud.

Jahondagi yirik ilmiy-tadqiqot markazlari tomonidan dunyoning turli hududlaridagi tarixiy-madaniy o'lkalarning tarixini o'rganishda yozma manbalar tadqiqi birlamchi o'rinlardan birini egallab kelmoqda. Xususan, mil. avv. II ming yillik oxiri – I ming yillik boshlaridan ilk o'rta asrlargacha bo'lgan davrdagi Baqtriyaning tarixiy joylashuvini o'rganishda Qadimgi Sharq yozma manbalaridagi ma'lumotlar ham muhim o'rin tutadi.

Baqtriyaning tarixiy geografiyasi to'risidagi dastlabki ma'lumotlar "Avesto"da uchraydi. Baqtriya "Videvdat"ning birinchi bobida Axuramazda tomonidan yaratilgan qadimgi 16 o'lka va viloyatlarning nomlari qatorida tilga olingan. Unda Baqtriya "Baxdi" (avestocha Bāxδīm srīram ərəδβō. drafsəm)[1] shaklida yozilib, to'rtinchi mamlakat sifatida tilga olingan: "To'rtinchidan, men, Axuramazda, eng yaxshi mamlakatlar va o'lkalardan bo'lgan, baland bayroqli go'zal Baxdiga asos soldim".[2] Demak, Qadimgi Baqtriya mil. avv. VIII–VI asrlarda qudratli davlatlardan biri bo'lgan.

"Avesto"da mil. avv. I ming yillikning birinchi yarmida Markaziy Osiyoda yashagan xalqlarning faqatgina turmush tarzi, urf-odatlar, huquqiy munosabatlari, tartib-qoidalari, bayramlaridan tashqari mil. avv. I ming yillik birinchi yarmida mavjud bo'lgan tarixiy viloyatlar nomlari, tog'lar va daryolar nomlari haqida ham qimmatli ma'lumotlar beradi.

Ma'lumki, Zardushtiylarning muqaddas kitobi "Avesto"da Vishtaspning Vaxvii-Datii qirg'og'ida ibodat qilganligi haqida ikki marta eslatib o'tiladi ("Yasht"17.49,61). Vaxvi-Arianam Vaydjada bo'lgan. Ko'pchilik tadqiqotchilar bu daryoni, shubhasiz, Amudaryo deb hisoblashadi. Arianam Vaydjaga kelsak, hozirgi O'rta Osiyo, Sharqiy Eron (Xuroson) va Afg'oniston hududlari kiradi degan fikrlar mavjud.[3]

Ahamoniylarning Naqshi Rostam yozuvlarida Midiya va Elamdan so'ng sharqiy viloyatlar nomlari qatorida Baqtriya ham keltirilgan.[4] Doro I Behistun yozuvlarida Ahamoniylar davlatining g'arbiy viloyatlarini ko'rsatib bergan bo'lsa, Naqshi Rostam yozuvlarida mamlakatlar ro'yxati Midiya va Elamdan so'ng sharqiy viloyatlardan boshlanadi. Doro I surati ostiga yozilgan Naqshi Rostam katibasida ahamoniylar sulolasiga tobe' bo'lgan 23 satraplik va xalqlarning ro'yxatida Baqtriya beshinchi o'rinda keltirilgan.[5]

Fransuz va Eron arxeologlari tomonidan 1972 yilda Suza shahrida topilgan Doro I haykalida bitilgan yozuvlarda Baqtriya, Sug'diyona, Xorazm, "balchiq va tuproq o'lkasi saklari" tilga olingan.

Baqtriyaning tarixiy geografiyasi bo'yicha muhim ma'lumotlar beruvchi manbalar turkumiga yunon-rim mualliflarining asarlari ham kiradi. Ular orqali qadimgi Sharq tarixida Baqtriyaning muhim ahamiyat kasb etgan o'lka bo'lganligi, mintaqa siyosiy va iqtisodiy tarixida o'ziga xos o'rin tutganligini anglash mumkin. Jumladan, Gerodot asarida Kirning harbiy yurishlar qilishi shart bo'lgan mamlakatlar Misr va Bobil qatorida Baqtriya hamda saklar ham tilga olinadi. VIII asrdayoq mustaqil davlat bo'lganligi haqidagi ta'rifi mavjud. Knidlik Ktesiyning ma'lumoti Diodor Sitsiliyskiyning "Tarixiy kutubxona" asarida keltirilgan: "Baqtriana o'lkasi, ko'p shaharlarga ega, ularning orasida asosiysi poytaxt shahridir. U Baqtra deb nomlanadi va boshqa shaharlardan o'zining ulug'vorligi va arkining qudratlilik bilan ajralib turardi. Diodorning qoldirgan bu ma'lumoti ham qadimgi davrlarda, ya'ni mil.avv. VIII–VII asrlarda qadimgi Baqtriya davlatining qudratini aks ettiradi. Nin Baqtriyaga ikki marta yurish uyushtiradi. Birinchisida mag'lubiyatga uchraydi. Keyinchalik Ossuriyada o'ziga mustahkam shahar qurgach, alohida tayyorgarlik ko'rib, ikkinchi marta Baqtriyaga yurish qiladi. Bu jarayon ham Diodor asarida quyidagicha ta'riflangan: "Nin o'ziga qaram bo'lgan barcha xalqlardan qo'shin to'pladi. Ktesiyning ko'rsatishicha, bir million yetti yuz ming piyoda askar, ikki yuz ming otliq, o'n ming jang aravalar bilan yurish qildi. Bu misli

ko'rilmagan qo'shin edi". Diodor asarida Baqtriya satrapi Oksiart jang qilishga yaroqli bo'lgan barcha aholisini to'plaganda, ularning soni to'rt yuz mingni tashkil etgan. Nin o'z qo'shini bilan Baqtriyaning ko'pgina shaharlarini bosib olishga muvaffaq bo'ladi, lekin poytaxt shahar Baqtrani egallay olmaydi. Shu paytda Semiramidaning yordami bilan Baqtra shahri egallanadi. Jangda Baqtriya satrapi Oksiart halok bo'ladi. Nin Baqtriyaning juda boy oltin va kumushdan iborat xazinasini qo'lga kiritadi.[6]

Bu voqealar tavsifi ba'zi olimlar tomonidan afsona tarzda qabul qilingan bo'lsa-da, mil. avv. VIII–VII asrlarga oid qadimgi Baqtriya hududida ko'plab qal'alarning izlari topilgan. A.Asqarovning fikricha, Baqtriya tuprog'ida mil. avv. I ming yillikning birinchi yarmiga oida 240 dan ortiq qishloq-qo'rg'onlar, qal'alar va shahar qoldiqlari topib o'rganilgan.[7] Arxeologik tadqiqotlar ham qadimgi Baqtriyaning yirik davlatlardan biri bo'lganligini asoslaydi.

Baqtriya haqidagi ishonchli ma'lumotlarni Makedoniyalik Aleksandr tarixchilari (Ptolemey, Aristobul, Onesikrit, Kallisfen, Xarresslar) va undan keyingi davrda yashagan yunon muarrixlari (Diodor, Strabon, Pompey Trog, Plutarx, Klavdiy Ptolemey, Pliniy, Arrianlar) asarlarida keltirilgan. Arrian "Aleksandrning harbiy yurishlari" asarining 3-qismida Makedoniyalik Aleksandr qo'shiniga qarshi kurashga Bess boshchilik qilganligi qayd etilgan: "Doroga yordam uchun baqtriyaliklarning qo'shnisi hindlar, baqtriyaliklar va sug'dlarning o'zlari keldilar. Ularning hammasiga Baqtriya satrapi Bess boshchilik qilgan".[8] Makedoniyalik Aleksandrning harbiy yurishlari haqidagi to'liq ma'lumotlar rimlik tarixchi Kvint Kursiy Rufning "Buyuk Makedoniyalik Aleksandr tarixi" asarida ham keltirilgan. Masalan, u Baqtriya tarixiy madaniy o'lkasi tabiati haqida shunday yozadi: "Baqtriyaning tabiati boy va turli-tumandir.

Xulosa qilib aytganda, Baqtriya haqidagi dastlabki ma'lumotlar zardushtiylikning muqaddas kitobi "Avesto"da va shu bilan birgalikda qadimgi Ahamoniylar Eroni va antik davr yunon-rim mualliflari asarlarida asosli manbalarda keltirib o'tilgan. Shimoliy Baqtriya hududining o'rganilishi moddiy madaniyati voha aholisining ilmiy tadqiqotlarining asosiy vazifalaridan biridir deb hisoblayman va shu bilan birga qadimgi davrdan shu kungacha tabiiy jihatdan olib borilgan, topilgan moddiy ashyolarning sifatini o'rgandim va bu jarayon davom etmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Умаров И.И. Қадимги Бактрия тарихий манбалар асосида // "Ўтмишга назар", Махсус сон, 2021. – Б. 124.
2. Авеста. "Закон против дэвов" (Видевдат). Адаптированный перевод, исследование и комментарии А.Х. Саидова, Е.В. Абдуллаева. – СПб., 2008. – С. 67.
3. Ходжаева Н. Аррианам–Вайджа по данным «Видевдат». 2009. – С. 9-18.
4. Асқаров А. Ўзбек халқининг келиб чиқиш тарихи. – Тошкент: "Ўзбекистон" НМИУ, 2019. – Б. 100.
5. Мадраимов А., Фузаилова Г. Манбашунослик. Дарслик... – Б. 121.
6. Кузьмина Е.Е. К вопросу о формировании культуры Северной Бактрии ("Бактрийский мираж" и археологическая действительность) // ВДИ. № I. 1972. С. 131-132.
7. Асқаров А. Ўзбек халқининг келиб чиқиш тарихи. – Тошкент: Ўзбекистон, 2019. – Б. 109.
8. Арриан. "Македониялик Александр харбий йуришлари", 3.8.3.

UO'K 930.1

MILLIY HUNARMANDCHILIK SOHALARIDA XOTIN-QIZLAR ISHTIROKI (Jizzax viloyati misolida)

D.B. Tursunova, o'qituvchi, Jizzax davlat pedagogika universiteti, Jizzax

Annotatsiya. Mazkur maqolada hunarmandchilikning turli sohalarida faoliyat yuritayotgan hunarmand xotin-qizlar, mamlakatimizda ularga yaratilayotgan imkoniyatlar, hunarmandchilikning rivojlanishi va ommalashishida hunarmand xotin-qizlarning o'rni, bu borada Jizzax viloyatida amalga oshirilayotgan ishlar, viloyatdagi hunarmand xotin-qizlar faoliyatidagi yutuqlar va muammolar, Jizzax vohasining qadim hunarmandchilik an'alarini yanada rivojlantirish uchun olib borilayotgan islohotlar haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Hunar, hunarmand, hunar turlari, hunarmand xotin-qizlar, Jizzax vohasi hunarmandchilik an'analari, kashtachilik, qurg'oqchilik, badiiy buyumlar yasash, milliy kiyimlar titish, hunarmandchilik markazlari.

Аннотация. В данной статье рассматриваются женщины-ремесленницы, работающие в различных областях ремесел, возможности, созданные для них в нашей стране, роль женщин-ремесленниц в развитии и популяризации ремесел, работа, проводимая в этом направлении в Джизакской области, достижения и проблемы в деятельности женщин-ремесленниц Джизакской области. Рассказывается о реформах, которые можно провести для дальнейшего развития древних ремесленных традиций оазиса.

Ключевые слова: Ремесло, ремесленник, виды ремесел, женщины-мастерицы, ремесленные традиции Джизакского оазиса, вышивка, рукоделие, изготовление предметов искусства, национальная одежда, ремесленные центры.

Abstract. In this article, women artisans working in various fields of handicrafts, the opportunities created for them in our country, the role of artisan women in the development and popularization of handicrafts, the work being carried out in this regard in Jizzakh region, achievements and problems in the activities of women artisans in the region, Jizzakh It talks about the reforms that can be carried out to further develop the ancient handicraft traditions of the oasis.

Key words: Craft, craftsman, types of crafts, women craftswomen, craft traditions of the Jizzakh oasis, embroidery, drywork, making art objects, national clothing, craft centers.

Kirish. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning mazmun-mohiyatida xotin-qizlarni jamiyatning faol a'zosiga aylantirish, ular mashg'ul bo'lgan faoliyat sohalarini rivojlantirish turadi. Bugungi kunda xotin-qizlarimiz eng ko'p band bo'lgan sohalar qatoriga milliy hunarmandchilik yo'nalishlari ham kiradi. Negaki, milliy hunarmandchiligimiz an'analari bilan azaldan momolarimiz shug'ullanib kelishgan. Hozirda ham hunarmand ayollarimiz tomonidan milliy hunarmandchilikning turli namunalari yuksak did va mahorat bilan takomillashtirilib borilmoqda. Bu borada hukumatimiz tomonidan bir qancha farmon va qarorlarning qabul qilinishi sohani yanada rivojlantirmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev tomonidan "Hunarmandchilik faoliyatini qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, "Aholini hunarmandchilikka jalb qilish va hunarmandchilik faoliyatini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonlarining qabul qilinishi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston respublikasi hukumatining ayrim qarorlariga yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan o'zlari ishlab chiqargan mahsulotlar eksportini kengaytirishga yo'naltirilgan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida" gi Qarori va 2019-yilda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Xotin-qizlarni ish bilan ta'minlash, ular o'rtasida tadbirkorlikni rivojlantirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori milliy hunarmandchilikni rivojlantirishning asosini belgilab berdi.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Milliy hunarmandchilik sohalarida xotin-qizlar ishtiroki masalasida etnograflar, tarixchilar, sotsiologlar tadqiqot ishlarini olib borishgan. Tadqiqotchi Murod O'roqovning "Zarafshon vohasi qishloq aholisining xonaki to'qimachilik va chevarchilik hunarlari" mavzusidagi dissertatsiya ishda yurtimizda qadimdan xotin-qizlar keng miqyosda shug'ullanib kelgan, kashtado'zlik, mato to'qish, gilamchilik, milliy liboslar tikish kabi hunarmandchilik sohalarida haqida qiziqarli ma'lumotlar keltirilgan. Tadqiqotchi Nasibaxon Abdullayeva O'zbek kashtachiligining tarixiy-etnografik xususiyatlari borasida ilmiy izlanishlar olib borgan, tadqiqotchilar A. Bobobekov, S. Abduqodirov, F To'xtamishevalar ham milliy hunarmandchilik an'analarni rivojlantirish borasida izlanishlar olib borishgan.

Maqolada tarixiy-qiyosiy, tavsiflash va etnosotsiologik metodlardan foydalanildi.

Natija. Hunarmandchilik ishlab chiqarishning alohida va o'ziga xos bo'lgan tarmog'i sifatida ajralib chiqishi jamiyat tarixi uchun muhim ahamiyatga egadir. [1. 17-b.]. Hunarmandchilikni o'rganishdagi yondashuvlarga ko'ra, hunarmandchilik, uy hunarmandchiligi va hunarmandchilik ishlab chiqarishi tushunchalari bir xil ma'noga ega bo'lib, davlat, jamiyat va shaharning iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va madaniy muhitda o'ziga xos ko'rinishlarda namoyon bo'ladi. [2. 31-b.]

An'anaviy hunarmandchilik eng ko'p hunarmandchilikning qadimiy turi bo'lib, asosan uy ishlab chiqarishga ixtisoslashgan idishlar, asboblar. Bu hunarmandlar aholining kundalik ehtiyojlarini qondiradi. Milliy an'ana va ijodga asoslangan badiiy hunarmandchilik, estetik mezonlarga va

funksional ehtiyojlarga javob beradigan, yuqori malakali mehnatdan foydalangan holda — buning natijasi san'at asari darajasidagi mahsulotdir. [3. 1687-b.]

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi "Hunarmand" uyushmasi a'zolarining 46 foizini xotin-qizlar tashkil etadi. Qayd etilishicha, o'tgan yilda hunarmandchilikni rivojlantirish dasturi doirasida 91 534 ta yangi ish o'rni yaratilgan. Ularning 17 565 nafari usta hunarmand, 73 969 nafari shogirdlar hissasiga to'g'ri keladi. Ularning 68 foizi ayollar hisobiga, 44 foizi esa yoshlar hissasiga to'g'ri keldi. So'nggi yillarda O'zbekistonda hunarmandchilik jadal rivojlanib bormoqda. Jahon hunarmandlar kengashi prezidenti Rozi Grinliz bunga alohida urg'u berib o'tdi. «O'zbekistonda bo'lganimizda hunarmandchilik rivojiga guvoh bo'ldik. Bu bizni xursand qilmay qolmaydi. O'zbekistonda o'tgan kunlarimiz yoddan chiqmaydigan bo'ldi», — deya ta'kidlab o'tdi Rozi Grinliz.

Buning natijasida Respublika "Hunarmand" uyushmasi tomonidan xotin-qizlar hunarmandchiligini rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar natijasida uyushmada 2018 yilga qadar faoliyat yuritayotgan a'zolar soni 9 823 nafarni (shundan ayollar soni 4 616nafarni) tashkil etgan bo'lsa, bugungi kunda ajratilgan kreditlar, subsidiyalar va usta-shogird maktablarining tashkil topishi hisobiga sohada band bo'lgan hunarmandlar soni 103 ming nafar (shundan ayollar 47ming nafar)ni, shogirdlar soni 300mingnafar (shundan ayollar 153ming nafar)ni tashkil etdi.[4.]

Hunarmandchilik bilan shug'ullanuvchi xotin-qizlar o'z faoliyatlarini tadbirkorlik asosida ham tashkil etmoqdalar. "Har bir oila – tadbirkor" dasturi doirasida 126 mingga yaqin ayollarga imtiyozli kreditlar berildi. Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun qariyb 215 ming oilaga 6 trillion so'mdan ziyod kredit mablag'lari ajratildi. Qariyb 55 ming nafar xotin-qizlar tadbirkorlik va kasb-hunar markazlari tomonidan o'qitildi, hunarmandchilik va kasanachilikka jalb etildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev tomonidan qabul qilingan Besh muhim tashabbus doirasida chekka hududlarda tikuvchilik sexlari tashkil etilib, 10 ming nafar ayollar bandligi ta'minlandi.

Muhokama. Milliy hunarmandchilik zamonlar osha go'zallik, tarix, g'urur va o'zlikni anglash, ulkan meros va jamiyat an'analari manbai sifatida xizmat qilib kelmoqda. Qishloq ayollari va ularning oilalari nafaqat xo'jalik daromadlariga hissa qo'shish bilan birga mahalliy, milliy va mintaqaviy tarix va madaniy meros posbonlari sifatida ajralib turadi. Ular azaliy an'analar, jumladan, gilamdo'zlik to'qimachilik, kashtachilik, ipakchilik, yog'och o'ymakorligi, temirchilik, kulolchilik, zargarlik buyumlari kabi va boshqa murakkab hunarmandchilik san'atlari sohibalaridir. Hunarmandchilik ishlab chiqarishida ayollar hozir ham faol. Aynan an'anaviy hunarmandchilik borligi uchun ham globallashuv jarayonida ham zamonaviy madaniyatda o'ziga xoslik saqlanib kelmoqda.

Jizzax vohasi aholisi orasida to'qimachilik va ipakchilik kasbi qadimgi hunar turi sifatida keng tarqalgan. Jumladan, XX asr boshlarida dehqon xo'jaliklarida ayollar jundan va paxta tolasidan ip yigirib, gilam va gazlamalar to'qishgan. Vohada gilam to'qishda ikki xil xomashyo –paxta va jundan foydalanganlar. Paxtadan gilam to'qish vohaning dehqonchilik bilan shug'ullanadigan hududlarida yashovchi aholi orasida mavjud bo'lsa, bundan farqli o'laroq, jundan gilam to'qish chorvachilik rivojlangan hududlar aholisi hayotida muhim o'rin tutgan.[5. 224-b.]

Jizzax viloyatida aholi soni 1 million 410 ming nafarni tashkil etadi. Shundan 700 ming nafardan ziyodi xotin-qizlardir. Viloyat bo'yicha 2021 yil boshida xotin-qizlarning 15 ming 431 nafari ishsiz bo'lgan. Amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida yil yakunida 14 ming 677 nafar ayollar ish bilan ta'minlandi.

Xulosa. Milliy hunarmandchilik sohalarida xotin-qizlar ishtirokini yanada rivojlantirish asosida ularning bandligi ta'minlanadi, milliy va tarixiy an'analарimiz rivojlanadi. Ular tomonidan ishlab-chiqarilayotgan buyumlar turli xalqaro tanlovlarda xalqimiz madaniyatini yuksaltiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Mirziyoyev Sh. Hunarmandchilikning paydo bo'lishi – sivilizatsiya sari tashlangan eng muhim tarixiy qadam. Qo'qon shahrida I Xalqaro hunarmandchilik festivalining tantanali ochilish marosimida so'zlagan nutqi. <https://president.uz/oz/lists/view/2862>

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Hunarmandchilik faoliyatini qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori. <https://lex.uz/docs/-5807559>

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Aholini hunarmandchilikka jalb qilish va hunarmandchilik faoliyatini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni <https://lex.uz/docs/-6490321>

4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi hukumatiining ayrim qarorlariga yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan o'zlari ishlab chiqargan mahsulotlar eksportini kengaytirishga yo'naltirilgan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida" gi Qarori. <https://lex.uz/docs/-3184872>

5. 2019-yilda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Xotin-qizlarni ish bilan ta'minlash, ular o'rtasida tadbirkorlikni rivojlantirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi Qarori qabul qilindi. lex.uz/docs/-4601876

6. M. Pardayev, F. Toshboyev Usturshonsning qadimgi davr davlatchilik tarixi. T., 2020-y. 17-b.

7. Давлатова С. Ўзбек анъанавий хунармандчилиги тарихий жараёнлар контекстида (Ўзбекистоннинг жанубий худудлари мисолида) Т. "YANGI NASHR" 2018. 31-b.

8. Mamatova B. Hunarmandchilik tadbirkorligini rivojlantirish mexanizmini takomillashtirish. Science Research. ISSN:2181-4570.1687-b.

9. <https://handicraftman.uz/xotin-qizlarning-milliy-hunarmandchilikka-qiziqishi-ortmoqda>

UO'K 94(430)"1910 / 1920":325.2(47)+159.922.4

XX ASR BOSHLARIDA GERMANIYADAGI O'ZBEK MUHOJIRLARINING KASBIY FAOLIYATLARI TARIXIDAN

Sh.Sh.Xamraqulova, dots., Samarqand davlat universiteti, Samarqand

Sh.M.Temirov, magistrant, Samarqand davlat universiteti, Samarqand

Annotatsiya. XX-asrning boshida Germaniya yangi imkoniyatlar va yaxshiroq hayot izlab, dunyoning turli burchaklaridan kelgan muhojirlarning sezilarli oqimiga guvoh bo'ldi. Bu muhojirlar orasida O'zbekistondan, Markaziy Osiyo davlatidan bo'lgan shaxslar ham bor edi. Ushbu maqola o'zbek muhojirlarining Germaniyada shu davrda egallagan kasblari va rollarini o'rganish, ularning nemis jamiyati va iqtisodiyotiga qo'shgan hissalarini yoritishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: O'zbek muhojirlari, Germaniya, migratsiya, madaniy almashinuv, integratsiya, iqtisodiy omillar, mehnat migratsiyasi, til to'siqlari, madaniy farqlar, jamoat tashkilotlari, qo'llab-quvvatlash tarmoqlari, hissalar, tadbirkorlik, madaniyatni saqlash, ikki tomonlama o'zlik, kelajak istiqbollari.

Аннотация. На рубеже 20-го века Германия стала свидетелем значительного притока иммигрантов из разных уголков мира, ищущих новые возможности и лучшую жизнь. Среди этих мигрантов были выходцы из Узбекистана, страны в Центральной Азии. Целью данной статьи является изучение занятий и ролей узбекских иммигрантов в Германии в этот период, проливая свет на их вклад в немецкое общество и экономику.

Ключевые слова: Узбекские иммигранты, Германия, миграция, культурный обмен, интеграция, экономические факторы, трудовая миграция, языковые барьеры, культурные различия, общественные организации, сети поддержки, вклад, предпринимательство, сохранение культуры, двойная идентичность, перспективы на будущее.

Abstract. At the turn of the 20th century, Germany witnessed a significant influx of immigrants from various parts of the world, seeking new opportunities and a better life. Among these migrants were individuals from Uzbekistan, a country in Central Asia. This article aims to explore the occupations and roles undertaken by Uzbek immigrants in Germany during this period, shedding light on their contributions to the German society and economy.

Key words: Uzbek immigrants, Germany, migration, cultural exchange, integration, economic factors, labor migration, language barriers, cultural differences, community organizations, support networks, contributions, entrepreneurship, cultural preservation, dual identity, future prospects.

Kirish. Germaniyaga XX asrning boshlarida dunyoning turli burchaklaridan immigratsiya to'liqini sezilarli darajada yuqori bo'ldi. Chunki yuzaga kelgan murakkab vaziyat sabab insonlar yangi imkoniyatlar va yaxshiroq hayotga intilishadi. Ular orasida Markaziy Osiyo, xususan hozirgi O'zbekiston hududidan immigratsiya qilgan muhojirlar ham bor edi. Ushbu maqolada o'zbek muhojirlarining Germaniyada o'sha davrda egallagan kasblari va kundalik yumushlari o'rganilib, ularning nemis jamiyati va iqtisodiyotiga qo'shgan hissasi yoritiladi.

Sanoatlashtirish, texnologik yutuqlar va mehnat bozorining kengayishi bilan mashhur bo'lgan Germaniya turli millatdagi muhojirlarni o'ziga jalb qilgan. O'zbekistonlik muhojirlar Germaniyaga

ish topish, iqtisodiy barqarorlik va o'z sharoitlarini yaxshilash imkoniyatini izlab borgan. Shu nuqtai nazardan, ular shug'ullangan kasblar va ularning Germaniyaga va o'z hayotlariga ta'sirini o'rganish juda muhim masaladir.

XX asrning boshlarida o'zbek muhojirlarining kasblarini o'rganish bizga mehnat migratsiyasi dinamikasi va turli jamoalarning nemis jamiyatiga integratsiyalashuvi haqida tushunchaga ega bo'lish imkonini beradi. Shuningdek, ular o'zlari bilan birga olib kelgan turli kasbiy ko'nikma-yu malakalar, shu bilan birga yangi muhitga moslashishda duch kelgan qiyinchiliklarga e'tibor qaratiladi. Turli kasblarni o'rganar ekanmiz, biz o'zbek muhojirlarining Germaniya iqtisodiyoti va jamiyatini shakllantirishda o'ynagan qimmatli ma'lumotlarni ko'rishimiz mumkin. Ularning mehnati va tajribasi Germaniyaning sanoat tarmoqlari, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi va sanoatiga hissa qo'shdi. Bundan tashqari, ularning tadbirkorlik harakatlari va madaniy hissalarini nemis jamiyatining tuzilishini boyitib, madaniyatlararo almashinuv va tushunishni kuchaytirdi.

Ushbu maqola o'zbek muhojirlarining Germaniyada XX asr boshlarida amalga oshirgan muayyan kasblarini yoritishga qaratilgan. Ularning sanoat tarmoqlarida ishchilar, qishloq xo'jaligi ishchilari, malakali savdogarlar, tadbirkorlar va madaniy hissalar sifatidagi rollarini o'rganish orqali biz ularning ta'sirini va chuqurroq tushunishimiz mumkin.

Ushbu izlanish orqali biz Germaniyada yangi hayot izlagan o'zbek muhojirlarining chidamliligi, moslashuvchanligi va qat'iyatini tahsinga sazovorligini ko'rishimiz mumkin. Ularning o'sha davrdagi nemis jamiyatiga qo'shgan hissalarini e'tirof va qadrlashga loyiqdir. Chunki ular o'z vatanlari va o'z jamoasining ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy rivojlanishida ajralmas rol o'ynagan.

XX asr boshlarida Germaniyadagi o'zbek muhojirlarining asosiy qismi mamlakatning jadal rivojlanayotgan sanoat tarmoqlarida ishchilar bo'lishadi. Germaniyada sanoat inqilobi avjiga chiqqan bir paytda o'zbek muhojirlari o'zlariga fabrikalardan, konlardan va qurilish maydonlaridan ish topdi. Ular ishlab chiqarish jarayonlari, qurilish loyihalari va tog'-kon ishlari uchun zarur bo'lgan ishchi kuchi bo'lish orqali jadal sanoatlashtirishga o'z hissalarini qo'shdilar. Ularning mehnatsevarligi va jismoniy mashaqqatli ishlarni bajarishga tayyorligi o'sha davrning ortib borayotgan mehnat talablarini qondirishga yordam berdi.

Bu davrda o'zbeklarning Germaniyaga ko'chib kelishi asosan paxta sanoati bilan bog'liq. Germaniyaning, xususan Saksoniya va Vestfaliya kabi mintaqalarda rivojlanayotgan to'qimachilik fabrikalari arzon va malakali ishchi kuchining doimiy ravishda ta'minlanishini talab qildi. O'z vatanlarida paxta yetishtirish va to'qimachilik sohasida o'z tajribasi bilan tanilgan o'zbeklar bu yerda ishchi kuchi manbasiga aylandi.

Biroq, ularning tajribasi haqiqatdan yiroq edi. O'zbek muhojirlari Germaniya ishchi kuchi ichida "xorijiy" sifatida noto'g'ri qarash va diskriminatsiyaga duch kelishadi. Ular ko'pincha ijtimoiy-iqtisodiy zinapoyaning eng quyi pog'onasini egallab, qo'l mehnatiga asoslangan og'ir mehnat sharoitlariga duchor bo'lishgan. Ko'pchilik oddiy qulayliklarga ega bo'lmagan tor va antisaniitariya sharoitlariga ega bo'lgan turar-joylarda bo'lsa-da, qiyinchiliklarga qaramay, Germaniyadagi o'zbeklar chidam bilan yangi muhitning murakkabliklariga moslashishdi.

O'zbek muhojirlarining yana bir muhim kasbi qishloq xo'jaligida mehnat qilish edi. Qishloq xo'jaligi ekinlarni parvarish qilish, o'rim-yig'im va fermer xo'jaliklarini saqlash kabi vazifalar uchun Germaniya katta ishchi kuchiga muhtoj edi. O'zbek muhojirlari bu vazifani sadoqat bilan bajarib, mamlakat bo'ylab dalalar, bog'lar va uzumzorlarda ishlagan. Ularning mehnati qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini ta'minlash va Germaniyaning oziq-ovqat ta'minotini qo'llab-quvvatlashda muhim ahamiyatga ega edi. Qishloq xo'jaligi ishlarining qiyin sharoitiga qaramay, o'zbek muhojirlari o'z davrining qishloq xo'jaligi ehtiyojlarini qondirishda o'zlarining chidamlilik va fidoyiliklarini namoyish etadilar.

O'zbek muhojirlari o'zlari bilan turli hunarlar bo'yicha qimmatli ko'nikmalar va tajribalarni olib kelishgan. Ularning ko'pchiligi duradgor, temirchi, tikuvchi, malakali hunarmand kabi ish topdi. Ularning hunarmandchiligi va detallarga e'tiborliligi Germaniya savdo sanoatining rivojlanishiga yordam berdi. O'zbekistonlik muhojirlar o'z mahoratlarini namoyish etish va yangi texnikani joriy etish orqali nemis mahsulotlari sifatini oshirishda katta rol o'ynadi. Ularning mehnati ayniqsa,

yog'ochga ishlov berish, metallga ishlov berish va to'qimachilik ishlab chiqarish kabi sohalarda qimmatli edi.

O'zbekistonlik muhojirlarning salmoqli qismi Germaniyada kichik biznes tashkil etib, tadbirkorlik bilan shug'ullangan. Ular oziq-ovqat do'konlari, restoranlar, kafelar va ixtisoslashtirilgan do'konlar ochdilar. Ular ham muhojirlar jamoasiga, ham mahalliy aholiga xizmat ko'rsatdilar. O'zbekistonlik muhojirlar o'zlarining tadbirkorlik yo'li bilan Germaniyaga nafaqat tovarlar va xizmatlar yetkazib berishdi, balki o'zbek madaniyati va oshxonasi elementlarini ham olib borishdi. Ularning bizneslari madaniy markazlar va uchrashuv joylariga aylandi, madaniyatlararo almashinuvni rivojlantirdi va oshxona va savdo landshaftini boyitdi.

Germaniyadagi o'zbek muhojirlari ham madaniy-ma'rifiy sohaga katta hissa qo'shgan. Ba'zi odamlar o'zlarining tili, adabiyoti va an'alarini nemis talabalari bilan baham ko'rgan holda o'qituvchi bo'lishgan. Ular o'zbek va nemis hamjamiyatlari o'rtasida madaniy jihatdan o'zaro tushunish va qadrlashni rivojlantirishda hal qiluvchi rol o'ynadi. Bundan tashqari, o'zbek muhojirlari o'zlarining boy merosi va an'alarini namoyish etuvchi madaniy tadbirlar, festivallar va ko'rgazmalar tashkil etishadi. Madaniy va ma'rifiy hissalarini orqali ular o'z vatanlari va o'zlari qabul qilgan yangi jamiyat o'rtasidagi tafovutni bartaraf etishga yordam berdilar.

Taniqli tarixchi va adabiyotshunos olim Sherhali Turdiyev o'zining "Ular Germaniyada o'qigan edilar" nomli asarida Turkistonning Buxoro, Xorazm, Toshkent va boshqa viloyatlaridan Germaniyaga ta'lim olish uchun borgan talabalarning aksariyati tibbiyot, savdo, texnika ilmlarini o'rganganliklarini alohida urg'u beradi. Biroq, biroq vaqt o'tgach ushbu talabalar o'qishini bitirar-bitirmas SSSR hukumati tomonidan majburan o'z yurtlariga qaytarilishi, ammo ortlariga qaytmay Germaniyada qolganlari esa o'zlari ta'lim olgan dorilfununda faoliyat olib borishi, hatto fan doktori, professor darajasigacha bo'lgan darajalargacha chiqishi ushbu asarda batafsil ma'lumot beriladi. Asarda ta'kidlangan aksariyat olimlar keyingi faoliyatlarini Turkiyadagi Universitetlarda olib borishgan. Universitetni bitirgan ayrim yoshlar esa turli xil ishlab chiqarish korxonalarida faoliyat olib borishdi.

Xulosa. XX asr boshlarida o'zbek muhojirlarining Germaniyadagi faoliyati ularning o'z vatanlari va o'z jamiyatlarining ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy tuzilishiga qo'shgan salmoqli hissasini aks ettiradi. Sanoat sohalari ishchilari, qishloq xo'jaligi ishchilari, malakali savdogarlar, tadbirkorlar va madaniy hissalar sifatida o'zbek muhojirlari tez o'zgarishlar davrida Germaniyani rivojlanishida ajralmas rol o'ynadi.

Bu muhojirlar Germaniya sanoat inqilobining asosini tashkil qilib, zavodlar, konlar va qurilish maydonchalari uchun zarur bo'lgan ishchi kuchi bilan ta'minlangan. Ularning fidoyiligi va mashaqqatli mehnati mamlakatni sanoatlashtirish va iqtisodiy yuksaltirishga xizmat qiladi. Bundan tashqari, ular qishloq xo'jaligi ishchilari sifatida qishloq xo'jaligini qo'llab-quvvatlab, xalqni barqaror oziq-ovqat bilan ta'minladilar. O'zbekistonlik muhojirlar ham Germaniya bo'ylab kichik biznesni yo'lga qo'yib, tadbirkorlik ruhini namoyish etdi. Germaniyadagi o'zbek muhojirlarining kasblarini tan olish va qadrlash orqali biz muhojirlar jamoalarining tarix davomida qo'shgan turli hissalarini chuqurroq tushunamiz. Ularning merosi xilma-xillikni qabul qilish, inklyuzivlikni rivojlantirish va immigrantlarning millatlar va jamiyatlarni shakllantirishdagi bebaho rolini tan olish muhimligidan dalolat beradi.

XX asr boshlarida Germaniyadagi o'zbek muhojirlarining hikoyasi o'z vatanlarini tark etib, yangi imkoniyatlar izlab ketayotgan shaxslarning kuchi va chidamliligini eslatib turadi. Ularning hissalarini doimiy ta'sir qoldirdi va bugungi kunda Germaniyaning ko'p madaniyatli tuzilishiga hissa qo'shib, rivojlanishda davom etmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Friesendorf, C. (2018). Migration from Central Asia to Europe and the Eurasian Economic Union: A Comparative Perspective on Uzbek and Kyrgyz Migrants in Moscow and Bishkek. *Central Asian Survey*, 37(2), 247-264.
2. Kornelyuk, A. (2019). Inter-marriage and Identity among Uzbek Migrants in Germany. In M. Laruelle (Ed.), *Migration and Identity in a Post-National World* (pp. 153-172). Edinburgh University Press.
3. Yuldasheva, N., & Tadjibaeva, M. (2017). Uzbek Immigrants in Germany: A Case Study of Uzbek Students in Germany. *Turkish Journal of International Relations*, 16(2), 151-170.
4. Bade, K. J., Emmer, P. C., Lucassen, L., & Oltmer, J. (Eds.). (2011). *The Encyclopedia of Migration and Minorities in Europe: From the 17th Century to the Present*. Cambridge University Press.

5. Schwenken, H., & Kornelyuk, A. (2013). Uzbek Migration in Germany: Between Global Labor and Transnational Networks. ZOIS Working Papers, No. 6/2013.

6. Sh. Turdiyev. "Ular Germaniyada o'qigan edilar". Toshkent-2006

UO'K:796.01:034

JISMONIY TARBIYA VA SPORT SOHASIDA AYOLLAR O'RTASIDA OMMAVIY SPORTNI RIVOJLANTIRISH

*N.A. Xudayberdiyeva, bo'lim boshlig'i, O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti,
Toshkent*

Annotatsiya. Ushbu maqolada jismoniy tarbiya va sport sohasida ayollar o'rtasida ommaviy sportning rivojlanishi ko'rib chiqiladi. U mavjud adabiyotlarni tahlil qiladi, ayollar o'rtasida ommaviy sport ishtirokini targ'ib qilish usullarini o'rganadi, tadqiqotlar natijalarini taqdim etadi va ommaviy sportning ayollarning imkoniyatlarini kengaytirishga ta'sirini muhokama qiladi. Maqola ayollarning ommaviy sport dasturlarida ishtirokini kuchaytirish bo'yicha takliflar bilan yakunlanadi.

Kalit so'zlar: Ayollar, ommaviy sport, jismoniy tarbiya, imkoniyatlarni kengaytirish, ishtirok etish, gender tengligi.

Аннотация. В данной статье рассматривается развитие массового спорта среди женщин в сфере физического воспитания спорта. В ней анализируется существующая литература, рассматриваются способы пропаганды участия женщин в массовом спорте, представляют результаты исследований и обсуждается влияние массового спорта на расширение прав и возможностей женщин. Статья завершается предложениями по увеличению участия женщин в массовых спортивных программах.

Ключевые слова: Женщины, массовый спорт, физическое воспитание, расширение возможностей, участие, гендерное равенство.

Abstract. This article explores the development of mass sports among women in the field of physical education and sports. It analyzes existing literature, investigates methods of encouraging participation in mass sports among women, presents research findings, and discusses the impact of mass sports on expanding women's opportunities. The article concludes with proposals to enhance women's participation in mass sports programs.

Key words: Women, mass sports, physical education, expanding opportunities, participation, gender equality.

Kirish. O'zbek xalqi asrlar davomida ezgulikni o'zida aks ettirgan qadimiy va boy milliy madaniyati bilan jahon sivilizasiyasiga ulkan hissa qo'shgan buyuk xalqlardan biridir. Mustaqil Respublikamizni jahonga tanitishda sportning ahamiyati katta bo'lmoqda. Hozirgi kunda milliy o'yinlar, kurash, uloq shu bilan bir qatorda xalqaro sport turlari — tennis, boks, futbolning dunyo xalqlari o'rtasida o'zbeklarning obro'sini oshirishga xizmat qilayotganligining guvohimiz. Qadriyatlarini e'zozlash, qadimiy urf-odatlarini shakllantirish, e'tiqodlarni mustahkamlash, avloddan-avlodga o'tib kelayotgan madaniy merosimizni kelajak avlodga yetkazish va yoshlar ongiga milliy xalq o'yinlarining mazmun-mohiyatini chuqur singdirish bugungi dolzarb masaladir.

Jamiyatimizda sog'lom turmush tarzini shakllantirish, aholining, ayniqsa yosh avlodning jismoniy tarbiya va ommaviy sport bilan muntazam shug'ullanishi uchun zamon talablariga mos shart-sharoitlar yaratish, sport musobaqalari orqali yoshlarda o'z irodasi, kuchi va imkoniyatlariga bo'lgan ishonchni mustahkamlash, mardlik va vatanparvarlik, ona Vatanga sadoqat tuyg'ularini kamol toptirish, shuningdek, yoshlar orasidan iqtidorli sportchilarni saralab olish ishlarini tizimli tashkillashtirish hamda jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirishga yo'naltirilgan keng ko'lamlil ishlar amalga oshirilmoqda[1].

O'tgan yillar davomida ayollarning sport bilan shug'ullanishi sezilarli darajada rivojlanib bordi, ammo nomutanosibliklar, ayniqsa ommaviy sportda davom etmoqda. Ommaviy sport, keng jamoatchilik uchun ochiq bo'lgan faoliyatni o'z ichiga olgan holda, inklyuziv ishtirok etish, jismoniy salomatlik, ijtimoiy o'zaro ta'sir va shaxsiy imkoniyatlarni kengaytirish uchun platformani taklif etadi. Jismoniy tarbiya va sport sohasida ayollar o'rtasida ommaviy sportning rivojlanishini tushunish

gender tengligini ta'minlash va sport bilan shug'ullanish orqali ayollarning imkoniyatlarini kengaytirish uchun juda muhimdir.

Adabiyotlar tahlili. Mavjud adabiyotlar jismoniy va ruhiy farovonlik uchun foydasini tan olish bilan bog'liq holda ayollar o'rtasida ommaviy sportni rivojlantirishga qiziqish ortib borayotganini ko'rsatmoqda. Tadqiqotlar ayollarning ishtirokiga to'sqinlik qiladigan turli xil to'siqlarni, shu jumladan ijtimoiy-madaniy me'yorlarni, resurslardan foydalanishning etishmasligini va gender stereotiplarini ta'kidlaydi. Ushbu to'siqlarni bartaraf etish va ayollarning ommaviy sportga jalb qilinishini rag'batlantirish uchun maqsadli marketing kampaniyalari, jamoatchilikni targ'ib qilish dasturlari va jinsga sezgir siyosat kabi strategiyalar taklif qilingan.

Usullar. Ayollar o'rtasida ommaviy sportni rivojlantirishni o'rganishda qo'llaniladigan tadqiqot metodologiyalari sifat va miqdoriy yondashuvlarni o'z ichiga oladi. So'rovlar, intervyular, fokus-gruhlar va kuzatuv tadqiqotlari odatda ishtirok etish darajasini baholash, to'siqlarni aniqlash va ayollarning ommaviy sport bilan shug'ullanishiga ta'sir qiluvchi omillarni o'rganish uchun ishlatiladi. Bo'ylama tadqiqotlar vaqt o'tishi bilan ayollarning ishtirokini oshirishga qaratilgan tadbirlarning samaradorligi to'g'risida tushuncha beradi.

Natijalar. Yangi O'zbekistonda xotin-qizlarga jismoniy tarbiya va sport sohalarini rivojlantirish uchun prezidentimiz tomonidan ko'plab qaror va farmonlar qabul qilindi. Buning natijasida ko'plab xotin va qizlar sportning turli sohalarida muntazam shug'ullanib kelishmoqda. Prezidentimizning "Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash, ularning jamiyat hayotidagi faol ishtirokini ta'minlash tizimi yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2021 yil 5-martdagi PQ son qaroriga muvofiq:

Xotin-qizlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, sog'liqni saqlash, ayollar sportini rivojlantirish, mehnat va o'qish sharoitlarini yaxshilash bilan bog'liq tadbirlarini moliyalashtirishga ko'maklashish;

2022-2026 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining "Taraqqiyot strategiyasi" da adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish "Jismoniy tarbiya va sport" bilan muntazam shug'ullanadigan fuqarolarning sonini oshirish;

Jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug'ullanadigan aholi sonini 2026- yilda 33 foizga chiqarish;

Respublika yoshlari o'rtasida milliy sport turlarini ommalashtirish; O'zbekiston sportining ommaviyligini oshirish maqsadida milliy sport turlari va xalq o'yinlarini rivojlantirish;

Barpo etiladigan har bir "Yashil hudud"da yugurish, velosipedda harakatlanish uchun "Salomatlik yo'lkalari" xamda badminton, stritbol va vorkaut maydonchalarini tashkil etish; Vazirlik, idora hamda tashkilotlar xodimlarini va aholini sport tadbirlariga jalb qilish, ular o'rtasida musobaqalar tashkil qilish; Milliy olimpiada sport o'yinlarini o'tkazish dasturini ishlab chiqish va amalga oshirish; Sport o'yinlari o'tkaziladigan sport obyektlari infratuzilmasini yaxshilash va zarur sport inventarlari bilan jihozlash; Milliy olimpiada o'yinlarini yuqori darajada tashkil etish hamda g'olib va sovrindorlarni munosib rag'batlantirish;

O'zbekiston Respublikasining "ayollar va erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi Qonunida ayollar va erkaklar tengligini ta'minlash maqsadlariga erishishda gender tengsizligini bartaraf etish maqsadida davlat organlari tomonidan ko'riladigan "gender siyosatini amalga oshirishni ta'minlash bo'yicha maxsus chora-tadbirlar"ni ko'rsatadi, buning natijasida ayollar va erkaklarning huquqlari va erkinliklari, shuningdek, ayollarning qonuniy manfaatlari yanada katta qadriyat kasb eta boshlaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev BMT Inson huquqlari kengashining 46-sessiyasida so'zlagan nutqida gender siyosati masalalarida biz ayollarning davlat, siyosiy va ishbiarmonlik hayotidagi rolini tubdan oshirish niyatida ekanimizni ta'kidlaydi. Bu, albatta, tegishli faoliyat sohasida ayollar va erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlar tamoyillariga rioya etilishini ta'minlaydi.

Shuni ham ta'kidlash kerakki, O'zbekistonda ayollar mehnat faoliyati ko'plab davlat sektorlarida, jumladan, ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat va san'at va boshqalarda keng namoyon bo'lmoqda. Binobarin, O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan o'zgarishlar tizimida

ayollarning mehnat bozorida faol ishtirokini ta'minlash ayollarga yuksak hurmat-ehtirom muhim ta'sir ko'rsatadi.

Vazirlar Mahkamasining "O'zbekistonda sog'lom turmush tarzini keng targ'ib etish va aholini jismoniy tarbiya va ommaviy sportga jalb etish to'g'risida"gi qaroriga muvofiq O'zbekiston Respublikasida ayollar sportini izchil rivojlantirishga jiddiy e'tibor qaratilmoqda.

2019-2023-yillarda O'zbekistonda jismoniy tarbiya va ommaviy sportni rivojlantirish konsepsiyasi tasdiqlandi. Shu bilan birga, 2018-yil oktyabr oyidan boshlab sport bilan shug'ullanish tizimi yaratilganini alohida ta'kidlash lozim.

Unda "Yoshlar haftaligi", "Ayollar haftaligi", "Qo'shnilar va keksalar haftaligi" va boshqa maqsadlar yoritilgan bo'lib, ular doirasida Respublika bo'ylab 6000 dan ortiq ommaviy sport tadbirlari o'tkazilgan va ularda yarim milliondan ortiq kishi ishtirok etgan.

Jismoniy tarbiya va sport sohasida ayollar o'rtasida ommaviy sportning rivojlanishi yillar davomida jamiyatdagi o'zgarishlar, jismoniy faoliyatning afzalliklari to'g'risida xabardorlikni oshirish va maqsadli tashabbuslar kabi turli omillar ta'sirida sezilarli yutuqlarga erishdi.

• Ijtimoiy munosabatlarning o'zgarishi: ayollarning sport bilan shug'ullanishiga nisbatan ijtimoiy munosabatlarda o'zgarishlar yuz berdi. Tarixiy jihatdan ayollar ko'pincha madaniy me'yorlar yoki ayollik haqidagi e'tiqodlar tufayli sport bilan shug'ullanishdan tushkunlikka tushishgan. Biroq, gender me'yorlari rivojlanib borishi bilan ayollarni jismoniy mashqlar va sport bilan shug'ullanish uchun ko'proq qabul qilish va rag'batlantirish mavjud.

Ayollarning sport bilan shug'ullanishiga ijtimoiy munosabatlarning o'zgarishi haqiqatan ham sezilarli va hayotiy ahamiyatga ega. Ko'pgina madaniyatlarda ayollarning sport bilan shug'ullanishdan tushkunlikka tushishining uzoq tarixi bor, ko'pincha ayollik haqidagi eskirgan e'tiqodlar yoki ularning jismoniy imkoniyatlari haqida xavotirlar tufayli. Biroq, bizning gender tengligi haqidagi tushunchamiz rivojlanib borgan sari, ayollarning sportga jalb etilishi muhimligini ham anglaymiz.

Bugungi kunda sportning jismoniy salomatlik va umumiy farovonlik nuqtai nazaridan ayollarga beradigan ko'plab afzalliklari tobora ortib bormoqda. Sport bilan shug'ullanish ishonchni kuchaytiradi, jamoaviy ish va yetakchilik qobiliyatlarini rivojlantiradi va sog'lom turmush tarzini targ'ib qiladi. Bundan tashqari, bu ayollarga shaxsiy o'sish va yutuqlar, qiyin stereotiplar va to'siqlarni buzish uchun imkoniyatlar yaratadi.

Sportning barcha jabhalarida, boshlang'ich dasturlardan tortib professional ligalargacha ayollar uchun inklyuzivlik va teng imkoniyatlarni targ'ib qilish orqali ushbu tezlikni davom ettirish juda muhimdir. Shunday qilib, biz ayollarning sportda va undan tashqarida rivojlanishi uchun yanada adolatli va mustahkam muhit yaratishimiz mumkin.

• Sog'liq uchun foydalar to'g'risida xabardorlikni oshirish: faol turmush tarzini olib borish muhimligi to'g'risida xabardorlikni oshirish bilan ko'proq ayollar muntazam jismoniy faoliyat bilan bog'liq ko'plab sog'liq uchun foydalarni tan olishmoqda. Ushbu xabardorlik barcha yoshdagi ayollar o'rtasida sport va fitnes mashg'ulotlariga katta qiziqish uyg'otdi.

• Gender tengligi sohasidagi yutuqlar: sportda gender tengligini rivojlantirishga qaratilgan sa'y-harakatlar ayollar o'rtasida ommaviy sportni rivojlantirishga yordam berdi. Ayol sportchilarni teng imkoniyatlar, resurslar va qo'llab-quvvatlashga qaratilgan tashabbuslar o'yin maydonini tenglashtirishga va ko'proq ishtirok etishni rag'batlantirishga yordam berdi.

• Rol modellari va ommaviy axborot vositalarining namoyishi: muvaffaqiyatli ayol sportchilarning namuna sifatida ko'rinishi va ayollar sportining ommaviy axborot vositalarida yoritilishi boshqa ayollar va qizlarni sport bilan shug'ullanishga ilhomlantirishda hal qiluvchi rol o'ynadi. Ayollar ularga o'xshagan boshqalarni sportda ustunligini ko'rsalar, bu ularni ishtirok etishga va o'z sport maqsadlariga erishishga undashi mumkin.

• Davlat va tashkiliy yordam: hukumatlar va sport tashkilotlari ayollarning sport bilan shug'ullanishini rivojlantirishga qaratilgan siyosat va dasturlarni amalga oshirdilar. Bunga ayollar sporti dasturlarini moliyalashtirish, ayollar uchun sport inshootlari va jihozlaridan foydalanish imkoniyatini oshirish tashabbuslari va sportda gender kamsitishlarini bartaraf etish siyosati kiradi.

• Ta'lim tashabbuslari: jismoniy tarbiya sohasida maktab dasturlari va o'quv dasturlarini o'zgartirish orqali qizlar o'rtasida sport bilan shug'ullanishni rivojlantirish bo'yicha birgalikda harakatlar olib borildi. Sport va jismoniy faollikni yoshligidan ta'limga qo'shib, qizlarda katta yoshgacha davom etishi mumkin bo'lgan sportga qiziqish ko'proq rivojlanadi.

• Jamiyat va ommaviy harakatlar: mahalliy jamoalar va mahalliy tashkilotlar ayollar o'rtasida ommaviy sportni targ'ib qilishda muhim rol o'ynaydi. Ushbu tashabbuslar ayollarning qiziqishlari va ehtiyojlariga moslashtirilgan tadbirlar, ligalar va ko'ngilochar dasturlarni tashkil qilish orqali ayollar sport bilan shug'ullanish huquqini his qiladigan qulay muhit yaratishga yordam beradi.

Umuman olganda, jismoniy tarbiya va sportda ayollar o'rtasida ommaviy sportni rivojlantirish munosabatlar, siyosat va imkoniyatlarning o'zgarishini o'z ichiga olgan ko'p qirrali jarayondir. Taraqqiyotga erishilgan bo'lsa-da, ayollarning sport bilan teng shug'ullanishi va barcha darajalarda ishtirok etish imkoniyatlarini ta'minlash uchun doimiy harakatlar zarur.

Muhokama. Ommaviy sportning ayollarning imkoniyatlarini kengaytirishga ta'siri ijtimoiy-iqtisodiy va psixososyal natijalarni qamrab olish uchun jismoniy sog'liq uchun foydadan tashqarida. Ommaviy sport bilan faol shug'ullanish ayollarning o'zini o'zi qadrlashini, yetakchilik qobiliyatini va tegishlilik tuyg'usini oshiradi, an'anaviy gender rollarini qiyinlashtiradi va inklyuzivlik madaniyatini rivojlantiradi. Bundan tashqari, ommaviy sport gender tengligini himoya qilish, ayollar huquqlarini targ'ib qilish, ijtimoiy-madaniy almashinuv va birdamlik uchun imkoniyatlar yaratish uchun platforma bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, jismoniy tarbiya va sport sohasida ayollar o'rtasida ommaviy sportni rivojlantirish global miqyosda gender tengligini oshirish va ayollarning imkoniyatlarini kengaytirish uchun ulkan imkoniyatlarga ega. Ommaviy sport dasturlarining ta'sirini maksimal darajada oshirish uchun siyosatchilar, o'qituvchilar va sport tashkilotlari tarkibiy to'siqlarni hal qiladigan, jinsga sezgir siyosatni targ'ib qiladigan va inklyuziv infratuzilma va dasturlashga sarmoya kiritadigan ko'p qirrali yondashuvni qo'llashlari kerak. Bundan tashqari, manfaatdor tomonlar, shu jumladan davlat idoralari, notijorat tashkilotlari va jamoat rahbarlari o'rtasidagi hamkorlik ayollarning ommaviy sportda faol ishtirok etishi uchun qulay muhitni yaratish uchun juda muhimdir.

Kelajakdagi tadqiqotlar uchun takliflar quyidagilardan iborat:

• Ommaviy sport ishtirokining ayollarning imkoniyatlarini kengaytirishga uzoq muddatli ta'sirini baholash uchun bo'yama tadqiqotlar.

• Ayollarning ommaviy sportga jalb qilinishini rag'batlantirish bo'yicha eng yaxshi amaliyotlarni aniqlash uchun turli xil ijtimoiy-madaniy kontekstlarda qiyosiy tahlillar.

• Raqamli platformalar va virtual jamoalar kabi innovatsion strategiyalarni o'rganish, uzoq yoki marginal hududlarda ayollar uchun ommaviy sport turlaridan foydalanish imkoniyatini oshirish.

• Ayollarning ommaviy sportdagi tajribalarini shakllantirishda jinsning irq, millat va sinf kabi boshqa ijtimoiy o'ziga xosliklar bilan kesishishini o'rganish.

Ushbu tadqiqotlardagi kamchiliklarni bartaraf etish va dalillarga asoslangan tadbirlarni amalga oshirish orqali biz ommaviy sportda gender tengligiga erishish yo'lidagi taraqqiyotni tezlashtirishimiz va butun dunyo bo'ylab ayollarning imkoniyatlarini kengaytirish uchun sportning o'zgaruvchan kuchidan foydalanishimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 12-iyundagi PF-92-sonli "Yoshlar siyosati va sport vazirligi tashkil qilinganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish, shuningdek, ba'zilarini o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblash to'g'risida"gi Farmoni
2. Goncharova O.V. "Yosh sportchilarning jismoniy qobiliyatlarini rivojlantirish". T.: 2016y. UzDJTI, 150b.
3. Бубе Х., Штюблер Х., Трогш Ф. Тесты в спортивной практике — М.: Физкультура и спорт, 1968, 238с.
4. Abduraxmonov M., Maxmudov A. Jismoniy tarbiya va sport. Sport tibbiyoti. T.: 2016y. Ilmiy texnika axboroti-press nashriyoti, 83b.
5. "Ayollarning fan va sportdagi o'rni". Ilmiy amaliy anjuman tezislari to'plami. 2007 yil 14 aprel.
6. Yuldasheva, S. (2021). The Emergence of Libraries as a Hotbed of Spirituality and Enlightenment. *International Journal of Culture and Modernity*, 10, 43-51.
7. Юлдашева, С. Н. (2020). СОЦИОЛОГИЧЕСКОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ ЧИТАТЕЛЬСКОЙ АУДИТОРИИ. ТИПОЛОГИЯ ЧИТАТЕЛЕЙ. *Oriental Art and Culture*, (V).

8. Khudoyberdiyeva N.A. "Actual problems of the training about physical culture and sport of teaching staff". European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences. Vol.7 No.11, 2019 ISSN 2056-5852. [13.00.00 №3].

9. Худайбердиева Н.А. "Жисмоний тарбия ва спорт соҳасини ривожлантиришда спортчини фаолиятга қизиқишини шакллантиришнинг психопедагогик хусусиятлари". "Фан-спортга". Илмий-назарий журнал. Чирчиқ, 2018 й. [13.00.00 №16].

9. Худайбердиева Н.А. "Жисмоний тарбия ва спорт соҳасида педагог кадрлар тайёрлаш тизимини бошқариш". "Фан-спортга". Илмий-назарий журнал. Чирчиқ-2019 й. [13.00.00 №16].

10. Khudoyberdiyeva N.A. "Psychopedagogical features of forming a motivation forming of a sportsman in the development of physical culture and sport". Theoretical & Applied Science 10 (66). USA, Philadelphia, 2018-P. 582-586.

11. Худайбердиева Н.А. "Инновационная деятельность в педагогическом образования и эффективность применения педагогических технологий" XXX Международные Плехановские чтения. Тезисы и докладов 2017 г.

12. Худайбердиева Н.А. "Ёшларда соғлом турмуш тарзини шакллантириш ва ёшлар спортини ривожлантириш масалалари". Болалар спортини ривожлантиришнинг долзарб масалалари. Республика илмий-амалий конференцияси. – Тошкент. 2016.

13. Худайбердиева Н.А. Олий таълим муассасаларида жисмоний тарбия ва спорт соҳаси учун педагог кадрлар тайёрлаш. Мактаб, академик лицей, касб-хунар коллежларига жисмоний тарбия ўқитувчиларини тайёрлаш муаммолари. Республика илмий-амалий конференцияси. – Тошкент. 2013.

УЎК 93/94

ЎЗБЕК КИНО САНЪАТИНИНГ РИВОЖЛАНИШИДА ГРУЗИЯ КИНОИЖОДКОРЛАРИНИНГ ЎРНИ (XX АСРНИНГ 60-ЙИЛЛАРИ МИСОЛИДА)

Ф.А. Адилов, профессор, Тошкент давлат иқтисодий университет, Тошкент

Аннотация. *Ҳозирги кундаги алоқаларнинг пойдевори тарихда яратилган, яъни ўтмишдаги алоқалар бугунги ҳамкорликнинг асосидир. Шундай экан ўзбек кино санъатининг ривожланишида грузин кино ижодкорларининг ўрни ва роли беқиёсдир ҳамда ушбу мақолада ҳамкорликнинг тарихи манбалар асосида ёритилган.*

Калим сўзлар: кино, киностудия, кинофильм, дубляж, бадий фильм, кино санъати ҳафталиги, Осие Африка кинофестивали, Закавказье, Грузияфильм, режиссёр, симпозиум, постановка, сценарий, ҳужжатли фильм, илмий оммабон фильм.

Аннотация. *Основы сегодняшних отношений созданы в истории, то есть отношения прошлого являются основой сегодняшнего сотрудничества. Поэтому место и роль грузинских кинематографистов в развитии узбекского киноискусства бесподобны, и в данной статье на основе источников описана история сотрудничества.*

Ключевые слова: кино, киностудия, кинофильм, дубляж, художественный фильм, неделя киноискусства, кинофестиваль Азия-Африка, Закавказье, грузинский фильм, режиссёр, симпозиум, постскриптум, сценарий, документальный фильм, научно-популярный фильм.

Abstract. *The foundations of today's relations were created in history, that is, the relations of the past are the basis of today's cooperation. Therefore, the place and role of Georgian filmmakers in the development of Uzbek cinema is incomparable, and this article describes the history of cooperation based on sources.*

Key words: cinema, film studio, film, dubbing, feature film, film week, Asia-Africa film festival, Transcaucasia, Georgian film, director, symposium, postscript, script, documentary, popular science film.

Кириш. Халқни миллатни тарбиялашда, мафкуравий, маънавий, озуқа беришда театр ва кинонинг ўрни беқиёсдир. Кино санъати XX асрда энг муҳим санъат турларидан бири бўлиб, бу даврда совет ҳукумати бу масалага алоҳида эътибор қаратади. Бунинг асосий сабабларидан бири коммунистик мафкура сингдирилган асарларни бадий фильмлар орқали намойиш этилиши жуда юқори натижа берган.

Ҳар бир иттифоқдош республикаларнинг кино ижодига алоҳида урғу берилиб, республикалар ўртасидаги ҳамкорликлар, алмашинувлар масалаларига эътибор қаратилган.

Ушбу мақолада ўзбек ва грузин киноижодкорларининг ҳамкорлиги ҳақида бирламчи манбалар, вақтли матбуотдаги маълумотларга мувожаат этамиз.

Дастлабки алоқалар урушдан кейинги йилларга тўғри келади. Жумладан 1946 йилда Хамза номидаги ёзги кино-театрда “Қасам” бадий фильмининг премьераси бўлиб ўтади. Бу фильмни П.Павленко ва М.Чиатурели сценарийси бўйича Грузия ССР халқ артисти, режиссёр М.Чиатурели ишлаган. Фильмда Сталинградлик ишчи оиласи ва бу оиланинг дўстлари Ваклан, грузин Георгий, ўзбек Турғунбоевларнинг ҳаёти мисолида халқнинг уруш йилларида босиб ўтган оғир йиллардаги воқеаларни акс эттирган. Фильмдаги Турғунбоев ролини Ўзбекистон ССРда хизмат кўрсатган артист А.Исмамов маҳорат билан ижро этган[1]. Бу мисолдан кўриниб турибдики икки халқ ўртасидаги қардошлик алоқасига асосий урғу берилган.

Айнан ушбу даврларда кино фильмларни таржима қилиш, дубляж масалаларига ҳам эътибор қаратилган ва тилшунос мутахассислар ёрдамида таржима ишлари амалга оширилган. 1956 йилда СССР худудидаги халқлар тилларига бадий фильмларни дубляж қилинган асарлар орасида Тбилиси киностудияси маҳсулоти бўлган "Икки океан сири" бадий фильм дубляж қилинганлигини мисол тариқасида айтиб ўтишимиз мумкин[2].

Адабиётлар таҳлили ва методология. XX асрнинг 40-50 йилларидаги жараёнларни таҳлил қилганимизда алоқалар анча паст даражада бўлган бўлсада 60-йилларга келиб алоқаларда ижобий ўзгаришлар кўзга ташланади. Бунга асосий сабаб сифатида Ўзбекистонда ўтказилган Закавказье республикалари кино санъати ҳафталиклари, Осиё ва Африка мамлакатлари кинофестивали ва бошқа республикалар ҳамда давлатлар даражасидаги тадбирларнинг ўрни ниҳоятда катта бўлган. Ўзбекистон миллий архив материаллари, матбуот манбаларида етарлича маълумотлар мавжуд, лекин бу даврдаги ва мустақиллик йилларидаги тарихчи олимларимиз томонидан бу масалаларнинг ёритилишига эътибор негиз қаратилмаган.

Муҳокама ва натижалар. Юқорида таъкидлаб ўтганимиздек 1964 йил 29 май куни Тошкентда бўлиб ўтадиган Закавказье республикалари кино санъати ҳафталиги муносабати билан Грузия кино иждоқорлари ҳам Тошкентга етиб келади[3]. Бу каби тадбирлардан асосий мақсад қардош халқлар ўртасидаги алоқаларни фаоллаштириш эди. Закавказье республикалари кино санъати ҳафталигининг очилиш маросимида Грузия кино танқидчиси Гиви Барагашивили сўзга чиқиб ушбу ҳафталик ҳақида илиқ фикрлар билдириб ўтади.

30 май куни Тошкентда Закавказье республикалари кино санъати ҳафталиги бошланади. Ушбу ҳафталикда “Грузияфильм” томонидан яратилган “Оқ карвон” бадий фильми кинорежиссёр Эгдар Шенгелая билан Тамаз Мелиава ёзувчи Мираб Элизошвили сценарийси асосида яратилган. Яна бир “Палиастони” бадий фильми машҳур грузин ёзувчиси Эгмате Ниношвилининг “Палиастони кўли” ҳикояси асосида ишланган бўлиб бу икки кино ҳам ўша давр воқеаларини усталик билан томошабинларга тасвирлаб берган[4]. Кино фестиваль программасига киритилган фильмлар орасида “Грузияфильм” кино иждоқорлари томонидан тайёрланган “Оқ карвон” ва “Палиастони” бадий фильмлари ўша даврдаги янги картиналардан бўлган[4] ва улардаги ғоялар ҳукумат мафкурасини тарғиб этишда муҳим аҳамият касб этган. 30 май куни Ўзбекистон ССР Министрлар Советининг Матбуот Давлат комитетида республикамиз газета ва журналлари ходимлари билан Закавказье республикалари киноматографларининг учрашуви бўлиб ўтган. Ушбу учрашувда пойтахт журналларига “Грузияфильм” киностудияси сценарий редакция коллегиясининг аъзоси, кино танқидчиси Гиви Барагашивили, кино оператор Д. Маргиевлар журналистларнинг саволларига жавоб беришган. Меҳмонлар куннинг биринчи куни Тошкент шаҳрининг диққатга сазовор жойларига экскурсия қилган бўлишса, 31 майда Самарқанд шаҳрида бўлиб ижодий учрашувларда фаол иштирок этишган[5]. Ўзбекистонликлар ушбу фильмларни зўр қизиқиш билан томоша қилиш билан бирга учрашувларда киноижодкорларнинг ҳаёт фаолиятлари ҳақида ҳам маълумотларга эга бўлишган.

1966 йилда Киев шаҳрида бўлиб ўтган кинофестивалда Грузияфильм студиясининг режиссёри Д.Рондели билан “Ўзбекистон маданияти” газетасининг махсус муҳбири билан бўлган суҳбатда қуйидаги фикрларни эътироф этган, “Ўзбекистон хужжатли киноси

Иттифоқимизда энг олдинги ўринлардан бирида десак адашмаймиз. Малик Қаюмовнинг жюри раиси бўлиши ҳам унинг етук санъаткорлигини кўрсатади. “Тошкентда шундай киз бор”, “Тожихон билан учрашув”, “Ўн уч қалдирғоч” фильмлари хужжатли кинонинг энг яхши намуналаридир”[6]. Режиссёр Д.Ронделининг фикрларидан шуни билиш мумкин-ку ўзбек киносанъатига юқори баҳо берилган.

Ўз навбатида ўзбек матбуоти ҳам алоқаларга бағишланган муҳим маълумотларни бериб боришган. Жумладан, “Кино” журналида 1967 йил Грузияфильмнинг 50 йиллик юбилейи муносабати билан М.Мирсоатовнинг мақоласида киностудия тарихи ва фаолияти ҳақида[7], журналнинг 7-сонидан эса машҳур грузин актёри Лайло Абашидзе ижоди фаолияти ҳақида ўзбек ўқувчиларига маълумот берилган[8].

1968 йилда Тошкентда биринчи Осиё ва Африка мамлакатлари кинофестивали бўлиб ўтади. Ушбу фестивалда грузиялик кино ижодкорлар ҳам иштирок этади ҳамда режиссёр О.Абесадзенинг “Баҳор яқин” фильми юборилган. Фильмдаги Минаго образини С.Закардидзе ва унинг хотини Мариам образини С.Таканшивиллар яратган. Расми мультфильм яратувчи санъаткорлар фестивалда режиссёр О.Андронинашвили яратган янги “Олтин” фильми билан қатнашади. Грузия хужжатли фильм усталари фестивалда қадимий Грузия амалий санъатининг қайтадан туғилиши ҳақидаги бир пардали “Акс садо” хужжатли фильмини намойиш қилади. Бунда томошабинлар наққош Иракли Очиуари, Коба Гурули, Гурама Кояваларнинг бадиий ишлари билан танишадилар. Шунингдек икки қисмдан иборат “Овозлар оламига қайтиш” хужжатли илмий оммабоп фильм отоларинголог профессор С.Хечинишвили операцияларига бағишланган бўлиб, Совет ҳукуматидаги тиббиёт ютуқларини дунё халқларига маълум қилишган.

Режиссёр С.Долидзенинг “Ўтмиш билан учрашув” Грузиянинг классик адабиётининг намояндаси Важа Пшавела асарлари мотиви асосида режиссёр М.Кокочашвили яратган “Улкан яшил водий” бадиий фильмлари юборилган.

Шунингдек “Уч кўшиқ” (режиссёр В.Бахтадзе), “Лотерия билети” (режиссёр К.Стариковский) каби мультипликацион фильмлар “Колхида” (режиссёр В.Чхадзе), “Грузин костюми” (режиссёр В.Гагуа), “Сўзсиз кўшиқ” (режиссёр Р.Чиатурели), “СССР чемпиони” (режиссёр Ш.Шония) сингари илмий-оммабоп ва хужжатли фильмлар ҳам намойиш қилинади. Халқаро киночилар анжуманида Грузия кинематографиячиларидан СССР халқ артисти, Грузия кинематографиячилари союзининг биринчи секретари С.Долидзе, режиссёр О.Абесадзе, киноактёрлардан СССР халқ артисти С.Закардидзе, республика халқ артисти М.Цулукидзелар қатнашадилар[9]. Ушбу биринчи Осиё ва Африка мамлакатлари кинофестивалидаги Грузия ижодкорларининг иштирок этиши янада алоқаларининг ривожига муҳим аҳамият касб этган.

1968 йил Ўзбекистонда спортга бағишланган фильмларнинг республика кинофестивали ўтказилди. Грузия киностудиясида яратилган “Тўп ва дала” бадиий фильми энг яхши фильмлар қаторидан ўрин олди[10].

1968 йил 21-31 октябрь кунлари Тошкент кинофестивали ўтказилган бўлса, 1 ноябрдан 10 ноябрга қадар яна бир Тошкентда Халқаро кино матбуоти федерациясининг Закавказье, Ўрта Осиё ва Қозоғистон республикалари кинематографиясига бағишланган Халқаро симпозиуми бўлиб ўтади. Симпозиумда бошқа иттифоқдош республикалар қатори Арманистон, Озарбайжон, Грузия вакиллари ҳам фаол иштирок этишган[11]. Бу каби симпозиумларнинг ўтказилиши ҳам маълум бир муаммоларни биргаликда ҳал қилишда асосий дастуруламал бўлиб хизмат қилган.

Хулоса. Умуман, ўзбек ва грузин киноижодкорлари ўртасидаги алоқалар кино санъатининг жадал ривожланиши ҳамда янги кино юлдузларни кашф этишда муҳим аҳамият касб этди. Ўзбекистонда намойиш этилган Грузия кино маҳсулотлари ўзбек томошабинлари томонидан илиқ кутиб олинган ва икки халқ ўртасидаги кино соҳасидаги алоқаларга ўзининг ижобий таъсирини кўрсатган. Тадқиқ этилган даврда маълум бир маънода алоқалар марказ томонидан қўллаб-қувватланган ва қолаверса қаттиқ назорат остига олиниб коммунистик мафкурага хизмат қиладиган асарларга алоҳида урғу берилган. Бу каби тўсиқлар халқлар

Ўртасидаги маданий алоқаларга деярли тўсиқ бўлаолмаган. Кейинги даврларда ҳам бу каби алоқалар ривож учун асос бўлаолган.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. “Қасам” фильми Тошкент кинотеатрларида // Қизил Ўзбекистон. 1946 йил, 6 август.
2. Ўз МА. Р-2487, рўйхат – 1, йиғма жилд – 475, 3 - варақ.
- Қардошлар кино санъати ҳафталиги // Ўзбекистон маданияти. 1964 йил 30 май.
3. Қардошларимиз фильмлари // Ўзбекистон маданияти. 1964 йил 3 июнь.
4. Фестиваль давом этади // Ўзбекистон маданияти. 1964 йил 3 июнь.
5. Ўзбек хужжатли киноси олдинда // Ўзбекистон маданияти. 1966 йил, 28 май.
6. “Грузия фильм” 50 ёшда // Кино. 1967 йил. № 4, 8-9-бетлар.
7. Лайло Абашидзе // Кино. 1967 йил. № 7, 9-бет.
8. Грузия фильмлари // Ўзбекистон маданияти. 1968 йил, 22 октябрь.
9. Спорт фильмлари фестивали // Ўзбекистон маданияти. 1968 йил, 13 август.
10. Яна бир Халқаро симпозиум // Кино. 1968 йил. № 10, 8-бет.

УЎК 908

БУТУНБУХОРО МАРКАЗИЙ ИНҚИЛОБИЙ ҚЎМИТАСИ ВА ЖОЙЛАРДА РЕВКОМЛАРНИНГ ТУЗИЛИШИ

М.М.Алланазаров, PhD, ИИБ Сурхондарё академик лицейи, Термиз

Аннотация. Мақолада БХСР Марказий Инқилобий Қўмитаси ва жойларда ревкомларнинг тузилиши ҳақида сўз боради. 1920 йил 14-сентябрда бўлган Халқ Нозирлар Шўроси, Ревком ва БКП МКнинг умумий йиғилишида 9 кишидан иборат Бутун Бухоро Инқилобий Қўмитаси (раиси Абдулқодир Мухитдинов) тузилди. Бухоро Инқилобий Қўмитасининг аъзолари қилиб Муинжон Аминов, Олимжон Акчурин, Абдулҳамид Орипов, Собир Юсупов, Хожи Хасан Иброҳимов, Файзулла Хўжаев, Кулмухамедов тайинланди. Шунингдек, ушбу мақолада юқоридаги миллий раҳбар арбоблар ва кадрлар фаолияти ҳақида фикр юритилади.

Калит сўзлар: Бутунбухоро Марказий Инқилобий Қўмитаси, Бухоро амирлиги, Ёш бухороликлар, Муваққат ҳукумат, конституциявий монархия, амирлик, ислоҳот, РСФСР, Туркистон fronti, БХСР, Инқилобий Қўмита.

Аннотация. В статье говорится о структуре ЦРК БНСР и местных ревкомов. 14 сентября 1920 года на общем собрании Совета народных наблюдателей, Ревкома и БКП МК был образован Всебухарский ревком (председатель Абдулкадир Мухитдинов) в составе 9 человек. Членами Бухарского ревкома были назначены Муинджон Аминов, Олимджон Акчурин, Абдулхамид Орипов, Сабир Юсупов, Гаджи Хасан Иброхимов, Файзулла Ходжаев, Кулмухамедов. Также в данной статье отражена деятельность вышеуказанных национальных лидеров и кадров.

Ключевые слова: Всебухарский ЦРК, Бухарский эмират, младобухарцы, Временное правительство, Конституционная монархия, Эмират, Реформа, РСФСР, Туркестанский фронт, БНСР, Ревком.

Abstract. The article talks about the structure of the Central Committee of the BNSR and local revolutionary committees. On September 14, 1920, at the general meeting of the Council of People's Observers, the Revolutionary Committee and the BKP MK, the All-Bukhara Revolutionary Committee (chairman Abdulkadir Mukhitdinov) was formed, consisting of 9 people. Muinjon Aminov, Olimjon Akchurin, Abdulkhamid Oripov, Sabir Yusupov, Gadzhi Khasan Ibrokhimov, Faizulla Khodzhaev, Kulmukhamedov were appointed members of the Bukhara Revolutionary Committee. This article also reflects the activities of the above national leaders and personnel.

Key words: All-Bukhara Central Revolutionary Committee, Bukhara Emirate, Young Bukharans, Provisional Government, Constitutional Monarchy, Emirate, Reform, RSFSR, Turkestan Front, BNSR, Revolutionary Committee.

Қириш. Халқимизнинг тақдирида рўй берган, тарихимиздан ўрин олган шонли ва фожиали ҳодисалар ўз ватанини севадиган ҳар бир инсонни бефарқ қолдирмайди. Бу борада

1920-1924 йилларда яшаган Бухоро Халқ Совет Республикаси (БХСР) миллий давлатчилигимиз тарихида ўзига хос тарихий босқич ҳисобланади. Ҳозирги кунда БХСР тарихини хусусан, Бутунбухоро Марказий Инқилобий Кўмитасида фаолият олиб борган миллий раҳбар арбоблар ва кадрлар фаолиятини илмийлик ва холисоналик мезонлари асосида ўрганиш долзарб бўлиб қолмоқда.

Совет ҳокимияти ва большевиклар 1917 йилдан бошлаб Россия ҳудудида турли инқилобий кўмиталар, яъни революцион комитетлар тузишга катта эътибор қаратишган. Бу ҳақда совет даврида чоп этилган тарихий тадқиқотларда анча тўлиқ маълумотлар келтирилади. Бундай инқилобий кўмиталар (ревкомлар) БХСР даврида ҳам мавжуд бўлган.

1920 йили монархик тузумни ағдариб ташлаган Бухоро Республикасида ташкил топган инқилобий кўмиталар большевиклар Россияда тузган ревкомлардан фарқли равишда имконият доирасида маҳаллий халқ манфаатларини ҳимоя қилганлар. Бухорода дастлабки инқилобий кўмита, амирлик тузуми ағдарилишидан сал олдин – 1920 йил август ойи ўрталарида ташкил топган эди. Бу пайтда Ёш бухороликлар партияси фаоллари Янги Бухоро (ҳозирги Когон) шаҳрида тўпланиб, большевикларнинг ёрдамида амир ҳокимиятини куч билан ағдаришга тайёргарлик кўрдилар. Бу ерда совет ҳокимияти ва большевикларнинг иштироки билан Бухоро Инқилобий Кўмитаси ташкил қилинди.

Бухородаги жадидчилик ҳаракатининг таниқли намояндаси, Ёш бухороликлар партиясининг етакчиси Файзулла Хўжаев (Файзуллахўжа Убайдуллахўжа ўғли) ўзининг “Бухоро инқилобининг тарихига материаллар” асарида бу ҳолатни қуйидагича кўрсатади.

“Сентябрда амирга қарши чиқиш учун қуролланишни тайёрлаш тўғрисида катта ролни амирнинг сўнгги соатдаги идораси остида бирлашиб фаол равишда ишлаган Когондаги иккала Ёш бухороликлар гуруҳининг кўмиталари ўйнадилар.

Айниқса коммунистлар кўмитасининг бу ишида ўзларини фаол равишда кўрсаткан ўртоқлар: Мухтор Саиджонов, Ҳожи Ҳасан Иброҳимов, Ражаб Муҳаммадиев ва Қосим Қориевлар; Ёш бухороликлар кўмитасида: Пўлатов, Ота Хўжаев, Музаффаров, Саидов ва Мулло Тўйлар.

1920 йил 1 сентябрга тайин қилинган кунда, кўзғолон кўтарган деҳқонлар ва қуролланган отрядлар урушсиз Чоржўйни ишғол қилдилар.

Дарҳол Бухоро хонлигининг бутун халқига хитоб қилиб, хитобнома ва кўзғалишнинг мақсадлари тўғрисида расмий эълоннома чиқарилди. Шу хитобноманинг ўзида РСФСРнинг ҳукумати, йўқсуллари ва қизил қўшунини меҳнаткаш Бухоро халқининг қуролланган амир кучларига қарши қурашига ёрдам қилишга чақирилган эди”[1].

Бухоро Инқилобий Кўмитаси томонидан 1920 йил 29 августда чиқарилган хитобномада, Файзулла Хўжаев кейинчалик ўз китобида ёзганидек, бухоролик инқилобчиларнинг кўнгиллилар отряди аҳолининг кўмаги билан Эски Чоржўй шаҳрини эгаллайди. Бу ерда амир ҳокимияти ағдарилиб, Чоржўйдаги бек ва амалдорлари қамоққа олинган ҳамда Абдурахим Юсупов (раис) ва Ҳасан Алиев (аъзо)дан иборат ревком (инқилобий кўмита) ташкил қилинади[2]. Бу ҳақда Самарқанд ва Москва шаҳарларида чиққан “Известия” газеталарида ўша кунлари хабарлар босилди. Айнан 1920 йил август ойида Янги Бухорода амирлик ҳокимияти ағдарилганидан сўнг Бухорода ташкил қилинадиган янги ҳокимият муассасалари тузилиши масаласи муҳокама қилиниб, улар ташкил қилинди. Бу воқеалар марказида турган Ёш бухороликлар етакчиси Файзулла Хўжаев мазкур ҳолатни ўз китобида қуйидагича ёзади: “Икки хил олий давлат қурилиши: Инқилобкўм ва Халқ Комиссарлари Шўросидан иборат, янги ҳукуматга амирнинг юқори мансабдорларидан фақат бир неча кишини қамоққа олишга муяссар бўлинди: қолганлари қочиб кетдилар.

Инқилобий Кўмита ўртоқ Абусаидовнинг раислиги остида ва қуйидаги аъзолардан иборат тузилди: Аминов, Оқчурин, Орифов, Юсупов, М.Бурҳонов, Ҳожи Ҳасан Иброҳимов, Файзулла Хўжаев ва Қулмуҳаммадовлар”[3].

Бухородаги дастлабки Муваққат Инқилобий Кўмита раиси *Абусаидов* [*Аҳмаджон Махсум Абусаидов*] (1878-1937) ҳаёти ва фаолияти ҳозиргача Ўзбекистон тарихи фанида кам ўрганилган. Тарихий манбалар ва адабиётларда фақат унинг номи Ёш бухороликлар каторида

тилга олинади, холос. Бироқ А.Абусаидов инқилобий ўзгаришларга қарши бўлиб, 1920 йил август-сентябрь воқеалари даврида амирлик ҳокимиятини ағдаришда ревком раиси сифатида нафақат раҳбарлик қилган, балки Файзулла Хўжаевнинг афсус билан таъкидлашича, ўша кунларда ўзини четга олган. Бироқ у Бухоро Инқилобий Қўмитаси раиси лавозимини 1920 йил август-сентябрь ойларида бажарган. У кейинчалик Бутунбухоро Марказий Ижроия Қўмитасининг масъул котиби ва бошқа лавозимларда ишлаган.

1920 йил кузида ташкил топган Бухоро Халқ Совет Республикаси (БХСР) қисқа муддат фаолият кўрсатган бўлса ҳам миллий давлатчилик тарихимизда ўчмас из қолдирган. Янги республикадаги ижтимоий-сиёсий жараёнларда қонун чиқарувчи энг олий орган Бутунбухоро Марказий Инқилобий Қўмитаси (Марказий Ревком) катта роль ўйнаган.

1920 йил сентябр ойи бошларида Бухоро Муваққат Инқилобий Қўмитаси амирлик тузуми ағдариб ташланганлиги ва мустақил Бухоро Республикаси тузилганлигини эълон қилди. 1920 йил 14 сентябрда бўлиб ўтган Бухоро Халқ Нозирлар Шўроси, Марказий Инқилобий Қўмитаси ва Бухоро Компартияси Марказий Комитети умумий йиғилишида 9 кишидан иборат Бутунбухоро Марказий Инқилобий Қўмитаси (раиси Абдулқодир Муҳитдинов) ташкил топди. Бутунбухоро Марказий Инқилобий Қўмитаси (Марказий Ревком) таркибига Абдулқодир Муҳитдинов (раис), Муинжон Аминов, Олим Акчурун, Абдулҳамид Орипов (раис муовини), Собиржон Юсупов, Ҳожи Ҳасан Иброҳимов, Мукамил Бурҳонов, Файзулла Хўжаев ва Муҳаммад Қулмуҳаммедов (аъзолар) каби миллий раҳбар ходимлар киритилди. Аҳмаджон Абусаидов Инқилобий Қўмита раиси лавозимидан озод қилиниб, унинг ўрнига Абдулқодир Муҳитдинов бу масъул лавозимга тайинланди[4].

Бутунбухоро халқ вакилларининг I қурултойи (1920 йил 6-8 октябрь) чақирилишидан олдин деярли ҳамма жойларда ревкомлар мавжуд эди.[5] Мазкур I қурултойда Бутунбухоро Марказий Инқилобий Қўмитаси (раис: Абдулқодир Муҳитдинов) ва ҳукумат – БХСР Нозирлар Шўроси (раис: Файзулла Хўжаев) таркиби, ниҳоят, узил-кесил тасдиқланди.

Бутунбухоро Марказий Инқилобий Қўмитаси, яъни Марказий Ревком раиси *Абдулқодир Муҳитдинов* (1882-1934) фаолияти, хусусан, диққатга сазовордир. Таниқли давлат ва сиёсат арбоби А.Муҳитдинов 1920-1921 йилларда бу лавозимда фаолият кўрсатиб, БХСРда мустақил давлат тузилмалари ташкил қилиш, кадрлар сиёсатини тўғри юритиш, ёш давлатнинг мустақиллигини таъминлаш учун изчил курашди.

Бухорода республика тузуми даврида ревкомлар ўзларининг бир йиллик фаолиятлари билан халқ томонидан билдирилган ишонччи имконият доирасида оқлашга ҳаракат қилдилар. Хусусан, Отаулла Хўжаев раҳбарлик қилган Қарши вилояти ревкоми самарали фаолият кўрсатган.

Янги ҳукуматга асосан мулла ва мирзалар, савдогарлар ва эски амалдорларнинг вакиллари жалб этилди. Эски амир амалдорларининг совет ҳукумати муассасаларига ишга олиш ҳақида ревком ва Нозирлар Шўросининг 1920 йил 5 сентябрда қарори қабул қилинган эди. Лекин аслида бу юзаки қарор бўлиб, халқни алдаш ва чалғитишдан бўлак нарса эмас эди. Шунинг учун ҳам Бухорода 1921-1922 йилларда собиқ амалдорлардан деярли ҳаммаси инқилоб душмани сифатида қамоққа олиниб, уларнинг ўрнини Марказдан келган вакиллар эгаллади.

Хулоса қилиб айтганда, БХСРда маҳаллий кадрлар фаолиятини йўлга қўйиш республика тузуми ўрнатилган дастлабки кунлардан бошланган. Бутунбухоро Марказий Инқилобий Қўмитаси ўзининг бир йилдан сал ортиқ давом этган фаолияти давомида (1920 йил сентябрь – 1921 йил сентябрь) давлат ҳокимиятининг фавқулодда олий органи сифатида катта ишларни амалга оширди. Марказий ревком томонидан БХСР вилоятлари ва туманларида инқилобий қўмиталар (ревкомлар) ташкил қилиниб, бу ревкомлар орқали маҳаллий аҳолини янги ҳокимият тузилмаларига тортиш, совет ҳокимияти асосларини ўрнатишга ҳаракат қилинди. Бироқ Марказий ревком ва маҳаллий ревкомлар таркиби кўпроқ коммунистлардан иборат эди. Ревкомлар ўз вазифаларини бажаргач, сайлов йўли билан ташкил қилинадиган марказий ва маҳаллий ижроия қўмиталарига ўз ўрнини бўшатиб берди.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Файзулла Хўжаев. Бухоро инкилобининг тарихига материаллар // Файзулла Хўжаев. 100. Масъул мухаррир: Д. Алимова. – Тошкент: Фан, 1997. – Б. 172-173.
2. История Бухарской Народной Советской Республики (1920-1924 гг.). Сборник документов. – Ташкент: Фан, 1976. – С. 27-28.
3. Файзулла Хўжаев. Бухородаги революция ва Ўрта Осиёнинг миллий чегараланиши тарихига доир // Файзулла Хўжаев. Танланган асарлар. Уч томлик. Том I. – Тошкент: Фан, 1976. – Б. 201-202.
4. Ишанов А.И. Бухарская Народная Советская Республика. – Ташкент: Узбекистан, 1969. – С. 204;
5. Файзулла Хўжаев. Танланган асарлар. Уч томлик. Том I. Тошкент: Фан, 1976. – Б. 232.

УДК 316.324.3:94

СТЕПНЫЕ ПЛЕМЕНА И НАРОДЫ ПРИАРАЛЬЯ В XI - НАЧАЛЕ XIII ВВ

А.К.Канатова, магистрант, Каракалпакский государственный университет, Нукус

Annotatsiya. Ushbu ilmiy ishning mavzusi XI-XIII-asr boshlarida Orolbo'yi cho'l qabilalari va xalqlarining hayoti mavzusiga bag'ishlangan. Katta o'zgarishlar XI-XV asrlarda sodir bo'ldi. O'rta Osiyoning shimoliy rayonlari, xususan, Xorazmdagi dehqonchilik vohalari aholisi hayotidagina emas, balki barcha dasht qabilalarining hayotida ham o'z ifodasini topgan. O'rta Osiyo va Qozog'istonning bir qismi aholisining Qoraxoniylar davlati doirasida siyosiy birlashuvi davrida Yettisuv va Sharqiy Turkiston aholisining iqtisodiy, madaniy va etnik yaqinlashuvi kuchaydi.

Kalit so'zlar: qoraqalpoqlar etnonimi, klobuklar, xalq, pecheneglar, polovtsiylar, Kiyev Rusi, Dunay, rus, qabila, rus yerlari, Vizantiyaning shimoliy mintaqasi, Dnepr.

Аннотация. Тема настоящей научной работы посвящена теме об образе жизни степных племен и народов Приаралья в XI - начале XIII вв. Крупные изменения произошли в XI-XV вв. не только в жизни населения земледельческих оазисов северных областей Средней Азии, в частности Хорезма, но и в жизни всех степных племен. В период политического объединения населения Средней Азии и части Казахстана в рамках Караханидского государства усилилось экономическое, культурное и этническое сближение жителей Семиречья и Восточного Туркестана.

Ключевые слова: этноним каракалпак, клобук, народ, печенег, половец, Киевская Русь, Дунай, Русь, племя, Русская земля, северная область Византии, Днепр.

Abstract. The topic of this scientific work is devoted to the topic of life of the steppe tribes and peoples of the Aral Sea region in the 11th - early 13th centuries. Major changes occurred in the XI-XV centuries. not only in the life of the population of agricultural oases in the northern regions of Central Asia, in particular Khorezm, but also in the life of all steppe tribes. During the period of political unification of the population of Central Asia and part of Kazakhstan within the framework of the Karakhanid state, the economic, cultural and ethnic rapprochement of the inhabitants of Semirechye and East Turkestan intensified.

Key words: ethnonym Karakalpaks, klobuk, people, Pechenegs, Polovtsian, Kievan Rus, Danube, Rus', tribe, Russian land, northern region of Byzantium, Dnieper.

Мамлакатнинг халқаро майдондаги ижобий имиж миллий манфаатларни илгари суриш ва ҳимоя қилиш, шунингдек, давлат фаровонлигини таъминлаш, барқарор тараққиёт ва рақобатбардошликни мустаҳкамлаш каби тарихий вазифаларни бажаришнинг асосий воситаларидан бири ҳисобланади. Ижобий халқаро имиж мамлакатнинг сиёсий ва иқтисодий салоҳиятини, унинг жаҳон ҳамжамиятидаги обрўси ва нуфузини кучайтиришга кўмак беради, хорижий инвестициялар, илғор технологиялар, молиявий-техникавий ёрдам, жаҳон бозорларида миллий экспортни илгари суриш, сайёҳлар оқимини кенгайтириш учун қулай ташқи шароит яратувчи асосий омиллардан бири бўлиб хизмат қилади. Ушбу соҳада Ўзбекистон Республикасининг халқаро майдондаги ижобий имижини шакллантириш, уни мустаҳкамлаш ва фаол илгари суриш борасида кўплаб амалий ишлар қилинмоқда.

Жумладан, Ўзбекистон Марказий Осиёдаги энг муҳим давлат сифатида кўп векторли мустақил ташқи сиёсатни муваффақиятли олиб бормоқда. 2016 йилдан сўнг содир бўлган ижтимоий-сиёсий ўзгаришлар бевосита давлатимиз раҳбари Шавкат Мирзиёевнинг ташаббуси билан мамлакат ички ва ташқи ҳаётида янги даврни бошлаб берди ҳамда Ўзбекистоннинг халқаро имижининг юксалишига олиб келди.

Бу борада 2020 йилда Германияда чоп этиладиган нуфузли “Berliner Telegraph” журналининг махсус сониди Ўзбекистоннинг замонавий тараққиётига бағишланган таҳлилий мақола эълон қилинди. Муаллиф, таникли немис сиёсатшуноси Маттиас Дорнфельд. У ўзининг “Ўзбекистоннинг янги имиж: очиклик ва ҳамкорликка тайёрлик” сарлавхали материалида Ўзбекистонда амалга оширилаётган кенг қўламли демократик ўзгаришлар, республика раҳбариятининг ташқи ва минтақавий сиёсати ҳақида батафсил сўз юритган.

Мақолада Ўзбекистон Евроосиёнинг маркази ва Марказий Осиёдаги энг кўп аҳоли яшайдиган давлат сифатида минтақавий ҳамкорликда етакчи мавқега эга экани таъкидланган. “Марказий Осиёдаги энг кўп аҳоли истиқомат қиладиган давлат раҳбарияти минтақавий ҳамкорликда етакчи ролни ўз зиммасига олиш кераклигини англади. Қўшни Қирғизистон ва Тожикистон билан минтақавий дарёларнинг куйи қисмида жойлашган мамлакатлар, жумладан Ўзбекистонга сув етказиб бериш масаласидаги зиддиятлар ҳал қилинди. Икки томонлама чегарадан ўтиш пунктлари очилиб, қуруқлик ва ҳаво орқали транспорт алоқалари тикланди. Ўзбекистон минтақада умумий иқтисодий ривожланиш, хавфсизлик ва барқарорликка интилмоқда” [1], - дея таъкидлайди муаллиф.

Шунингдек, ушбу таҳлилий мақоланинг сўнггида “Ўзининг ажойиб географик жойлашуви билан янги Ипак йўлининг марказида жойлашган ва меҳнат ресурсларининг истиқболли салоҳияти туфайли Ўзбекистон яқин келажакда муҳим иқтисодий марказлардан бирига айланиш имкониятига эга”, дея хулоса чиқаради.

Давлатнинг имиж халқаро даражада эътироф этиладиган турли рейтинг ва индекслар билан ҳам бевосита боғлиқ. Мамлакатимизнинг устувор рейтингларда юқорилаб бораётгани юртимизда аҳоли турмуш фаровонлигини ошириш, жамиятда очиклик, ошкораликни таъминлаш борасида қилинаётган кенг қўламли ислохотларнинг амалий натижасидир.

Жумладан, 2022 йилда Ўзбекистон 2021 йилда эълон қилинган ва ўзи учун устувор деб билган жами 19 халқаро рейтингдан 11 тасида ўз позициясини яхшилади. Жумладан, 2022 йилда Глобал инновациялар индексида ўз ўрнини 4 поғонага кўтариб, 132 давлат орасида 82-ўринни, Рақобатбардош саноат унумдорлиги индексида 5 поғонага кўтариб, 154 давлат орасида 89-ўринни, Электрон ҳукуматни ривожлантириш рейтингиди 18 поғона яхшилаб, 193 давлат ичида 69-ўринни эгаллади.

Президентимиз Ш.М.Мирзиёевнинг 2020 йил 2 июндаги “Ўзбекистон Республикасининг халқаро рейтинг ва индекслардаги ўрнини яхшилаш ҳамда давлат органлари ва ташкилотларида улар билан тизимли ишлашнинг янги механизмини жорий қилиш тўғрисида”ги фармони ҳамда 2022 йил 18 майдаги “Халқаро рейтинг ва индекслар билан ишлашда илмий салоҳият ҳамда амалий фаолият уйғунлигини таъминлаш чора-тадбирлари тўғрисида”ги қарори юртимизда ушбу йўналишда амалга оширилаётган ишларни янги босқичга кўтарди, дейиш мумкин.

Дарҳақиқат Ўзбекистон жаҳон цивилизацияси ривожига салмоқли ҳисса қўшган ва изчил ривожланиб бораётган мамлакат сифатида дунё сахнасида ўзини намоеён этиш учун улкан тарихий имкониятларга эга.

Хулоса. Шулардан келиб чиқиб, Ўзбекистон Республикасининг жаҳон ҳамжамиятидаги ижобий имижини шакллантириш ва мустаҳкамлаш ҳамда халқаро нуфузини юксалтириш учун зарур шарт-шароитларни белгиловчи асосий имиж хусусиятларини куйидагича таснифлашимиз мумкин:

- бой маданий, тарихий, маънавий ва интеллектуал мерос, давлатчиликнинг кўп асрлик тарихи;
- фан ва маданият, дунё ва ислом цивилизацияси ривожига қўшган ва тан олинган ҳиссаси;
- анъанавий ва юқори даражадаги миллатлараро ҳамда конфессиялараро ҳамжиҳатлик, жамиятдаги ижтимоий тотувлик ва бағрикенгликка асосланган дунёқараш;
- юқори даражали инсоний потенциал, шаклланган давлат ва жамоат бошқарув органлари тизимининг мавжудлиги;

- катта табиий ресурслар салоҳияти, ривожланган транспорт ва коммуникация инфратузилмаси;
- Ўзбекистоннинг ёшлар мамлакати эканлиги ҳам унинг маънавий бойлиги ва имижини юксалтиришда муҳим омил бўлиб хизмат қилади.

ФҲЙАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. Neues Bild Usbekistans: Offenheit und Kooperationsbereitschaft. // berliner-telegraph.de
2. Панова Е.П. «Мягкая власть» как способ воздействия в мировой политике.
3. Понятие имиджа государства // <https://vuzru.ru/ponyatie-imidzha-gosudarstva/>
4. Почепцов Г.Г. Имиджология. 2-е изд. - М.: Рефл-бук; Киев: Ваклер, 2001.
5. Ўзбекистон Республикаси Миллий қонунчилик базаси // www.lex.uz
6. О'zbekistonning xalqaro maydondagi ijobiy imijini mustahkamlash konsepsiyasi loyihasi // <https://regulation.gov.uz/ru/document/10375>
7. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасида туризмни жадал ривожлантиришга оид кўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги Фармони, 05.01.2019 йилдаги ПФ-5611-сон. // <https://lex.uz/docs/4143188>
8. 2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг Тараққиёт стратегияси. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони, 28.01.2022 йилдаги ПФ-60-сон // <https://lex.uz/docs/5841063>

УЎК 94

ХАЛФАЧИЛИК САНЪАТИНИНГ ЎЗИГА ХОСЛИГИ ВА МАЪНАВИЙ АСОСЛАРИ

Н.М.Маткаримова, PhD., доц., Маъмун-университети, Хива

Аннотация. Мазкур мақолада халфачилик санъатининг ўзига хослиги, ижро услублари, локал хусусияти, ижтимоий ҳаётдаги маънавий асослари ёритилган бўлиб, халфачилик санъатининг ривожини ва халфачилик санъати бўйича олиб борилган илмий-тадқиқот ишлари таҳлил қилинган.

Калим сўзлар: халфачилик санъати, халфа, маданият, санъат, ижро услуби, хонанда, фольклор, жанр, халқ ижодиёти

Аннотация. В данной статье рассказывается о специфике искусства халфы, стилях исполнения, локальных особенностях, духовной основе общественной жизни, анализируются научноисследовательские работы по развитию искусства халфы.

Ключевые слова: искусство халфа, халфа, культура, искусство, исполнительский стиль, исполнитель, фольклор, жанр, народное творчество.

Abstract. This article describes the specifics of Khalfa art, performance styles, local features, the spiritual basis of social life, analyzes research work on the development of Khalfa art.

Key words: Khalfa art, Khalfa, culture, art, performing style, performer, folklore, genre, folk art.

Хоразмда машҳур бўлган халфачилик санъати мустақил жанр сифатида кенг тарқалган бўлиб, ўзининг бой анъаналарига, тарихи ва ўзига хос хусусиятларига эга. Хоразм халфачилик санъати ўзлигимизни ўзига хос тарзда намоён қилувчи кадрларимиздан биридир. Маълумки, бу йўналиш Хоразм кўшиқчилиги санъатида муҳим ўрин эгаллаган бўлиб, улар халқнинг турли хил оилавий маросим ва тадбирларида эпик асарларни, термалар ва лапарларни куйлаб келишган. Кўшиқчилигининг бу йўналиши асосан аёллар орасида кенг тарқалган ва бу йўналишда кўшиқ айтадиганлар халфалар деб юритиб келинган.

“Халфа” сўзи турли тарихий даврларда турлича шаклларга эга бўлиб, унинг луғавий маъноси “куйловчи”, “этакчи” маъносини билдиради. “Қалпа” сўзи Хоразм воҳаси лаҳжасида “халпа” яъни “халфа” шаклида оммалашган. Бу ҳудудда асрлар бўйи шаклланган халқ бадиий ижодкорлиги ўз моҳиятига кўра, умумўзбек фольклори анъаналари билан муштарак жиҳатларга эга бўлиб, бу ҳол ундаги локал-махаллий хусусиятларнинг мавжудлигини ўзгартирмайди. Шундай ўзига хос хусусиятлардан бири халфачилик анъаналарининг мавжудлигида кўринади. В.Жирмунский ва Х.Зарифовларнинг эътирофи этишларича, “ўзбек халқ эпоси бахшилар билан бир қаторда хотин-қиз ижрочиларни ҳам яхши билади. Ҳозирги вақтда улар фақат Хоразмдагина мавжуд бўлиб, “халфа” номи билан аталадилар” [3, 56]. Халфачилик санъатининг асосан Хоразм воҳасидагина сақланиб келаётгани тасодифий эмас.

Бу нарса воҳада асрлар давомида шаклланган миллий урф-одатлар, анъаналар, маданий-маънавий ворислик, ҳудудий ижод ва ижро санъати каби соҳалардаги ўзига хосликлар билан изоҳланади. Манбаларнинг гувоҳлик беришича, Хоразмда қадимдан хотин-қизлар мусиқа ижрочилиги ва оғзаки сўз санъатига кўпроқ рағбат билдиришган. Зеро, халфачилик ҳам ўзининг мазмун-моҳияти ва ифода усулига кўра синкретик санъатдир. Унинг асосини ижод ва ижро уйғунлиги ташкил этади. Ижрочилик ва ижодкорлик халфалар фаолиятининг икки устувор қирраси бўлиб, қолган барча санъат унсурлари, масалан куй, рақс, ҳаракат, мусиқа асбоблари ва бошқалар анъанавий ижрочиликнинг анъанавий ижодкорлик билан табиий уйғунлашувини таъминлайди. Тўғри, бу хусусият халқ ижодкорлигининг бахшилик анъанасида ҳам мавжуд. Лекин халфачилик анъанаси фақат хотин-қизларга хос ижрочилик типи эканлиги ва улар репертуаридаги асарларнинг турли-туманлиги ҳамда энг қадимий маросим ва тасаввурлар билан алоқадорлиги билан бахшичиликдан фарқланиб келган.

Халфачилик табиатан ижодий характерга эга бўлган ижрочилик санъати бўлиб, ўзининг кўп қатламли тараққиёт босқичларига эга. Халфачилик анъанасининг тарихий асослари, шартли равишда энг қадимги давр, милоддан аввалги VII-VI асрлардан милодий VII асргача, VII асрдан XIX асрнинг I ярмигача, XIX асрнинг II ярмидан кейинги даврларни қамраб олади. Халфачиликнинг ҳар бир тараққиёт босқичи муайян тарихий-ижтимоий шароитларга боғлиқ ҳолда ўзига хос хусусиятлар касб этганлиги билан ўзаро фарқланиб туради. Биринчи босқич, зардуштийлик ақидалари, иккинчи босқич исломий эътиқодлар, XX асрнинг 20-йилларидан кейинги давр коммунистик мафкура, 90-йиллардан сўнги босқич эса миллий истиқлол ғояси устуворлиги билан характерланади.

Халфалар репертуаридаги асарларни тўплаш, нашр этиш ва ўрганиш XX асрнинг 20-йилларидан бошланган. Бу даврда Ўзбекистон давлат Илмий текшириш институтининг Хоразмга уюштирган комплекс экспедицияси аъзолари О.Ҳошимов, Ҳ.Зарифов, Б.Каримовлар Хоним Сувчи, Онажон Собирова ва бошқа халфалардан халқ кўшиқлари, достонлар ва термаларни ёзиб олишган [3, 54-57]. XX асрнинг 50-60-йилларида бу ишлар Ф.Абдуллаев, Н.Сабуров, Ж.Қобулниёзов, С.Рўзимбоевлар томонидан давом эттирилди. Натижада халфалар репертуари, уларнинг ижро усули ва ижодий анъаналари ҳақида дастлабки тадқиқотлар юзага келди[6].

Ижрочиликнинг бу типи даставвал диний удумлар ҳамда ритуаллар таркибида шаклланган бўлиб, кейинчалик оилавий-маиший маросимларга ҳам кўчган. Дастлаб саводхон аёллар бошлаб берган халфачилик анъанаси даврлар ўтиши билан ўзининг тарихий заминидан бутунлай узилмагани ҳолда такомиллашиб, халқ оғзаки бадиий ижодиётининг жанрлари билан бойиб борди. Ижрода турли усуллар пайдо бўлиши натижасида эса бу санъатнинг эстетик-ижтимоий вазифаси кенгайди.

Ривожланаётган Ўзбекистонда янгилашни даври мезонида учинчи ренессансга асос солиниб, ижтимоий-иқтисодий ва маънавий тараққий этиш билан биргаликда, “Миллий тикланишдан – миллий юксалиш сари” тамойилида фуқаролар ва улар онгида янгича тафаккурлаш, Ватан ва юрт равнақига бефарқ бўлмаслик, ёшлар онги ва қалбида она Ватанга муҳаббат туйғуларини сингдириш, мамлакатимизда демократик жамият ва ҳуқуқий давлат барпо этиш, инсон манфаатларини энг олий ва устувор қадрият сифатида қарор топтириш, маънавиятимиз ва амалий ҳаётимизда рўй бераётган мафкуравий жараёнларда собит ғояга ва мустаҳкам қарашларга эга бўлган янги давр кишисини шакллантириш муҳим вазифа сифатида белгилаб олинди. Ҳукуматимиз томонидан амалга оширилаётган ишларда маънавий-маданий ислохотлар бирламчи бўлиб, бу вазифани аҳолининг кенг қатламига санъат воситалари орқали етказиш самаралироқдир. Президентимиз таъкидлаганидек, “Албатта, биз халқимизнинг маънавий камол топишида маданият намояндаларининг улкан хизматлари борлигини доимо миннатдорлик билан эътироф этамиз. Юксак идеаллар йўлида фидойилик кўрсатиб яшаш, ўзлигимизни англаш, ғурур ва ифтихор, миллий манфаатларимизни химоя қилиш учун бел боғлаб майдонга чиқиш – сиз, ижод аҳлига хос эзгу фазилат эканини ҳаммамиз яхши биламиз ва буни юксак қадрлаймиз”[1].

Мамлакат тараққиёти ва равнақи йўлида олиб борилаётган ислохотлар самарасини янада ошириш мақсадида Ўзбекистон Республикаси Президенти томонидан 2017-йил 7-февралда қабул қилинган “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги ПФ-4947-сон фармонида мувофиқ барча соҳа ва тармоқлар қатори маданият ва санъат соҳаси равнақини янги босқичга кўтариш вазифаси қайд этилган [2]. Шунингдек, мустақиллик йилларида номоддий маданий меросни тиклаш, тараққий эттириш ва муҳофаза қилиш юзасидан ҳукуматимиз томонидан бир қанча қарор, фармойиш, фармон ва дастурлар қабул қилинган бўлиб, бу жараёнлар номоддий маданий мерос барқарорлигини таъминлашга хизмат қилмоқда [6, 33]. Ҳозирги кунда номоддий маданий мероснинг барча йўналишларидан хабардор, муҳофаза ишларини тўлақонли идрок этган ҳолда номоддий маданий меросни бошқаришга, жамият тараққиёти учун йўналтиришга қодир мутахассисларга эҳтиёж жуда катта. Шунингдек, ўқувчиларда номоддий маданий меросни муҳофаза қилиш тизимини такомиллаштириш мақсадга мувофиқ ҳисобланади [5, 289]. Шу аснода, мамлакатимизда халфачилик санъати тадқиқи ва тарғиботига оид бир қанча халқаро фестиваллар ва илмий конференциялар ўтказилиши бўйича йирик тажриба тўпланди.

Халфачиликнинг кейинги даврлардаги такомилли унинг ижро ва ижод усулларида табақаланиш юз берганлиги билан характерланади. Унинг илк куртаги-ибодат билан боғлиқ хусусияти қисман сақлангани ҳолда янги жиҳатлар-дунёвий мотивдаги асарларни куйлаш, тўй, мотам ва бошқа оилавий маросимларда иштирок этишда кўрина борди. Чунки, асрлар давомида ижтимоий-сиёсий, иқтисодий ва маданий ҳаётда юз берган ўзгаришлар маънавий кадриятларнинг турли хил шакллари, жумладан, халфачиликнинг ҳам мазмун-моҳияти, амал қилиш доираси ва муайян ғоявий-эстетик вазифаларни бажаришдаги ҳолатларига таъсир кўрсатган. Зеро, халфачилик санъатининг яшаш тарзи замон ва кишилар эҳтиёжи билан боғлиқ ҳолда янги эстетик талаблар тақозосига кўра муайян ғоя ва қарашлар ҳамда ижро усуллари билан ўзгариб борадики, бу ҳам унинг ҳаётийлигини кўрсатувчи ўзига хос хусусиятларидан биридир. Демак, халфачилик санъатининг жонли ижрода амал қилиши ва ижодий характери учун зарур маиший-ижтимоий шарт-шароитлар сақланиши талаб қилинади. Бу анъанавий фолклор жанрларига хос муштарак белги, уларнинг жонли ижрочилик анъанасида яшаши ва яратилишининг муҳим шартидир [19, 71-72]. Бундай хусусият халфачиликка ҳам дахлдир. Чунки бу санъатнинг бутун тараққиёти унинг табиатидаги тадрижийлик оғзаки ва китобий кироатдан мустақил ижро йўли ва бадий ижодкорликка интилиш жараёни юз берганини кўрсатади. Натижада, халфачилик халқ ижодиёти тизимига тобора яқинлашиб, унинг таркибидан жой ола бошлади ва бу санъатга ижодкорлик айтувчилик, куйловчилик ва ижрочилик анъаналари қўшилди.

Халфачилик анъанасининг такомил босқичлари ва жонли ижрода яшаш маконларига оид кузатишлар шуни кўрсатадики, бу анъана фақат ҳозирги Хоразм вилоятидагина эмас, балки воҳа ҳудудига ёндош Туркменистоннинг Тошхөвүз вилояти ва Қорақалпоғистоннинг жануби ва қисман шимолий қисмида истиқомат қилувчи ўзбеклар яшаётган ҳудудларида ҳам мавжуддир [4]. Табиийки, ижтимоий ҳаётдаги ўзгаришлар бадий анъаналар ва халқ ижодкорлигига ҳам таъсир кўрсатиб, бу ҳудудларда халфачиликнинг тарқалиши ва ривожини маҳаллий маросим ва урф-одатларга боғлиқ ҳолда турли даражада юз берди. Муҳими шундаки, бугун ҳам янгиланиб, ривож топиб бораётган халфачилик анъанаси воҳа халқ бадий ижодкорлигининг таркибий қисми сифатида яшаб келмоқда. Бу ҳол албатта халфачиликнинг ижодий табиати ва даврнинг бадий эстетик эҳтиёжлари тақозоси билан изоҳланувчи тадрижий характери билан белгиланади. Бундай хусусиятлар халфачилик анъанасининг ўзига хос ижодий марказлари ва локал хусусиятларни аниқлаб, илмий ўрганишни тақозо қилади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Мирзиёев Ш.М. Адабиёт ва санъат, маданиятни ривожлантириш – халқимиз маънавий оламини юксалтиришнинг мустаҳкам пойдеворидир // Ўзбекистон ижодкор зиёлилари вакиллари билан учрашувдаги маърузаси. Халқ сўзи. 2017-йил 4-август.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017-йил 7-февралдаги “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича, ҳаракатлар стратегияси тўғрисида” ги ПФ-4947-сон Фармон. www.lex.uz.

3. Жирмунский В.М., Зарифов Х.Т. Узбекский народный героический эпос – М: Гослитиздат, 1947. – С.54-57, 461-486.
4. Жалолов Т. Ўзбек шоирлари . – Т.: Адабиёт ва санъат, 1980. – Б. 223-237.
5. Маматқосимов Ж.А. Касб-хунар таълимида номоддий маданий меросни муҳофаза қилиш тизимини такомиллаштиришнинг ҳуқуқий асослари // Маданият чорраҳалари электрон журнали. Тошкент: 2019. № 2.
6. Маматқосимов Ж.А. Opportunities for Promoting Intangible Cultural Heritage Protection in the Course of Mother Language and Literature at Professional ColleGES // Central Asian Problems of Modern Science and Education, 2019. № 5. – Pp. 288-293.
7. Мирзаев Т. Фолклор ижодкорлари ва ижрочилари // Ўзбек фолклори очерклари. - Т.: Фан, 1988. – Т.1.
8. Мирзаев Т. Халқ бахшиларининг эпик репертуари. – Т.: Фан, 1979.
9. Мусақулов А. Ўзбек халқ лирикасининг тарихий асослари ва бадияти: Филол. Фанлари д-ри ... дис.автор. – Т., 1995. Раззоқов Х., Мирзаев Т., Имомов К., Собиров О. Ўзбек халқ оғзаки поэтик ижоди. – Т.: Ўқитувчи, 1980. – 358 б.
10. Носиров Р. Ўзбек халқ кўшиқлари композицияси: Филол. фанлари номзоди ... дис. – Т., 2004.
11. Саримсоқов Б. Ўзбек маросим фольклори. – Т.: Фан, 1986. – 216 б.; Абдуллаев Ҳ. Узбекско-каракалпакские фольклорные связи. – Т.: Фан, 1991.
12. Саримсоқов Б. Халфалар репертуари ва фольклор алоқалари // Адабий мерос. – Т., 1982. – № 2 (22). – Б.30-37.
13. Саримсоқов Б. Маросим фолклори // Ўзбек фолклори очерклари. -Т.: Фан, 1986.
14. Совет даври халқ кўшиқлари. Ўзбек халқ ижоди / Тўплаб, нашрга тайёрловчилар: М.Алавия , С.Рўзимбоев. – Т.:Адабиёт ва санъат, 1983; Рўзимбоев С.Хоразм дostonлари. – Т.: Фан,1986.
15. Суханов И.В. Обычаи, традиции и преемственность поколений. – М.: Наука,1976.
16. Оллоберганова. С.Ҳ.Халфалар ижодининг ўзбек фольклоридаги ўрни. Филология фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Т., 2007. – Б.5.
17. Ожиза. Шеър ва дostonлар. – Т.: Фан, 1986.
18. Оллаберганова С.Ҳ. Халфалар ижодининг оъзбек фолклоридаги оърни: Дис. ... фил.фан.ном. – Тошкент: А.Навоий номидаги Тил ва адабиёт институти, 2007. – 135 б.
19. Раззоқов Х., Мирзаев Т., Собиров О., Имомов К. Ўзбек халқ оғзаки поетик ижоди. – Т.: Ўқитувчи, 1980. -Б.194.
20. Хоразм халқ кўшиқлари / Тўплаб нашрга тайёрловчи: Ж.Қобулнйёзов. – Т.: Фан, 1965. – 410 б.
21. Померенсева Э.В., Чистов К.В. Русская фольклорная проза и межэтнические процессы // Отражение межэтнических процессов в устной прозе. – М.: Наука, 1979.
22. ЎЗР ФА Алишер Навоий номидаги Тил ва адабиёт институти Фольклор архиви. Инв.501, 519-521, 534-536 ва бошқ;
23. Рўзимбоев С.Хоразм дostonлари. – Т.: Фан,1986; Ўша муаллиф. Ошиқ туркуми дostonларининг гоъвий- бадий хусусиятлари. – Т.: ТДПИ, 1987.

УЎК 94

ХАЛФАЧИЛИКНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ: ИЖРО ВА ИЖОД ЖАРАЁНЛАРИНИНГ ЎЗARO МУНОСАБАТИ

Н.М.Матқаримова, PhD., доц., Маъмун-университети, Хива

***Аннотация.** Мазкур мақолада халфачилик санъатининг локал хусусиятлари ҳамда ижро ва ижод жараёнларининг ўзаро муносабати ёритилган бўлиб, халфачилик санъатининг ривожини ва халфачиликдаги устоз-шогирдлик муносабатларининг ўзига хос жиҳатлари таҳлил қилинган.*

***Калит сўзлар:** халфачилик санъати, халфа, маданият, санъат, ижодкорлик, ижро услуби, хонанда, фолклор, жанр, халқ ижодиёти*

***Аннотация.** В данной статье выделены локальные особенности искусства халфы и взаимодействие исполнительского и творческого процессов, проанализированы развитие искусства халфы и специфические аспекты взаимоотношений мастера и ученика в халфе.*

***Ключевые слова:** искусство халфа, халфа, культура, искусство, исполнительский стиль, творчество, исполнитель, фольклор, жанр, народное творчество.*

***Abstract.** This article highlights local features of halfa art and the interaction of performing and creative processes, analyzes the development of halfa art and specific aspects of the relationship between master and student in halfa.*

***Key words:** Khalfa art, Khalfa, culture, art, performing style, creation performer, folklore, genre, folk art.*

Бугунги кунда халфачилик ўзининг тарихий илдизларидан бутунлай узилмагани ҳолда халқ оғзаки бадиий ижодининг турли жанрлари билан бойиб бормоқда. Халфа ижрочилигида турли усуллар пайдо бўлган, халфалар репертуаридаги асарлар ранг-баранглашиб, бу санъатнинг ижтимоий-эстетик вазифаси янада кенгайган [5, 9]. Халфачиликнинг маросим таркибида шаклланиб, халқ оғзаки ижодиёти таркибида ривожланиши билан унинг табиатига хос кўпгина хусусиятлар янги анъаналар билан бойиди. Бу жараён натижасида халфачилик санъатининг мазмуни, эстетик табиати ҳамда бадиий шаклига дахлдор айрим жиҳатлар ривожланиб, баъзи хусусиятлар эса йўқола бошлади. Бу ҳол, айниқса, XX асрда янада кўзга ташланади. Профессор Т.Мирзаев томонидан “тўпловчилик ишлари бошланган вақтларда айтувчиликнинг, бир томондан, ўта профессионаллашганлиги, ижодкор ва ижрочиларнинг муайян жанрларга боғланиб олганлиги, иккинчи томондан, айрим ижрочи типларининг йўқола бориши, улар ижро этган асарларининг, ҳатто бутун бошли баъзи жанрларнинг қолдиқ ҳолдагина сақланиб қолганлиги, синкретик куйчиларнинг қолмаганлиги” таъкидланади [8, 194]. Бу жараён халфачиликка ҳам бевосита дахлдордир. XX аср бошларида халфачилик “айтувчилик”да аллақачон профессионаллашувга улгурган ва халфалар репертуарининг асосий қисмини халқ кўшиқлари, терма ва дoston жанрлари ташкил қилар, шомон ёки фолбин типидagi ижрочилар эса йўқола бошлаган, кинна ва мотам йиғилари билан боғлиқ жанрлар қолдиқ ҳолдагина сақланиб қолган эди. Лекин халфалар синкретик куйчи сифатидаги хусусиятини бутунлай йўқотгани йўқ ва уларнинг якка ёки жамоавий гуруҳ бўлиб, турли маросим, байрам ва бошқа тадбирларда қироатхон, созанда ва ижодкор (шоира) сифатида иштирок этишлари давом этмоқда [7, 36]. Одатда, оғзаки ижод намуналарининг яратилиши ва амал қилиши тўрт хил йўналишда, яъни айтиб бериш, ижро этиш, куйлаш ва кўрсатиб бериш шаклида намоён бўлади. Булар тасвир объектининг жанри, талқин услуби ва усуллари жиҳатдан ўзаро фарқланади. Масалан, “айтилиш”да насрий асарларнинг оғзаки баёни, “ижро этилишда” дoston ва қиссалар ижроси, “куйлашда” мусиқа асбоби жўрлигидаги ижро, ва “кўрсатилиш”да эса рақс санъати, масхарабозлик каби ижро шакллари англашилади. Муҳими шундаки, халфачилик бу йўналишларнинг барчасига у ёки бу даражада алоқадор бўлиб, ҳар бирининг мазмуни ва ижроси билан боғлиқ ўзига хосликларга эга [7, 37]. Масалан, халфалар репертуарида эртак ва нақл каби насрий асарлар баёни кам учрагани ҳолда, қисса ва фантастик эпосни ифодали ижро этиш, халқ кўшиқлари ҳамда романик дostonларни мусиқали оҳангга мос равишда куйлаш етакчи ўринни эгаллайди. Халфачиликнинг ўзига хос хусусиятлари ижро ва ижод жараёнларининг ўзаро муносабатида ҳам акс этади. Бу икки жиҳат бир-бири билан ўзаро мустаҳкам алоқада бўлиб, ижрочилик халфачилик санъатининг асосий белгиси, яъни ўзак хусусиятидир. Зеро, ижрочилик бу санъатнинг ҳамма босқичларидаги барча халфалар учун муштарак хусусият бўлган бўлса, ижодкорлик асосан кейинги даврда фаолият кўрсатаётган халфаларнинг бир қисмигагина дахлдордир. Лекин бу ҳол ижодкорликнинг аҳамиятини сира ҳам пасайтирмайди, аксинча, ижро жараёнининг ўзи ижодийликнинг муайян унсурларидан фойдаланишни тақозо этади [7, 40]. Шунингдек, ижро этиладиган асарлар характерида кўра турли мусиқа асбоблари – гармон, дотор, рубоб, доира, қайроқ ёки оддий патнис ва пиёлалардан танлаб фойдаланиш ҳам халфадан профессионал ижрочилик маҳорати ва ижодийликни талаб қилади. Ижрога ижодий ёндашув асосан ижрочи халфаларга хос хусусиятидир. Шоира халфалар эса булардан ташқари, индивидуал ижодкорлик салоҳияти билан ажралиб туришади. Бу ижодкорлик анъанавий дostonлар, кўшиқларни ва куйларнинг нисбатан мустақил вариантларини яратиш билан бир қаторда янги оригинал термалар, кўшиқлар ва айтимлар тўқишда тўлароқ намоён бўлади. Лекин шунини унутмаслик керакки, халфаларнинг ўз ижодига мансуб бўлган бу асарларни индивидуал ижод табиатидан келиб чиққан ҳолда ёзма адабиёт намунаси деб қарамаслик керак. Чунки уларда жамоавий ижодкорлик анъанаси устуворлик қилиб, воқеа ва ҳодисаларни ижодий тафаккур асосида эстетик баҳолаш етакчилик қилади. Шунинг учун шоира-халфаларни ёзма адабиётга мансуб профессионал шоиралардан фарқлаш зарур. Жумладан, шоиралар ва халфалар учун бадиий фикрлаш, яъни воқеликни эстетик идрок этиш муштарак жиҳат бўлса-да, шоиралар асарларида ёзма адабиётга хос жиҳатлар, халфалар ижодида эса халқ поэтик ижодиёти

анъаналари таъсири якқол сезилиб туради. Шунингдек, шоирларнинг адабий жараёнга таъсири бевосита, халфаларники эса билвосита бўлади. Шу жиҳатдан халфалар ижоди маълум даражада синкретик-қоришиқ характер касб этиб, бир томондан, оғзаки поэтик ижодиётга, иккинчи томондан, муסיқа ижрочилиги санъатига хос белгиларни ўзида мужассамлаштиргани билан ажралиб туради. Халфалар фаолиятининг етакчи хоссалари – анъанавийлик ва бадиҳагўйлик анъаналарининг ўзаро муносабати ҳам бу ижод турининг ривожига алоҳида ўрин тутади. Халфа кўшиқ, терма ёхуд дostonдан парчаларни ижро этиш давомида муайян шароит тақозоси (тингловчилар аудиториясининг хоҳиши, ижронинг таъсирчанлигини ошириш, маҳаллий колоритни матнда ифодалаш ва бошқалар) билан баъзан айрим мисра, образ ёхуд бадиий тасвир унсурларини бадиҳа йўли билан анъанавий матнга кўшиб юборади. Бунга, одатда, олдиндан рухий тайёргарлик кўриш кўникмаси ёхуд оғзаки ижоддаги ҳозиржавоблик, зукколик анъанасига амал қилиш орқали эришилади.

Халфачилик санъати икки турга бўлинади: ансамбл халфалар (халфа ёдоғи, сози ва раққоса) ва якка халфалар (халфа китобий). Халфалар ижрочилик санъатида якканавоз ва жўрнавоз сифатида фаолият кўрсатган. Ансамбл халфалар уч кишидан иборат, яъни устоз халфа (айни вақтда гармон (ХИХ асрда рус гармони Хоразмда тарқалиб, оммалашиб кетган ва уни “кўл соз” дейилади) чалади ва кўшиқ айтади), доирачи (кўшиқларга жўр бўлади, баъзан рақс тушади) ва ўйинчилар (рақс тушади, қайроқ билан ўйнайди, етакчи халфага кўшилиб, кўшиқ ҳам айтади, баъзан доира ҳам чалади) бирлашиб, жамоани ташкил этадилар. “Халфа ёдоғи” тўй кўшиқлари, лапар ва яллаларни; “халфа дostonчи” халқ дostonларини, улардан олинган парчаларни ва дoston терма-кўшиқларини, биргаликда ўзлари яратган ёки бошқа ижодкорлар асарларини кўл соз ва доира жўрлигида талқин этадилар. Якка халфалар дoston, шеърларни ва термаларни чолғусиз ижро этадилар. Улар дostonларни ёддан – оғзаки ёки ёзма анъанада, турли мавзудаги китобдан ёқимли оҳангда ўқийдилар. Тўй ва базмларда “халфа китобий” Ёр-ёр, Тўй муборак, Тўй қутлови, Келин салом каби тўй маросим кўшиқларини ҳам ижро этишлари билан шуҳрат қозонганлар. Халфалар маҳаллий халқнинг барча тўй-ҳашамларида, турли маросимларда, аёллар йиғинлари ва байрамларда қатнашиб, тўй ва бошқа маросимларни бошқариб келишган, жумладан, никоҳ тўйларини “Тўй муборак” ёки “Тўй бошлови” кўшиқлари билан очиб берилиши ҳамда “Тўй жавоби” билан яқунланиши шулар жумласидандир. Халфа репертуарлари кенг ва серқирра бўлиб, булар: тўй маросим кўшиқлари (Тўй муборак, Тўй бошлови, Ёр-ёрлар, Келин салом, Келин ва қуёв қутлови, Тўй жавоби), лирик ва турли маросим кўшиқлари, лапар ва яллалар; Махтумқули, Мунис ва бошқа шоирлар, Ожиза халфа шеърлари ва уларни асосида яратилган насиҳат ва рақсбоп кўшиқлари; ишқий-лирик ва аксарият “ошиқ” туркумдаги “Тоҳир ва Зухра”, “Ошиқ Ғариб ва Шоҳсанам”, “Ошиқ Ойдин”, “Асилхон”, “Хурлико ва Ҳамро”, “Қумри”, “Тулумбий”, “Қиссаи Зебо”, “Завриё”, “Дурайша”, “Бозиргон”, “Хирмон дали” каби дostonлар, улардан олинган парчалар ва термалар ҳамда халфаларнинг ўзлари яратган шеър ва кўшиқлар ўрин олган [7, 42].

Ижодкор халфалар замоннинг муҳим масалаларига бағишланган асарлар яратиб, уларга ўзлари куй басталаганлар. Халфалар моҳир созанда ва хонанда ҳамда ижодкор (оғзаки анъанада шеър ва кўшиқлар яратувчи) сифатида танилганлар. Улар шеър айтиш билан бирга, уни куйга солиш ва куйлаш маҳоратига ҳам эгадирлар.

Халфачилик нафақат анъанавий “устоз-шогирд” мактаблари, балки замонавий Хива муסיқа мактаблари, Урганч ва Эллиққалъа санъат коллежларида, жумладан, Хива шаҳрида ташкил этилган “Халфа” қизлар мактаби орқали ўзлаштирилмоқда [5, 189]. Халфачиликнинг ўзига хос хусусиятларидан яна бири – устоз-шогирдлик муносабатларида кўринади. Бу анъананинг илк даври диний китоблар қироати билан боғлиқ бўлганлиги учун саводхонлик ва ёқимли овоз соҳибаси бўлишлик халфалар учун зарур бўлган энг асосий шарт эди. Устоз шогирдлик анъанаси эса нисбатан кейинги давр ҳодисасидир. Бахшилиқ амалиётида шогирд тайёрлашда “халқ дostonларини эшитиш энг биринчи ва асосий шарт бўлган бўлса” [8, 194], халфачиликда бунга ифодали ўқиш (қиссахон халфалар), индивидуал ижод қилиш (шоира халфалар) ва бадиҳагўйликни эгаллаш (тўй кўшиқлари, келин салом ва ёр-ёрларни айтувчи халфалар) каби омиллар ҳам зарур саналган. Ўтмишда халфалар репертуаридаги асарлар

устоздан шогирдга бевосита ўрганиш ва ижро жараёнида ўтиб келган бўлса, кейинги даврларда бу ҳолат бирмунча ўзгарди. Яъни устоз халфалар репертуаридаги қатор асарларнинг нашр этилиши, радио ва телевидение орқали тарғиб қилиниши ёш халфаларнинг ижрочилик маҳоратини ошириш имкониятини кенгайтди.

ФЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎХАТИ:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017-йил 7-февралдаги “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бойича, ҳаракатлар стратегияси тўғрисида” ги ПФ-4947-сон Фармон. www.lex.uz.
2. Мирзиёев Ш.М. Адабиёт ва санъат, маданиятни ривожлантириш – халқимиз маънавий оламини юксалтиришнинг мустақкам пойдеворидир // Ўзбекистон ижодкор зиёлилари вакиллари билан учрашувдаги маърузаси. Халқ сўзи. 2017-йил 4-август.
3. Маматқосимов Ж.А. Касб-хунар таълимида номоддий маданий меросни муҳофаза қилиш тизимини такомиллаштиришнинг ҳуқуқий асослари // Маданият чорраҳалари электрон журнали. Тошкент: 2019. № 2.
4. Маматқосимов Ж.А. Opportunities for Promoting Intangible Cultural Heritage Protection in the Course of Mother Language and Literature at Professional Colleges // Central Asian Problems of Modern Science and Education, 2019. № 5. – Pp. 288-293.
5. Мирзаев Т. Фолклор ижодкорлари ва ижрочилари // Ўзбек фолклори очерклари. - Т.: Фан, 1988. – Т.1.
6. Ожиза. Шейр ва дostonлар. – Т.: Фан, 1986.
7. Оллаберганаова С.Х. Халфалар ижодининг оъзбек фолклоридаги оърни: Дис. ... фил.фан.ном. – Тошкент: А.Навоий номидаги Тил ва адабиёт институти, 2007. – 135 б.
8. Раззоқов Х., Мирзаев Т., Собиров О., Имомов К. Ўзбек халқ оғзаки поетик ижоди. - Т.: Ўқитувчи, 1980. -Б.194.
9. Саримсоқов Б. Маросим фолклори // Ўзбек фолклори очерклари. -Т.: Фан, 1986.
10. Суханов И.В. Обычаи, традиции и преемственность поколений. – М.: Наука, 1976.
11. Хоразм халқ кўшиқлари. – Т.: Фан, 1965.
12. Жирмунский В.М., Зарифов Х.Т. Узбекский народный героический эпос. – М.: ГИХЛ, 1947.

УЎК 930.2(574)«12/13»

ҒАРБИЙ ТУРК ХОҚОНЛИГИ ДАВРИДА САМАРҚАНД ТАНГАЛАРИ

С.Б.Сулайманова, катта ўқитувчи, PhD, Қариши давлат университети, Қариши

И.Жумаева, магистрант, Қариши давлат университети, Қариши

Аннотация. *Сугд воҳасида илк ўрта асрларга келиб ҳар бир ҳукмдорликнинг ўз тангасини зарб этиши кенг ёйила бошлангани кўзга ташиланади. Бу даврга келганда олдинги босқич тангаларидан фарқли ҳолда тангаларнинг турлари кўпайиб, деярли ҳар бир ҳукмдорлик ўз сулолавий тамгалари, ҳукмдор боши тасвири, унвон, бостирилган жой (ҳукмдорлик) номини (Масалан, Кеш, Панч каби) тангаларда ифодалай бошлайдилар. Шунингдек, Турк хоқонлиги даврида воҳа бошқарувидаги ўзгаришлар тангаларда ҳам акс этиб, зарб анъаналарида ўзгаришлар бўлишига туртки бўлади.*

Калит сўзлар: *Сугд, Ғарбий Турк хоқонлиги, Самарқанд, Кеш, Нақшаб, Панч, тамга, унвон, турк-сугд тангалари, хоқон, тудун, тутук, хотун, билга турк-рун ва сугд ёзуви*

Аннотация. *В Согдийском оазисе заметно, что к началу средневековья стала широко распространяться чеканка монеты каждого правителя. В этот период, в отличие от монет предыдущего этапа, типы монет увеличились, и почти на каждом правителе стали изображаться свои династические печати, изображение головы правителя, титул, название места (например, Кеш, Панч) на монетах. Также на монетах отразились изменения в управлении оазисом в период Тюркского каганата, что повлекло за собой изменения в традициях чеканки.*

Ключевые слова: *Согд, Западно-Тюркское каганат, Самарканд, Кеш, Накшаб, Панч, штамп, титул, тюрко-согдийские монеты, каган, тудун, тутук, хатун, билга, тюрко-рунная и согдийская письменность*

Abstract. *In the Sughd oasis, it is noticeable that by the beginning of the Middle Ages, the minting of each ruler's own coin began to spread widely. During this period, unlike the coins of the previous phase, the types of coins increased, and almost every ruler began to express their dynastic seals, the image of the head of the ruler, the title, the name of the suppressed place (rulership) (for example, Kesh, Panch) on the coins. Also, the changes in the management of the oasis during the*

period of the Turkish khanate were reflected in the coins, which prompted changes in the minting traditions.

Keywords: *Sughd, Western Turkic Khanate, Samarkand, Kesh, Naqshab, Panch, stamp, title, Turko-Sughd coins, khagan, tudun, tutuk, khatun, bilga Turko-rune and Sughd script*

Илк ўрта асрларда, айниқса, Турк хоқонлиги даврида Суғд воҳасида ўзига хос танга-пул тизими мавжуд бўлиб, бу воҳадаги катта-кичик ҳукмдорликлардан деярли барчасининг ўз танга зарбига эга бўлганида ўз ифодасини топади. Хусусан, Самарқанд, Кеш, Нахшаб ва Панч ҳукмдорликлари ўз тангаларини бостирганликлари, уларнинг катта бир қисми эса хоқонлик билан у ёки бу даражада алоқадор тангалар эканлиги маълум.

Самарқанд тангалари. Бугунги кунда Ўрта Осиё нумизматикаси бўйича бир қатор ёш нумизматларнинг етишиб чиқиши ва минтақанинг суғдий ёзувли тангаларини синчиклаб ўрганишлари натижасида “Қадимги турк тангалари гуруҳи” янада кенгайиб, бу борадаги тушунчалар янада ойдинлашди. Жумладан, Ғ. Бобоёров, А. Кубатин каби тарихчи ва турколог олимларнинг нумизматлар сафига қўшилиши натижасида Чоч, Фарғона, Ўтрор, Тохаристон билан бир қаторда, Суғд воҳасида ҳам кўплаб туркий тангалар зарб қилингани аниқланди [1]. Ушбу тадқиқотчилар Суғд тангаларининг нафақат иконографияси (тасвир, тамға), балки ўзида акс эттирган унвонлари билан Турк хоқонлигига у ёки бу даражада алоқадор тангалар эканини исботлаб беришди.

Хусусан, бир томонида узун сочли ҳукмдор тасвири, тескари томонида эса анъанавий Самарқанд тамғаси (𐰉) ўрин олган тангалар гуруҳининг сезиларли бир қисми “хоқон” унвони билан зарб этилганини аниқлаб, уларнинг ё Самарқанд ҳукмдорлари томонидан турк хоқонлари номидан ёки хоқонларнинг ўз ташаббуси натижасида зарб этилган тангалар эканини таъкидладилар. Шу тариқа, Чоч ва Фарғонадан кейин Суғд ҳам Турк хоқонлиги билан боғлиқ равишда танга зарб қилинган ҳудуд сифатида эътироф этилди. Бир гуруҳ Чоч тангаларида “Тарду хоқон”, “Тун жабғу-хоқон”, “Ишбара жабғу-хоқон” каби Ғарбий турк хоқонларининг исми ва “Жабғу”, “Жабғу-хоқон”, “Тун хоқон”, “хоқон” каби унвон ва эпитетлар билан бирга, этносиёсий ном сифтида “Турк-хоқон” ибораси учрайдиган тангалар туркумининг аниқланиши ушбу воҳада хоқонлар ўз тангасини зарб қилдирганидан дарак беради [2].

Шунга ўхшаш ҳолат Фарғона водийсида ҳам кўзга ташланиб, водий тангаларининг бир гуруҳида “хоқон”, “жабғу..” каби унвонлар учраб, уларнинг тамға шакли Чочники билан бир хил. Шу боис, тадқиқотчилар Фарғонани ҳам Ғарбий Турк хоқонлигига хос тангалар зарб қилинган ҳудудга киритишади[3]. Самарқанд тангалари эса улардан фақат тамға шаклининг ўхшамаслиги билан фарқ қилади. Хоқонликнинг Чоч ва Фарғонадаги тангаларидан фарқли ўлароқ “хоқон” унвонли Самарқанд тангаларида бу ернинг ўзига тегишли тамға ўрин олган:

𐰉 (Чоч, Фарғона) – 𐰉 (Самарқанд). Бундан ташқари, Самарқанд тангаларининг ясашиш техникаси ва иконографияси Чоч ва Фарғонаникидан бирмунча фарқ қилади (*таққосланг*. 1-расм, 1-3, 7, 13). Шу билан бирга, ҳар учала ҳудуд тангаларидаги ҳукмдор тасвирларида антропологик жиҳатдан умумий ўхшашлик кўзга ташланиб, қадимги туркларга хос қиёфани эслатади.

Тамға фарқлиги Самарқанднинг ушбу тангаларини хоқонликка тўғридан-тўғри эмас, билвосита алоқадор тангалардир, деб ҳисоблашга ундайди. Яъни, Самарқанднинг маҳаллий сулоласи вакиллари тобелик аломати сифатида ўз хўжайинлари номидан танга чиқаришган. Бироқ Самарқанд тангаларида “Турон ҳукмдори хоқон” жумласининг учраши мунозарали ҳисобланади. Бу ерда “Турон ҳукмдори” сўзи ўрин олганлиги Самарқанд тангалари ҳам хоқонлар билан бевосита алоқали бўлиши мумкин деган тахминни кучайтиради. Ўша пайтда ўзини “Турон ҳукмдори” деб аташ фақатгина турк хоқонларигагина хос бўлган. Ғ. Бобоёровга кўра, агар илк ўрта асрлардаёқ «Турон» ва «Туркистон» атамалари деярли айни маънода ишлатила бошлангани, Туркистон Турк хоқонлиги этносиёсий номи сифатидан келиб чиқилса, ўша даврда хоқонликни ифодаловчи атамалардан бири сифатида яна «Турон» сўзи қўлланилгани аён бўлади [4]. Қолаверса, тангапулларда учрайдиган атамаларнинг расмий

маъно касб этиши ҳисобга олинадиган бўлса, хоқонларнинг ўз давлатини «Турон» деб атаганликлари эҳтимоли ортади.

Бир қатор тадқиқотчилар Турон – Туркистон атамалари нафақат ўрта асрларда, балки ундан анча олдин, эҳтимол ислом арафасида ҳам айна маънода қўлланилганини таъкидлайдилар [5]. Шу ўринда айрим тадқиқотчилар Абу Абдуллоҳ ал-Хоразмий (X аср) ва Абу Райҳон Беруний асарларида Хуросондаги Марзи Турон ёки Маздурон мавзеси қайд этилиб, мазкур алломалар унинг “Турклар чегараси” деган маънони беришини таъкидлаб ўтишганини [6] ҳам ҳисобга олиш керак бўлади.






Бу гуруҳ тангаларидан ташқари яна хоқонлик даврида Самарқандда зарб қилинган кўплаб танга турлари бор. Улар Самарқанд ихшидлари томонидан VII аср иккинчи ярмидан то VIII аср ўрталаригача зарб қилдирилган хитой тақлиди тангалардир. Ушбу гуруҳ тангаларида суғдий ёзувда Шишпир (640-йй.), Авархуман (650-йй.), Тукаспадак (690-йй.), Тархун (700-710), Ғурак (710-738), Турғар (738-750) каби ҳукмдорлар исми ўрин олган бўлиб [7], улар ҳақидаги маълумотлар асосан хитой ва араб манбаларида, қисман эса суғдий ҳужжатларда учрайди. Бироқ ушбу ҳукмдорлардан аввал VI асрлар ўрталаридан то VII аср 40-йилларигача ҳукм сурган Самарқанд ҳукмдорларининг исми тангаларда жой олган ёки аксинчалиги номаълум. Гарчи хитой йилномаларида *Шифуби* (590-йй.) ва *Кюймучжи* (610-йй.) номлари учраса ҳам, қайси тангалар айнан уларга тегишлилиги аниқ эмас. Фақат ҳалигача тўлақонли “эгаси” аниқланмаган юқорида эслатилган 𐰽 шаклдаги тамғали Самарқанд тангалари баъзи жиҳатлари билан ушбу ҳукмдорларга, ё бўлмаса, 640-йилларгача, яъни Шишпирдан олдин Самарқандни бошқарган ҳукмдорлардан бирига тааллуқли эмасмикин деган тахминни кўндаланг қўймоқда.

Ўз вақтида О.И. Смирнова томонидан ушбу гуруҳ тангалари *twr'k* $\gamma\omega\beta$ «кудратли ҳукмдор» ёки “Турлар ҳукмдори” деб ўқилган [8] бўлиб, Ғ. Бобоёров томонидан *twrnyn* $\gamma\omega\beta$ “Турон ҳукмдори” шаклида тузатиб ўқилиши бу масалани қайтадан қараб чиқишни талаб қилади [9]. Айниқса, ушбу тангаларнинг битта типиди *x'γ'n* $\gamma\omega\beta$ *twrnyn* “Турон ҳукмдори хоқон” жумласининг аниқланиши (I-расм, 13) бу масалага ойдинлик киритувчи маълумотларга эгаллиги билан диққатни тортади. Бу танга О.И. Смирнова томонидан $\gamma\omega\beta$ *twrnyn* $\gamma\omega\beta$ “Эзгу нишон (соҳиби) ҳукмдор Мук/рнин” шаклида ўқилган [10], бироқ аксарият тадқиқотчилар бу талқинга қўшилмаган эдилар.

Ушбу тангалар гуруҳи билан боғлиқ яна бир тахмин, эҳтимол, улар турк хоқонларига куёв бўлган Самарқанд ҳукмдорига тегишли бўлиши ҳам мумкин. Хитой йилномаларидан маълум бўлишича, VI аср охирилари – VII аср бошларида Кан (Самарқанд) ҳукмдорлари хоқонлар билан яхши алоқа ўрнатган бўлиб, шу боис ўз атрофидаги ҳукмдорликлар орасида устун мавқе қозонган эдилар. Жумладан, Тарду хоқон (576-603) ўз қизини *Шифуби* исмли, Тун ябғу-хоқон (618-630) эса *Кюймучжи* исмли Самарқанд ҳукмдорига қизини узатган эди [11]. Балки ушбу ҳукмдорлар никоҳ муносабатлари эътирофи сифатида хоқонлар номидан мазкур тангаларни чиқаргандир [12].

Айнан шу даврларга тааллуқли деб тахмин қилинаётган 𐰽 шаклдаги тамғали, туркий қиёфали ҳукмдор ва малика тасвири тангаларда (I. Расм, 14) *x'ttwn* «хотун» унвони учраб [13], айрим тадқиқотчилар фикрича, ушбу тангалар никоҳ ришталари туфайли Самарқанд ҳукмдорлари томонидан зарб қилинган бўлиши ҳам мумкин [14]. Бу тангаларнинг *жабғу*, *жабғу-хоқон* ва *хоқон* унвонли қўшалок портретли (ҳукмдор ва малика тасвири) Ғарбий Турк хоқонлиги тангалари билан иконографик жиҳатдан яқин ўхшашликка эгаллиги диққатни ўзига тортади (*қаранг.* I- Расм, 1-3, 14).

Ушбу тангалардан кейин Самарқандда зарб қилинган ҳукмдор тасвири тангалар ўрнини хитой тақлиди ўртаси тўртбурчак тешикли тангалар эгаллайди (I-расм. 15). Бу ўша даврдаги тарихий воқеликлар билан алоқали бўлиб, 630 йилда маркази Ўрхун/Ўтукан (Мўғулистон) бўлган Турк хоқонлигининг шарқий (марказий) қисмига Хитойнинг Тан империяси томонидан зарб этилган, айна йилларда маркази Еттисув бўлган Ғарбий Турк хоқонлиги устида эса Хитой нуфузи кучаяётган бир палла эди.

Хуллас, хоқонликнинг ўз вассаллари устидан бўлган назорати бирмунча заифлашган пайтда Самарқанд ҳукмдорлари ўз тангаларини Хитой таъсирида зарб қила бошлайдилар. Шунга қарамай хоқонликнинг Самарқанддаги таъсири VIII аср биринчи ярмигача сақланиб қолгани маълум [15]. Жумладан, Тукаспадак (690-йй.), Тархун (700-710), Ғурак (710-738), Турғар (738-750) каби ҳукмдорлар исми акс этган тангаларда [16] анъанавий Самарқанд тамғаси () билан биргаликда фарқли тамға () ўрин ола бошлайдики, айрим тадқиқотчилар фикрича, бу тамға билан Ғарбий Турк хоқонлиги тангаларидаги тамғалар бирмунча ўхшаб кетади:  \  (Чоч) –  (Самарқанд) [17].

Хитой йилномаларидан маълум бўлишича, VII аср иккинчи ярмидан то шу асрнинг охиригача бўлган вақт мобайнида Самарқанд ҳокимиятида бир неча бор сулола алмашинувлари юз берган бўлиб [18], бу воқелиklar Самарқанд бошқарувида Тукаспадак, Тархун, Ғураклар турган даврга тўғри келади. Улар орасида айниқса Ғуракнинг бошқаруви йилларида Самарқанд ва хоқонлик орасида алоқалар кучайиб, у ўз ўғилларидан икkitасига ҳам Ашина хонадонига мансуб ҳукмдорлар исмини қўяди. Туркий исмга эга тўнғич ўғли Турғар 738-750 йиллар орасида Самарқанд тахтида ўтирган бўлса, Маймурғ бошқарувида тайинланган иккинчи ўғли Бек-чўр (Бўғу-чўр) Шаркий турк хоқони Қапған Бек-чўр хоқон (691-716) исми билан уйқаш келади [19]. Тадқиқотчиларга кўра, Турғар исмининг маъноси қадимги туркча бўлиб, негизда *тур*- феъли ётади [20].

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Бабаяров Г., Кубатин А. К вопросу о Византийском влиянии на иконографию монет Западно-Тюркского каганата // *O'zbekiston tarixi*. – Т., 2008. № 4. – С. 3–10; Babayarov G., Kubatin A. Byzantine impact on the iconography of Western Turkic coinage // *Acta Orientalia Academiae Scientiarum Hung.* Volume 66 (1). – Budapest, 2013. – P. 47–58; Бабаяров Г., Кубатин А. Доисламские монеты Согда: новые чтения и интерпретации легенд // *Ўзбекистон тарихининг долзарб муаммолари ёш тадқиқотчилар талқинида. ЎЗР ФА Археология институтида 2012 йил 6-7 апрельда ўтказилган ёш олимлар Республика конференцияси материаллари.* – Самарқанд, ЎЗР ФА Археология институтини нашриёти, 2012. – С. 11–23; Бабаяров Г., Кубатин А. К новой интерпретации доисламских монет Отрара // *Ўзбекистон ва Шарқ мамлакатларининг ҳамкорлиги: тарих ва ҳозирги замон. Республика илмий конференцияси тезислари. ЎЗР ФАШИ.* – Т., 2014. – С. 98–100.
2. Бабаяров Г. Древнетюркские монеты Чачского оазиса ... – С. 9-24.
3. Бобоёров Ф. Ғарбий Турк хоқонлиги Ашина сулоласининг Фарғонадаги тармоғи тарихига доир // *O'zbekiston tarixi*, №3, 2019. – Б. 3-6.
4. Бобоёров Ф. “Турон ҳукмдори хоқон” унвонли Самарқанд тангалари (илк ўрта асрлар) // *O'zbekiston tarixi*, 4, 2018. – Т., 2018. – Б. 12-14.
5. Аҳмедов А. Нега Турон деб аталади? // *Турон.* – Тошкент, 1992. – Б. 56; Маннонов Б. Туркистон ва Марказий Осиё // *Мулоқот*, №2, 1998. – Б. 68; Бобоёров Ф. Илк ўрта аср манбаларида Туркистон атамаси // «Ўзбек халқининг келиб чиқиши, илмий-методологик ёндошувлар, этногенетик ва этник тарих» мавзусидаги республика илмий-назарий семинар материаллари. – Т., 2004. – Б. 40–43; Камолитдин Ш. С. Древнетюркская топонимия в Средней Азии. – Т., 2006. – Б. 10–21. Абу Райхан Беруни. Канон Мас`уда // *Избранные произведения, V, Часть первая. Перевод и примечания Б. А. Розенфельда и А. Ахмедова.* – Т., 1973. – С. 466; Баходиров Р. История Востока в “Ключах наук” // *Шарқшунослик.* – Тошкент, 2009. – № 14. – С. 114).
6. Абу Райхан Беруни. Канон Мас`уда // *Избранные произведения, V, Часть первая. Перевод и примечания Б. А. Розенфельда и А. Ахмедова.* – Т., 1973. – С. 466; Баходиров Р. История Востока в “Ключах наук” // *Шарқшунослик.* – Тошкент, 2009. – № 14. – С. 114; Бобоёров Ф. Илк ўрта аср манбаларида Туркистон... – Б. 4043.
7. Смирнова О.И. Сводный каталог согдийских монет. Бронза ... С. 35-43.
8. Смирнова О.И. Сводный каталог согдийских монет. Бронза ... С. 21.
9. Бобоёров Ф. “Турон ҳукмдори хоқон” унвонли тангалар // *O'zbekiston tarixi*, №3. – Т., 2019. – Б. 3-17.
10. Смирнова О.И. Сводный каталог согдийских монет. Бронза ... – С. 21-22.
11. Бичурин Н.Я. Собрание сведений ... II. – С. 271, 311.
12. Бобоёров Ф. Илк ўрта асрлар тангаларида Ўзбекистон ҳудудидаги давлатчиликка доир маълумотлар // *Ўзбекистон тарихи манбашунослиги масалалари.* – Т., 2010. – Б. 3234.
13. Смирнова О.И. Сводный каталог согдийских монет. Бронза ... С. 359.
14. Бобоёров Ф. Илк ўрта асрлар тангаларида Ўзбекистон ҳудудидаги давлатчиликка доир маълумотлар ... – Б. 3234.
15. G'oyibov B. Samarqand – Sug'd konfederatsiyasining boshqaruv markazi sifatida // *Ilmiy axborotnoma. Nauchnyy vestnik.* – Samarqand, 2014. – № 4 (86). – В. 11-17.
16. Смирнова О.И. Сводный каталог согдийских монет. Бронза ... С. 35-43.

17. Бабаяров Г., Кубатин А. К новому чтению и интерпретации легенд на некоторых доисламских монетах Самаркандского Согда // Тарих тафаккури. «Баркамол авлод» йилига бағишланган Республика тарихчи олимларининг илмий ишлар тўплами. Масъул муҳаррир ва тузувчи: Ш. Ҳ. Воҳидов. – Бухоро, 2010. – С. 2232.

18. Бичурин Н. Я. Собрание сведений... II. – С. 311; Chavannes E. Documents sur les... – P. 136, k. 5.

19. Babayarov G. Sogd under Turkish Rule during 6th - 7th centuries (on Sogdian and Turkish symbiosis) // Ērān ud Anērān. Studies Presented to V.I. Maršak on the Occasion of His 70th Birthday. – Venezia, 2006. – P. 71-73; Камолитдин Ш.С., Мухаммедов У. Новые данные о потомках царя Согда Гурака // Общественные науки Узбекистана. – Ташкент, 2003. – № 3. – С. 63–68.

20. Бобоёров Ф. Турк хоконлиги даврида Суғд (бошқарув тизими) // Шарқшунослик. – Тошкент, 2002. – №11. – Б. 119-129.

УЎК 93/94

Interactive media, such as podcasts, videos, and e-books, offer additional avenues for independent learning. These resources are often available on-demand and can be accessed through various devices, making them highly accessible to learners. Interactive media allows learners to engage with content in a more dynamic way, whether through interactive exercises, simulations, or multimedia presentations. For example, platforms like YouTube and TED provide a wealth of educational content that learners can explore at their own pace. The ability to pause, rewind, and review content supports deeper understanding and retention, while the interactive elements of certain media, such as quizzes and discussions, encourage active participation and critical thinking [3].

While technological tools offer significant potential for enhancing learner autonomy, there are several challenges and considerations that educators must take into account. One of the primary challenges in integrating technology into education is the varying levels of digital literacy among learners. Not all students possess the necessary skills to effectively navigate digital tools, which can hinder their ability to engage in autonomous learning. Educators need to ensure that learners are equipped with the digital skills required to use these tools effectively.

Moreover, digital literacy extends beyond technical skills to include the ability to critically evaluate online resources. Learners must be taught how to discern credible sources from unreliable ones and how to use digital tools to enhance their learning rather than as a distraction. Another concern is the potential over-reliance on technology, which may lead to a reduction in traditional learning methods and face-to-face interactions. While digital tools can support autonomous learning, they should not replace the valuable experiences gained through classroom discussions, collaborative projects, and direct teacher feedback. A balanced approach is essential, where technology

complements rather than replaces traditional teaching methods. Educators should aim to integrate digital tools in a way that enhances, rather than diminishes, the overall learning experience.

Access to technological tools is not uniform across all learners. Socioeconomic factors, geographical location, and availability of resources can impact a learner's ability to engage with digital tools. This digital divide can exacerbate existing inequalities in education, particularly in underserved communities. To address this issue, educators and policymakers must work towards providing equitable access to technological resources. This may involve investing in infrastructure, providing training and support for both teachers and students, and developing low-cost or free educational tools that are accessible to all learners.

To maximize the benefits of technological tools in promoting learner autonomy, educators can implement several practical strategies. For instance, they can use technology to create personalized learning pathways that cater to individual learner needs. By leveraging data analytics, digital tools can provide insights into learner progress, strengths, and areas for improvement, allowing for the customization of learning experiences. For example, adaptive learning technologies can adjust the difficulty level of tasks based on the learner's performance, ensuring that they are consistently challenged while also being supported in areas where they may struggle.

Technological tools can also be used to promote self-reflection and goal setting, which are key components of learner autonomy. Educators can encourage students to set learning goals, track their progress, and reflect on their achievements using digital portfolios, journals, or progress tracking apps. These tools not only support autonomy by fostering a sense of accountability but also help learners develop metacognitive skills, which are crucial for effective self-directed learning.

In conclusion, technological tools have the potential to significantly enhance learner autonomy by providing learners with the resources, flexibility, and support needed for independent learning. Language learning apps, online platforms, and interactive media are just a few examples of how digital resources can empower students to take control of their educational experiences. However, the successful integration of these tools into educational practices requires careful consideration of challenges such as digital literacy, over-reliance on technology, and accessibility. By adopting a balanced approach and implementing practical strategies, educators can harness the power of technology to promote learner autonomy and prepare students for lifelong learning.

REFERENCES:

1. Benson, P. (2011). *Teaching and Researching Autonomy in Language Learning*. Pearson Education.
2. Hrastinski, S. (2019). What Do We Mean by Blended Learning? *TechTrends*, 63, 564-569.
3. Schmidt, C. (2019). Interactive Learning with Technology: How to Foster Learner Autonomy. *Educational Technology & Society*, 22(2), 29-39.
4. Sundqvist, P., & Sylvén, L. K. (2016). *Extramural English in Teaching and Learning: From Theory and Research to Practice*. Palgrave Macmillan.

UO'K 378

MASOFALI TA'LIMDAN FOYDALANISHDA ELEKTRON DARSLIKNING O'RNI

Sh.A. Mengliyev, dotsent, Termiz davlat universiteti, Termiz
Z.Q. Jo'rayeva, magistrant, Termiz davlat universiteti, Termiz

Annotatsiya. Elektron darslikni ta'lim sifati oshirishdagi imkoniyatlari ko'rsatilib berilgan. Elektron darslik vositasida o'qitish jarayonining samaradorligi asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: Elektron darslik, masofaviy ta'lim, elektron qo'llanma.

Аннотация. Электронного учебника для повышения качества образования. Обоснована эффективность обучения при помощи электронного учебника.

Ключевые слова: Электронный учебник, дистанционное обучение, электронный гид.

Abstract. The ostentatious possibilities of an electronic textbook to improve the quality of education. The effectiveness of training using an electronic textbook has been substantiated.

Key words: Electronic textbook, distance education, electronic guide.

Kirish. COVID-19 pandemiyasi butun dunyo bo'ylab maktablar va universitetlarning yopilishi bilan elektron ta'lim bozorini yanada o'zgartirdi. YUNESKO ma'lumotlariga ko'ra, 2020-yil mart

oyida 186 ta davlatda 1,2-milliarddan ortiq o'quvchi pandemiya sababli maktablarning yopilishidan aziyat chekdi. Koronavirus pandemiyasidan eng ko'p zarar ko'rgan mamlakatlarda masofaviy ta'limga qabul qilish soni misli ko'rilmagan darajada o'sdi. Masalan, 2020-yil aprel oyida Janubiy Koreyada 5,4 millionga yaqin talabalar uydin Google Classroom va Zoom kabi platformalarda jonli e'fira uzatiladigan darslarni o'rganishni boshladilar, chunki mamlakat COVID-19 pandemiyasiga qarshi kurashmoqda.

Jamiyatshunos olimlarning so'nggi e'tirofiga ko'ra insoniyat o'z rivojlanishida texnokratik fazaga o'tmoqda. Bu fazada rivojlanish tamoyillarining zaminida fan va texnika yutuqlarini kompyuter texnologiyalari asosida jamiyat hayotining iqtisodiy, jumladan, texnologik, ijtimoiy va siyosiy jabhalariga mumkin qadar tezkorlikda joriy etish yotadi. Iqtisodiy munosabatlarning globallasuvi, moliyaviy va axborot oqimlari ta'sirida davlatlararo chegaralarning nisbiylashuvi hamda ilm-fan sohasidagi so'nggi yutuqlarni ishlab chiqishga o'ta tezkorlikda joriy etilishi va mos yuqori samarali texnologiyalarni yaratilishi, insoniyat evolyutsiyasining kechuvda ayrim shaxsga nisbatan kritik holatlarning sababchisi bo'lmoqda: kishilar jamiyatining axborotlarning yangilanishi ayrim shaxsning biologik yangilanishuvidan, ya'ni avlodlar almashuvidan tezroq sodir bo'lmoqda.

Asosiy qism. Masofaviy ta'lim tizimi – ta'lim tizimining yangilangan va rivojlantirilgan ko'rinishi bo'lib unda o'qitish “o'quvchi — o'quvchi” va “o'qituvchi – o'quvchi” orasida ma'lumotlar almashishning zamonaviy axborot texnologiyalari asosida tashkil qilinadi. Kompyuter asosidagi telekommunikatsion aloqa orqali an'anaviy o'qitish uslubidan ko'ra yuqori saviyada o'quvchilarga bilim berish va har-xil ko'rinishdagi o'quv materiallarni etkazib berish imkoniyatini beradi[1-5].

Kompyuter texnologiyalarining qo'llanilishi inson faoliyatining barcha jabhalariga, shuningdek ta'lim sohasiga ham jadal suratda kirib bormoqda. An'anaviy o'qitish vositalari o'z ahamiyatini saqlagan holda, interfaol metodlar bilan uyg'unlashgan yuqori unumdorlikka erishadi. Elektron qo'llanmalar qo'shimcha pedagogik “Uskuna” vositasida ishlatilib qiziqarli, interfaol mashg'ulotlar tashkil qilish natijasida kerakli bilimlarni tezroq va sifatliroq o'zlashtirishga imkoniyat yaratadi[6-7].

An'anaviy bosma o'quv nashrlari bilan birgalikda elektron qo'llanmalar qo'shimcha axborotlar manbai bo'lib, uning materiallari o'rganiluvchi mavzuga bog'langan, o'quvchi-talabalar uchun oson taqdim qiluvchi va o'rganiluvchi fan to'g'risida kengroq tasavvur hosil qilishga xizmat qiladi. SHuningdek elektron qo'llanmani masofaviy ta'limda qo'llash mumkin. Masofaviy o'qitish ta'lim xizmatlari majmuasidan iborat bo'lib, o'quv materiallari bilan masofadan almashinuv vositalariga asoslanuvchi maxsus axborot ta'lim muhiti yordamida o'quvchi-talablarga taqdim etiladi[10].

Masofaviy o'qitishning axborot ta'lim tizimi deb foydalanuvchilarning ta'lim olish ehtiyojlarini qondirishga yo'naltirilgan axborot uzatish, o'zaro hamkorlik qaydnomalari, axborot resurslari, tashkiliy – uslubiy va boshqaruv dasturiy ta'minotlar kiradi. Ko'pchilik zamonaviy ta'lim texnologiyalari o'quvchi – talabalarni mustaqil ta'lim olishga qaratilgan bo'lib, mustaqil o'quv faoliyati ularning kelajakdagi hayoti jarayonida muhim ahamiyatga ega. Binobarin, o'quvchi – talabalarni elektron o'quv nashrlar bilan ishlashga o'rgatish ta'lim tizimining muhim vazifasi hisoblanadi.

Elektron darsliklardan foydalanish o'quv materialini mustaqil o'zlashtirish imkoniyatini beradi. Ularda bosma darsliklar ma'lumotnomalarning nazariy xususiyatlari bilan birgalikda amaliy va nazorat qiluvchi qismlari birlashtiriladi.

Zamonaviy elektron darslik bu kompyuter texnologiyalaridan va internet vositalaridan foydalanishga asoslangan bir butun didaktik tizim tushunilib, uning maqsadi o'quv – talablari optimal va individual ishchi dasturlar asosida o'quv jarayonini boshqarishdan iboratdir. Elektron darsliklar elektron tashuvchilar yoki lokal – global kompyuter tarmog'ida joylashtiriladi. Elektron o'quv nashrlari hajmi, mazmuni va o'quv materialini qamrab olinish darajasiga qarab bir qancha turlarga bo'linadi.

- Elektron darsliklar;
- Elektron amaliyotlar;
- Elektron mashqlar to'plamlari;

Elektron va bosma darslik o'ziga xos xususiyatlarga ega:

1. Elektron darslik aniq o'quv vazifalari bo'yicha turli qiyinchilik darajasidagi ma'lumotni saqlashi mumkin.

2. Elektron darslik ko'rgazmaliligi bosma darslikka nisbatan ancha yuqori bo'ladi.

3. Elektron darslikni tarqatish va ko'paytirish kam xarajatligi bilan farqlanadi.

Elektron darslik afzalliklariga quyidagilar kiradi:

-o'qituvchi mehnat unumdorligini oshiradi;

-o'rganuvchi mustaqil fikrlash jarayonini faollashtirish;

-o'qitishni individuallashtirish.

-axborot texnologiyalarini qo'llash vositasida o'qitish effektivligini oshirish;

-o'quvchi – talabalar o'quv mustaqil ta'lim faoliyatini effektiv nazorat qilish imkoniyati;

-o'quv material mazmunini ko'rgazmaliligini va tushunarligini oshiruvchi multimedia imkoniyatlarini qo'llash;

-o'quv – talabalar mustaqil ta'limni tashkil etish.

Elektron darslikning afzalliklari bilan bir qatorda kamchilliklardan xoli emas. Eng muhim kamchilik katta hajmdagi matnlarni ekranda o'qish noqulayligi bilan bog'liq. Bu kamchilikni bartaraf etish uchun ko'pgina elektron darslikda matnli audio rejimlaridan foydalaniladi[8-9].

Elektron darslikdan ta'lim jarayonida foydalanish uchun ham o'quvchi– talabalar, hamda o'qituvchilardan ma'lum darajadagi axborot madaniyatiga ega bo'lish talab etiladi[11].

Xulosa va takliflar. Bugungi kunda yaratilayotgan va qo'llanilayotgan elektron darsliklarning ko'pchiligi ta'lim jarayonida qo'llanilmoqda. SHunga qaramay, ularga qo'yiluvchi talablar tizimi va baholash mezonlarining huquqiy himoyasi, sifat kriteriyalari uchun umumiy standartlar mavjud emas.

Elektron darsliklardan ta'lim jarayonida foydalanish to'g'ri shakllantirilgan maqsadlariga erishish yo'lida o'quvchi – talabalarga o'quv faoliyatiga qiziqishni uyg'otish, eng muhim masalalarga e'tiborni jalb qilish asosida mustaqil ishlashga motivatsiyalashning imkoniyati mavjudligi hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Менглиев Ш.А., Хуррамов О. Таълим тизимида электрон дарсликларнинг ўрни. Касбий таълим бўйича мутахассис кадрлар тайёрлаш тизимини шакллантириш; назария ва амалиёт» Қарши, 2007 й 18-35 б.

2. Менглиев Ш.А., Аманов Б., Физика фанидан электрон дарслик ёрдамида талабалар билимини баҳолаш. Физик масалаларни очиш, “Хозирги замон физикасининг долзар муаммолари” 4-Республика илмий-назарий конференция материаллари. Термиз, 2009 й 89 б.

3. Менглиев Ш.А., Гуломқодиров К., Мактабгача таълимда ахборот технологияларни қўллаш усуллари. “Мактабгача таълимда янги педагогик ва ахборот технологияларини татбиқ этишининг долзарб масалалари” Республика илмий-амалий конференция матер. Қарши. 2010 й. 5-6 б.

4. Менглиев Ш.А., Гуломқодиров К., Қорахонов С.Х., Узлуксиз таълим тизимида замановий таълим технологиялардан фойдаланиш билан боғлиқ муаммолар. Ўзбекистон Республикасида таълимнинг узлуксизлиги ва узвийлигини таъминлаш: ютуқ ва муаммолари Республика илмий-амалий анжумани маъруза тезислар тўплами II-қисм тошкент давлат иқтисодиёт университети 2012 й. 207 б.

5. Менглиев Ш.А., Қорахонов С.Х., Узлуксиз таълим тизимида замановий таълим технологиялардан фойдаланиш билан боғлиқ муаммолар. Ўрта махсус ва касб-хунар таълими: “Узвийлик ва узлуксизлик” мавзусидаги республика илмий-амалий семинарининг мақола ва маъруза тезислар тўплами тошкент молия институти 2012 й. 252 б.

6. Менглиев Ш.А., Холлиев Ф.Б., Олий ва ўрта махсусб касб хунар таълимида аниқ ва табиий фанларнинг ўзаро алоқадорлик ва узвийлиги масалалари. Республика илмий-анжумани материаллари. Қарши-2014 й. 139б.

7. Менглиев Ш.А., Жураева З.К., Олий таълим тизимида электрон дарслик ёрдамида табиий фанларни ўқитиш. Мехнат ва касб таълим соҳаларида юқори малакали кадрлар тайёрлашнинг долзарб муаммолари. Республика илмий-амалий материаллари. Термиз-2014 й. 448 б.

8. Mengliyev SH.A., Abdullayev B., Jo'rayeva Z., Informatika fanidan elektron darslik yordamida o'quvchilar bilimni mustahkamlash. Ўзбекистонда ижтимоий-иқтисодий ва этномаданий ҳаёт. Тарих ва таҳлил Республика илмий анжумани мақолалар тўплами. Термиз-2014 й. 515-516 б.

9. Mengliyev SH.A., Umarzoda Sh.A., Ta'limda elektron darslikning dolzarbligi. Ёш олимлар Республика илмий-амалий конференцияси 2016 й. 360 б.

10. Менглиев Ш.А., Гуломқодиров К., Жўраева З.К., Масофавий ўқитишда web сайтларнинг ўрни. IX Международная научно-практическая интернет-конференция актуальные научные исследования в современном мире. Украина 2016 г. 95 с.

11. Mengliyev SH.A. Elektron darslikdan foydalanishning ta'lim sifatini oshirishdagi o'rni. Surxondaryoda ilm va fan Ilmiy innovatsion jurnal №3-4(05) 2021 y. 21-26 б.

UO'K 37.02

OILADA BOLALARGA NISBATAN ZO'RAVONLIKNING SABABLARI

D.A.Muhitdinova, kichik xodim, "Mahalla va oila" ilmiy-tadqiqot instituti, Toshkent
N.M.Egamberdiyeva, direktor, "Mahalla va oila" ilmiy-tadqiqot instituti, Toshkent

Annotatsiya. Ushbu maqola oilada bolalarga nisbatan zo'ravonlikning sabablarini chuqur tahlil qiladi. Maqolada psixologik, ijtimoiy-iqtisodiy, oilaviy va madaniy omillar ko'rib chiqiladi. Muallif xalqaro va milliy qonunchilik, statistik ma'lumotlar va ilmiy tadqiqotlarga asoslanib, muammoning ko'p qirrali tabiatini ochib beradi. Maqolada zo'ravonlikning oqibatlarini, nazariy yondashuvlar va oldini olish strategiyalari muhokama qilinadi. Xulosa qismida kompleks yondashuvning zarurligi va kelajakdagi tadqiqotlar uchun yo'nalishlar ta'kidlanadi.

Key words: gender equality, stress, drugs, violence, alcohol, individual, prevention, social support.

Аннотация. Данная статья представляет глубокий анализ причин насилия над детьми в семье. В статье рассматриваются психологические, социально-экономические, семейные и культурные факторы. Автор, опираясь на международное и национальное законодательство, статистические данные и научные исследования, раскрывает многогранную природу проблемы. В статье обсуждаются последствия насилия, теоретические подходы и стратегии профилактики. В заключении подчеркивается необходимость комплексного подхода и намечаются направления для будущих исследований.

Ключевые слова: гендерное равенство, стресс, наркотики, насилие, алкоголь, личность, профилактика, социальная поддержка.

Abstract. This article provides an in-depth analysis of the causes of child abuse in the family. The paper examines psychological, socio-economic, family, and cultural factors. The author, drawing on international and national legislation, statistical data, and scientific research, reveals the multifaceted nature of the problem. The article discusses the consequences of violence, theoretical approaches, and prevention strategies. The conclusion emphasizes the need for a comprehensive approach and outlines directions for future research.

Kalit so'zlar: gender tengligi, stress, giyohvandlik, zo'ravonlik, spirtli ichimliklar, individual, profilaktika, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash.

Oilada bolalarga nisbatan zo'ravonlik murakkab va ko'p qirrali muammo bo'lib, u ijtimoiy, madaniy, iqtisodiy va psixologik omillarga chuqur bog'liq. Bu hodisa, afsuski, butun dunyoda keng tarqalgan va bolalarning jismoniy va ruhiy salomatligiga, shuningdek, umuman jamiyatga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Oilada bolalarga nisbatan zo'ravonlikning asosiy sabablarini tushunish samarali oldini olish va aralashuv strategiyalarini ishlab chiqish uchun juda muhimdir.

Ota-onalarning ruhiy kasalliklari ham bolalarga nisbatan zo'ravonlik xavfini oshirishi mumkin. Sidebotham va Golding (2001) tomonidan o'tkazilgan tadqiqot shuni ko'rsatdiki, depressiyaga chalingan onalar bolalarga nisbatan shafqatsiz munosabatda bo'lish xavfi yuqori. Shunga o'xshab, shaxsiyat buzilishlari yoki posttravmatik stress buzilishi (PTSD) bo'lgan ota-onalar ham o'z bolalariga nisbatan zo'ravon xatti-harakatlarga ko'proq moyil bo'lishlari mumkin (Ehrensaft va boshqalar, 2015).

Oilaviy omillar ham bolalarga nisbatan zo'ravonlikning paydo bo'lishida muhim rol o'ynaydi. Eng muhim omillardan biri ota-onalarning o'zlarining bolalikdagi zo'ravonlik tajribasi hisoblanadi. Thornberry va boshqalar (2012) tomonidan o'tkazilgan tadqiqot shuni ko'rsatdiki, bolaligida o'zlari shafqatsiz munosabatga uchragan ota-onalar o'z bolalariga nisbatan shafqatsiz munosabatda bo'lish ehtimoli yuqori. Bolalarni tarbiyalash ko'nikmalarining etishmasligi ham muhim xavf omili hisoblanadi. Bolalar rivojlanishi va samarali tarbiya usullari haqida etarli bilim ega bo'lmagan ota-onalar bolalar xulq-atvorini nazorat qilish usuli sifatida zo'ravonlikka murojaat qilishlari mumkin.

Er-xotin o'rtasidagi munosabatlardagi muammolar ham bolalarga nisbatan zo'ravonlikka hissa qo'shishi mumkin. Oilaga nisbatan patriarxal qarashlar ham bolalarga nisbatan zo'ravonlikka hissa

qo'shishi mumkin. An'anaviy gender rollari va oilaning avtoritar modellari ustunlik qiladigan jamiyatlarda bolalar ota-onalarning mulki sifatida qaralishi mumkin, bu esa shafqatsiz munosabatni oqlashga olib kelishi mumkin (Lansford va boshqalar, 2014). Bu jamiyat darajasida gender tengligini va bolalar huquqlarini ilgari surishning muhimligini ta'kidlaydi. Oilaning ijtimoiy izolyatsiyasi ham bolalarga nisbatan zo'ravonlik xavf omili hisoblanadi. Ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va jamoat resurslaridan ajralgan oilalar bolalarga nisbatan zo'ravonlikka ko'proq moyil bo'ladi (Coulton va boshqalar, 2007).

Spirтли ichimliklar va giyohvand moddalarni suiiste'mol qilish ham oilada bolalarga nisbatan zo'ravonlikning muhim xavf omili hisoblanadi. Walsh va boshqalar (2003) tomonidan o'tkazilgan tadqiqot shuni ko'rsatdiki, spirтли ichimliklar yoki giyohvand moddalarni suiiste'mol qiladigan ota-onalar o'z bolalariga nisbatan shafqatsiz munosabatda bo'lish ehtimoli yuqori.

Stress va hayotiy qiyinchiliklar ham bolalarga nisbatan zo'ravonlikning paydo bo'lishida muhim rol o'ynaydi. Oilada bolalarga nisbatan zo'ravonlikning oldini olish uchun ushbu muammoning turli jihatlarini qamrab oladigan kompleks choralar zarur. Ota-onalar uchun ta'lim dasturlari zo'ravonlikning oldini olishda muhim rol o'ynaydi. Xavf guruhidagi oilalarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash ham zo'ravonlikning oldini olishning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

Zo'ravonlik holatlarini erta aniqlash keyingi zararining oldini olishda muhim rol o'ynaydi. Bu kontekstda bolalarni himoya qilish tizimlari va shafqatsiz munosabat shubhasi to'g'risida majburiy hisobot berish muhim rol o'ynaydi. Masalan, AQShning barcha 50 shtatida bolalarga nisbatan shafqatsiz munosabat shubhasi to'g'risida ma'lum mutaxassislardan xabar berishni talab qiladigan majburiy hisobot qonunlari mavjud (Child Welfare Information Gateway, 2019).

Qurbonlar va tajovuzkorlarga psixologik yordam ko'rsatish ham bolalarga nisbatan zo'ravonlik muammosini hal qilishning kompleks yondashuvining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Travmaga yo'naltirilgan kognitiv-xulq terapiyasi (TF-CBT) zo'ravonlikka uchragan bolalarni davolashda samaradorligini ko'rsatdi va avlodlararo zo'ravonlik uzatilishining oldini olishga yordam berishi mumkin (Cohen va boshqalar, 2012).

Shuni ta'kidlash muhimki, oilada bolalarga nisbatan zo'ravonlik qurbonlar uchun jiddiy qisqa muddatli va uzoq muddatli oqibatlariga olib keladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, zo'ravonlikka uchragan bolalarda ruhiy kasalliklar, jumladan, depressiya, xavotir, posttravmatik stress buzilishi va shaxsiyat buzilishlari rivojlanish xavfi yuqori (Norman va boshqalar, 2012).

Bolalarga nisbatan zo'ravonlikning uzoq muddatli oqibatlari kattalar hayotida yurak-qon tomir kasalliklari, diabet va semizlik kabi surunkali kasalliklar xavfining oshishi ko'rinishida namoyon bo'lishi mumkin (Felitti va boshqalar, 1998). Salbiy bolalar tajribasi (ACE) tadqiqoti bolalikdagi shafqatsiz munosabat tajribasi va katta yoshdagi sog'liq va farovonlik uchun turli salbiy oqibatlar o'rtasida kuchli bog'liqlik mavjudligini ko'rsatdi.

Bundan tashqari, bolalarga nisbatan zo'ravonlikning iqtisodiy oqibatlari sezilarli. Fang va boshqalar (2012) tomonidan o'tkazilgan tadqiqotga ko'ra, AQShda bolalarga nisbatan shafqatsiz munosabatning yangi holatlari bilan bog'liq umr bo'yi iqtisodiy xarajatlar taxminan 124 milliard dollar deb baholangan. Bu xarajatlarga sog'liqni saqlash xarajatlari, mehnat unumdorligining yo'qotilishi, jinoiy odil sudlov tizimi xarajatlari va maxsus ta'lim xarajatlari kiradi.

Tadqiqotlar, shuningdek, aralashuvlarni ishlab chiqishda madaniy kontekstni hisobga olish muhimligini ko'rsatadi. Bir madaniyatda zo'ravonlik deb hisoblangan narsa boshqa madaniyatda tarbiyaning maqbul amaliyoti sifatida qaralishi mumkin. Shuning uchun bolalarga nisbatan zo'ravonlikning oldini olishga madaniy jihatdan sezgir yondashuvlarni ishlab chiqish muhimdir, bu mahalliy me'yorlar va amaliyotlarni hisobga oladi, ammo shu bilan birga bolalarning huquqlari va farovonligini himoya qiladi.

Xulosa qilib aytganda, oilada bolalarga nisbatan zo'ravonlik murakkab va ko'p qirrali muammo bo'lib, uni hal qilish uchun kompleks yondashuvni talab qiladi. Zo'ravonlik sabablarini, individual psixologik omillardan tortib keng ijtimoiy va madaniy kontekstlargacha tushunish samarali profilaktika va aralashuv strategiyalarini ishlab chiqish uchun juda muhimdir.

Bolalarga nisbatan zo'ravonlikka qarshi kurashda xalqaro hamkorlik va mamlakatlar o'rtasida ilg'or tajribalar almashish ham muhim rol o'ynaydi. "Bolalarga nisbatan zo'ravonlikni tugatish

bo'yicha global hamkorlik" (Global Partnership to End Violence Against Children) kabi global tashabbuslar xalqaro darajada harakatlarni muvofiqlashtirish va bilimlar almashinuviga yordam beradi.

Esda tutish kerakki, bolalarga nisbatan zo'ravonlikning oldini olish - bu nafaqat bolalar huquqlarini himoya qilish masalasi, balki jamiyat kelajagiga investitsiya hamdir. Xavfsiz va qo'llab-quvvatlovchi muhitda o'sgan bolalar kelajakda sog'lom, samarali va mas'uliyatli kattalar bo'lish ehtimoli yuqori, bu esa tinchroq va farovon jamiyat yaratilishiga hissa qo'shadi.

Shunday qilib, oilada bolalarga nisbatan zo'ravonlik muammosini hal qilish jamiyatning barcha darajalarida - individualdan global darajagacha doimiy sa'y-harakatlarni talab qiladi. Faqat kompleks, ilmiy asoslangan va g'amxo'r yondashuv orqali biz har bir bola xavfsizlik, sevgi va hurmatda o'sishi mumkin bo'lgan dunyoni yaratishga umid qilishimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Bowlby, J., 1969. Attachment and loss: Vol. 1. Attachment. New York: Basic Books.
2. Bronfenbrenner, U., 1979. The ecology of human development: Experiments by nature and design. Cambridge, MA: Harvard University Press.
3. Masten, A.S., 2001. Ordinary magic: Resilience processes in development. American Psychologist, 56(3), pp.227-238.
4. National Child Abuse and Neglect Data System (NCANDS), 2019. Child Maltreatment 2018. Washington, DC: U.S. Department of Health & Human Services, Administration for Children and Families, Administration on Children, Youth and Families, Children's Bureau.
5. Norman, R.E., Byambaa, M., De, R., Butchart, A., Scott, J. and Vos, T., 2012. The long-term health consequences of child physical abuse, emotional abuse, and neglect: a systematic review and meta-analysis. PLoS Medicine, 9(11), p.e1001349.

UO'K 372.881.111.1

INGLIZ TILINI MAXSUS MAQSADLARDA O'QITISHNING MAZMUNI VA MOHIYATI

N.B.Po'latova, katta o'qituvchi, Toshkent ijtimoiy innovatsiya universiteti, Toshkent

Annotatsiya. Mazkur maqolada ingliz tilini maxsus maqsadlarda o'qitishning mohiyati yoritib berilgan. ESPning tarixiy rivojlanish jarayoni ochiqlash orqali masalaning mohiyatiga nazar solingan.

Kalit so'zlar: ingliz tilini maxsus maqsadlarda o'qitish, nofilologik ta'lim yo'nalishi, yondashuv, o'zgaruvchan xususiyat, mutlaq xususiyati, til ko'nikmalari.

Аннотация. В этой статье объясняется суть преподавания английского языка для специальных целей. Раскрывая исторический процесс развития ESP, была рассмотрена суть вопроса.

Ключевые слова: преподавание английского языка для специальных целей, нефилологическое образовательное направление, подход, вариативная черта, абсолютная черта, языковые навыки.

Abstract. This article explains the essence of teaching English for special purposes. By revealing the historical development process of ESP, the essence of the matter was looked into.

Key words: teaching English for special purposes, non-philological educational direction, approach, variable feature, absolute feature, language skills.

Barchamizga ma'lumki, yurtboshimiz tashabbuslari bilan so'nggi yillarda mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning ustuvor yo'nalishlariga hamda xalqaro standartlar talablariga mos keladigan oliy ta'lim tizimini yaratish bo'yicha keng ko'lamlı ishlar amalga oshirilmoqda. Hududlarda yangi oliy ta'lim muassasalarining tashkil etilishi, kadrlar tayyorlashning zamonaviy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari hamda sirtqi va kechki bo'limlarning ochilishi, oliy ta'lim muassasalariga qabul kvotalarining oshirilishi mazkur yo'nalishdagi muhim islohotlar hisoblanadi. Xalqaro til miqyosida ingliz tilining rivojlanishi, ayniqsa, ilmiy izlanishlar, adabiyotlar ingliz tilida ko'plab paydo bo'lishi, zamonaviy sohalarga oid ilmiy terminlarning asosiy qismi ingliz tiliga oid so'zlar egallaganligi talabalarining ingliz tilini nechandon o'qimog'i kerakligini asoslaydi. Zotan, ingliz tilining mavqeyi oshib borar ekan barcha soha vakillarining ushbu tilini o'rganmog'i

zaruratini keltirib chiqaradi. Nofilologik ta'lim yo'nalishi talabalariga ingliz tilini maxsus maqsadlarda o'qitish (ESP) orqali talabalarning kommunikativ kompetensiyasi bilan birgalikda kasbiy kompetensiyasi ham shakllanadi. Bu esa bo'lajak mutaxassislariga kelgusi faoliyatida ulkan imkoniyatlar beradi. I.M. Tuxtasinovning fikricha: "Talabalarning chet tilini o'rganishga bo'lgan qiziqishini shakllantirish, lug'at, ma'lumotnoma va asl matnlar bilan ishlash qobiliyatlari va bilimlarini rivojlantirish, zarur bo'lgan grammatik materiallarni tizimlashtirish, kasbiy matnlarni to'g'ri tushunish va badiiy tarjima mahoratini rivojlantirish bugungi kun talabidir". Nofilologik yo'nalish talabalariga ESP qanchalik zarurligini isbotlashdan oldin. ESPning tarixiy rivojlanish jarayonini va hozirgi kundagi holatini qisqacha bayon etsak.

Asosiy qism. Ikkinchi jahon urushidan so'ng nofilologik ta'lim yo'nalishlarida ingliz tilini maxsus maqsadlarda o'qitish, (English for specific purposes, ESP) ommalasha boshladi. Bunga sabab esa Amerika Qo'shma Shtatlarining ijtimoiy-iqtisodiy yuksalishi hamda u yerda fan va texnika taraqqiyotining jadallashuvi ingliz tilining xalqaro til sifatidagi nufuzini oshirdi. Shuningdek, Amerika sanat asarlari: filmlari va qo'shiqlarining jahon miqyosida ommalashuvi hamda amerikacha madaniyatning ingliz tilida aks ettirilishi ingliz tilini o'zlashtirishga dunyo xalqlarining qiziqishlarini uyg'otdi. XX asrning 60-yillariga kelib ingliz tilini maxsus maqsadlarda o'qitish bo'yicha bir qator ilmiy izlanishlar natijasida ta'lim sohasida yangi metodlar ishlab chiqila boshladi. 1990-yillarga kelib ingliz tilini maxsus maqsadlarda o'qitish va o'rgatish masalalari faollashdi. Jumladan, A. Uoters, T. Dadli-Evans, T. Xatchinson, M. Sent-Djon, L. Entoni, J. Meggi, D. Karter, K. Greyvs, X. Bastyrkmen, S. Savingtonlar kabi tilshunoslar ushbu yo'nalishda chuqur izlanishlar olib bordi. Ta'kidlab ketish joizki, ingliz tilini maxsus maqsadlarda o'qitish yuzasidan nafaqat Yevropa mamlakatlari olimlar, balki Sharq mamlakatlari olimlari ham ushbu soha bilan keng shug'ullana boshladilar. Bugungi kunda esa yurtimiz olimlari tomonidan ushbu yo'nalish bo'yicha chuqur izlanishlar olib borilmoqda hamda katta natijalarga erishilmoqda.

Uslublar. ESPga ko'plab ta'riflar berilgan bo'lib. Ba'zi odamlar ESPni ingliz tilini har qanday maqsadda o'rgatish deb ta'riflashsa, boshqalar esa akademik tadqiqotlarda qo'llaniladigan ingliz tilini o'rgatish yoki ingliz tilini kasbiy yoki professional maqsadlarda o'rgatish deya ta'kidlashadilar, yana ba'zilar esa ingliz tilini aniq maqsadlarda o'rganadigan ingliz tilini bilmaydiganlar uchun ingliz tilini o'rgatish sifatida tasvirlaydilar. Hutchinson & Waters ESPni til o'qitishga yondashuv sifatida qaraydi, unda mazmun va uslub bo'yicha barcha qarorlar o'quvchilarning o'rganishdagi sabablariga asoslanadi deya ta'kidlaydi. Robinson esa ESPni ta'lim, o'qitish va amaliyotni o'z ichiga olgan va bilimning uchta asosiy realizmiga, ya'ni til, pedagogika va talabalar/ishtirokchilarning qiziqish sohasiga asoslangan jarayon sifatida ko'radi. Richards va Rodger ESPni aniq rollarni (masalan, talaba, muhandis, hamshira) amalga oshirish uchun ingliz tiliga muhtoj bo'lgan va mazmun hamda haqiqiy bilimga ega bo'lishi kerak bo'lgan o'quvchilarning til ehtiyojlarini qondirishga intiladigan harakatlar umumlashmasi sifatida qaraydi.

Natijalar. ESP ning batafsil ta'rifi Strevens tomonidan berilgan bo'lib, u ESPni maxsus maqsadli til o'qitishning umumiy toifasining alohida holati sifatida ta'riflagan. Bundan tashqari, u ESP ta'rifi to'rtta mutlaq va ikkita o'zgaruvchan xususiyatni farqlash uchun zarurligini aniqladi. ESP ning to'rtta mutlaq xususiyati ingliz tilini o'qitishdan iborat bo'lib, ular:

1. o'quvchilarning o'ziga xos ehtiyojlarini qondirish uchun dizayn;
2. muayyan fanlar, kasblar va faoliyatlar bilan bog'liq;
3. sintaksis, leksika, nutq, semantika va hokazolarda ushbu faoliyatga mos tilga va ushbu nutqni tahlil qilishga qaratilgan;
4. Umumiy ingliz tiliga farqlanadi.

Ikki o'zgaruvchan xarakteristikalar ESP bo'lishi mumkin, lekin bu shart emas:

1. o'rganiladigan til ko'nikmalari cheklangan (masalan, faqat o'qish);
2. hech qanday oldindan belgilab qo'yilgan metodika bo'yicha o'qitilmagan.

Dadli-Evans esa Strevens tomonidan taqdim etilgan ESP ta'rifini "Umumiy ingliz tilidan" farqli ravishda ESP bo'lgan mutlaq xususiyatlarni olib tashlash orqali sezilarli darajada yaxshiladi va o'zgaruvchan xususiyatlar sonini qayta ko'rib chiqdi hamda oshirdi. Shunday qilib, Dadli-Evans tomonidan berilgan mutlaq va o'zgaruvchan xususiyatlar ta'rifini ko'rib chiqsak:

Mutlaq xususiyatlar:

1. ESP o'quvchilarning maxsus ehtiyojlarini qondirish uchun belgilangan;
2. ESP o'zi xizmat qiladigan fanning asosiy metodologiyasi va faoliyatidan foydalanadi;
3. ESP grammatika, leksika, registr, o'rganish ko'nikmalari, nutq va janr nuqtai nazaridan ushbu faoliyatga mos tilga qaratilgan.

O'zgaruvchan xususiyatlar:

1. ESP ma'lum fanlar bilan bog'liq yoki ular uchun mo'ljallangan;
2. ESP muayyan o'qitish holatlarida umumiy ingliz tilidan boshqa metodologiyadan foydalanishi mumkin;
3. ESP, ehtimol, oliy o'quv yurtida yoki professional ish sharoitida katta o'quvchilar uchun mo'ljallangan, biroq bu o'rta maktab darajasidagi o'quvchilar uchun bo'lishi mumkin;
4. ESP odatda o'rta yoki yuqori darajadagi talabalar uchun mo'ljallangan;
5. Ko'pgina ESP kurslari til tizimlari bo'yicha ba'zi bir asosiy bilimlarni o'z ichiga oladi.

ESPning eng asosiy jihati shundaki, til o'rgatuvchi dasturlarni ishlab chiqishda qabul qilingan har qanday qaror o'quvchilarning ingliz tilini o'rganish ehtiyojlariga bog'liq bo'lishi kerak. Shuningdek, ESPdagi "maxsus" (specific) so'zi ushbu sohaning rivojlanishi bilan birga turli xil talqinlarga ega. Masalan: 1960-yillarda mazkur so'z ma'lum bir soha yoki kasbning texnik lug'ati ro'yxatini anglatardi. 1980-yillardan boshlab hozirgi davrgacha ushbu so'z o'quvchilarning ehtiyojlari va qiziqishlarini bildiradi.

Muhokama. Berilgan ta'riflarga asoslanib, ESP o'quvchilarni ingliz tilidan akademik, professional yoki ish joyida foydalanishga tayyorlashni anglatadi deya olishimiz mumkin. ESPda ingliz tili o'z maqsadi yoki umumiy ta'lim olish uchun emas, balki kirish yo'lini yoki muayyan muhitda til samaradorligini oshirish uchun o'rganiladi.

Dadli-Evans tomonidan berilgan ta'rif uchta mutlaq va beshta o'zgaruvchan xususiyatdan iborat bo'lib, ESP aniq bir intizom bilan bog'liq bo'lishi mumkin bo'lgan tushunchani ifodalaydi, lekin u ma'lum bir yosh guruhiga yoki qobiliyat oraliqiga qaratilgan bo'lishi shart emas. Bu shunchaki o'qitishga yondashuv yoki Dadli-Evans "aql munosabati" (attitude of mind) sifatida tasvirlangan narsa sifatida ko'rish kerak. Bu Xatchinson va Uoters (1987, s.19) tomonidan taklif qilingan taxminga o'xshash bo'lib, u ESP til o'rgatishning yondashuvi bo'lib, unda mazmun va uslub bo'yicha barcha qarorlar o'quvchining o'rganish sababiga asoslanadi.

ESPdagi "maxsus" so'zining ma'nosi ESP qoidasini til o'qitishga yondashuv sifatida ko'proq tasdiqlaydi, unda o'quvchining o'rganishga bo'lgan ehtiyojidan kelib chiqqan holda mazmun va uslub qo'llaniladi. Boshqacha qilib aytganda, o'quvchilar o'rganayotgan tilning tabiatini emas, balki tilni o'rganadilar. Binobarin, yondashuv sifatida ESP odatda til o'rganuvchilarga tilning xususiyatlarini yengishda yordam berish yoki o'quvchilar ingliz tilini o'zlashtirmoqchi bo'lgan fan, kasb yoki ish joyida ishlash uchun zarur bo'lgan kompetensiyalarni rivojlantirish uchun yordam beradi.

Hozirgi kunda yurtimizda ingliz tilini oliy ta'lim darajasida o'rgatish kontekstida, xususan, nofilologik yo'nalish talabalari uchun ESP yondashuvi keng tarqalgan. Bu esa ingliz tilini bilmaydigan talabalar uchun ingliz tilidan akademik va kasbiy maqsadlarda, ayniqsa, o'quv ishlarida darsliklarini o'qish uchun foydalanish qobiliyatini shakllantirishda samaralidir. Bu shuni anglatadiki, ingliz tilini o'qitishda o'qish qobiliyati talabalarga o'z sohalarida samarali o'rganishga yordam berish uchun eng katta ahamiyatga ega. Shuningdek, Hutchinson & Watersning ta'kidlashicha, talaba uchun oliy ta'lim tizimida eng keng tarqalgan maqsad ingliz tilida maxsus adabiyotlarni o'qishdir. Ta'lim jarayonida asosiy e'tibor o'qish strategiyalari kabi umumiy muammolarni qamrab oladigan umumiy kurs mazmuniga qaratilgan bo'ladi. Shu maqsadda ular yana tushuntiradilarki, natijada o'qitish jarayonida o'qish strategiyalarini o'qitishga e'tiborni asl materiallardan foydalangan holda o'rgatish va auditoriyadagi nutqda ingliz tilidan foydalanishga e'tibor qaratish bo'yicha konsensus mavjuddir. Grammatika o'rgatish akademik matnlarni tushunish uchun zarur bo'lgan minimal asosga asoslanadi. Shu sababli, ushbu yondashuvga asoslanib, ingliz tilini o'qitishda hatto o'qish ham eng ko'p ta'kidlangan mahorat bo'lib, boshqa til qobiliyatlari, xususan, gapirish, tinglash va yozishda til komponentlari kiritilgan holda amalga oshirilishi lozim. Shunday qilib, tadqiqotimiz shuni

ko'rsatdiki, ESP tushunchasining paydo bo'lishi va rivojlanishi tadrijiy taraqqiyot natijasi bilan chambarchas bog'liq. ESP - bu ma'lum bir fan sohasida mutaxassislarining adekvat va samarali muloqotini ta'minlashga qaratilgan ingliz tilini o'qitishning bir shakli.

Xulosa qiladigan bo'lsak, ingliz tilini maxsus maqsadlarda o'qitish mazmuni, agar u talabalarning haqiqiy ehtiyojlari, mavjud talablari va shakllangan hayotiy dasturiga javob bersa, ular uchun zarur deb hisoblanishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Basturkmen, H. (2006). Ideas and options in English for specific purposes. New Jersey: Lawrence Erlbaum Associates, Inc., Publishers p.18
2. Choudhary Z. J. English for specific purposes: role of learners, teachers and teaching methodologies European Scientific Journal July 2015 edition vol.11, No.20 ISSN: 1857 – 7881 (Print) e - ISSN 1857- 7431 Department of Foreign Languages, Taif University, Taif, Saudi Arabia 7-p
3. Dudley-Evans, T & St John, M J. (1998). Development in English for Specific Purposes. Cambridge: Cambridge University Press, page 1; Smoak, R.
4. Harmer, J. (2007). The practice of English language teaching. China: Pearson Education limited.
5. Hutchinson T. and Waters A. English for specific purposes: a learning-centered Approach, Cambridge university press. Cambridge 1987.
6. Hutchinson, T & Waters, A. (1987). English for Specific Purposes, A Learning-centered Approach. Cambridge: Cambridge University Press. p.19
7. Mackay, R. & Mountford, A. (Eds.). (1978). English for Specific Purposes: A case study approach. London: Longman.
8. Richards, J. C. & Rodger, S.T. (2001). Approach and Methods in Language Teaching. USA. Cambridge. Cambridge University Press. p.107
9. Robinson, P. C. (1991). ESP Today: Practitioner's Guide. New York: Prentice Hall. p.1
10. Strevens, P. (1988). ESP after twenty years are appraisal in ESP State of the Art. SEAMEO Regional Language Center
11. Strevens, P. (1988). ESP after twenty years are appraisal in ESP State of the Art. SEAMEO Regional Language Center. p.2
12. Tukhtasinov.I.M., Kholiyorov.B.H. Features of the System of Formation of Compensatory Competence Among Agricultural Students as a Means of Filling in Professional Terminology. International Journal of Innovative Technology and Exploring Engineering (IJITEE) ISSN: 2278-3075, Volume-8 Issue-11, September 2019. P-2203-2206. <https://www.ijitee.org>.

UDC 378.1:811

THE IMPORTANCE OF COMMUNICATION SKILLS IN ENGLISH LANGUAGE EDUCATION

N.N.Rakhmatullaeva, student, Tashkent region Chirchik Pedagogical University, Chirchik

Annotatsiya. *Ingliz tilini o'qitishda muloqot qobiliyatlarining ahamiyati haqida qo'shimcha ma'lumotga ega bo'lish uchun men ushbu maqolani o'qishni tavsiya qilaman. Ushbu kompetensiyalar ijtimoiy integratsiya, ilmiy taraqqiyot, kasbiy yutuqlar va shaxsiy o'sish imkoniyatlariga mumkin bo'lgan ta'sirni hisobga oladi. Muloqot tilni o'zlashtirishning boshlang'ich bosqichi hisoblanadi va bizning til mahoratimizning asosiy o'lchovi hisoblanadi. Bundan tashqari, siz ingliz tilidagi muloqot qobiliyatlarining ahamiyati va ularni takomillashtirish usullari haqida qo'shimcha ma'lumotga ega bo'lishingiz mumkin.*

Kalit so'zlar: *ijtimoiy integratsiya, ilmiy taraqqiyot, kasbiy muvaffaqiyat va shaxsiy rivojlanish.*

Аннотация. *Чтобы лучше понять значение коммуникативных навыков в преподавании английского языка, я рекомендую прочитать эту статью. Эти компетенции учитывают потенциальное влияние, которое они могут оказать на шансы на социальную интеграцию, научный прогресс, профессиональные достижения и личностный рост. Считается, что общение является начальным этапом овладения языком, а также основным показателем наших языковых навыков. Кроме того, вы сможете получить дополнительные знания о значении коммуникативных способностей на английском языке, а также о методах их улучшения.*

Ключевые слова: *социальная интеграция, научный прогресс, профессиональный успех, личностное развитие.*

Abstract. *To gain further insight into the significance of communication skills in English teaching, I recommend reading this article. These competences take into account the potential impact they may have on chances for social integration, scientific progress, professional achievement, and personal growth. Communication is believed to be the initial stage of language acquisition and is also considered the main measure of our language skill. Furthermore, you can acquire further knowledge regarding the significance of English communication abilities, as well as techniques for improving them.*

Keywords: *social integration, scientific advancement, professional success, and personal development.*

Introduction. Proficient communication abilities are crucial for acquiring and mastering the English language. The true proficiency of a language can only be determined through engaging in conversation. Within the realm of English language instruction, communication skills encompass several facets of both verbal and non-verbal communication, encompassing speaking, listening, reading, and writing. Developing proficient communication skills in English is crucial for students to efficiently navigate many academic, social, and professional contexts. Furthermore, this article will provide information on this particular skill to assist students in enhancing their proficiency in English communication.

As the popularity of this language increases, so does the number of people learning and applying for it on a daily basis. Language learning has the capacity to impact both our financial and spiritual circumstances and state, even without broadening our worldview. This can have a significant impact on our profession and income, particularly. This can also have an impact on the individuals in our vicinity and our local community to a certain extent. Simultaneously, acquiring proficiency in other languages can enhance your self-assurance.

Research methodology: The importance of communication skills in English language education with different effective ways.

The importance of communication skills in english language education

1. Analyzing to improve interpersonal relationships- Proficient communication abilities are crucial for establishing and sustaining interpersonal connections. Students who possess effective communication skills, including articulate self-expression and careful listening, are able to establish significant connections with both their classmates and teachers. Participating in class activities such as group projects and debates necessitates students to engage in collaboration, negotiation, and the articulation of their thoughts, hence fostering the growth of teamwork and mutual respect. Simultaneously, it enhances the capacity to articulate thoughts confidently and smoothly in the presence of an audience.[1]

An example: Within the context of a collaborative endeavor focused on safeguarding the environment, students are required to engage in deliberations and allocate responsibilities. Individuals possessing proficient communication abilities are able to effectively articulate their thoughts, attentively engage with others, and establish agreement, hence guaranteeing the accomplishment of projects. In addition to enhancing self-esteem, students will also acquire specific knowledge on appropriate public behavior and effective conversation initiation and management.

Result: During team discussions, one might observe instances where individuals are not hesitant to openly share their thoughts and ideas, and gradually get more comfortable and proficient in doing so

2. Analyzing enhance Academic Achievement- There is a strong correlation between academic achievement and communication talents. High-achieving children often have the capacity to investigate, participate in discussions, and express their ideas with clarity and effectiveness. These skills empower individuals to actively and deeply engage with the subject matter and gain benefits from feedback that improves their understanding.

An example: When a teacher shares information on a given subject with a student who already has knowledge in that area, the existing knowledge, understanding, and competence will combine,

leading to the expansion of the student's knowledge and the broadening of their worldview. As a result, the student will become a highly skilled expert in their selected area of expertise.[2]

